



GULQIZ



•SHARQ• NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2006


82.3(3) ФОЛЬКЛОР —
ЭРТАК

Nashrga tayyorlovchi

Amir Fayzulla

1032010
29

Gulqiz: Jahon xalqlari ertaklari/Nashrga tayyorlovchi A. Fayzulla/«Jahon xalqlari ertaklari». — T.: “Sharq”, 2006. — 224 b.



BBK. 83.34

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahriri, 2006

RUMIN XALQ ERTAKLARI



SAVODXON HAYVONLAR

Ha, qadimda nimalar bo‘lмаган дэйсиз! Hayvonlarning odamlarday yashagilari kelibdi, ular ham o‘zlarining qonun-qoidalari bo‘lishini, kim kimga boshlig‘-u kim kimga tobe — belgilab olishni istashibdi. Mana shu barcha gaplar qayd etilgan yozma yorliq ya’ni buyruq ato etishni xudodan iltijo qilishibdi.

Xudo shunday buyruqni yozib, bo‘riga havola etibdi, uning o‘zini hayvonlarga bosh hukmdor etib tayinlabdi.

Bo‘ri ham tashvishda qolibdi: o‘zi bir o‘rmon yirtqichi bo‘lsa, bunday muhim hujjatni qayerda va qanday asraydi? O‘rmonda qanaqangi voqeа-hodisalar sodir bo‘lmaydi. “Hujjatni itga topshiraman, ming qilsa ham u qishloqda, hovlida yashaydi. Shundagina yo‘qolmay, yaxshi saqlanadi”, — deb o‘ylabdi bo‘ri va yorliqni itga topshiribdi.

Biroq it ham yorliqni o‘zida uzoq tutib turmabdi. “O‘zingga ehtiyot bo‘l, qo‘shningni o‘g‘ri tutma, degan gap bor, — o‘ylabdi u. — Men hovlida yashayman, ko‘chaga kirib-chiqib turishim bor. Hujjatni mushukka beray, u har doim uyda, odamlar oldida yashaydi. Shunda xotirjam yurasan, kishi”. U yorliqni mushukka havola qilibdi.

Mushuk hujjatni olib qolibdi, hammasi ham mayli-yu, bir chatoqligi bor ekan-da: shumtaka bolalar sira unga kun berishmaskan. Ko‘zga tashlanishi bilan tiraqaylatib quvib ketisharkan. Bir kuni bechorani shunaqangi o‘rtaga olishibdiki, qayoqqa qochishini bilolmay qolibdi, oldinda gulxan gurillab yonib turraqna, shartta ustidan

sakrab o'tib ketibdi. Shunda mushuk yorliqni olovgaga tushirib yuboribdi — uni dumining tagida olib yurarkan-da. Yorliq kuyib kul bo'libdi.

O'shandan beriga ahvol shu ekan: bo'ri itga yov, it mushukka yov. Hammasiga sabab la'nati yorliq ekan.

Mushukni ko'rди deguncha it tishini tirjaytirib irillarkan:

— Yor-r-rliqni ber-r-r! Yor-r-rliqni ber-r-r!

Mushuk esa yunglarini hurpaytirib, aftini bujmaytirib, xurillab-vishillab javob qaytararkan:

— Tur-r-r nari, yondi-yov! Tur-r-r nari, yondi-yov!

QIZILISHTON HANGOMASI

Aytiшlaricha, qizilishton eng avval hozirgiday ~~o'shush omas~~ burundor xotin bo'lgan ekan. Bu **A**ytiшlarichaqt burni katta odamlarnigina atashmaydi, balki bo'lar-bo'lmasga birovlarining ishiga burnini tiqaveradigan, hech kim to'g'risida yaxshi gap gapirmaydigan, to'g'ri kelgan odamni yomonlayveradigan, hech kimning xayolida yo'q g'iybatlarni to'qib tashlayveradigan kishilarni ham shunday atashadi.

Kunlarning birida xudo turli-tuman qurt-qumursqalar, qo'ng'izlar, pashshalar, hasharotlar, xullas yer yuzida nimaiki mayda jondor bo'lsa hammasidan to'plab bir qopga joylabdi. Qopni lim to'ldirib, og'zini mahkam bog'labdi-da, bu zararkunanda jondorlarni dengizga cho'ktirib yuborish uchun kimni yuborsam ekan, deb bosh qotira boshlabdi. Oxiri shunday odamni topibdi ham, u bog'iga burundor bir xotinni chaqirtiribdi, uning bog'i juda ham ko'rimli bo'lib, anvo gullar-u xilma-xil daraxtlar to'lib-toshib yotarkan. Shunday qilib haligi xotinni chaqirtiribdi-da, unga qopni tutqazib, shunday debdi:

— Ma, ol buni, qopni dengizga olib borgin-da, suvgaga tashlab cho'ktirib yubor. Ammo uni zinhor ocha ko'rma, ichida nima bor ekan deb qiziqma! Yo'qsa shunday musibatga giriftor bo'lasanki, umrbod qutulmaysan. Tushundingmi?

— Nega tushunmas ekanman! Jonimda qasdim bormi? Yo biror marta aytganiningni qilmaganmidim? Men unaqalardan emasman. Qanday aytgan boo'lsang, bekam-y ko'st ado etaman. Yolg'on gapirsam, qahringga yo'liqay!

— Barakalla. Endi buyrug'imni bajarishga kirish.

Xotin xo'pam xudoning aytganlarini bajaribdiki, yoqa ushlamay ilojingiz yo'ql! Kelib-kelib xudoning topgan odamini ko'ring!

Xotin qopni orqalabdi-da, o'z yo'liga ketibdi. Uzoqqa ham bormay, undagi qiziqish ortgandan ortibdi, qopda nima bor ekan deb shunchalik ko'rgisi kelibdiki, sira o'zini tiyib turolmabdi. "Balki durustroq narsadir bu? Suvga tashlash qochmaydi. Bir chekkasini ochib qarayman-u, darrov berkitaman", — deb o'yabdi u. Xotin to'xtabdi, qopni yerga qo'yibdi, og'zini yechishini biladiki, qopning ichidan uchuvchi va o'rmalovchi mingminglab jondor chiqib kela boshlabdi-ku! Qo'ng'izlar, pashshalar, qurtlar, qumursqalar erkinlikka chiqishlari bilan shosha-pisha qochib berkinishga tushib ketibdi. Ba'zilari o'tlar orasiga, ba'zilari yer tagiga, yana bir xillari daraxt po'stlog'i orasiga urib keta boshlabdi. To'g'ri-da, qachon meni qayta qopning ichiga solarkin deb qarab o'tiradigan ahmoq bor ekanmi!

Qo'rqib ketib burundor xotin o'zini u yoqqa uribdi, bu yoqqa uribdi, rosa ovora bo'libdi. Endi ularning hammasini qanday terib oladi? Anchasini tutib qopga joylabdi ham, lekin bu dengizdan tomchi ekan. Noiloj boqqa qaytib kelishga majbur bo'libdi va gunohi uchun xudodan kechirim so'rabdi. Xudo unga qarab debdi:

— Nima qilib qo'yding, ahmoq xotin! Endi sen

burundor qush qizilishtonga aylanasan. Bor, qo'yib yuborgan hasharotlarni bitta qo'ymay tutgin-da, qopga joyla, bordi-yu, tutolmasang, qushligingcha qolib ketasan!

Qizilishton shu tariqa bino bo'lgan, deyishadi odamlar.

Qizilishton na organni biladi, na bir nafas tek turishni. Uzun tumshug'i bilan o'rmonlarda, bog'larda daraxtga to'q-to'q urib turli qo'ng'izlarni, qurtlarni, hasharotlarni tutar, hali zamon hammasini terib olib qopga joylayman-u, yana qadimgiday burundor xotinga aylanaman deb harakat qilar ekan. U biron ta daraxtni qoldirmay hammasini kavlab chiqarkan, ayniqsa po'stlog'i g'ovak va tanasi kavak daraxtlarni hafsala bilan tozalar ekan. Shu kunlargacha ham u hasharot tutarkan, hasharotlar esa ko'paysa ko'payar ekan-ki, sira kamaymas ekan.

ILYANA KOSINZYANA

Oppoq soqolli Qorbobo hali barhayot bo'lgan juda qadim zamonlarda bir podsho bo'lgan ekan. Boshqa hamma podsholarga o'xshab bu ham g'oyat badavlat ekan. Uning Ionitse degan o'g'li bo'lib, laqabi Fet-Frumos ekan, shundan ko'rinish turibdiki, u nihoyatda botir va xushsuvarat bo'lgan. Ionitse xursandchilikni yaxshi ko'rarkan, o'yin va qo'shiqlar, musiqa tinglash uning jon-dili ekan, ayniqsa otlarga ishqibozligi oldida bular hammasi hech narsaga arzimay qolarkan. U tez-tez podshoning otboqarlariga qo'shilib otlarni o'tlatgani yaylovga chiqib turar ekan. Shuni aytishi kerakkim, o't va yo'ng'ichqalari belga uradigan eng yaxshi yaylov ko'l yaqinidagisi ekan. Ko'lni Jodugarlar ko'li deb atasharkan. Goh-goh ko'ldan bir gala jodugar odamlarga ko'rinish berib qo'ygani qirg'oqqa chiqib turarkan.

Kunlarning birida Ionitse otboqarlar bilan otlarni o'tlatgani o'sha yaylovga boribdi. Ionitse qirg'oq chekkasiga cho'zilibdi-da, ko'p o'tmay uxbab qolibdi, otboqar esa otlarga qaragani ketibdi. Bir vaqt ko'l chayqalib, qirg'oqqa bir jodugar qiz chiqib kelibdi — u shunaqangi sohibjamol ekanki, bunaqasini yigit birinchi ko'rib turishi ekan. U Ionitsenening oldiga kelibdi, uni quchoqlab turib debdi:

— Uyg'onsang-chi, jon do'stim!

Ionitse uyg'onmasmish. Qiz yig'lay boshlabdi, cho'lp-cho'lp o'pibdi, yigit esa dong qotib uxbayveribdi. Jodugar undan arazlab ko'lga qaytib tushibdi va suv ostiga kirib ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Otboqar otlarni o'tlatib bo'lib, Ionitseni uyg'otibdi va ular otlariga minib uyga ketishibdi. Yo'lga otboqar jodugar qizlar haqida so'zlab beribdi. Ionitse o'zining nega uyg'onolmaganidan qattiq hayratga tushibdi.

Ertasiga ular yana yaylovga yo'l olishibdi. Ionitse uxbab qolmaslikka harakat qilsa ham, shirin uyqu elitaveribdi. Uyqu boldan ham ishirin emassi. Axir bekorga xalq orasida "Uyqu sherni ham yiqitibdi", degan gap yurmaydi-da.

Yana haligi jodugar qiz ko'ldan chiqib kelibdi, Ionitseni uyg'otmoqchi bo'lib quchib o'pibdi, quchib o'pibdi, biroq sira uyg'otolmabdi. Yig'lab-yig'lab yana ko'lga qaytib ketibdi va suv tagiga kirib ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Otboqar hammasini ko'rib turarkan. U ham Ionitsenening uyg'onmaganidan qattiq taajjublanibdi. Uni uyg'otibdi-da, uyga yo'l olishibdi, yo'lda bor gapni Ionitsega hikoya qilib beribdi.

Uchinchi kuni yana ular yaylovga kelishibdi. Ionitse uxbab qolmaslik uchun qirg'oqda u yoqdanbu yoqqa yura boshlabdi. Jodugar qizning suvdan chiqib kelishini uzoq poylabdi. Shunda uning ko'ngliga, maysazorga yotib poylasam-chi, degan fikr kelibdi. Buni qarangki, uyqu qachon va qan-

day elitganini o'zi ham bilmy qolibdi, yotgan joyida u tosh qotib uxbab qolibdi. Ko'ldan jodugar qiz chiqib kelibdi-da, yana oldingiday yigitni quchib-o'pib uyg'otishga harchand urinsa ham bo'lma badi, yigit bulk etmabdi, jodugar qiz nima qilishini bilmay yum-yum ko'z yoshi to'kibdi. Oxiri baribir uyg'otolmasligiga ko'zi yetgandan keyin:

— Endi kelmayman, — debdi.

U Ionitsening barmog'idan uzugini yechib olibdi-da, o'zining barmog'iga taqibdi. Barmog'idagi a'lo sifatli uzugini yechib, yigitning barmog'iga taqibdi-da, ko'lga qaytib borib, suv ostiga kirib ketibdi.

Biroz vaqtadan keyin otboqar kelib Ionitseni uyg'otibdi va hozirgina bo'lib o'tgan voqealarni miridan sirigacha so'zlah beribdi. Hayratdan Ionitse aqlini yo'qotayozibdi. Barmog'iga qarasa, rostdanam begona uzuk turgan mish, uzukda quyidagi jumla bitilgan mish: "Ilyana Kosinzyana, zulfizar qiz, sochlariga ajib navolar taratuvchi gullar taqilgan, navolar sadosi to'qqiz saltanat naridan mahliyo etadi".

Yozuvni o'qib Ionitse uzoq o'ylanib o'tirmabdi, uyiga yo'l olibdi. Uyga kelib bisotidagi hamma boylikni kambag'al odamlarga bo'lib beribdi. Oyog'iga yeylimaydigan temir choriq tiktirib olibdi-da, po'lat hassani qo'liga tutgancha qaydasan Ilyana Kosinzyana deb keng dunyo bo'y lab sayohatga chiqib ketibdi.

U avval singlisiga uylangan kuyovining oldiga kelib, undan so'rabdi:

— Mabodo Ilyana Kozinzyana haqida hech nima eshitganing bormi?

— Yo'q, eshitmaganman, — deb javob beribdi kuyovi.

Keyin Ionitse o'rtancha singlisiga uylangan kuyovining oldiga borib, Ilyana Kosinzyana degan qiz haqida biron narsa bilish-bilmasligini so'rabdi.

— Men qayoqdan bilay? — javob beribdi u. — U to'g'risida faqat cho'pchaklar to'qishadi, xolos.

U uchinchi kuyovi — katta singlisining eri oldiga kelib so'radi:

— Sen ko'pni ko'rgan, oq-qorani tanigan odamsan, balki Ilyana Kosinzyana haqida u-bu eshitgandirsan?

— Shu paytgacha birorta odamning Ilyana Kosinzyanani borib ko'rganini eshitganimcha yo'q, uning qayerda yashashini bilmayman ham, — javob beribdi kuyovi. — Yaxshisi issiq o'rningnisovutmay uyingga qayt, behuda shuhrat qozonish ko'yida yosh umringni yelga sovurma.

Ionitse hech nima deb javob qaytarmabdi-yu, lekin qandaydir g'am yuragini zimdan kuydirayotganini sezibdi. Gapini cho'zib o'tirmay, kuyovi bilan apil-tapil xayrlashibdi-da, yo'lga tushibdi. Necha tog'-u toshlarni, necha bog'-u rog'larni ortda qoldiribdi, qalin o'rmonlar-u ko'm-ko'k o'tloqlardan o'tibdi. Yo'lda uchragan odam borki, surishtirib ketaveribdi, ammo ulardan birontasi Ilyana Kosinzyana haqida tayinli gap aytolmabdi.

"Endi menga Ilyanasiz yorug' olamda yashash tatirmidi? Nima bo'lsa bo'ldi, oyog'im tagidagi yer qayerda tugasa, osmondag'i quyosh qayerda botsa, o'sha yergacha qidirib boraman", deb qaror qilibdi Ionitse o'zicha.

U yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, xayoliga esa faqat Ilyana ekan. Goho unga Ilyana shundoq ro'parasida turganday, uni imlab chaqirayotganday bo'lar, biroq hushini to'plab qarasa, aldanayotganini, unga shunday tuyulayotganini anglab qolarkan.

Bir vaqt qarshisidan bir tog' chiqibdi, u toqqa ko'tarila boshlabdi, xayolida esa hamon Ilyana ekan. Tog'ning qoq cho'qqisiga chiqib qarasa, nari-gi tomonda qop-qora g'or ko'rini turganmish. U yerlarga faqat kun botish paytidagina quyosh nurlari tusharkan. Ionitse g'orga kiribdi-da, ketaveribdi, ketaveribdi, oyog'i tagida va yon-verida vishillab yurgan turli ilonlar-u yirtqich hayvon-

lardan o'zga u yerda biron ta tirik odamzot uchramabdi. Lekin Ionitse zarracha qo'rqmabdi.

Keyin uzoqdan shu'la ko'zga chalinibdi va Ionitse o'sha tomonga qarab yuribdi. Jadallab borib qarasaki, butun safari davomida sira bunaqasini ko'rmagan bir tegirmon emish. Quturgan daryodan shiddat bilan oqayotgan qop-qora mumday suv tegirmon charxini shunaqangi tez aylantirayaptiki, xuddi uchib ketayotgandaymish.

Ionitse shunaqangi quvonib ketibdiki, qo'ya-verasiz! U tegirmon ichkarisiga kiribdi, lekin boshqa tegirmonlarga o'xshab bu yerda odamlar ko'rinnasmish. Ionitse o'ngga qarabdi, chapga qarabdi va o'sha yerda bir cholga ko'zi tushibdi. Chol shunchalik keksayib, kuchdan qolgan ekanki, hatto qovog'ini ko'tarishga ham majoli yetmay, uni ilmoq bilan ko'tarib ocharkan. U tegirmonga bir o'zi qarar, do'lidan shuvillab tushib turgan bug'doy paydaripay tortilib turganidan unlarni bazo'r qoplarga joylab ulgurarmish.

— Assalomalaykum, bobo! — debdi Ionitse cholga.

— Vaalaykum, ballil — javob beribdi chol. — Xo'sh, bolam, qanday shamol uchirdi? Shu paytgacha bu tegirmonga biron banda oyoq bosmagandi.

— Shundoq, o'zim. Axir odam musofir bo'lma-guncha bir narsani tushunarmidi, to'qqiz dengiz, to'qqiz mamlakat oshib, dunyo ko'rishi, achchiq-chuchukni tatishi kerak. Shundayin men butun dunyoni kezib chiqdim, lekin qidirgan narsamni topa olmadim, so'rasam, hech kim aytib berolmadi. Balki, bobo, siz menga yordam berarsiz? Ko'rinishdan yoshingiz dunyo yoshi bilan baravarga o'xshaydi, shunday emasmi?

Chol ilmoq bilan qovog'ini ko'tarib ko'zini oshib yigitga qarabdida, nima kerakligini so'rabdi.

— Bobo, Ilyana Kosinzyana degan qiz haqida hech eshitganmisiz?

— Mana shu tegirmomonning egasi-da. Bitta uning o'ziga kunda tegirmon tortaman. Xudo bermish kuni to'qqizta qush uchib keladi, har birining yelkasida to'rt qopdan bug'doy bo'ladi, men esa shuncha bug'doyni ertalabgacha un qilib qo'yishim kerak.

Ionitse birdan dadillashih, badaniga kuch quyilib kelibdi. Chol bilan u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tiribdi va qalinlashib olibdi. Keyin Ionitse tegirmonni o'zi tortib, unni qoplarga joylashtirishini so'rabdi. Chod dam olganidan xursand bo'lib, qoplarning ustiga cho'zilibdi, turgan gapki, azbaroyi toliqqananidan darrov pinakka ketibdi. Ionitsega xuddi shunisi kerak ekan. Qoplarni tezda unga to'ldiribdi-da, bitta qopga o'zi kirib yashirinib, ichidan tikib olibdi. Shu orada qudratli qushlar qiy-chuv, chag'-chug' qilib uchib kelishibdi va cholni chaqirib:

— Un qani? — deb so'ray boshlashibdi.

Chol uyqudan bazo'r uyg'onibdi, qovoqlarini ko'tarib u yoq-bu yoqqa alanglabdi — boyagi yosh yigitcha yo'qmish. Hamma ish yana cholning o'ziga qolibdi. Uyqusi chala bo'lganidan qoplar go'yo ikki baravar og'irlashganday bo'lib, zo'rg'a o'rnidan qo'zg'atar, inqillay-sinqillay qushlarning yelkasiga qo'yar ekan. Qushlar qanday to'satdan paydo bo'lgan bo'lsa, o'shanday shiddat bilan qaytib uchib ketishibdi. Chol esa qolgan uch-to'rt kunlik umrini ham bir amallab o'tkazish uchun tegirmonda qolaveribdi. Ammo yosh yigitcha qayerga g'oyib bo'ldiykin, daryoga cho'kib ketdimikan yoki erkin qush yana o'z galasiga qo'shildimikan, deb bechora cholning rosa boshi qotibdi.

Aslida Ionitse to'rt muchali soppa-sog', ishonchli joyda ekan. Qudratli qushlar Ilyana Kosinzyanining qoshiga uchib kelishibdi-da, qoplarni bakovulga topshirishibdi. Bitta qopning og'zini ochib, ne ko'z bilan ko'rsinki, ichida Ionitse yotganmish. Ionitse qop ichidan chiqib kelganda

bakovulning qanchalik yuragi yorilganini bir ko'rganiningizda edil

— Yo tavba, qopga qanday kirib qolding, ayt-sang-chi, xudo xayringni bergur! — deb so'rabdi u yigitchadan.

— Tuya ko'rdingmi — yo'ql — debdi Ionitse va unga: "Ilyana Kosinzyana, zulfizar qiz, sochlari ajoyib navo taratuvchi gullar taqilgan, navo sadosi to'qqiz mamlakatdan mahliyo etadi" degan gaplar yozilgan uzukni ko'rsatibdi.

Shundan so'ng bakovul jim bo'lib, Ionitseni o'zinikida olib qolibdi.

Bakovulning Ilyana Kosinzyanaga non pishiradigan vaqt kelibdi — u mana shu bakovuli pishirgan nondan boshqa nonni og'ziga olmas ekan. Ionitse bakovulga qarab debdi:

— Kel, nonni men pishiray, ko'rasan, qanaqangi shirin non qilar ekanman!

— Mayli, — deb rozi bo'libdi bakovul.

Ionitse yenglarini shimarib ishga tushib ketibdi, hamir qoribdi, ildam-ildam zuvala qilib, pechkaga tiqibdi. Bakovul tayyor bo'lgan nonni pechkadan sug'urib olibdi-yu, og'zi lang ochilib qolibdi: nonmisan non bo'libdi o'ziyam!

Bakovul nonni ko'tarib Ilyana Kosinzyanaga olib boribdi, qiz nonni qo'liga olar-olmas darrov so'rabdi:

— Bunday ajoyib shirin nonni kim pishirdi?

— Boshqa kim ham bo'lardi, o'zim pishirdima, — deb javob beribdi bakovul.

Hamma nonlar pishgandan keyin bakovul yana nonga unnay boshlabdi. Yana Ionitse bakovulning o'rniga novvoylik qilib, oldingidan besh baravar chiroyli va shirin non pishiribdi. Nonlarning tobo-ra shirin bo'lib pishayotganidan Ilyana uzoq vaqt-gacha hayratdan og'zi ochilib qolibdi.

Bakovul esa nonlarni yetkazib ulgurolmasmish. Bu yoqda pechkadan olindi demaguncha u yoqda talash-talash bo'lib ketaveribdi. Bunga ajablan-

masa ham bo'ladi: yaxshi non hech qachon uvol bo'lmaydi, uvog'igacha yeyilib ketadi.

Xullas, bakovulning qo'li qo'liga tegmay non pishirishga to'g'ri kelibdi.

Sevinganidan Ionitsening yuragi hapriqib, o'zini qo'ygani joy topolmay qolibdi. U uchinchi marta non pishirishga kirishibdi. Shunda u bir zuvala ichiga Ilyana Kosinzyananing uzugini joylabdi-da, pechkaga tiqibdi.

Baqovul nonni Ilyanaga olib boribdi. U nonni o'rtasidan ikkiga bo'lgan ekan, jingirlab ichidan uzuk tushibdi. Ilyana uni qo'liga olib, o'z uzugini darrov tanibdi va:

— Nonni kim pishirdi? — deb soso'rabdi.

Bakovul mujmallik bilan u deb, bu deb gapni aylantira boshlabdi va oxiri bo'limgaganidan keyin uni Ionitse pishirganini aytibdi.

Ilyana to'xtovsiz Ionitsega odam yuborib, uni o'z uyiga chaqirtiribdi. Qiz yigitni ko'rib, quchoqlabdi va unga zar bilan tikilgan yangi ko'ylak berishlarini buyuribdi, chunki egnidagisi juda kirlab ketgan ekan.

Oradan ikki hafta o'tgach, Ilyana bilan Ionitse nikohdan o'tishibdi va shunaqangi quvnoq to'y qilib berishibdiki, dovrug'i yetti iqlimga yetibdi.

To'ydan keyin Ionitse Ilyanadan hamma kalitlarni olib olibdi. Shu bilan u barcha hujralar, xobgoхlar, omborlarning yagona xo'jayiniga aylanibdi. Faqat tagxonaning kalitini berishga Ilyana una-mabdi.

Ko'p kunlar o'tibdi, Ionitsening tagxonada nima borligiga bo'lgan qiziqishi tobora ortibdi. U qaylig'idan kalitni astoydil so'ragan ekan, Ilyana ortiq yalintirib o'tirmay uning qo'liga kalitni tutqazibdi. Ionitse borib eshikni ochibdi va ichkari-ga mo'ralabdi. Bir vaqt qulog'iga bochka ichidan chiyillagan ovoz chalinibdi, ovoz eshikni kattaroq ochishni so'rarmish. Ionitse darhol eshikni lang ochib yuboribdi, shu zahoti bochkaning hamma bel-bog'i uchib tushib, ichidan kattaligi naq tog'day

keladigan ilon chiqib kelibdi-yu, to'g'ri Ilyana Kosinzyanaga tashlanibdi. Uni tutib olibdi-da, to'qqiz saltanat naridagi maskani tomon ko'tarib jo'nabdi.

Ionitse ko'zlaridan shashqator yosh to'kkancha qolaveribdi — ko'z yoshi bilan g'amni aritib bo'larkanmi. U yana Ilyana Kosinzyanani qidirishga majbur bo'libdi. Oyog'iga temir choriq kiyibdi, qo'liga po'lat hassa tutibdi va keng olam bo'y lab sayohatga chiqibdi. U yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, goh-goh to'xtab, o'yga ham tolarkan, biroq ming o'ylagan bilan koshki o'y odamga do'st bo'lsa — bo'lar ish bo'lgan, hammasiga o'zi aybdor ekan, birovdan o'pkalashga o'rin yo'q.

Uzoq sarsonlik-sargardonlikdan keyin u Avliyo Jumagulnikiga yetib kelibdi va eshigini taqillatibdi, chunki bu xotinning shunaqa ishi arosatda qolib, boshiga g'am tushganlarga yordam berishini bilar ekan-da, Avliyo Jumagul shunday debdi:

— Yaxshi niyatda kelgan bo'lsang, kir, yordamimni ayamayman, yomon niyatda kelgan bo'lsang, tezda qorangni o'chir, yo'lingdan qolma.

— Men yaxshi niyatda kelganman, — javob beribdi Ionitse.

Avliyo Jumagul uni ichkariga qo'yibdi va ne yumush bilan keluvding deb surishtira ketibdi. Ionitse boshidan o'tganlarni oqizmay-tomizmay so'zlab beribdi. Avliyo Jumagul vujudi qulooqqa aylanib uning hikoyasini tinglabdi-da, go'yo "Ahmoq oyog'idan to'zir" deganday bir qiyofada yigitga uzoq tikilib qolibdi. Keyin tasalli bergen ohangda yupatganday debdi:

— Hech qisi yo'q, xafa bo'lma! Ma, mana bu no'sh piyozni olgin, vaqt kelib senga asqotar.

Ionitse tuhfani olibdi-da, yo'lida davom etibdi. U yo'l yuribdi, ko'p saltanatlardan oshib o'tibdi, ko'z ilg'amas kengliklarni ortda qoldiribdi, buncha yo'l yurish na menga nasib qilgan, na sizgal! Bir vaqt qarasa, bir uy turganmish, uy ustida

qarg'alar aylanib uchib yurganmish, atrofda bo'rilar ulib, odamni dahshatga solarmish.

Ionitse uyga kiribdi, uyda uni oyoqlari otning tuyog'idan, tishlari po'latdan, tirnoqlari o'roqday qayrilgan bir jodugar kampir qarshi olibdi. Ionitsega ko'zi tushib, u qanday shamol uchirgani ni surishtira ketibdi. Ionitse sizga xizmatkorlikka, otingizni boqqani keldim, deb javob qaytaribdi.

— Bo'pti, — debdi kampir. — O'zi menga senday bir dastyor juda zarur edi. Mening xizmatimni qilib yurasan, bor-yo'q qiladigan ishing yolg'izgina biyamni kechqurunlari o'tlatib kelasan, — debdi.

Ular shunga kelishibdi. U zamonlarda uch kun bir yilga yurar ekan. Ionitse bir yil nima degan gap, axir yuz yil emas-ku, deb o'zicha mulohaza qilgan bo'libdi.

Mana, kech ham tushibdi. Kampir biyani olib chiqibdi va o'tlatgani Ionitsega topshiribdi. Biyaga yaxshi qaraysan, bordi-yu uddasidan chiqmasang, boshing ketadi, deb qattiq tayinlabdi. Ionitse biyaga minib, yaylovdan shamolday yeldirib ketibdi. Avliyo Jumagul bergen no'sh piyozni ham o'zi bilan olibdi. Shundayin ot qo'yib ketayotgan ekan, qarshisidan bir oyog'ini sindirib olgan bir polopon uchrabdi. Ionitse uni ko'rib o'q-yoyi bilan mo'ljalga ola boshlagan ekan, birdan polopon tilga kirib, yalina ketibdi:

— O'ldirma meni, undan ko'ra oyog'imni bog'lab qo'y, vaqt kelib bir kuningga asqotarman!

Ionitsening poloponga rahmi kelib, uning oyog'ini bog'lab qo'yibdi va yo'lida daom etibdi. Yaylovga yetib kelgandan so'ng qo'ldan chiqarishga ko'zi qiymay biya ustidan tushmabdi. O'tirgan joyida mudrab pinakka ketibdi, biya esa o'zi o'tlab yuraveribdi. Birpasdan keyin ustidagi yigitni bir tosh ustiga tushirib qo'yibdi-da, o'zi qushga aylanib, boshqa qushlar galasiga borib qo'shilibdi va o'sha yerda xushon sayray boshlabdi.

Ionitse ertalab turib qarasaki, u bir tosh ustida

o'tiribdi, qo'lida yugan, biyadan esa nomi-nishon yo'q. U achchiq-achchiq yig'labdi, sochini yulibdi, shunchalik alam-anduh bilan kuyinib yig'labdiki, hatto qushlar ham sayrashdan to'xtabdi.

Shu top qarshisida haligi oyog'ini bog'lab qo'ygan polopon paydo bo'libdi va unga qarab debdi:

— Kuyinma, biya hech qayoqqa ketmaydi, o'zi keladi oldingga!

Polopon sehrli ekan, barcha qushlarga sayrashni va oralarida begona yerdan uchib kelib qolgan qush bormi-yo'qmi, bilishlarini buyuribdi. Hamma qushlar baravariga sayray boshlashgan ekan, ovozidan begona qush darrov ma'lum bo'libdi. Uni Ionitsening oldiga olib kelishibdi. Yigit qushni ko'rishi hamon boshiga yuganni kiydiribdi va debdi:

— Obbo jodugarning biyasi-ey! Qani, qushlingning tashlab, darrov ilgarigiday biya holingga qayt!!

Qush biyaga aylanibdi, Ionitse irg'ib minibdi va ko'z ochib yumguncha jodugarning uyiga yetib kelibdi.

Jodugar biyani ko'rishi hamon jahli chiqqanidan shang'illab, dunyoni boshiga ko'taribdi, aylantirib rosa kaltaklabdi, agar yana qo'lga tushsang, sog' qo'ymayman, deb po'pisa qilibdi.

Ertasiga Ionitse tag'in biyani minib, yaylovga jo'nabdi. Bu safar uning ro'parasidan, bilasizmi, nima chiqibdi? Bir qo'lini lat yedirgan uzunqulqoq quyon chiqibdi. Ionitse uni urib olmoqchi bo'lib yoyining kerishini obdon tortib turgan ekan, quyon tilga kirib shunday debdi:

— Otma, undan ko'ra qo'limni bog'lab qo'ysang-chi, biron kun kelib bir koringga yarab qolarman!

Ionitse uning qo'lini bog'lab qo'yibdi va jonivorni orqasidan silab-siypab qo'yib yuboribdi.

Ionitse yaylovga kelib, biyani minganicha o'tlata boshlabdi, uqlab qolmaslik uchun bo'yniga

chakamug' solib olibdi. Qayoqda deysiz, dunyoda uyquday shirin narsa bor ekanmi, uyqu oldida chakamug' ham bir gap bo'ldi-yu! Ionitse tosh qotib uxbab qolibdi, biya uni tag'in yugani bilan tosh ustida qoldiribdi-da, quyonga aylanib, boshqa quyonlarga borib qo'shibdi va o'rmonda dikirlab o'ynay boshlabdi.

Ionitse uyg'onib qarasaki, biya tag'in qo'ldan chiqqan, ko'zlaridan daryo-daryo yosh oqizib, shunaqangi o'krab yig'lay boshlabdiki, tevarak-at-rofdagi dalalarda ham, qalin-qalin o'rmonlarda ham uning ovozi baralla eshitilibdi. Bir vaqt uning oldiga maymoq quyon sakrab-sakrab kelibdi-da, shunday debdi:

— Bu yogg'ini menga qo'yib ber, bizlar uni senga bir zumda topib beramiz!

Quyon shartta o'rmonga kiribdi-da, barcha quyonlarni bir joyga to'plabdi, hammasini birma-bir ko'zdan kechirib, begona quyonni tishidan tanib olibdi: uning tishi quyonniki emas, otniki ekan. Quyon kelgindi, hamjinsini shu talab-yumdalab ketibdiki, sho'rlik azbaroyi yuragi yorilganidan o'rmondan ura qochib qolibdi. Ionitse o'sha joyda poylab o'tirgan ekan, uni ko'rishi bilan tanbeh bera ketibdi:

— Obbo jodugarning biyasi-ey, nima qilarding quyonga aylanib? Qani, tez biyaga aylan-chi!

U quyonga Yuganni kiydirgan ham ekanki, quyon biyaga aylanibdi. Ionitse irg'ib minibdi-da, to'g'ri jodugarnnig qoshiga yo'rtdirib ketibdi. Jodugar bu paytda o'choqqa bir qozon suv osib qo'yan ekan. Suv vaqirlab qaynay boshlabdi, jodugarning niyati Ionitse uyga biyasiz qaytsa, shu suvgaga solib tiriklayin pishirish ekan. Biroq yigting biyani g'o'rqillatib minib kelayotganini ko'ribdi-yu, jon-poni chiqib ketibdi! Og'zimdan behos yomon so'zlar chiqib ketmasin deb so'yloq tishlari bilan tilini qattiq tishlabdi, churq etib og'iz ochmabdi. Ammo biya rosa undan ko'radi-ganini ko'ribdi! Jodugar kampir cho'g'day qizdiril-

gan temir xivich bilan to qora terga botguncha savalayveribdi, savalayveribdi, qo'yaverasiz! Keyin yana "Shunday yashiringinki, Ionitse seni ikki dunyoda ham qidirib topolmasin", deb qulog'iga quyibdi.

Uchinchchi kuni kechqurun Ionitse yana yaylovga jo'nabdi va yana biyaning ustida uxbab qolibdi. Biya bu gal endi keksa eman daraxtiga aylanibdi va o'rmon o'rtasiga borib o'rnashibdi. Ildizlarini shu qadar har tarafga uzoq yoyib yuborganidan bir ildizi ayni maymoq quyon uxbab yotgan joygacha cho'zilib boribdi va turtib quyonni uyg'otib yuboribdi. Cho'chib tushgan quyon yuragi yorilgudek bo'libdi va ahvolni darhol anglabdi.

U yoqda Ionitse ham uyg'onib qarasaki, tag'in biya gumdon bo'lgan. U ilgarigidan ham ko'proq qayg'uga botibdi. Endi jodugarning qo'liga tushganiga, omon qolmasligiga juda ko'zi yetibdi, joni shuning qo'lida ekaniga tan beribdi. Biroq kambag'alning ishini xudo o'nglasin deb xalq bejiz ayt-magan ekan. Shu topdayoq bir yoqdan sehrli qushcha, ikkinchi yoqdan cho'loq quyon yetib kelibdi-da, Ionitsega qarab shunday deyishibdi:

— Buncha o'zingni qiynaysan? Qo'lingda tayyor pishiqqina irg'ay tayog'ing bor, o'sha bilan o'rmondagi daraxtlarni bitta-bitta urib chiq, biyangni topasan!

Ionitse xuddi shunday qilibdi. Navbat keksa emanga kelib, aylantirib bitta solgan ekan, eman sapchib tushibdi. Ionitse jahl bilan shunday debdi:

— To'xta, jodugarning arzandasasi, darhol eman dan o'z holingga qaytib, biyaga aylan!

Eman biyaga aylanib, Ionitse ig'ib minibdi-da, uyiga qaytib kelibdi. Biyani ko'rib jodgar kampir jonining boricha tishlarini g'ijirlatgan ekan, tishlari mayishib, ayqash-uyqash bo'lib ketibdi.

Shunday qilib, roppa-rosa bir yil o'tibdi. Ionitse jodugarga debdi:

— Qalay endi, ko'ngildagiday xizmat qildimmi?

— Durust, — deb javob beribdi jodugar. — Endi kelishganimizday otxonaga kiramiz-da, o'zingga ot tanlaysan. Darvoqe, avval ovqatlanib ol, yo'qsa — rangingnii qara, ochlikdan sillang qurib ketayapti.

Ionitse ovqatlanib o'tirganda derazaga sehrli qushcha kelib qo'nibdi-da, shivirlab debdi:

— Eng orig qirchang'ini tanla!

Keyin Ionitse jodugar bilan otxonaga boribdi, bir-biridan chiroyli, beli ingichka, quloqlari chimirilgan arabi tulporlar tuyog'idan o't chaqnab, saf tortib turgan emish. Biri qashqa, biri saman biri jiyyron, biri chavkar, biri to'riq, eh-he, qay xilidan yo'q deysiz — hamma nasl, hamma zot otlari boquvdan chiqib, sovutilib, botir chavandoziga mahtal ekan. Jodugar tantilik bilan: "Tanla biring!" debdi.

Otxonaning eng to'rida qovurg'alari sanalgan, yungi hurpaygan, etsiz sag'risiga qo'ngan pashshani haydash uchun dumini silkishga ham madori yetmagan bir qirchang'i oyoqda zo'rg'qa turgan ekan.

— Ana shuni bera qol! — debdi Ionitse qirchang'ini ko'rsatib.

— Kelib-kelib bir otxona to'la arg'umoqlar ichidan senga qaldiragan teri bilan shaqirlagan suyakni ravo ko'ribmanmi? — debdi jodugar. — Boshqa birini ol, qanaqasini xohlaysan?

Ionitse o'shani berasan deb turib olibdi. Sira qo'yunganidan keyin kampir noiloj ko'nibdi.

Ionitse qirchang'ini olib chiqibdi, jodugar kampir bilan xayrlashibdi va yo'lga tushibdi. Qirchang'i jonivor shunchalik holdan toygan ekan-ki, hovlidan bazo'r chiqib olibdi.

Bunga afsuslanmasa ham bo'larkan. Gap shundaki, bu oddiy qirchang'i bo'lmay, xislatli hayvon ekan. Bir vaqt g'alati qilib bir kishnagan ekan, shu zahoti sehrli otga aylanibdi, vajohatidan ko'tarib, osmonga olib chiqib ketadigan siyoqli! Uning vujudida oz emas — ko'p emas roppa-rosa o'n to'rt

talok'i bor ekan, mana nima uchun u yulduzni ko'zlarkan!

Ionitse irg'ib arg'umoqqa minibdi-da, Ilyana-ning oldiga qanday borsam ekan, deb dilidan o'tkazganini biladi, bundoq qarasa ilon qasrinинг ro'parasida turibdi!

Bu paytda Ilyana quduqdan suv olib kelayotgan ekan, Ionitsega ko'zi tushib, yigitni darrov tanibdi va uni quchib o'pa ketibdi.

Fursatni o'tkazmay ikkalasi otga mingashibdi-da, shamoldek yelib ketishibdi.

Ilon shu zahoti xabar topib, sapchib otga o'tiribdi va qiz bilan yigitning orqasidan quva tushibdi. Quvib baribir yetolmasligini bilib, egangni irg'it, deb Ionitsening otiga qichqira boshlabdi. Buning uchun u otga, ichganing asalli sut, yeganing kish-mishli so'k bo'ladi, deb va'dalar beribdi. Ionitse ham bo'sh kelmabdi, ilonning otiga qarab, toza beda bilan boqib, tonggi shudringda cho'miltiram'an, debdi.

Ilon mingan ot bu gapni eshitib ustidan ilonni chirpirak qilib uchirib yuboribdi va tuyoqlari bilan toptab, ezb'ilab, majaqlab tashlabdi. Keyin bor kuchi bilan chiraniб quyunday yugurib ketibdi-yu, Ionitsening otiga yetib olibdi.

Ionitse o'tib ilonning otiga minibdi, Ilyana Kosinzyana esa uning otida qolaveribdi. Ular uzoq va mo'l yurishibdi, necha-necha sultanatlarni oshib o'tishibdi, nihoyat tanish uylar ko'rinishibdi. Bu yoqdan ikkalasi Ilyananing saroyiga kirib kelishibdi, u yoqdan to'y-tomoshani boshlab yuborishibdi. O'sha to'yda ko'ltagi barcha sehrgar parilar ishtirok etishibdi, ular o'ynashibdi, kulishibdi, qo'shiqlar aytishibdi — bunaqa xursandchilik va tantanani yer yuzida hali hech kim ko'rмаган ham, eshitmagan ham.

Agar ajallari yetib ikkla yosh dunyodan o'tib ketishmagan bo'lishsa, hoynahoy, hozir ham umruguzaronlik qilib yurishgandir-ov.

O'N IKKI VAZIR

Qachonlardir, juda qadim zamonda bir podsho o'tgan ekan, uning o'n ikkita o'ng qo'l-chap qo'l vazir-mahramlari bo'lgan ekan.

Kunlardan bir kun yozning ajoyib havosi borliqni go'zallikka to'ldirganda shoh izvoshga o'tiribdi-da, o'zining o'n ikki vazir-mahramlari bilan sayrga chiqibdi.

Ketaverishibdi, ketaverishibdi, bir vaqt qarashsa shundoq yo'l yoqasida, oftobning tig'ida bir chol qo'sh sudrab, makkajo'xorining tagini yumshata-yotgan emish. Jazirma issiqdan, kuchanib harakat qilganidan sho'rlik chol teriga shalabbo bo'lgan, dam-badam yuzini yengi bilan artar ekan.

Podsho cholning jonini jabborga berib ishlayotganini ko'ribdida, izvoshdan tushib to'g'ri uning oldiga boribdi. Shohning ketidan uzun-qisqa bo'lib vazirlar ham ergashibdi.

— Assalomalaykum, bobo! — debdi shoh.

— Vaalaykum assalom, hazratlari! — alik olibdi chol. U umrida ko'rmagani uchun shohni yuzidan tanimabdi.

— Bamisolgi yigitday g'ayrat bilan ishlar ekan-siz, bobo, umringizdan baraka toping!

— Xohlasak-xohlamasak g'ayrat qilishga majburmiz. Dehqonning qismatiga yozgani shu. Bosh bilan ishlashni siz janoblarga buyurgan, bizlarning rizqimizni esa yerga sochgan.

— Kuniga qanchadan olasiz shunda? — so'rishtiribdi shoh.

— Arzimagan chaqa — kuniga o'ttiz kreyserdan, hazratlari.

— Oz, oz, — debdi shoh.

— Oz-u, nachora, qanoat qilamiz. Shu pulning uchdan bir qismiginasini o'zimga ishlataman, bir qismini eski qarzlarimga to'layman, yana bir qismini foydaga beraman.

Cholning tagdor javoblaridan shoh hayron qolibdi, — ba'zi shohlarga o'xshab bu shoh laqma emas ekan-da, o'zi ham shunaqa ma'noli qilib gapirishga ishqiboz ekan. Ammo anavi vazirlaridan xudo saqlasin — g'irt! Bularning gaplaridan hech narsani anglashgani ham yo'q, durustroq qulog ham solishayotgani yo'q.

Shoh yana savolga tutibdi:

— Necha yildan beri qor angorga tushayapti, bobo?

— Oo'ttiz yildan beri, taqsir.

— Javoblariningizdan shu narsani angladimki, dono odam ekansiz, bobo. Shohga maslahatchi bo'lishga arzir ekansiz! Sizga yana bitta savol bera-man, agar shunga ham oqilona javob bersangiz, bo'yingizdan oltin to'kaman, shunda birovlarining dalasida omoch sudrab yurmaydigan bo'lasiz. Qulog soling bobo: mening o'n ikkita qo'yim bor, shularning yungini qirqolmay juda garangman-da. Ularni men sizning odingizga yuboraman, bir yo'li-ni topib, yunglarini qirqib bersangiz. Mana bu yung qaychini oling, hoynahoy sizda bo'lmasa ham kerak.

— Qaychi uchun minnatdorman, janobi oliylari, ularning menga hojati yo'q. Siz qo'ylarni yubor-sangiz bo'lgani, men yung qaychisiz ham boplab yunglarini qirqib, binoyidek qilib qo'man.

Shoh kulib qo'yibdi: mana buni javob desa bo'ladi!

— Ixtiyorningiz, bobo! Faqat bir narsani aytib qo'yay, men — shohman, mana bular — mening vazirlarim.

— Balki shundaydir, balki yo'q, bu dunyoda nimalar bo'lmaydi. Modomiki shohman, bular vazirlarim deyapsiz, xudoyim sizga uzoq umr bersin, martabangiz bundan ham ulug' bo'lsin! Faqat menday g'ariblarni esdan chiqarmasangiz bo'lgani, hazratlari!

Shoh chol bilan qo'l siqishib xayrlashibdi-da, yo'lida davom etibdi. Vazirlar esa kalondimog'lik

qilib, qo'l berib xayrashish uyoqda tursin, hatto bir og'iz xayr deb qo'yishga ham yaramabdilar.

Qaytishda ular qayoqdag'i isqirt dehqonlar bilan hamsuhbat bo'lish, boz ustiga ular bilan qo'l berib ko'rishish podshohdek zotlar uchun sira munosib emas, deb shohdan gina qila ketishibdi.

Shoh ularni qayrib tashlab debdi:

— Bu yerda kim dono-yu kim nodonligini keyin bilib olasizlar. Lekin sizlar nodon deb o'ylagan bu dehqon mening nazarimda eng dono odam ekan. Saroyda mashvarat chaqirganimda men uni albatta taklif qilaman. Qiyin ahvolga tushib qolganingda dono maslahat, o'h-o'h, qanday asqotmaydi! Sizlar bekorga gerdayasizlar, o'zlariningizni osmon chog'laysizlar, bilib qo'yinglar: agar bugungi gapning javobini sakkiz kun ichida topmasalaring, sizlarni vazir demayman. Qulog'ingizga qo'rg'o-shinday quyib oling: qonunlarni o'ylab topgan, hukm chiqargan odam nihoyatda dono va odil bo'lmos'i, imon-e'tiqod bilan ish tutmog'i lozim.

Vazirlar chuqur g'am va tashvishga cho'mgan holda tarqalishibdi, hammalari ko'ngillarida shoh bizni lavozimimizdan mahrum qiladi, degan xulosaga kelishibdi, chunki shoh bilan chol o'rtasida bo'lib o'tgan tagdor suhbatning ma'nosini chaqishga hech birining aqli yetmas ekan-da. Oxiri ular aybdorni qidirib topib, uning o'zidan so'rab bilishga qaror qilishibdi. Vazirlar to'planishib izvoshga o'tirishibdi-da, dehqon cholning ziyorati-ga shoshilishibdi. Dehqon hali ham o'sha dalada makkajo'xorining tagini yumshatish bilan ovora ekan. Bu gal vazirlar gerdayismabdi, dehqon cholga ochiq chehralik bilan salom berib, qo'lini olib ko'rishishibdi. To'g'ri-da, ishing tushib turgandan keyin o'ttiz ikki tishini ko'rsatib tirjayishga majbur bo'lar ekansan.

— Yaxshi qilibsiz, janob vazirlar! Hammangiz binoyidek olim odamsizlar — axir olim bo'lmasangiz sizni vazir qilarmidi! Qiziq, shundan shunga erinmay allaqanday bir isqirt, qo'sqi

dehqon choldan aql o'rgangani keldingizmi? Bu qanaqasi bo'ldi?

— Bo'ldi-da, endi, dehqon bobo! Juda odamga ta'na qilabermasangiz-chi! Bizlar o'z ishimizni bilamiz, siz o'z ishingizni, xuddi shundayin bir-birimizga yordam berishimiz kerak-da.

— Gapingiz to'g'ri, janob vazirlar, sizlar boysizlar, men esa kambag'alman, shuning uchun bir-birimizga yordam berishimiz, bir-birimizni qo'llashimiz kerak. Unday bo'lsa, gapimga quloq soling: sizlar joningizni qiynab o'tirmanglar-da, har biringiz menga bir-bir dukat olib kelib bering, men esa sizlarga hammasini miridan-sirigacha aytib beraman, bu yerda aytarlik chuqur hikmatning o'zi yo'q. Bilishimcha, patagingizga qurt tushganga o'xshaydi, lekin sizlarni abgor qilish niyatim yo'q. Demak, shunga kelishdik, sizlar menga ozgina himmat ko'rsatasizlar, bu sizlarga uncha malol kelmas deb o'ylayman.

Vazirlar juda arzon qutulganlaridan chunon quvonishibdiki, darrov uylariga borib, bir-bir dukat olib kelishibdi. Oltin tangalar yalt-yult qilib ko'zni olarkan.

Chol haqini oolibdi-da, tushuntira boshlabdi:

— Birinchi masala bunday edi: men o'ttiz kreyser maosh olaman, shunga ota-onamni ham ta'minlashim kerak, ya'ni eski qarzlarimni uzishim lozim. Bundan tashqari yana bolalarimni boqishim kerak, ya'ni bu pulimni foydaga qo'yganim bo'ladi.

Vazirlar eshitib, baqrayib qolishibdi.

— Ikkinci masala bunday edi: necha yilan beri angorga qor tushayapti? Podsho mening soch-soqolim qachondan oqara boshlaganini bilmogchi bo'ldi. Men unga o'ttiz yoshimdan deb javob qaytardim.

Chol jimib qolibdi. Vazirlar uning og'zini poylay boshlashibdi, biroq u boshqa miq etmabdi. Shunda o'zlarini tilga kirishibdi:

— Yaxshi, bobo. Xo'sh, qo'chqorlar masalasi-

chi? Podsho qo'chqorlarning yungini olib berasiz deb, sizga yubormoqchi bo'lди, qo'lingizga yung qaychini tutqazdi ham, siz esa olmadingiz. Shu gapning tagiga yetolmadik.

— Janobi vazirlar, sizga bir nima degani ham tilim bormaydi, uyalaman. Axir mundoq miyani ishlatsangiz, darrov topasiz-ku! — debdi chol.

Biroq vazirlar gapni darrov tushunadiganlar toifasidan emas ekan, og'ziga chaynab solsang ham yutishi amri mahol ekan.

— Nima bo'lsa bo'lди, aytaman! — debdi chol. — O'sha podsho menga yubormoqchi bo'lgan o'n ikki qo'y, janobi vazirlar, sizlarning o'zlarining bo'lasizlar. Menga yung qaychining hojati qolmadi, mana, o'zingiz ko'rib turibsizki, usiz ham sizlarning boplab yungingizni qirqib qo'ydim.

Vaziralarning yuzi cho'g'day qizarib ketibdi, apil-tapil chol bilan xayr-xo'sh qilishildi-yu, kaltak yegandan battar bo'lib uylariga tarqalishibdi.

Chol bo'lsa vazirlardan undirgan puliga yer sotib olibdi, uni kambag'allarga bo'lib beribdi, pullarini ulashib chiqibdi, ular uy qurishgan ekan, butun bir qishloq yuzaga kelibdi. Qishloqning otini podshoning o'n ikki vaziri haqida eslab yurish uchun Qo'ychivon deb qo'yishibdi. Podsho esa dehqon cholni unutib yubormabdi. Biron-bir masalani hal etish, xalqqa biron-bir savobli ishni bajarish lozim bo'lgan paytlarda dehqonni mashvaratga chorlar, o'z yonidan joy berib, izzat-hurmatini o'rniga qo'yar ekan.

Bu gaplar juda ko'p vaqtlar ilgari bo'lgan. Hozir unaqa emas. Cholni shoh saroyiga chaqirishmaydi, undan maslahat so'rashmaydi, endilikda uning na hurmati, na izzati qolgan. Faqat uni ezib ishlatalishni, kamsitib, xo'rslashni biladilar, bir og'iz shirin so'z aytishmaydi unga, faqat «dehqonboy» yo «qishloqi» deb piching qilishadi, xolos. Mana shunaqa gaplar!

KULBANDA-PETRU

Bor ekan-da, yo‘q ekan, qashshog‘-u nochor bir odam yashagan ekan. Boshqa serfarzand kambag‘allarday u ham jo‘jabirday jon ekan — oltita bolasi bor ekan. O‘sha oltita farzand kun sayin ulg‘ayishib, bir-biriga navbat bermay: «Dadajon, jo‘xori bo‘tqa yegim kelyapti! Dadajon, jo‘xori bo‘tqa bering!» deyishgani-deyishgan ekan. Bechora kambag‘al goh kunlari bunday qistovlarga chidolmay uydan bosh olib chiqqisi kelib ketarkan.

Kambag‘al bolalarini bir amallab oyoqqa turg‘a-zibdi, farzandlar xiyol oq-qorani taniydigan bo‘lisibdi, shundan keyin ota oqsoqol huzuriga borib, bolalari uchun yer berishni iltimos qilibdi. Kambag‘al ozroq makkajo‘xori, kartoshka, bir-ikki jo‘yak piyoz, yana u-bu ekib tirikchilik qilmoqchi bo‘libdi. Ajratib berilgan yer serunum, semiz bo‘lgani uchun, o‘g‘illar kechani kecha, kunduzni kunduz demay mehnat qilishibdi. O‘g‘illarning g‘ayratliliги, tinib-tinchimasligini ko‘rib kambag‘al nihoyatda xursand bo‘libdi. Ammo farzandlari ichida kenja o‘g‘li Petru ishyoqmas, tanbal ekan. U pechka orqasidagi kul uyumi yonida o‘tirib olib, kecha-yu kunduz saqich chaynagani chaynagan ekan.

Dastlabki uch yil mobaynida ular tomorqada makkajo‘xori, oshqovoq, kunjut, piyoz, kartoshka, turli ko‘katlar ekishibdi, to‘rtinchi yili yerga beda sepibdi, sababi boqqan sigirlari ikkita buzoq tuqqan bo‘lib, ularga o‘t kerak ekan.

Beda chunonam gurkirab o‘sibdiki, ko‘rib odamning ko‘zi quvonarkan, bunday bedapoya yaqin-atrofda hech kimda yo‘q ekan. Shamol turganda bedazor chayqalib, xuddi ko‘ldagi beshik-beshik to‘lqinlarni esga solarkan.

Kambag‘al har kuni kelib bedazorni tomosha qilar, qarab turib bahri dili ochilib ketar ekan.

Bir kuni kambag‘al kelib qarasa, bedapoyasi xuddi ot tuyoqlari bosib-yanchib o‘tganday boshidan oyoq payhon bo‘lib yotganmish.

Shunda kambag‘al to‘ng‘ich o‘g‘lini bedazorga yuborib, tun bo‘yi qorovulchilik qilishni, shunday ajoyib bedalarni kim vahshiyona ezib-toptashini aniqlashni topshiribdi.

To‘ng‘ich o‘g‘il bedazorga boribdi-da, otasi aytganday tun bo‘yi mijja qoqmay chiqibdi. Biroq tong otarda g‘aflat uyqusi g‘olib kelib ko‘zi ilinibdi.

Oftob yoyilib ketibdi hamki yigit hamon mast uyquda emish. O‘g‘li qaytavermaganidan xavotirlangan ota dalaga yo‘l olibdi. Borib qarasa, o‘g‘li tosh qotib uxlab yotibdi, bedazor tag‘in payhon bo‘lgan, bamisoli yilqi o‘tgandaymish.

Qattiq xafa bo‘lgan ota o‘zini qo‘yarga joy topolmay qolibdi, o‘g‘lini so‘kib do‘pposlay ketibdi:

— Betamiz! Ahmoq! Go‘rso‘xta! Kelib-kelib senga ishonibman-al! Bedazorga qara, betovfiq, shumi qo‘riqlaganing?! Hammang bir go‘rsan! Hayf senlarga qilgan mehnatim! Bir kecha uxlamasang bir narsa bo‘lib qolarmiding?

Kambag‘al ertasi kun ogshom ikkinchi o‘g‘lini, keyin uchinchi, xullas shu taxlit barcha o‘g‘illarini navbatma-navbat qorovullikka qo‘yibdi. Biroq o‘g‘illardan birontasi ham bedazorni yovuz maxluq hujumidan saqlab qololmabdi. O‘g‘illar har gal tongga yaqin uxlab qolishar, bedapoya battar top-talaverarkan.

Ota farzandlariga harchand tanbeh berib, qat-tiqqo‘llik qilmasin, baribir foydasi bo‘lmabdi, g‘aflatda qolib uyqu pand beraveribdi.

Nihoyat bedazorda qorovullik qilish navbati Petruga kelibdi. U pechka ortidagi doimiy joyini tark etib, onasining oldiga kelib depti:

— Oyijon, menga kuldan xamir qorib; non yopib bering, bir maqtanchoq, chiranchiq akalarimni boplay.

— Unday dema, esi past! — urishib beribdi ota. — Sening kul nonigga kimning ko‘zi uchib turibdi? Nima, o‘zingni akalaringdan dono hisoblayapsanmi?

— Dadajon, ont ichib aytamanki, bedazorni hech kimga toptaltirmay, yaxshilab qo'riqlab chiqaman, loaqal bir kecha qorovullik qilishimga ruxsat eting!

— Mayli, ruxsat berdim! — depti ota. — Faqat bilib qo'y: agar bedapoyani ezib-yanchiyotgan maxluqni bilolmasang, pechka ortidagi o'rningdan umrbod mahrum bo'ldim deyaver.

Onaizor o'g'liga kuldan xamir qorib, non yopib-di-da, Petru-Kulbandasi (kenjatoy o'g'il shunday laqab olgan ekan)ning xaltasiga solib qo'yibdi. O'g'il kun botgach «xayyohu» deya bedapoya tomon yo'l olibdi.

Petru-Kulbandasi tun bo'yi bedazorni qo'riqlab chiqipti. Sahar chog'i sarin shabada esib, Petru-Kulbandasining qovoqlaridan silab o'tgan ekan, yigitning ko'zlarini beixtiyor yumila boshlapti. Lekin Petru bo'sh kelmapti. Uyqu zaptiga oldi deguncha yantoqzorga borib, bir hovuchcha yantoq tikonini sindirib kelib, sepib qo'yibti. Har gal uyqu xujum qilganida tikondan bittasini olib badaniga botirib sanchar, og'riqdan uyqu qochib ketar ekan.

Tong endi bo'zara boshlaganda osmonda uchta duldul paydo bo'libdi va to'g'ri bedapoyaga enib, bedalarni toptay ketibdi. Kulbandasi-Petru chaqqon harakat qilib, uchala duldulni ham ushlab tushovlab qo'yibdi. Otlar oddiy bo'lmay, sehrli otlar ekan, ular shirin tong uyqusini zabtiga olgan pallada pishqirib shabada purkar ekan. Ammo Petru bedovlarga tikilib qaragan ekan, otlar bir-dan yovvosh tortib, jim bo'lib qolishibdi, shundan so'ng yigit ularni bemalol tushovlab qo'yibdi. Kulbandasi-Petru tushovlangan jonivorlarni otasi huzuriga haydab bormoqchi bo'layotganini payqagan dul-dullar azza-bazza yolvorishga tushishibdi:

— Rahming kelsin bizga, Petru, bizni qo'yib yubor, kech qolayapmiz. Bizni bandi qilganiningdan nima foyda, biz oddiy otlar emas, sehrgarmiz. Agar bizni bo'shatib yuborsang, vaqt kelib senga nafigimiz tegishi mumkin.

Petru duldu llar bilan bahslashib o'tirmay, ularni qo'yib yuborishga va'da beripti, shundan keyin birinchi ot unga misdan, ikkinchisi kumushdan, uchinchisi tilladan yugan tortiq qilipti-da, shunday deyishipti:

— Biror zarurat yoki falokat ro'y bersa, yuganlarni silkisang, bas, darhol huzuringda hozir bo'lamiz. Lekin biz to'g'rimizda hech kimga og'iz ocha ko'rma.

Shundan keyinroq, duldu llar zumda g'oyib bo'libdi, Petru esa yuganlarni qo'yniga joylabdi-da, uyiga shoshilibdi.

Kenjatoy o'g'il otasiga bundan keyin tashvishlanmasligini, endi bedazor ezib-yanchilmasligini aytibdi.

Petru tag'in pechka ortidagi o'rnini egallabdi, akalari bo'lsa o'sha-o'sha ter to'kib mehnat qilishga kirishib ketishibdi. Ko'p o'tmay akalar o'zlarini tutib, ancha-muncha davlat ham orttirishibdi.

O'sha kunlari yurtda mish-mish tarqabdi: Qazosi yaqinlashayotganini payqagan podsho o'z qiziga loyiq qalliq axtarayotganmish, toj-taxt, saltanatni ham tamomila o'sha yigitga meros qoldirarmish. Mamlakatdag'i barcha yigitalarning shahar markaziga to'planishlari e'lon qilinibdi. Buning ustiga, malika qalliqni shaxsan o'zi tanlashi, maydon markazida toj tutib o'tirishi, barcha yigitlar ro'paradan ot choptirib o'tishlari, kimda-kim qilich bilan tojni uch marta ketma-ket urib tushirsa, o'sha yigit podshoga kuyov bo'lishi ham aytilibdi.

O'sha zamonlarda kuyov mansabiga qarab tanlamas, har qanday kambag'al yigit ham podshoning qiziga xaridor bo'lishi mumkin ekan, yigitning mardi maydonligi malikaga yoqsa bo'ldi ekan. Darhaqiqat, inson boyligi-yu mol-mulki bilan emas, aql-idroki, zehni, tadbirkorligi va dovyurakligi bilan baholanadi-da. Podsho maydonga faqat voris-u shahzodalarni emas, dehqon yigitlarni ham chorlaganining sababi shunda ekan. Hamma yigitlar ba-

ravar bellashuvga chiqar, malika shular orasidan o'ziga eng munosibini tanlar ekan.

Bayramdagiday gavjum sinov maydoniga tumonat odam yig'ilibdi, dunyoning hamma burchagidan man-man degan yigitlar: valiahd-u shahzodalar, merosxo'r-u boyvachchalardan tortib choriq kiygan dehqonlargacha oqib kelavergan ekan. Boyvachchalar biri-biridan asl, bir-biridan bashang kiyinishgan, taglaridagi bedovlari nuqul ko'kka sapchir ekan. Malika ham shunday bellashib yetishishga munosib, benihoya suluv qiz ekan, ham huddi ertaklardagiday mil-mil, merosi cheksiz, sababi, u podshoning yakka-yu yagona erkatoy qizi ekan.

Kulbandasi-Petru ham bundan darak topib, shahar markaziga borishga ahd qilibdi. Xudo ol qulim, desa hech gap emas, axir!

Akalar Petruni chaqirmay, o'zлari tolelarini sinamoq uchun yo'lga otlanishibdi. Petru ko'p o'ylab o'tirmay chetroq o'tibdi-da, qo'ynidagi mis yuganini olib, uch bor silkitgan ekan, yonginasida gijinglagan bedov paydo bo'libdi va Petruga qarab debdi:

— Nima buradilar, xojam?

— Meni malikaning dargohiga olib bor, men uning qarshisidan yashinday yelib o'tib, qo'lidagi tojni urib tushiray.

— Xo'p bo'ladi xojam, — debdi bedov, — ammo bundan oldin manavi ziynatli libosni kiy, belingga shamshir taq, qolganini esa menga qo'yib ber.

Petru bedov bergen ziynatli libosga burkanib beliga shamshirni taqibdi, u tanib bo'lmas daraja-da o'zgaribdi. Boshidan oyoq mis rangga kirib olovday tovlanibdi. Petru bir talay yigitlar to'plan-gan maydonga yetibdi. Yo'lda shaharga kelayotgan akalariga duch kelibdi, akalarining aravasi botqoqqa botib qolib, chiqarolmay ovora bo'lib yotgan ekan. Petru akalarini darhol tanibdi, akalar ni esa uni tanimay, bitta-yarimta shahzoda bo'lsa kerak deb bosh kiyimlarini olib ta'zim bajo qilishibdi.

Sababi, yigitcha nihoyatda savlatli ko'rinar va libosi haddan tashqari bashang ekan.

— Ha, Pavel, Ioan, Gitse, Denile, Yeremiye? Nima, Lila bilan Fane, sizlarni botqoqdan tortib chiqarolmayaptimi? — deb so'rabdi kenjatoy akalaridan.

— Yo'q, janobi oliylari, — javob qaytarishibdi akalar, bu muhtaram zot ularning ismlarini qayoqdan bilganiga hayron bo'lishib, — bu qirchang'ilar bizni qanday qilib ham tortib chiqara olsin?

— Nega yonlaringizda iningiz Petru yo'q! Aravani itarib sizlarni botqoqdan chiqargan bo'lardi u.

— E, janobi oliylari, hozir bu yerda ukamizning nomini tilga olishga arzimaydi..

— Shunaqami hali? Unda shuni unutmanglarki, aynan o'sha Kulbandasi-Petru sizlarni botqoqlikdan tortib chiqaradi.

Shundan so'ng Petruning bedovi bir pishqirib akalarining ot-ulovini botqoqlikdan ancha nariga chiqarib qo'yibdi.

Akalar notanish zotning gaplariga hayron bo'lishibdi. Gap-so'zidan Petruga juda o'xshab ketarmish-u, lekin Petru pechka ortidagi o'rnida qolgan-u. Undan keyin, mana bunaqa bashang libos-u asil tulporni u qayoqdan olsin? Yo'q, inimiz Petru aslo bunday qilishga qodir emas.

Yo'lda akalar o'zaro shunday gaplashib ketib boraverishibdi, u yoqda Petru allaqachon podsho dargohida hozir bo'libdi.

Shaharga chor-atrofdan tumonat odam to'planibdi. Hammaning ko'zi Petruda, ular bu shahzoda qaysi podshoning o'g'li bo'lsaykin, deb hayron bo'la boshlashibdi. Bir xillar, bu Qizil podshoning o'g'li, desa boshqalari, yo'q, Yashil podshoniki, dermish, yana boshqalari Sariq podshoning farzandi deyishibdi. Qolgan shahzodalar Petruga ola qaray bolashibdi, chunki, u hammalaridan baquvvat ko'rinar, uloqni shu olib ketadiganday bo'layotgan ekan-da. Nihoyat, karnay-surnay chalinib, musobaqa boshlanibdi.

Malika qizil marmardan yasalgan shohsupaga ko'tarilibdi. Qiz egniga zarrin libos kiygan, bo'ynidagi qimmatbaho zebigardonlari yalt-yult tovlanarkan. Malika qo'lida shohlik tojini tutgancha oltin taxtga nozik qo'nibdi. Musobaqalashuvchilar bedovlarini yeldirgancha qiz qarshisidan o'tarkanlar, malika qo'lidagi tojni shamshir bilan urib tushirishga harakat qila boshlashibdi. Biroq qilich tojga tekkan zahoti chilparchin bo'lib ketar, toj bo'lsa joyidan qilt etmas ekan.

Shu taxlit ko'p o'tmay malika oyog'i ostidagi qilich siniqlari bir uyum bo'libdi.

Musobaqa marosimiga to'planganlar to'q misrang libosli yigit nega omadini sinab ko'rmayapti, deb hayron bo'la boshlashibdi.

Nihoyat navbat Kulbandasi-Petruga kelibdi. U bedovni shig'ab, malikaning qarshisidan yashinday yelib o'tibdi. O'tganda ham naq qizning toj tutgan qo'li ostidan o'tibdi. Yigit bor kuchi bilan tojga qilich solgan ekan, sal bo'lmasa toj pechka ortiga borib tusha yozibdi. Tevarakdagilar xursandchilikdan chapak chalishibdi, podsho bo'lsa katta ziyofer berib, uch kundan so'ng tag'in to'planishlarini, yigitlar yana omadlarini sinab ko'rib, malika qo'lidagi tojni uch marta urib tushira oladigan azamat topilishiga imkon berishni amr etibdi. Bazmi jamshid payti hammaning og'zida misrang libosli yigit bo'libdi. Yaqin-atrofda yashaydiganlar uyuyulariga tarqalishibdi, olisdan kelganlar shu yerda tunab qolishibdi. Petru ham uyiga qaytib, pechka ortidagi o'rniga borib yotibdi.

Akalar uyga kelgan zahotlari ko'rgan-kechirganlarini hikoya qila boshlashibdi. Petru hamma gapni jimgina tinglabdi. Akalar qanday qilib botqoqqa botib qolishganini, keyin allaqanday zodagon janob kelib, ularni qutqarganini gapirishganida pechka ortida yotgan Petru qotib-qotib kulibdi va bunday debdi:

— O'sha janobning bedovi bir puflab, sizlarni

ot-ulovlaringiz bilan qo'shib botqoqdan ancha nariqa chiqarib qo'yanini men ham ko'rdim.

— Sen qayoqdan ko'rasan, tanbal? — deb so'rashibdi akalari. — Ayt, qayyoqdan bilasan buni?

— Qayoqdan deysizlarmi? Tovuqxonaning tomi-ga chiqib, sizlardan ko'ra aniqroq ko'rdim barini.

Bundan tashqari akalar har turli merosxo'r-u shahzodalarning qanday bellashganlari, ular mali-ka qo'lidagi tojni urib tushirish borasidagi sa'y-harakatlari xususida ham hikoya qilibdilar. Biroq tojga qilich solganning qilichi maydalani ketaver-gannish, toj bo'lsa o'sha-o'sha joyida qilt etmay turavergannish. Oxiri akalarni botqoqdan qutqar-gan janob kelibdi-da, tojga boplab qilich solibdi, toj hammaning boshi ustidan shuvillab allaqayoqqa uchib g'oyib bo'libdi.

— O'sha janoblarni men ham ko'rdim, — debdi Kulbandasi-Petru, — uning libosi to'q misrang, bedoviga urilgan mis tusli egar-jabduqlar alanga yanglig' tovlanib turardi, bular bari tovuqxonamiz tomondan ko'rinib turdi.

Akalar odatdagiday Petrungi bolxonador qilib so'kishibdi-da, jahl bilan tovuqxonani buzib tash-lashibdi. Ukamiz bizlarni boshqa kalaka qilmasin deyishibdi-da. Obbo tirmizak-ey, hamma tomoshani ulardan ko'ra aniqroq ko'rganmish-a.

Uchinchi kuni podshoning farmoyishiga rioxaya qilib akalar tag'in ot-arava bilan yo'lga ravona bo'lishibdi, ular shahar markaziga tezroq yetib borish uchun otlarini yo'lda ayovsiz savalashibdi.

U yoqda akalar yo'lga tushishi bilan bu yoqda Kulbandasi-Petru ham pechka ortidagi o'rnini tark etib, yo'lga ravona bo'libdi. Yigit uydan uzoqlashishi bilan, qo'ynidagi kumush yuganni olibdi-da, uni uch bor siltabdi — shu zahoti qarshisida fusunkor kumush duldul paydo bo'libdi. Duldul Petru kiyim-bosh, shamshir va kumush sovit keltiribdi: Petru kiyinib bo'lar-bo'lmash, duldul ko'k sari parvoz, qilib, yigitni podsho saroyiga eltibdi. Saroyda avvalgi musobaqa marosimidagi-

dan ham ko'proq odam to'plangan ekan. Shoyi, zarrin libosga burkangan shahzoda-yu, bekzodalar, boyvachcha-yu aslzodalar shay turishar, taglarida-gi bedovlari betoqat yerdepsinar ekan.

Nihoyat Petru ham yetib kelibdi. U boshqalarga qaraganda savlatliroq, ko'r kamroq ko'r inarmish. Shahzodalar baribir Petru g'olib chiqishini payqab, unga havas bilan qaray boshlashibdi.

Musobaqa boshlanibdi. Petru tag'in eng oxirida mahoratini namoyish qiladigan bo'libdi. Xuddi odingi safardagiday yana qilichlar maydalanib ketaver ganmish, toj esa qilt etmasmish. Navbat Petruga yetibdi, u shamshirini mahorat bilan bir sermagan ekan, toj uchqun sachratib huv olisga uchib tushibdi.

Odamlar yigitning savlati va mahoratiga tahsil-lar o'qib, uni Qizil qirol deb atay boshlabdi.

Podsho Petruga yorliq topshiribdi-da, hamma uch kundan so'ng yana omadini sinab ko'rishini, musobaqa g'olibi o'shanda e'lon qilinajagini ay-tibdi.

Xalq tarqabdi. Kulbandasi-Petru — Qizil qirol bo'lsa pechka ortidagi o'rnini egallab, murod-maqsadiga yetadigan kunini kuta boshlabdi.

Shunda Kulbandasi-Petru bularning hammasini akalaridan ko'ra yaxshiroq bilishini aytibdi. Kenjatoy ukaning hikoyasidan akalar hang-mang bo'lib qolishibdi: Petru xuddi marosimda o'zi qat-nashganday aniq so'zlarkan-da.

Akalar bularni barini qayoqdan bilasan, deb so'rashibdi. Uka shunday javob beribdi:

— Juda oson. Cho'chqaxonaning tomiga chiqib, hammasini kaftdagiday ko'rdim, ko'rmasam nimani gapirardim?

Jahllari chiqqan akalar shartta cho'chqaxonani buzib tashlashibdi.

Oradan uch kun o'tib akalar podsho saroyiga otlanishibdi. Petru ham akalari ketishi bilan pech-ka ortidan chiqibdi-da, oltin yuganni siltabdi, dul-dulning egari bilan jilovi zardan yasalgan, yigit

uchun keltirilgan libos, shamshir,sovut, qamchi ham oltindan ekan. Petru liboslarni kiyib, shamshirni taqib, duldulni mingan ekan, egar ustida u oftob farzandiga o'xshab ketibdi. Chunki yigitning o'zi, dulduli, yaroqlaridan yal-yal nur taralarmish.

Bu galgi marosinga haddan tashqari ko'p olomon to'planibdi, hamma birinchi gal misrang libosda, ikkinchi gal kumush tusli ust-boshda kelgan Qizil qirolni axtararmish. Chunki yig'ilganlar malikaning qo'lidagi tojni yolg'iz o'sha yigitgina urib tushirishini bilisharkan-da. Hammaning og'zida Qizil qirol doston bo'lib ketibdi. Odamlar Petrungi olisdanoq tanishibdi, chunki yigit qizil oftobday o'zidan yal-yal nur taratib kelayotgan emish.

Ko'p o'tmay Petru maydonga kirib kelibdi. Hamma chapak chalib: «Yashasin Qizil qiroll» — deb xitob qila boshlashibdi. Faqat Qora podshoning o'g'ligina hasad bilan boqarmish, chunki u malikani haddan ziyod sevar va aytishlaricha, malikaning vasliga yetish uchun otasining toj-taxtini ham ayamaslikka ont ichgan emish.

Ammo malika u tomonga qiyo ham boqmay, o'ziga munosib mardi maydonni axtarish bilan band mish. Qora podshoning o'g'li esa hech narsada yo'q ekan, na husnda, na jasurlikda o'zini ko'rsatolarmish, kim biladi, hasadgo'yligi ham shuning oqibati bo'lsa kerak.

Marosim boshlanganida Petru odamlar maqtanchoq ekan deb o'ylamasin deb yana mahoratini eng oxirida namoyish etishga qaror qilibdi. Bir karra u musobaqadan voz kechmoqchi ham bo'libdi, biroq malikaga hech kim xush kelmayotganini ko'rib xalq talab qila boshlabdi:

— Qizil qirolni chaqiringlar! Qizil qirol mahoratini namoyish qilsin! Qizil qirol o'rta ga chiqmaguncha hech qayoqqa ketmaymiz!

Petru noiloj o'rta ga chiqishga majbur bo'libdi.

Malika yigitni bir ko'rishda yoqtirib qolibdi. Petru ham qizga oshig'i shaydo bo'libdi. Yigit malikaga yaqin kelibdi, qiz Petruning boshiga tojni

kiydirib ta'zim bajo keltiribdi-da, uning qo'lidan tutib sevgi izhor etibdi, yigitning mehriga o'tajagini aytibdi. Shundan so'ng podsho ikkala yoshga oq fotiha beribdi-da, ruhoniyni chaqirtirib, xalqning guvohligida nikoh o'qittiribdi. Shohona bazmi jamshid boshlanibdi, podsho barcha yig'ilganlarni to'yguncha yedirib-ichiribdi.

Petru bo'lsa akalar bilan otasini bir chetga yetaklab bor gapni to'kib solibdi:

— Men, akalar, sizlarning iningiz, dadajon, sizing o'g'lingiz Petru-Kulbandasi bo'laman. Huv o'sha bedazorni qo'riqlagani borgan kunimda omadim chopgandi, bedapoyamizni payhon qilgan o'sha bedovlar menga ham, sizlarga ham baxt keltirdi.

Shundan keyin akalar darhol Petru qarshisida tiz cho'kib, uzr so'rashibdi, ukalari haqiga duo qilihibdi. Petru akalarini quchib o'pibdi-da, saroyga yetaklab boribdi.

Xalq yetti kecha, yetti kunduz to'y-u tomosha qilibdi, xursand bo'lмаган одам qolmabdi, ayniqsa, malika suxsurday qalliqqa yetishganidan behad xursand bo'libdi. Podsho keksayib qolganligi uchun yillar aql-u zakovat va adl-u insof bilan mamlakatni boshqaribdi, agar vafot etib ketmagan bo'lsa, kim biladi deysiz, balki hozir ham davr-u davron surib yurgandir.

MAYMUNLAR SAROYI

Bor ekan-da, yo'q ekan, qadim-qadim zamonlar bir qiroq yashagan ekan, qirolning Jovani hamda Antonio ismli egizak o'g'illari bo'lgan ekan. O'g'illarning qay biri oldin tug'ilganini hech kim bilmas ekan. Saroy a'yonlarining unisi unday desa, bunisi bunday der ekan. Xullas, qiroq o'g'illaridan qay birini voris qilishni bilolmay boshi qotibdi.

— Gap bunday, — debdi bir kuni qiroq. —

Muammoniadolatli hal etish uchun ikkovlon qayliq izlab dunyo kezinglar. Qaysi biringizning qaylig'ingiz menga yaxshiroq narsa sovg'a qilsa, o'sha o'g'lim taxt vorisi bo'ladi.

Egizaklar dast egarga o'tirib, turli tomonga ot yeldirib ketishibdi.

Jovani ikki kundan so'ng bir shahri azimga kirib boribdi. O'sha shaharda yigit markizning qizini uchratib qolib, unga otasining qanday topshiriq berganini so'zlab beribdi. Qiz qirol nomiga qulflog'liq cuti yasattiribdi-da, yigit bilan qiz nikohdan o'tishibdi. Qirol qutini ochmay, Antonioning bo'lajak qaylig'i sovg'asini kuta boshlabdi.

Antonio bu orada qanchalik ot yeldirmasin, yo'lida biron ta ham shaharga duch kelmabdi. Nihoyat u had-hududsiz, qalin o'rmonga kirib boribdi, qilich bilan shoh-butalarini chopib-chopib yo'l ochishga to'g'ri kelibdi. Bir vaqt qarshisidan keng sayxonlik chiqibdi. Sayxonlikda derazalari billurdan marmar qasr qad ko'tarib turganmish.

Antonio eshik qoqibdi.

Eshikni kim ochibdi deng?

Maymunlar ochibdi! Tag'in odatdag'i maymun emas, zarrin libosli maymun ochibdi. Libosli joni-vor Antonioga ta'zim bajo keltirib, imo-ishoralar bilan ichkariga taklif etibdi. Boshqa ikki maymun yigitning otdan tushishiga ko'maklashib, otni jilovidan tutib, otxona tomon yetaklab ketishibdi.

Antonio ostona hatlab gilamlar to'shog'liq marmar zinalardan ko'tarila boshlabdi. Zina panjalarida o'tirgan maymunlar yigit bilan sassiz, bosh silkitibgina salomlashisharmish.

Antonio zalga kirib, qarta stolini ko'ribdi. Maymunlardan biri yigitni o'tirishga taklif etibdi, boshqa maymunlar ham yonma-yon cho'kishibdi-da, qarta o'yini boshlanidi. So'ng maymunlar imo-ishoralar bilan Antoniodan taom yeyish-emasligini so'rashib, yemakxona tomon boshlab ketishibdi. Noz-ne'matlar to'la stol yonida yasan-tusan qilgan, uqali shlyapa kiygan maymunlar o'tirganmish, xiz-

matkorlar ham maymunlar emish, ular oldilariga peshband taqib olgan mish. Kechki taomdan so'ng mash'ala tutgan maymunlar shahzodani xosxona ostonasigacha kuzatib borib, uni holi qoldirishibdi.

Antonio qattiq tajjublanibdi, hatto cho'chibdi ham. Ammo uyqu ustun kelib, ko'p o'tmayoq shahzoda tosh qotib uxlab qolibdi.

Yarim tunda Antonioni kimdir uyg'otibdi:

— Antonio!

— Kim bu? — debdi yigit bosh ko'tarib va karavotga o'tiribdi.

— Antonio, nima izlab safarda yuribsan?

— Safarimdan murod — otamga akam Jovani ning xotini taqdim etgan sovgvg'adan a'loroq sovg'a tortiq qila oladigan xotin topish. Shundagina qirol vorisi bo'lishim mumkin.

— Unda menga uylan, Antonio, — deb javob qaytaribdi boyagi ovoz. — O'shanda sovg'aga ham, tojga ham erishasan.

— Mayli, senga uylanganim bo'lsin, — deb shivirlabdi Antonio.

— Ha, barakalla. Ertagayaoq otangga maktub yo'llayver.

Antonio ertalab maktub bitib, sihat-salomat yurgani, hademay uyg'a xotini bilan qaytajagini bayon etibdi. Maktubni olgan maymun daraxtdan daraxtga chaqqon-chaqqon sakrab, tez orada poytaxtga yetib boribdi. G'aroyib darakchini ko'rib qirol juda taajjublansa-da, baribir xushxabardan suyunganidan maymunning saroyda qolishiga ruxsat etibdi.

Ertasi kuni oqshom ham shahzodani tag'in o'sha tanish ovoz uyg'otibdi.

— Antonio! Labzingdan qaytganing yo'qmi?

— Yo'q, qaytganim yo'q, — deb javob qaytaribdi yigit.

Shunda sinashta ovoz bunday debdi:

— Ha barakalla! Ertaga otangga tag'in bitta maktub yo'lla.

Ertasiga Antonio tag'in qirol nomiga maktub bitib, ishlari joyidagiligin bayon etibdi, maktubni boshqa maymunga topshiribdi.

Qirol bu maymunni ham saroyda qoldiribdi.

Shu zaylda ko'rinas ovoz egasi har kun oqshom Antoniodan va'dangda turibsizmi, deb so'rashda, yigit otasiga maktub yo'llashini iltimos qilishda davom etaveribdi. Har kuni qirolning saroyiga maktubli maymun kirib kelaveribdi. Oradan bir oy o'tibdi, poyxtaxtda maymun degani **g'ij-g'ij** ko'payib ketibdi, hamma joyda — daraxtlarda ham, tom ustlarida ham, haykallarda ham maymunlar sakrab o'ynoqlarmish. Kosib etikka mix qoqmoqchi bo'lsa, kiftiga maymun minib halaqit berarmish, jarroh ishga kirishsa, uning qo'lidagi asboblarini maymun tortqilarmish. Xonimlar sayrga chiqishsa, maymunlar ularning soyabonlariga o'tirib oladigan bo'lishibdi. Oxiri qirol nima qilarini bilmay qolibdi!

Bir oydan so'ng sinashta ovoz Antonioga yangi taklif aytibdi:

— Ertasiga qirol huzuriga borsa, darvoza yonda serhasham foytun turganmish. Jilovdor ham, ikki malay ham maymun emish. Foytun ichkarisidagi duxoba yostiqlariga yonboshlagan, bo'ynilariga asl zebigardonlar taqib olgan, tuyaqush-u patli shohona liboslarga burkangan kim bo'ldiykin?

Yo alhazar, u ham maymun emish!

Antonio noiloj maymunning yoniga o'tiribdi-yu, foytun qo'zg'alibdi.

Ular poytaxtga kirib borishibdi. G'alati foytunga ergasha boshlayotgan odamlar ichkarida kim o'tirganini ko'rib, o'takalari yorilayozibdi, vojabo, shahzoda Antonio maymunga uylanayapti-ya! Aholi qironga endi tikila boshlabdi, hukmdor esa o'g'lini saroy zinasidagi pillapoyalarda kutayotgan ekan. Qirol bo'lg'usi kelinni ko'rib, qay ahvolga tusharkan deb odamlar qiziqib kuta boshlabdi.

— Biroq qirol ham anoyi emas ekan, maymunga uylansa uylanibdi-da, degandek qarab turaveribdi,

hatto bir mo'yi ham qilt etmabdi. Nihoyat hukmdor xaloyiqqa yuzlanib bunday debdi:

— Antonio o'z tanlaganiga uylanadi, vassalom. Qirollik so'zim shu.

Shundan keyin u maymundan qulflangan qutini sovg'a o'rnida qabul qilib olibdi.

Ikkala qutini ham ertasiga to'y kuni ochishga qaror qilishibdi. Maymunni xosxonasiq kuzatib qo'yishibdi, u ham shu yerda qolishni ixtiyor etibdi.

Ertalab Antonio qayliqni olib ketgani kiribdi. U kirganda maymun ko'zgu qarshisida kelinlik ko'ylagini o'ziga o'lchab ko'rayotgan ekan:

— Qani, menga bir qara-chi, chiroylimanmi? — debdi yigit tomonga o'girilib u.

Antonio hayratda hang-mang bo'lib qolibdi: hozirgina maymun qiyofasidagi mahluq oy desa oyday, kun desa kunday sohibjamolga aylangan-mish! Antonio hamon tushimmi yo o'ngimmi deb ko'zlarini ishqalay boshlabdi. Qiz unga qarab shunday debdi:

— Ha, bu menman, o'zimman, sening qaylig'ingman!

Shundan so'ng ular bir-birlarining og'ushlariga tashlanishibdi.

Bu payt saroyda tumonat odam to'planib, shahzoda Antonioning maymunga qanday uylanishini ko'rish ishtiyobi bilan yonayotgan ekan. Ammo odamlar shahzoda husnda tengsiz mahliqoning qo'lidan tutgancha chiqib kelayotganini ko'rib yoqa ushlab qolibdi. Yaqin atrofdagi daraxtlar, tomlar, karniz-u deraza raflarini ham maymunlar tutib ketgan ekan. Kelin-kuyov yonginasidan o'tib ketishayotganda maymunlar sakrab-sakrab tushib bir dumalab odam qiyofasiga kira boshlashibdi. Ulardan ba'zi birlari yuziga to'r parda tashlagan xonimlarga aylansa, boshqalari uqali shlyapa kiygan, shamshirli yigitlar, yana boshqalari rohib, yana birlari dehqon qiyofasiga kiribdi. Yig'ilgalarining hammasi kelin-kuyovni to'y dasturxonni tomon kuzatib boribdi.

To‘y-tomoshadan so‘ng qiroq sovg‘a qutilarini ochibdi. Jovanining qaylig‘i sovg‘a qilgan quti ichidan bir qush chiqibdi. Bu parranda quti ichida shuncha vaqtdan beri o‘lib qolmaganiga hamma hayron bo‘libdi. Qush tumshug‘ida yong‘oq tishlab turganmish, yong‘oqdan oltin pat turtib chiqqanmish.

Qiroq Antonioning xotini sovg‘a qilgan qutini ochganida bu qutidan ham qush uchib chiqibdi. Qushning tumshug‘ida beso‘naqay kaltakesak bormish. Kaltakesak qushning tumshug‘iga qanday siqqanini hech kim aytib berolmabdi. Kaltakesakning og‘zida yong‘oq bormish? Yong‘oqning ichida yuz tirsak harir parda joylashganmish.

Qiroq gapirmoqchi bo‘lib og‘iz juftlagan ekan, (ich-ichidan zil ketayotgan Jovani ham uning yonginasida turgan ekan) Antonioning xotini so‘z qotibdi:

— Antonio otasining vorisi bo‘lishga mushtoq emas, men unga yurtimiz toj-taxtini topshiraman. Antonio menga uylanib, bizning hammamizni jodugar changalidan xalos etdi!

Hozirgina odam qiyofasiga kirgan barcha sobiq maymunlar o‘z qirollari Antonioni olqishlar bilan muborakbod eta boshlabdi. Jovani otasining vorisi bo‘libdi. Ular hammalari tinch-totuv va ahillik bilan umrguzaronlik qilibdi.

*G‘am-qayg‘usiz o‘tdilar yashab,
Qolaverdim men labim yalab.*

ALBAN XALQ ERTAKLARI



ESHAK MINGAN BO'RI

Kunlarning birida bo'ri tog' oralab izg'ib yur-gan ekan. Uch kundan beri ovqat topolmay qorni ichiga yopishib ketibdi, dumini ko'tarib yurishga ham majoli yetmay, oyoqlarini bazo'r sudrarmish. Bir vaqt qarasa, qiyalikdagi o'tloqda bir eshak turibdi. U hamma kuchini bir joyga to'plabdi-da, eshak tomon intilibdi.

Kulrang eshak tishi bilan ajriqni chirt-chirt uzib, bemalol o'tlayveribdi.

«Omadim chopdi! — o'yabdi bo'ri. — O'ziyam semizgina yosh eshak ekanmil!» U eshakning oldiga kelib so'rabdi:

— Salom, eshakvoy! Seni ko'rib boshim osmon-ga yetdi!

— Salom, tog'lik bo'rivoy! — gerdayib javob qaytaribdi eshak. — Seni ko'rganimdan men ham xursandman.

— Bu yerlarga qanday kelib qolding? — hayron bo'libdi bo'ri. — Ilgarilari bu tomonlarga soyangni solmas eding?

— Men qishloqdanman. Aylanib yurib-yurib, shu yerga kelib qolibman. Bu yerning o'tlari biram shirali ekanki.

— Bu yerga kelib ajab qilbsan! Men ochimdan o'lay deb turuvdim, endi seni yeyman!

— Nimalar deyapsan, tog'lik bo'ri! Meni yema! — qo'rqib ketib eshak bo'ridan o'zini olib qocha boshlabdi.

— Yo'q, yeyman!

— Yema, iltimos qilaman! — yolvoribdi eshak.

— Nima, mening ochdan o'lib ketishimni istaysanmi? Axir uch kundan beri tuz totganim yo'q!

Shunda eshak hiyla ishlatishga o'tibdi:

— Senga juda rahmim kelayapti, tog‘lik bo‘ri!

— Rahming kelsin-da. Bu boshqa gap bo‘ldi. Bunday och bo‘rini umringda birinchi marta ko‘rayotgandirsan?

— Ha, hozir ayniqsa qorning juda och ekan, meni yeysan-u, baraka topmaysan, juda kichkiman, chap ichagingga yuq ham bo‘lmayman. Tezda yana qorning ochqab, tag‘in tog‘u toshlar oralab o‘zingga tuzukroq o‘lja qidirishga majbur bo‘lasan!

— Ha, gaping to‘g‘ri, biz bo‘rilarning ko‘rgan kunimiz qursin, — debdi bo‘ri lunjini osiltirib.

— Men bir yilga yetarli ovqat g‘amlab olish yo‘lini bilaman!

— Rostdanmi? — quvonib ketibdi bo‘ri. — Seni yeb qo‘ymasimdan oldin tezroq aytsang-chi!

— Aytibgina qolmay, men seni qishlog‘imizning suruvlari o‘tblab yurgan joyga ergashtirib borishim ham mumkin. Ularni o‘z ko‘zing bilan bir ko‘rganningdaydi! Shunaqangi semiz-semiz qo‘ylarki! Yonidagi qo‘zichoqlarning ko‘pligini aytmaysanmi? Bir kunda ham sanab chiqolmaysan! Qo‘zilar ning go‘shti qanchalik mazali bo‘lishini aytmaysanmi — yog‘liqqina, totligina, xushbo‘ygina! O‘shandan bir totib ko‘r — maslahatim shu. O‘zing xursand bo‘lasan. Ozuqa bir yilga yetib-ortib qoladi, hurmatli bo‘rivoy!

Bo‘rining og‘zidan so‘lagi oqibdi. Eshakning semiz qo‘y va qo‘zilar haqidagi hikoyasi moyday yoqibdi. Ayniqsa uning «hurmatli bo‘rivoy» deyishi juda ko‘nglini iydirib yuboribdi. Shu vaqtgancha hech kim unga bunday hurmatli so‘zlar bilan murojaat qilmagandi. Ochig‘ini aytadigan bo‘lsak, bo‘rining eshakni minib borgani ham sabri chidamay ketayotgani ekan.

Bo‘ri o‘zini jiddiy qiyofaga solib debdi:

— Bo‘pti, men roziman. Qani, o’sha suruvga boshla. Faqat ehtiyyot bo‘l, tog‘-toshlarda telbaday yugurib ketma. Silkitganni yomon ko‘raman.

— Bu yog‘idan xotirjam bo‘l, hurmatli bo‘rivoy! Bamisoli parqu to‘shakda yotganday ketasan.

Bo'ri eshakning ustiga qo'qqayib o'tirib olibdi, xuddi yuganga o'xshatib uning ikkala qulog'idan ushlab olibdi-da, yo'lga tushibdilar.

Eshak bir tekis yurib boraveribdi, to'nka va o'nqir-cho'nqirliklarni aylanib o'tar, tosh va xascho'plar ustidan ohista hatlar, har zamon-har zamonda bo'ridan so'rab ham qo'yay ekan:

— Qanday ketayapsan, hurmatli bo'rivoy? Silkinmayapsanmi? Bemalol o'tiribsanmi?

— Juda qulay o'tiribman! — javob berarkan bo'ri. — Faqat bu yog'iga ham ko'zingga qarab yur, yo'qsa jahlim tez.

— Aslo tashvishlanma, hurmatli bo'rivoy! Ko'nglingdagidek qilib olib boraman.

Bo'ri viqor bilan o'tirib olgan ko'yi go'yo boshqarayotgan odam bo'lib eshakning goh u, goh bu qulog'ini ora-chora siltab qo'yarkan. Tog' yo'llarida otliqlarning ot minib ketayotganiga birda-ikki ko'zi tushgan ekan-da.

Bu orada eshak tog' yo'lidan qishloq yo'liga burilibdi.

— Nimagadir safarimiz cho'zilib ketdimi, eshakovoy, — g'udranibdi bo'ri. — Chidolmayapman! Qornim tatalab ketayapti!

— Yana besh daqiqalarda aytgan joyda bo'lamiz, — debdi eshak. — Men tez yugurishim ham mumkin!

Shunday deb u kuchining boricha qishloq tomon yugurib ketibdi.

Itlar bo'rining hidini olib shu hurishga tushib ketishibdiki! Shovqindan odamlar ham uylaridan yugurib chiqishibdi va nimani ko'rishibdi deysizmi?

Eshak yo'ldan o'qday uchib kelayapti, ovozining boricha hangrayapti, ustida esa bo'ri o'tiribdi.

— Bo'ri, bo'ri! — qichqira boshlashibdi odamlar. — Ushlanglar uni!

Kim belkurak, kim tayoq, kim xaskash — qo'lga ilinganini ola-ola bo'rige peshvoz chiqishibdi.

— Ushlanglar bo'rini! — qichqirisharmish

ular. — Ana o'sha zolim! Qancha qo'ylarimizni olib ketgani yetmay endi eshagimizni yemoqchi bo'libdi!

Qo'rqb ketgan bo'ri eshakdan sakrab tushibdi-da, qishloqdan bir zumda qorasini o'chiribdi.

To orqadagi shovqin tinguncha u uzoq qochib ketaveribdi. Oxiri nafasini rostlagani to'xtabdi. Yerda cho'zilib yotgan ko'yi og'ir-og'ir nafas olib, o'ylarmish:

«Ajodolarimning hammasi oddiy odamlar edi. Bobom ham sira gerdymasdi, umrida eshak minmagan, doim piyoda yursa ham hech koyinmasdi. Otam qo'y ovlardi, lekin eshak minishni xayoliga ham keltirgan emas. Men-chi, o'zimdan ketdim, eshakni mindim, o'zimni chavandoz chog'lab, quloqlaridan tortib-silkidim! Shu ishim boshimga yetayozdi! O'zim aybdorman. Keyingi gal uchun yaxshigina saboq bo'lidi. Endi eshak minmayman...»

IKKI QO'CHQOR BILAN BO'RI

Kunlarning birida bo'rining qattiq qorni ochqabdi. U o'zining tog'dagi inidan chiqibdi-da, o'rmonzor yonbag'irlikdan pastga, vodiya tusha boshlabdi. Dala va yo'llardan uzoq izg'ib yuribdi. O'lja qidiraverib shunaqangi holdan toyibdiki, yotib birpas dam olgisi kelibdi. Bundoq qarasa, keng yaylovda ikkita semiz-semiz qo'chqorning o'tlab yurganiga ko'zi tushibdi. Bo'ri qadamini jadallatibdi va hash-pash deguncha qo'ylarning oldida paydo bo'libdi.

— Ishtahalaring karnay bo'lsin, qo'chqortoylar! Sizlarni ko'rib, boshim osmonga yetdi, — debdi bo'ri.

— Xush kelibsang, bo'rivoy, — javoban deyishibdi qo'chqorlar. — Bizning yurtlarga qanday shamol uchirdi?

— Qanaqa shamol bo'lardi, qadrdon qo'chqortoylar: bugun kuni bilan og'zimga qizg'aldoqning bir tomchi shudringini ham olganim yo'q. Shuning uchun hoziroq ikkalangizni yemoqchiman.

— Shunday degin! — debdi qo'chqorlardan yoshi kattarog'i. — Unda quloq sol: bizni yeishidan oldin bahsimizni yechib bersang. O'tloqzorni ko'rayapsanmi? Shuni ikkiga taqsimlash uchun yero'lchagich kerak bo'lib qoldi. Aks holda kunda bu yerga kelamiz-da, janjaldan boshimiz chiqmaydi. Har birimiz eng yaxshi, shirali o'tlar ikkinchimizga nasib qilayapti, deb gumonga boramiz. To janjallahib bahsni bir yoqlik qilgumizcha ishtahamiz ham qochib, yeganimiz tatimay ketadi. Shuning uchun sendan iltimos: mana shu o'tloqzorni teng ikkiga bo'lib, janjalimizga chek qo'yib bersang.

Bo'ri o'yga tolidi.

— Qanday bo'laman men, — debdi atrofga ko'z yogurtirib. — O'tloqzorning kengligini ko'rayapsizmi? Uning o'rtasi qayerda ekanini bilib bo'lmaydi-ku.

— Shu ham gap ekanmi, — javob beribdi qo'chqor. — Men o'tloqzorning narigi chekkasiga boraman, sherigim ikkinchi chekkasiga borib turadi. Bizlar bir-birimizga yuzma-yuz bo'lib turamiz. Sen bizga ishora qilishing bilan biz bor kuchimiz bilan senga qarab chopamiz. Qayerda to'qnash kel-sak, demak, o'rtalik o'sha yerda bo'ladi.

— Aqlingga tasanno, — deb uni maqtabdi bo'ri.

Qo'chqorlarning biri o'ng tomonga, ikkinchisi chap tomonga qarab ketibdi va o'tloqzorning chekkasiga borib to'xtashibdi. Bo'ri chopinglar deb ishora qilish bilan ikkalasi o'qday otilib, to'g'ri bo'ri tomon yugura boshlabdi. Bo'ri yon-veriga qarayman deguncha qo'chqorlar uni ikki tomondan kelib, chunon kalla solibdilarki, sho'rlik yerda cho'zilib qolibdi. Shu yotganicha u uzoq vaqtgacha o'rnidan turolmabdi, o'ziga kelgandan keyin

qarasaki, ikkala qo'chqor ham allaqachon juftakni rostlab qolganmish.

Bo'ri voy-voylab, oh jonim-oh jonimlab bazo'r oyoqlarini sudragancha uyiga yo'l olibdi. Gandiraklab ketib borayotibdi-yu, ustiga ustak o'zicha gapirinarmish:

— Bobom ham, otam ham hech vaqt qo'llaridan kelmaydigan ishga chirangaganlar. Nimani o'r-gangan bo'lsalar, shuni qilishgan. Shuning uchun ham doim og'izlari qon... yo'g'-e, moy bo'lgan, tog'lar va o'rmonlarda armonsiz izg'ishgan, qo'y-echkilarni armonsiz bo'g'izlashgan. Men-chi, xudo urgan bo'lmasam, kelib-kelib yer taqsimlagich bo'lamanmi? Mana, bo'lib ham ko'rdim, mevasini ham totdim.

FAROSATLI QIZ

Juda qadim zamonlarda bir qishloqda xotini bilan dehqon yashar ekan. Ularning ko'zga surtgan yakka-yu yagona o'g'illari bo'lgan ekan.

O'g'li er yetib, uylantirishmoqchi bo'lishganda ota-onasi unga qishloqdagi qizlar ichidan bittasini tanla deb maslahat berishibdi. Yigit qishloqdagi hamma qizlarni bir-bir xayolidan o'tkazibdi-yu, biroq munosibi topilmabdi. Noiloj, ota-onasi qayerdan topsang o'zing bilasan, deb ixtiyorni o'g'illa-rining o'ziga berishibdi.

Ota-onasi uning tanlaganiga qarshilik qilmasliklaridan o'g'li suyunib ketibdi va to'g'ri shaharga qarab yo'l olibdi. U yerda otasining eski bir tikuv-chi do'sti turarkan. Yigit tikuvchinikiga kelib debdi:

— Uylanmoqchiman. Qishloqdagi bironqa qiz didimga o'tirmadi. Sizning oldingizga kelishga qaror qildim. Siz otamning qadrdon do'stlari bo'lar ekansiz, dunyodagi eng yaxshi qizni topishda balki siz yordamlasharsiz?

Tikuvchi o'ylab turib shunday debdi:

— Qaysi bir qishloqda juda yaxshi qiz bor deb eshituvdim. Nozik tomoni shundaki, u otasining yakka-yu yolg'iz qizi ekan, undan boshqa farzandi yo'q ekan, xotini esa yaqinda dunyodan o'tibdi. Shuning uchun otasi kuyov qilishni xayoliga ham keltirmas, sovchilarni dargohiga yaqin yo'latmas ekan.

Yigit javoban debdi:

— Sovchilarni uyiga kiritmagani hech narsa emas, otasini bir amallab qo'lga olsa bo'ladi, eng asosiysi, qizi ma'qul bo'lsa bo'lgani.

Shunda tikuvchi debdi:

— Ertaga bizda bozor kuni, uning otasi albatta bozorga keladi.

Yigit uyiga qaytibdi, ertalab esa g'ira-shirada yana yo'lga chiqib, to'g'ri bozor maydonidagi tikuvchining ustaxonasiga kelibdi. Tikuvchi allaqachon ish ustida o'tirgan ekan. U mehmonga bir piyola qahva uzatibdi, odamlar orasida soch-soqoli oppoq novcha dehqon paydo bo'lganda yigitga ko'rsatibdi. Yigit qizning otasini yaxshilab ko'rib olibdi-da, ma'qul deb qo'yibdi. Cholning kiyimi top-toza, yamoqlari tekis solingan bo'lib, bu ish tirishqoqlik bilan qilingani shundoq ko'rinish turarkan.

Tushdan keyin dehqonlar bozordan tarqala boshlabdilar. O'z hamqishloqlari bilan qizning otasi ham uyga qaytibdi. Yigit tikuvchi bilan xayrlashib, dehqonlar ketidan yo'lga tushibdi. Qishloq yo'lining yarmiga borganda u haligi odamlarga yetib olibdi va salom berib, ular bilan hol-ahvol so'rashibdi. Shundan keyin hammalari birga-birga keta boshlashibdi. Yigit yosh-yalanglar bilan gap sotishib, hazil-huzul qilib, kulib-kuldirib boraveribdi.

Yo'l toqqa ko'tarilib borarkan. Dovonda tik yolg'izoyoq toshli yo'lni aylanib o'tishga to'g'ri kelarkan. Qizning otasi yurishga qiynalib, yigit unga yordam berishga harakat qilibdi. U oldinga

o'tib olib, har do'nglik kelganda cholga qo'lini uzatar ekan. Qizning otasi bilan gaplashish imkonii ana shunda tug'ilibdi. U hazil aralash debdi:

— Ota, ortgan sariq chaqangizga bitta ot sotib ola qolmabsizda? Otda tog'da yurish ancha osonroq bo'lardi.

Chol hayron bo'lib debdi:

— Voy tavba, nima deyotganiningni bilasanmi o'zi? Sariq chaqaga ot berganni qayerda ko'rgansan?

— Ana, xolos! — avzoyini o'zgartirmay javob beribdi yigit va yo'lida davom etibdi. — Bundayligini bilmagan ekanman. Hali sariq chaqaga ot bermaydi, deng-a?

Ular qishloqqa yaqinlashganlarida yigit barq urib turgan kuzgi dalalarga qarab debdi:

— Ota, sizlarning qishlog'ingizda hech kim kuzgi ekinini yig'ishtirib ololdimi?

Chol undan sayin hayrati oshib, biroz g'ijinib javob qilibdi:

— Nima deb so'rayotganiningni o'zing bilasanmi? Endigina unib chiqqan kuzgi ekinni qaysi ahmoq yig'ishtirib oladi?

Yigit yana pinagini ham buzmay xotirjam tusda javob qilibdi:

— Hali shunaqa deng! Men buni bilmovdim. Demak, endigina unib chiqqan kuzgi ekinni o'rish-yig'ish mumkin emas deng.

Ular yo'lida davom etishibdi. Yigit qizning otasini gapga solaveribdi, dehqonlar qishloqqa yetib kelgach, har kim o'z uyi va o'z ko'chasiga qarab tarqala boshlabdi, yigit cholni eshigining tagigacha kuzatib qo'yibdi.

Qorong'ilik tusha boshlabdi, ayniqsa, tog'larda tez shom cho'kadi. Yigit cholga qo'shni qishloqqa ketayotganini aytib, odob bilan xayr-xo'shlashayotgan ekan, chol taklif qilib qolibdi:

— Kech bo'ldi, bemahalda yo'l yurish yaxshi emas, bugun menikida tunay qol, ertalab azonda turib yo'lga chiqarsan.

Yigitga xuddi shunisi kerak ekan. Axir u cholning uyiga qo'nish niyatida shu qishloqqa yo'l olgan edi-da, mana, hamma ish uning ko'nglidagidek amalgal oshdi. Endi u rejasidagi navbatdagi ishni bajarishi lozim edi — qizni ko'rish, u mehnatsevarmi yo tantiqmi, aqlimi yo badjahlmi — shularni bilish qolgandi.

Keksa dehqon bilan mehmon tozalab supurib-sidirilgan uyg'a kirib kelishibdi. Uydagi hamma narsa saranjom-sarishta ekan. «Ha, qiz chindanam yaxshi beka ekan», — o'ylabdi yigit. Ko'p o'tmay uni derazadan ko'rib qolibdi — qiz shu topda tarasha olib kelgani hovliga chiqqan ekan. U nihoyatda xushqomat va xushsuvrat ekan, faqat aftidan yaqinda lat yedirib olganmi, har qalay bir oyog'i kaftidan bog'langan bo'lib, oqsoqlanib qadam tashlayotgan ekan. Yigit: «Agar u aqlii ham bo'lsa, albatta uylanaman!» deb dilidan o'tkazibdi. U cholga qarab debdi:

— Ota, sizning bunday uyingizda podsho yashasa ham bo'lar ekan, faqat bir kamchiligi: o'choqning mo'risi qiyshiq ekan-da!

Qiz bu paytda eshik ortida turgan ekan. Otasining javobini kutib o'tirmay o'zi javob berib qo'ya qolibdi:

— Mo'ri qiyshiq bo'lsa nima qilibdi, tutun to'g'ri chiqsa bo'ldi-da!

Yigit darhol anglabdiki, qiz hushyor ekan.

Lekin chol suhbatning ma'nosini tushunmay qizidan jahli chiqibdi. U eshik ortiga borib qiziga non pishirishni, ovqat qilishni buyuribdi, orqasidan begona odamning, buning ustiga allaqanday betamizning suhbatiga aralashgani uchun koyib beribdi.

— Yo'l bo'yi allaqayoqdagi gaplarni valdirab keldi, — deb vaysabdi chol. — Dovondan o'tayotsak, buncha xasislik qilmay bir sariq chaqaga ot sotib olsangiz bo'lmaydimi, deydi. Qishloqqa yaqinlashganimizda esa dehqonlar kuzgi ekinni yig'ish-tirib olmadilarmi, deb boshimni qotirdi. Endi

bo'lsa o'choqning mo'risi qiyshiq ekan deb mazax qilayapti. Qayeri qiyshiq ekan? O'qday to'ppato'g'ri-ku!

— Yo'q, — jilmayibdi qiz, — bu betamizlik emas. U sizdan ot to'g'risida so'ramagan, sariq chaqaga ot bermasligini kim bilmaydi deysiz, u hassa to'g'risida gapirgan. Siz toqqa chiqishda qiyinalgansiz, agar hassa olib olganingizda, ancha osonroq bo'lardi. Kuzgi ekinlar to'g'risida so'ragani ham beziz emas. Axir o'zingiz bilasizku, yil ocharchilik kelganda dehqonlarimiz nish urgan kuzgi ekinlarini ham yeb qo'yishadi. O'choqning mo'risi qiyshiqligi ham betamizlik tufayli aytildi. U menga sha'ma qildi, axir oqsoqlanib yuribman-ku.

Yigit ota-bolaning suhbatlarini eshitib turgan ekan, u ertasigayoq qizga sovchi yuborishga qaror qilibdi.

Chol uyga qaytib kiribdi, hammalari kechlik ovqatni yeb, keyin uxlagani yotishibdi. Ertalab azonda yigit o'rnidan turibdi-da, tunashga joy bergani uchun cholga minnatdorchilik bildirib, yo'lga otlanibdi. Chol uni katta eshikkacha kuzatib chiqibdi, biroq yigit xayrlashish o'rniغا, dabdu-rustdan shunday debdi:

— Bilasizmi, bobo, men sizni qaynotam, qizin-gizni esa qaylig'im deb aytish uchungina siznikiga kelgan edim.

Chol birpas xayol surib turibdi-da, keyin qizim bilan maslahat qilib olay-chi, deb ichkariga kirib ketibdi.

— Agar meni shu yigitga bermasangiz, umrbod turmushga chiqmayman, — qizining javobi shu bo'libdi.

Chol yana darvoza oldiga qaytib kelibdi va qizining rozi ekanini aytibdi.

Yigit xursand bo'lib uyiga kelibdi va topgan qizi haqida ota-onasiga hikoya qilib beribdi.

Oradan birmuncha muddat o'tgandan keyin yigitning otasi xotiniga qarab debdi:

— Kelinga sovg'a tayyorlash vaqtি kep qoldi. Unga katta ko'pgan non bilan bir mesh asal yuboramiz. Nonning ichiga o'n ikkita oltin tanga solib pishir.

Yigitning onasi nonni pishiribdi, meshga to'l-dirib asal solibdi, sovg'alarni esa qiznikiga bir dehqon olib boradigan bo'libdi. Dehqonni kuzatib qo'yarkan, yigit unga shunday debdi:

— Bo'lajak qaynotamga mendan salom de va shuni qo'shimcha qilki, «Kuyovingiz sizga mustahkam sog'lik tilaydi, to'linoy, o'n ikki oy, echkicha oyog'ida sakraydi, dedi».

Dehqon qizning qishlog'iga yo'l olibdi. Yo'lda ovqatlangisi kelibdi, pishloqli zog'ora nondan yebdi, nafsini tiyolmay ko'pgan nondan bir bo'lak uzib olibdi va meshdagi asaldan to'yib ichibdi. Uzib olgan bir bo'lak ko'pgan nonni kavshayotib tishiga ikkita oltin tanga urilibdi. Dehqon ularni hamyoniga solib qo'yibdi, o'zicha esa non pishirishni bilmaydi, xamirga tangalarni tashlab yuboradi, sal bo'lmasa tishimdan ayrilayozdim, deb yigitning onasini bo'ralab so'kibdi.

Kechga yaqin dehqon qizning uyiga kelib, cholga sovg'alarni topshiribdi va bo'lajak kuyovning salomini aytibdi. Kuyovining nimalarga sha'ma qilgani ni chol tushunolmabdi. U qizini allaqanday savdoyi ga berishga rozi bo'lib qo'yganidan o'zini rosa ko'yibdi va qizining shum taqdiridan kuyinibdi. U dehqonga choy-non qilib, qornini to'yg'azibdi, ertalab esa quyidagi so'zlarni aytib, kuzatib qo'yibdi:

— Kuyovga mendan salom deb qo'y va unga ayt: «Kelin sizga mustahkam sog'liq tilaydi va qo'shimchasiga dedi: oy kemtik, oylar soni o'nta, echkicha tiz cho'kib yiqildi, lekin tustovuqni xafa qilma, ilonni o'ldirma».

Dehqon uyiga qaytib kelib, egalariga kelinning gaplarini oqizmay-tomizmay yetkazibdi (asil ma'nosini uning o'zi ham tushunmabdi). Oyning kemtilganini va o'n oyni eshitib, yigit darg'azab

bo'libdi, dehqonni haydab yubormoqchi bo'lgan ekan, biroq «Tustovuqni xafa qilma, ilonni o'ldirma» deganini eshitib, uni kechiribdi.

Ko'p o'tmay yigit bilan qizning to'ylari bo'libdi va uzoq yillar baxtli-saodatli umrguzaronlik qilishibdi.

BOTIR MUSO

Bir kuni shaharlik Muso qishloqdagi qa-rindoshlarini ko'rgani boribdi. Shahardan chiqibdi-da, tog'dagi tuproq yo'lidan jadal odimlab ketibdi. Quyosh charaqlab, atrofni giyohlarning muattar hidlari tutgan mish, qushlar quvnoq chah-chah qilar, unga sayin Musoning kayfi chog' bo'lib, qo'shiqni vadavang qo'yib ketaveribdi.

Ko'p o'tmay tik tog' yo'li boshlanibdi. Qarag'ay va archalar bu yerlarda shunaqangi qalin o'sar ekanki, havo ochiq bo'lganiga qaramay o'rmon ichi shom qorong'iligiga chulg'angan emish.

Muso u yoq-bu yoqqa alanglabdi. Bu atroflarda na odam bolasidan, na odam yashaydigan biron upuydan nom-nishon ko'zga tashlanarmish. Tor yolg'izoyoq yo'l buralib-buralib daraxtlar orasiga kirib ketarkan. Endi qushlarning chah-chahi ham quloqqa chalinmay qo'yibdi. Muso ham qo'shiq aytishdan to'xtab, bir nimadan hadiksiragandek qadamlarini ehtiyotkorlik bilan bosarmish, nimadan hadiksirayotganini o'zi ham bilmasmish.

Yo'l toqqa ko'tarilib borar, Muso esa hamon biron odamzot yo parranda paydo bo'lib qolar degan ilinjda atrofga olazarak ko'z tashlar ekan. Biroq qani biron tirik zot uchrasal Faqat shamol guvillab, daraxtlarning uchi chayqalarkan, xolos. Muso juda arosatda qolibdi. Oxiri oyog'ini qo'liga olib yugurishga boshlabdi-ku! U orqasiga qaramay qochib borar, qarasa xuddi bir nima bo'lib qoladi-ganday tuyular ekan.

Bir vaqt yalanglikka duch kelib, to'xtabdi. Quyosh charaqlab turar, gullar qiyg'os ochilgan, kapalaklar guldan gulga qo'nib, tinimsiz qanot qoqqan. Muso bo'lsa hech o'ziga kelolmay, oyoq-qo'li qo'rquvdan qalt-qalt titrarkan.

Yalanglikda bir dehqon ko'rini bdi. Qarasa, Muso turibdi — rangi devorday oppoq, a'zoyi badani qalt-qalt titragan, xuddi hozirgina ajdaho komidan qochib chiqqanday o'pkasi og'ziga tiqilib hansiragan.

Dehqon undan so'rabdi:

— Senga nima bo'ldi, do'stim? Qanday musibat tushdi boshingga?

— E, nimasini aytasiz, aziz birodar! Hech o'zimga kelolmayapman. Bunaqa dahshatga tushaman deb o'ylamovdim! Qanday qutulib chiqqanimga o'zim hayronman... Bugun go'yo onadan qayta tug'ilganday bo'ldim...

— Bo'pti, qo'y, tinchlan, hammasi o'tib ketdi. Endi hushingni bir joyga to'plagin-da, bundoq tushuntiribroq gapir, kimdan qo'rqeding?

— Eh birodari aziz, koshkiydi buni so'z bilan gapirishning iloji bo'lsa? Qay til bilan so'zlaysan, kishi? Buni odam o'zi boshdan o'tkazishi kerak! Qanaqa xatardan qochib kelganimni eslasam yuragim tars yorilgudek bo'ladi... Ko'rmayapsanmi qaltirashimni?..

— Sen qaltiramagin-da, bir boshdan gapir: nimani ko'rding, nimani eshitding?

— Shunday narsani ko'rib, shunday narsani eshitdimki, haligacha badanim junjikadi. Axir o'lib ketishimga bir bahya qoldi-ya! Yiritqich hayvonlar sal bo'lmasa parcha-burish qilib tashlayozdilar! Go'rsiz-qabrsiz o'lib ketar edim... — hiq-hiq yig'labdi Muso. — Odamlarga zig'ircha yaxshilik qilmasdan, birovga ozgina bo'lsa ham foydam tegmasdan o'lib ketar edim. «O'lding-o'chding» degan men bo'lar edim...

— Bundoq aniqroq qilib aytsang-chi, orqangdan nima quvdi, qanday hayvon quvdi?

— Nima quvdingiz nimasi? Men qulog‘ingizga tanbur chertayapmanmi? Aytdim-ku, o‘rmon dan bir o‘zim yolg‘iz kelayotuvdim, atrofda zog‘ uchmaydi, jimjit, qushlar ham churq etmaydi, deb. Birdan nimadir shitirlab, chisirlab, uvillab, o‘kirib qoldi-ku! Butun o‘rmon larzaga kelib ketdi. Mundoq qayrilib qarasam, orqamdan bo‘rilar galasi kelayapti. Naq yuztacha bor! Hammasi quturgan, darg‘azabki, dahshat! Ularning kattaligini aytmaysanmi! Bittasi ayniqsa naq ayiqday keladi...

— Topgan gapingni qara-yul! Bizning bu yerlarda yuztacha keladigan bo‘rilar galasi qayoqdan bo‘lardi? U yo‘q-bu yo‘q aldanibsan. Qo‘rqqanga qo‘sha ko‘rinar deydilar-ku.

— Men aldanibmanmi? Qanday qilib alda narmishman? Shunday katta galaki! Xo‘p, yuzta bo‘lmasa ham ellikta bemalol bor edi. Ulardan qanday qochib qutulganimga hayronman!

— Zinhor ishonmayman, birodar! Bizlar bu o‘rmondan har kuni shahar tushamiz. Ellikta bo‘ri emish! Bu gapni bir aytding, ikkinchi bir yerga borib ayta ko‘rma, kulgiga qolasan.

— Ishonmaysanmi? Xo‘p, ellikta emas, ammo yigirma beshtaligi aniq. Nima desang de, ammo mening gapim — gap: yigirma beshta edi!

— Yigirma beshta? Men, do‘stim, bu o‘rmonning har bir kunjagini aylanib chiqqanman, yog‘och kesganman, qo‘y boqqanman, lekin o‘rmonimizda yigirma beshta bo‘ri borligini umuman eshitmaganman. Balki, senga shunaqa tuyulgandir?

— Shunaqa tuyulgandir? Senga qolsa o‘nta bo‘ri ham yo‘q dersan hali?

— Albatta yo‘q-da.

— Bilmadim unda... Ammo aniq esimda: oo‘rmon shunaqangi shovullab, shunaqangi qasir quisir qildiki, bu nimaning shovqini ekanini ham tushunolmay qoldim...

Asta-sekin botir Muso o'ziga kela boshlabdi. U dehqon bilan bir toshga o'tirib, anchagacha suhbatlashibdi, keyin xayrashib, ajralishibdilar.

Bir mahal dehqon orqasiga burilib, Musoga qichqiribdi:

— Hoy birodar! Endi uyingga qaytsang bo'lardil O'rmonning bu yog'i battar qalinlashib, qorong'ilashib boraveradi. Uyoqda yuzta bo'ri emas, yonida yana yuzta yo'lbars ham ko'zingga ko'rinishi turgan gap!





ΕΡΓΑΛΑΙ
ΥΝΟΝ ΧΑΛΩ

OLTIN XIVICH

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir savdogar bo'lgan ekan. Uning uchta qizi bor ekan. Kunlarning birida savdogar savdogarlik qilgani Hindistonga bormoqchi bo'libdi. Qizlari sovg'a olib keling deb iltimos qilishibdi. Biri ko'ylak debdi, ikkinchisi shol debdi, uchinchisi esa oltin xivich olib keling debdi. Oxirida qo'shib qo'yishibdi:

— Bilib qo'ying, ota, agar iltimosimizni esingizdan chiqargudek bo'lsangiz, kemangiz joyidan jilmay qo'yadi!

Savdogar Hindistonga yetib kelibdi ham, barcha mollarini sotib ham bo'libdi. Ikkala qiziga aytgan sovg'alarini sotib olibdi-yu, kichkina qizi buyurgan oltin xivichni qidirib topish butunlay yodidan ko'tarilibdi. Kemaga yuklarni joylab, havoning yaxshiligidan foydalanib qolish uchun yo'lga tushmoqchi bo'lishibdi-yu, biroq kema joyidan jilmabdi.

Shunda savdogar qirg'oqqa tushib o'tiribdi va xayolga tolibdi. Oldidan bir dehqon o'tib ketayotib debdi:

— Ko'rini turibdiki, langar ko'tarilgan, ammo kema joyidan jilmayapti. O'ylab ko'r, savdogar, biron va'da qilgan narsangni unutma-dingmi?

Bir vaqt kichik qizining iltimosi esiga tushibdi-yu, savdogar debdi:

— Ha-ha, oltin xivich olib borishim kerak edi. Lekin uni qayerdan topaman?

Dehqon unga yo'lni ko'rsatib qo'yibdi va rosa uch soat yurish kerakligini aytibdi. Savdogar shunday qilibdi. Uch soat yo'l bosibdi, yo'l bo'yi odamlardan oltin xivichni daraklabdi, biroq hech kim bilmas ekan. Shunda bir kampir shoh saroyini ko'rsatib debdi:

— Bor, o'g'lim, saroyga kir, izlaganingni o'sha yerda topasan.

Savdogarning yuragi betlamabdi, shoh bilan yuzma-yuz bo'lishga toqati yo'q ekan. Ammo busiz uyg'a yo'l ololmas ekan, boshqa iloji ham qolmabdi.

— Nima istaysan, yaxshi odam? — deb qarshi olibdi uni shoh.

— Sening o'g'ling bilan gaplashmoqchi edim.

Savdogarni yuqoridagi bo'limga olib borishibdi, shahzoda peshvoz chiqibdi, xushchaqchaqlik bilan kutib olib, o'tqazibdi, mehmon qilibdi. Savdogar bor gapni yashirmay-netmay bayon qilibdi. Shunda shahzoda o'rnidan turibdi va savdogarni turlituman qizlarning ko'plab suvratlari osilgan xonaga olib kiribdi.

— Sizning qizingiz ham mana shularday chirroylimi? — so'rabi u.

— Mening qizim bulardan ming karra go'zalroq! — debdi savdogar.

Keyin shahzoda uni birgina suvrat osig'liq turgan xonaga boshlab kelibdi. Bu shahzodaning tushida ayon bo'lgan va o'shandan beri uni topib, uylanishni orzu qilib yurgan qizning suvrati ekan.

— Sizning qizingiz ham shunday xushsuvratmi?

— Bu uning o'zi-ku, — suyunib ketibdi savdogar.

Shunda shahzoda savdogarga bir enlik maktub, piyola va uzuk beribdi-da, ularni qizingizga topshiring deb tayinlabdi.

— Qizingiz nimani iltimos qilgan bo'lsa, hammasi mana shunda!

Savdogar ko'ngli tog'day ko'tarilib, bandargohga qaytibdi. U kemaga oyoq qo'yishi bilan kema o'rnidan jilibdi va jonajon diyor sari shitob bilan suzib ketibdi.

Savdogar uyiga qaytib kelibdi. Qizlari uni qarshi olib, savolga ko'mib tashlashibdi:

— Va'da qilgan narsalarni olib keldingizmi?

— Meniki-chi?

— Bo'lmasam-chi, olib keldim, oppoq qizlarim, olib keldim! — savdogarning javobi shu bo'libdi.

Savdogar qizlariga o'z-o'zlari aytgan sovg'alarini ulashibdi. Kenja qiziga ham bir enlik maktub, piyola va uzukni topshiribdi.

Qizi sovg'alarni olibdi-da, o'zining xonasiga kirib, maktubni ochibdi. Unda shu gaplar bitilgan ekan: «Go'zal qiz, piyolaga bir oz suv quy, ichiga uzukni tashla va uch karra: «Kel, kel, oltin xivichim!» deb takrorla. O'sha zahoti shift ochilib, bir kaptar uchib kiradi, suvga sho'ng'iydi-da, odamga aylanadi!»

Qiz shosha-pisha xatda aytilgan narsalarni bajarishga kirishibdi. Kaptar uchib kiribdi, suvga sho'ng'ib chiqibdi va odamga — shahzodaga aylanibdi. Qiz ikkalasi miriqib suhbat qurishibdi, fursat yetgach esa shahzoda suvga sho'ng'ib yana kaptarga aylanibdi-da, ko'zdan g'oyib bo'libdi. Uchib ketaturib sevgilisiga bir dona yeryong'oq goldiribdi.

Kaptar uchib ketgandan keyin qiz mung'ayib qolibdi. U yeryong'oqni chaqqan ekan, ichidan osmondag'i jamiki yulduzlar aks etib turgan ko'ylak chiqibdi. Qiz ko'ylakni kiygan ekan, bir husniga yuz husn qo'shilib, shunaqangi ochilib ketibdiki, qo'yaverasiz! Opalari ko'rib havaslari hasadga aylana yozibdi, qayerdan va qanday qilib topding, deb surishtiraverib hol-joniga qo'yishmasa ham hech narsa aytmabdi.

Ertasiga shular hammasi yana takrorlanibdi. Kenja qiz piyolaga suv quyibdi, ichiga uzukni tashlabdi, uch karra: «Kel, kel, oltin xivichim!» deb takrorlabdi. Tag'in kaptar uchib kirib, suvga sho'ng'ibdi va shahzodaga aylanibdi. Xayrlashuv chog'ida esa qizga bir dona o'rmon yong'og'i goldiribdi.

Qiz yong'oqni chaqqan ekan, ichidan avvalgisidan ham ajoyibroq ko'ylak chiqibdi, unda mavjlanib turgan dengiz tasviri aks ettirilgan emish. Ko'ylakni kiygan ekan, shunaqangi yarashibdiki, ko'rganni aql-u hushidan begona qilgudek!

Opalari battar kuyib-pishishibdi, biroq bu gal ham hech narsa bilishholmabdi.

Uchinchi kuni hasaddan adoyi tamom bo'lgan opalar panadan mo'ralab, hammasini ko'rib olishibdi: kenja singil piyolaga suv solib, ichiga uzukni tashlabdi, tilsim so'zni uch marta takrorlabdi, uyga kaptar uchib kirib, suvga sho'ng'ibdi va susurday yosh yigitga aylanibdi. Qiz bilan shirin suhbat quribdi va ketar chog'ida unga bir dona anjir qoldiribdi, anjir ichidan haligi ikkala ko'yakdan ham chiroyliroq ko'yak chiqibdi — unda yaylov gullarining hamma xili aks ettirilgan emish.

Opalarning yuragini qora hasad kemira boshlabdi, dillarida qabih niyatlar paydo bo'libdi. Ular singillarini cho'milgani dengizga olib borishga, yo'lida bittalari qolib, uyga borishga, singillarining xonasini o'g'irlab olingan kalit bilan ochib, piyolani olishga, keyin kerakli irimlarni qilib, kaptardan qimmatbaho ko'yaklar undirishga kelishib olishibdi.

Ertalab opa-singillar cho'milgani ketishibdi, to'ng'ich opa bir xalta dur olib olibdi va ataylab yo'l bo'yi to'kib boribdi.

— Sizlar oldin boraveringlar, singiljonlar, — debdi u, — men durlarni terib, sizlarga yetib olaman.

Ikkala singil ko'zdan pana bo'lishi hamon u durlarni supurgi bilan apil-tapil to'plab xaltaga solibdi-da, uyga qarab chopibdi. Kenja singilning xonasini ochib, piyolani qo'lga olibdi, unga suv solib, ichiga uzukni tashlabdi.

Shuni ham aytish kerakki, kenja qizning oltin to'g'nog'ichi ham bo'lib, u piyola bilan yonma-yon turarkan. Qizgina to'g'nog'ichni qayerga qo'yishini bilmay piyolaning oldiga qo'yib qo'ya qolgan ekan. To'ng'ich opa «Kel, kel, oltin xivichim!» degan tilsim so'zlarni aytib bo'lar-bo'lmas kaptar uchib kelibdi-da, suvga sho'ng'imoqchi bo'lib, o'zini to'g'nog'ichga uribdi. Kaptar qip-qizil qonga bo'yalib uchib ketibdi va ko'zdan g'oyib bo'libdi. Ko'yak

ololmay qolganidan to'ng'ich opa qattiq xafa bo'libdi. «Ajab bo'lsin, endi kenjaniso ham hech narsa ololmaydil! — deb o'ziga-o'zi tasalli beribdi u.

To'ng'ich opa go'yo hech narsa bo'l magandek dengizga kelibdi-da, singillari bilan cho'mila boshlabdi.

Ular dengizdan qaytib kelishlari bilan kenja singil o'z xonasiga shoshilibdi.

— Kel, kel, — debdi u, — oltin xivichim, qara, cho'milib qanchalik ochilganimni bir ko'rib qo'y!

Shunday deb piyolani qo'liga olsa, qip-qizil qon emish. Qiz yig'lab yuboribdi va o'zicha gapira boshlabdi:

— Sho'rim qursin, nima qilib qo'ydim, nega xonamni qarovsiz qoldirdim? Endi oltin xivichni qidirgani musofir yurtlariga safarga chiqmasam bo'l maydi!

Qiz otasining oldiga kelib, maqsadini bayon etibdi:

— Otajon, ajnabiylar libosini bering, bir kemani shaylang, men Hindiston sari yo'lga chiqaman!

Qiz dengizlar osha o'zga mamlakat sarhadlariga yetib kelibdi va shaharga, shoh saroyiga shoshilibdi. Qarasa yo'l chetida bir tut daraxti o'sib yotibdi, shoxlarida qushlar g'ujg'on emish. Qushlar tutlardan cho'qilab-cho'qilab yer va o'zaro shunday gaplashishar ekan:

— Bechora shahzodaga achinib ketayapman! Hech kim uning kasalligi davosini bilmaydi, hoynahoy o'lsa kerak.

— Kimki tut mevasidan dori qilib, jarohatiga surkasa, shahzoda tuzalib ketishi mumkin.

Qushlar nima deb chug'urlashlayotganini qiz tushunib turarkan — oltin xivich unga qushlar tilini o'rgatib qo'ygan ekan-da. Darhol tut qoqib olib, undan dori tayyorlabdi va shaharga shoshilibdi. Erkakcha kiyinib olib shoh saroyiga yaqinlashibdi va qichqirib jar solibdi:

— Tabib keldi! Qo'li yengil, ming dardning davosini biladigan tabib keldi! Kimga tabib?

Shoh uning ovozini eshitib yuqoridagi xobgohdan turib baqiribdi:

— Hoy tabib, mening bolamni qarab boqasanmi?

— Mayli, — javob qaytaribdi tabib.

Qiz saroyga kiribdi-da, bemorga ko'zi tushishi bilanoq debdi:

— Bu yigitni davolashga kirishaman! Sakkiz kun deganda u otday bo'lib ketadi va ovga chiqadigan bo'ladi!

Shoh terisiga sig'may suyunib ketibdi, saroy tabiblari esa hasaddan kuyib-yonib, tutaqib shunday deyarmish:

— Yolg'on aytayapti, tabib emas u, darrov qorasini o'chirsin, haydanglar uni!

Qiz mo'jizakor dorini olib yigitning jarohatiga suribdi, birdaniga shahzoda yengil tortibdi. Ertasiga u yana ham yengillashibdi, sakkizinchi kun deganda chindan ham yigit ovga yo'l olibdi!

Quvonchdan o'zini qo'ygani joy topolmay qolgan shoh tabibga debdi:

— Tila tilagingni, sendan hech narsani ayamayman!

Tabib shunday javob qaytaribdi:

— Menga hech narsa kerakmas. Butun yer yuziga bazmi jamshid qilib bersangiz bo'ldi.

— Bu men uchun hech gap emas, — debdi shoh.

Butun jahon ahlini chaqirib, shoh bazmi jamshid boshlab yuboribdi. Bazm ayni avj mahaliga yetganda tabib joyidan irg'ib turibdi-da, shunday debdi:

— Olampanohl! Sizga bir ertak aytib bersam maylimi?

Hukmdor darhol chapak chalgan ekan, mehmonlar jimib qolishibdi. Tabibi ertagini boshlabdi: uzoq bir mamlakatda bir savdogar yashar ekan, uning uchta qizi bor ekan. Bir kuni savdogar Hindistonga safar qilibdi... Qiz bir boshdan so'zlay ketibdi. Ertak kenja qizning erkakcha kiyinib olib,

sevgilisini qidirib yo'lga tushgan joyga yetganida egnidan tabiblik libosini yechib tashlabdi-da, to'y ahli va mehmonlar ko'zi o'ngida ta'rif qilib bo'lmas darajada sohibjamol qiz namoyon bo'libdi. Shahzoda o'rnidan turib qizning qo'lidan ushlabdi-da, otasining oldiga yetaklab kelib, debdi:

— Mana u: savdogarning kenja qizi, mening jondan sevganim va qaylig'im!

Shu tariqa bazm-u jamshid nikoh to'yiga aylanibdi.

GULQIZ

Bir zamonlarda bir er-xotin bo'lgan ekan, lekin o'rtalarida farzandlari bo'lmanган ekan. Kunlar ning birida kechki payt xotini chuqur xo'rsinib armon bilan debdi:

— Tuvakdagи gul bo'lsa ham xudo birgina farzand ato qilsa koshkiydi!

Bundoq qarasa, rostdanam deraza rahida bir gultuvak turgan ekan.

Yillar o'taveribdi, tuvakdagи rayhon bo'y cho'zaveribdi, shunisi qiziqliki, rayhon bilan baravariga tuvak ham o'sib boraveribdi. Tuvak o'sib-o'sib qozonday bo'libdi, gul ham yong'oq butasi bilan teng kelib qolibdi. Bu kuni shu yerdan shahzoda o'tib borayotib, ko'zi derazada turgan rayhonga tushibdi va gulga mahliyo bo'lib qarab qolibdi. U derazani chertibdi, ichkaridan bir ayol kishi boshini suqib qarabdi. Shahzoda ayoldan so'rabi:

— Mana shu gulingizni menga bering, undan hech narsamni ayamayman, istagan narsangizni tilang, xolajon!

Ayol o'ylanib qolibdi: bir tomondan tuvakni ko'zi qiymayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan boyib ketish istagi ustun kelarmish, oxiri bor-e deb gulni ming feoringa sotib yuboribdi. Shahzoda tuvakni saroyga olib kelibdi-da, o'z bo'lmasidagi deraza

rahiga qo'yib, ertalab va kechqurunlari suv quyib turibdi.

Sizga bir gapni aytib qo'yayki, bu shahzodaning kechki ovqatni tanho o'zi yeydigan odati bor ekan. U rayhonni olib kelgan kuni ham mulozimlar das-turxonni necha turlik taomlar bilan to'ldirib, shah-zodani yolg'iz qoldirib chiqib ketishibdi. Shahzoda yebdi-ichibdi, gulga mahliyo bo'lib, zavqlanibdi, so'ngra yotibdi-da, uyquga ketibdi. Uning bosh tomonida sham yonib turar, oyoq tomonida chiroq nur sochib turarkan.

Shahzoda uyquga ketishi bilan rayhon ichidan husnda tengi yo'q sohibjamol qiz chiqibdi-da, taomlarni bir boshdan tushira ketibdi, keyin chiroqni olib, shahzodaning bosh tomoniga, shamni esa oyoq tomoniga almashtirib qo'yibdi.

Ertalab shahzoda uyg'onib qarasaki, taomlar saranjom-sarishta qilib qo'yilgan, chiroq bilan shamning o'rni almashib qolgan! Qiziq, bu qanaqasi bo'ldi, axir eshik janjirlangan edi-ku? Ertasiga ham xuddi shu hol takrorlanibdi. Shunda shahzoda uxlamay, chaqirilmagan mehmonni poylashga qaror qilibdi. Qarasa, rayhondan husnda tensiz bir sohibjamol chiqib, taomlardan yeb-icha boshlabdi, keyin endi chiroq bilan shamni almashtir-moqchi bo'lgan ekan, shahzoda shappa uning qo'limdan tutib debdi:

— Hoy sohibjamol qiz, nega o'zingni olib qochasan? Kimdan berkinasan?

— Sen meni ko'rding, — deb javob qaytaribdi qiz, — menga sen egalik qilishing kerak. Faqat esingda bo'lsin, meni hech kimga ko'rsata ko'rma!

— Bo'pti, sen aytgancha bo'la qolsin, — deb rozi bo'libdi shahzoda va bundan buyon ikki kishi-lik ovqat olib kelinglar deb mulozimlariga tayinlab qo'yibdi.

Shu tariqa oradan bir necha oy o'tibdi, kул-larning birida shahzoda otasi bilan harbga boradi-gan bo'lib qolibdi. Shunda u onasini chaqirib, unga shunday topshiriq beribdi:

*Ertalab va kechqurun gulga suv quymoq,
Eng yaxshi taomni uyda qoldirmoq,
Eshikni har doim zanjirlab qo'ymoq.*

Shahzoda qizga ham qarab ikki og'iz so'z qotibdi:

— Qayg'urma, jonginam, hayallamayman, tezda qaytib kelaman.

Shahzoda ketibdi-da, ona o'g'ilning topshirig'ini bekam-u ko'st ado eta boshlabdi:

*Ertalab va kechqurun suv quyibdi gullarga.
Eng yaxshi taomlarni qoldiribdi xonada,
Eshikni esa doim zanjirlab qo'yibdi bot.*

Sizga shahzodaning vazir qiziga unashtirib qo'yilganini aytib qo'yishimiz kerak. Rayhon ichidan sohibjamol qiz chiqqandan buyon shahzodaning unashtirilgan qaylig'idan ko'ngli qola boshlabdi, asta-sekin uning oldiga borishni ham tashlab, go'yo hech qanday qaylig'i bo'limganday, butunlay unutib yuboribdi!

Vazirning qizi nima qilishini bilmay boshi qotibdi: kuyovi go'yo butunlay boshqa odamga aylanib qolganday! Shahzoda harbga ketgandan keyin esa vazirning xotini qizini olibdi-da, malika bilan ko'ngilochar suhbat qurgani shoh saroyiga yo'l olibdi. Aslida uning maqsadi saroyda nima gaplini bilish, shahzodaning nega aynib qolganidan xabar topish ekan.

Kelishibdi, o'tirishibdi, keyin saroy ichini, xonalarni tomosha qilish uchun aylana boshlashibdi. Yopiq xonaga yaqinlashganlarida vazirning xotini qizining biqiniga turtgan ekan, qizi nihoyatda mayin va shirin ohangda shunday debdi:

— Malikam, kuyovning xonasiga birrov ko'z tashlasak bo'ladimi?

Malika eshikni ochibdi-yu, vazirning qizi o'qday otilib ichkariga kiribdi! Qarasa dengizga qaragan deraza oldida bir qiz o'tirganchish, sochlarini oltin

taroq bilan tararmish. Taroqdan tushgan har tola sochi o'sha zahoti dengizda oltin baliqqa aylanarmish.

Vazirning qizi darhol gap nimadaligini anglabdi: Ha, mana gap qayerda ekan kuyov to'ramiz xonalarida qiz saqlar ekanlar-da! Menden ko'ngillari soviganining sababi bu yoqda ekan-da! — deb dilidan kechiribdi.

Vazirning qizi yugurib borib, qizni dengizga itarib yuboribdi. Lekin qiz cho'kib ketmabdi: o'sha paytda botgani o'tib ketayotgan quyosh qizni o'zining zarrin nurlari bilan tutib qolibdi-da, to'ppato'g'ri o'z onasining uyiga eltib qo'yibdi.

Gulga suv quyish vaqtি bo'lganda malika eshikni ochib qarasaki, rayhon so'lib yotibdi! Oqshom chog'i kelib qrasa gul butunlay qurib bo'libdil Dasturxon dagi taomlarga ham qo'l urmagan! Malika butkul sarosimaga tushib qolibdi. Chashma suvidan ham olib kelib quyibdiki, baribir foydasiz!

Shu payt ota-bola harbdan qaytib kelishibdi. Shahzoda o'zini ichkariga uringdi, eshikni ochib ne ko'z bilan ko'rsinki, rayhon qurib yotibdi: u yig'lab yuboribdi, onasidan o'pkalabdi:

— Oh onajon, gulga suv quyib turing demovdimmi! Siz bo'lsangiz uni o'z holiga tashlab qo'yibsiz, quritib-qovjiratib o'tiribsiz!

— Voy, bolam, nega suv quymas ekanman, be-xato quyib turdim, ammo nima bo'lib qurib qolganiga aqlim yetmayapti!

— Yoki bu uyga bitta-yarimta yot odam kirdimi!

— Qaylig'ing bilan onasidan bo'lak bu yerga biron ta begona zot izini bosgan emas!

Nima bo'lganini shahzoda darhol tushunibdi va yurak-bag'ri pora-pora bo'libdi. Hatto uni ko'rgani kelgan vazirning qizini ham oldiga solib haydab yuboribdi.

Gultuvakdan chiqqan husnda tengsiz sohibjamol qiz bo'lsa quyoshning uyida gullab-yashnab yuraveribdi, dam-badam u quyoshdan so'rarkan:

— Shahzodaning ahvoli qanday? Harbdan qaytdimi, yo'qmi?

— Yo'q, hali qaytgani yo'q, bemalol yuraver, — deb javob qilarkan quyosh har gal, lekin bir kuni u boshqacha gapni aytibdi: — Shahzoda qaytib keldi, biroq og'ir dardga mubtalo bo'lgan. Eng yaxshi tabiblar ham uni qanday dard adoyi tamom qila-yotganini bilisholmayapti: na ovqat yeydi, na suv ichadi, qurib qolgan rayhondan ko'zini olmay yotgani-yotgan. Bu yotishda uzoqqa bormasa kerag-ov!

— Azizim quyosh, — deb yolvoribdi qiz, — sendan bir iltimos: ertaga ertalab butun olamga nur taratgani chiqqaniningda meni ham o'zing bilan olib chiq. Shahzodaning derazasini yoritganingda nuring gul tuvakka tushadi, men nurdan chopib borib, tuvakka sakrayman.

Qiz nimani iltimos qilgan bo'lsa, quyosh bajonidil ado etibdi. Qiz tuvakka tushishi hamon rayhon barg chiqarib, gul ochibdi va avvalgidan o'n barobar chiroyli bo'lib ketibdi. Rayhonning qaytadan yashnab ketganini ko'rishi bilan shahzoda bemorligini ham unutib, to'shakdan sapchib turibdi va sevinchi ichiga sig'may, og'zi qulog'iga yetib, kech tushishini kuta boshlabdi.

Mana, kech ham tushibdi. Mulozimlar paydo bo'lishibdi, odatdagidek, dasturxon tuzashibdi, shahzoda eshikni zanjirlab olibdi. Bir vaqt rayhon ichidan husnda tengsiz sohibjamol qiz chiqib kelibdi-da, shahzodaning oldiga o'tirib, ikkalasi qizg'in suhbat qurishibdi.

Tun ko'z ochib-yumguncha o'tib ketibdi, ertasiga shahzoda to'y bo'lishligi haqida e'lon qilibdi. Sevgilisi bilan uzoq yillar davr-u davron surib, yoshini yashabdi, oshini oshabdi. Vazirning ichi qora qizini esa onasi bilan qo'shib shahardan badarg'a qilishibdi.

ITALIYA XALQ ERTAGI



PO'RTAHOL MALIKA

Ilgari yigirma yoshli bir xushsuvrat shahzoda bo'igan ekan. U er yetib uylanmoqchi bo'libdi. Qirol saroyiga biri-biridan go'zal mali-ka va kanizaklarni taklif eta boshlabdi. Biroq ulardan birortasi ham shahzodaning ko'ngliga o'tirishmabdi.

— Mana bunisimi, ota? — der ekan shahzoda labini burib. — E qo'ying, sochini ko'rmayapsizmi, xuddi makkajo'xorining so'tasiday shalvirab yotibdi. Ana unisimi? Basharsini qarang, to'sday qop-qora. Anovinisining burni kartoshka.

Xullas, birini o'poq debdi, birini so'poq, bechora malikalar dillari cho'kib, xafa bo'lib, ko'zlaridan shashqator yosh oqizgancha indamay ketaverishibdi.

— Har nima bo'lganda ham, o'g'lim, birontasiga uylanmasang bo'lmaydi, zuryod ko'rishing kerak, axir...

— Ha, gapingiz to'g'ri, ota. So'qqaboshlik ham jonimga tegdi. Lekin siz o'ylaganday duch kelganga uylanib ketaverishim kerakmi?

— Bo'lmasa nima qil deysan?

— Menga pul bilan bir ajoyib ot bering, o'zimga qayliq istab dunyo kezaman. Mana, meni aytdi dersiz, albatta topaman. Bordi-yu, men hech kimga yoqmasam, unda taqdirimdan ko'raman.

Shahzoda shu gaplarni aytibdi-yu, hayyo-hayt deb yo'lga tushibdi. Mamlakatning u chekkasidan bu chekkasigacha aylanib chiqibdi, biroq murodi hosil bo'lmasdi.

Bir kuni u kimsasiz o'rmonidan ketib bora-

yotsa qalin butalar orasida ivirsib turgan bir keksa ayolga ko'zi tushibdi. Sho'rlik ozg'inligi shunchalikki, badanlari qoq suyak, egnidagi juldur kiyimi na issiqdan, na sovuqdan asraydi, izg'irin tufayli kuzgi xazonday dir-dir qalti-rarmish. Shahzodaning ko'ngli xuddi bizning ispan noniga o'xshab nihoyatda oq va toza ekan. Otdan sakrab tushibdi-da, kampirdan so'rabdi:

— Bu juldur kiyimda sovqotmayapsizmi, buvijon?

— Azbaroyi sovqotganimdan tilim gapga ham aylanmayapti!

— Mana, buni oling, — deya shahzoda kam-pirga o'zining dur-javohirlar qadab bezatilgan chophonini uzatibdi. Keyin qo'shimcha qilib debdi: — Mana bu pul to'la hamyon ham sizga bo'la qolsin.

— Umrindan baraka top, yaxshi odam. Xo'sh, ayt-chi, senga yo'l bo'lsin? — deb so'rabdi kampir o'ziga kelib.

Shahzoda shuncha izlasa ham o'ziga munosib bir qayliq topolmayotganini, bu ahvolda uyga qo'lini burniga tiqib qaytishiga to'g'ri kelishini aytibdi.

— Ha-ha, men bir go'zalni bilaman, uning ismi Po'rtaholbonu. Uni o'z ko'zing bilan bir ko'rsang edil Yuzlari naqsh olmaday qip-qizil, ko'zlar charosday qop-qora! Lablari yoqutmi deysan! Yal-yal yonadi! Uni aytса bo'ladi go'zal deb!

— Buvijon, tezroq aytинг, bu malika qayerda turadi? Xuddi men izlab yurgan sohibjamol o'sha bo'ladi, haltdan uni sevib qoldim!

— Qulog sol. Mana shu yo'lidan to'g'ri ketaverasan, oxiri qalin chakalakzorga duch kelasan, o'sha yerda bir kulba bor. Ichkariga kirgach, u yog'iga nima qilish kerakligini o'zing

bilib olaverasan. Lekin avval shahar tushib, har xil ayollar kiyimidan xarid qil. Ular senga asqotadi. Taroq bilan qistirg'ichlar olish ham esing-dan chiqmasin. Oq yo'l, bo'talog'im!

Shahzoda shaharga ot qo'yibdi, kiyimlarni rosa olibdi — pulning yuziga bormabdi, keyin o'rmonga, kulba tomon yelib ketibdi.

— Taq-taq-taq!

— Kiravering!

Shahzoda uyg'a kiribdi. Oshxonan qurumdan qop-qorayib ketgan ekan, bir burchakda qurt yegan shkaf turganmish, boshqa burchakdagi o'choq oldida cho'g'ni titkilab bir kampir o'tirganmish.

— Mening uyimga nima istab kelding? — so'rabdi kampir.

— Olovni bir ko'rsam degandim, sizga har xil kiyimlar ham olib keldim, — deb javob beribdi yigit.

— Barakalla, barakalla! — debdi boshi osmonga yetib kampir.

Yigit uning yelkasiga chiroyli sholni tashlabdi, yuz-qo'lini chayishga yordamlashibdi, sochlariga qistirg'ich qistiribdi, hatoki qulog'iga sirg'a ham taqib qo'yibdi. Bir zumda kampir malikaga aylanibdi-qo'yibdi. Yuzlari gul-gul ochilib, qaddi ham sarvday tik bo'libdi.

— Voy bolajonim-ey, xudo yo umring uzoq bo'lsin! Bu himmatlaring evaziga ne tilaysan?

— Hech narsa kerak emas menga, buvijon! Faqat menga bir narsani aytangiz kifoya: malikani qanday topsam bo'ladi?

— E-ha, gap bu yoqda de hali...

Kampir o'rindan turibdi, shkafchaga sudralib boribdi va uning ichidan uch dona po'rtaholni olibdi.

— Gapimga diqqat bilan qulq sol. Mana bu uchta po'rtaholni olda, bittadan po'stini yaxshi-

lab archi. Shunda sen qidirib yurgan qaylig'ing bino bo'ladi. Ammo esingda bo'lsin: po'rtahol-larni biron ta daryoga yaqin joyda archi.

Shahzoda keksa kampirga tashakkurlar aytib-di-da, po'rtahollarni olib, jo'nab ketibdi.

Shahzoda ketaveribdi, ketaveribdi, rosa uzoq yuribdi, u po'rtahollardan hech bo'lmasa bit-tasining po'tlog'ini archishni juda-juda istabdi. Yaqin-orada biron daryomi, anhormi bormikin deb tevarakka ko'z solibdi, lekin unday narsalardan nishona ham ko'rinxabdi. Toqati tugab, sabri chidamay ketaveribdi. Eh attang, biron ta daryo-paryo uchramadi-ya, — deb o'yabdi u. — Menga qanday qiz nasib qilishini shundoq bilgim kelayaptiki... Shundan so'ng u shartta po'rtaholni archishga boshlabdi.

Ana, bitta qiz bolaning qo'li ko'rindi, keyin ikkinchisi. Po'rtahol po'stlog'ini shilib olinishi bilan shahzodaning ro'parasida oy desa oy, kun desa kunday bir go'zal qiz paydo bo'libdi.

— Suv ber, darhol suv ber menga! — deb yalina boshlabdi qiz.

Shahzoda hang-mang bo'lib qolibdi, uyoq-bu yoqqa alang-jalang qarabdi, biroq bir tomchi ham suv topolmabdi!

— Kechirasani, menda suv yo'q!

— Afsus, unda men o'lar ekanman-da, — deb qiz va shu zahotiyoy ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Go'zal qizdan ayrilib qolgani shahzodaga juda og'ir bo'libdi, biroq qo'lidan nima ham kelardi, taqdirga tan berib yo'lida davom etibdi. Qo'lida ikkinchi po'rtaholni ko'tarib borar ekan, la'natni qiziqish unga bir zum tinchlik bermabdi. Oxiri yigit chidab turolmabdi po'rtaholni archibdi, qarasa oldida boyagidan ham chiroyliroq bir qiz paydo bo'libdi.

— Tez suv ber menga, suv ichaman! — deb yalinibdi qiz.

— Menda suv nima qilsin...

— Hayhot, ochilmasdan so'lar ekanmanda, — debdi-yu, bu qiz ham ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Nihoyat yigit bir buloqqa duch kelibdi. Suyunganidan u ottan sakrab tushibdi va avaylabgina uchinchi po'rtaholni archiy boshlabdi. Endi uchinchi qiz uning qarshisida paydo bo'libdi — uning ikkala yuzi quyoshga, ko'zlarini tubsiz moviy osmonga o'xsharmish. U ham darhol yalina boshlabdi:

— Shahzoda, suv ber mengal Chanqadim! Chidolmayapman!

Yigit buloqqa otilibdi, hovuchiga suv olib, ichqizgani qizga tutibdi. Qiz hovuchdagi suvni ichib bo'lib:

— Minnatdorman, — debdi-da, yigitni o'pib qo'yibdi.

Shahzoda o'ziga unashadirgan qiz shu ekanini anglabdi. Baxti ochilganidan terisiga sig'may yigit sohibjamol qizni otiga mingashadiribdi-da, uyi tomon ravona bo'libdi. Kechga yaqin Rim yaqinidagi bir mehmonxonaga o'xhash uyga yetib kelishibdi va shu yerda tunab qolishibdi. Ertalab shahzoda Po'rtahol malikaga qarab shunday debdi:

— Men senga ko'z ko'rib, qulqoq eshitmagan ajoyib kiyimlar olib beraman, meni shu yerda kutib tur.

U qizni o'pib qo'yibdi-da, hovliga chiqib, uy bekasiga tayinlabdi:

— Qaylig'imga ko'z-qulqoq bo'lib tur, men kelgunimcha biron-bir ziyon-zahmat yetmasin, men tezda qaytaman.

Bekaning oldiga bir hamyon pul tashlabdi-da, shaharga ot solib ketibdi.

Beka esa aslida yovuz niyatli jodugar ekan. Shahzoda ko'zdan yo'qolishi hamon o'zining

tasqara-yu taraqqos qizini bir chetga chaqirib, qulog‘iga shunday debdi:

— Shunday barno yigitni qo‘ldan chiqaramizmi, shunga erga tegib qo‘ya qolmaysanmi? Qalay, gapim senga ma‘qulmi?

— Bo‘lmasam-chi, tegaman.

— Bo‘pti. Iznimidan chiqma.

Jodugar xotin Po‘rtahol malika turgan xonaga kirib boribdi va debdi:

— Shahzodam sochlaringni tarab qo‘yishimni tayinlab ketuvdilar.

— Rahmat, men sochimni o‘zim tarab o‘rganganman.

— Voy-bo‘y, taqimingga tushgan quloch sochingni bir o‘zing qanday eplaysan?

— Ha, eplayman, — jilmayib javob beribdi qiz.

— Kel, shunday bo‘lsa ham tarab qo‘yay.

Qiz ortiq qarshilik qilmabdi. Keksa jodugar uning sochini taray boshlabdi. U tarab bo‘lganidan keyin qistirg‘ichlarni to‘g‘ri malikaning boshiga sanchibdi. Ammo bu oddiy qistirg‘ichlar bo‘lmay, balki sehrli ekan. Qiz qaldirg‘ochga aylanib qolibdi va xonada charx urib ucha boshlabdi, oxiri o‘zini derazaga uribdi.

— Tez buyoqqa kel, — deb chaqiribdi jodugar o‘z qizini. — Uyda o‘tirib, yigitning kelishini kut.

Kun tush bo‘lganda shahzoda qaytib kelibdi. Zinadan o‘qday uchib yuqoriga ko‘tarilibdi-da, uyga kirib kelibdi, biroq ichkarida jodugarning qizini ko‘rib, hayron bo‘lib debdi:

— Mening qaylig‘im qani?

— Mana, menman qaylig‘ing. Faqat seni kutaverib, hajringda kuyib shu holga tushdim, — deb javob qilibdi bekaning qizi va shilq-shilq yig‘lashga tushibdi.

Shahzoda qarshisida qaylig‘i turganiga sira ishongisi kelmabdi. «Hajrimda emish, behuda

gap, — deb ko'nglida o'yabdi u. — Bu taviya qizning niyati yaxshi emas. Lekin sir boy bermay, makkor qizga qarab debdi:

— Nima ham derdim, ketdik saroyga, yo'limizga ko'z tutib turishibdi.

Ular Rimga yo'l olishibdi. Qirol bilan qirolichanihoyat o'g'limiz o'ziga qayliq topib keldi-ya, deb suyungandan suyunishibdi. Bo'lajak kelinlarining qanchalik badjahl va ahloqsiz ekanligi ularning hali tushlariga ham kirmagan ekan. O'sha kuniyoq to'y boshlanib, juda katta tantana bo'libdi. Quyuq-suyuq taomlar juda mo'l va mazali bo'libdi. Dasturxonda yo'q narsaning o'zi yo'q ekan, yong'oq-danakdan tortib ming xil shirinliklarga cha ayamay to'kib tashlangan ekan. Qirolning oshxonasida nimalar bo'lmaydi, deysiz!

Oshpaz oshxonada kuymanib taomlar tayyollar, qirolning mehmonlarini to'ydirishga harakat qilar ekan. Birdan kimningdir ingichka, mayin ovozda qo'shilq kuylayotganini eshitilib qolibdi:

*Oshpaz, oshpaz, hoy oshpaz,
Menga qulog sol birpas:
Ovqat pishir kuydirib,
Jodugar ketsin turib!*

Oshpaz taxta bo'lib qolibdi. U yoq-bu yoqqa ko'z yogurtiribdi, hech kim yo'qmish, faqat devara rahida bir qaldirg'och o'tirganmish. Oshpaz qovurdoqni duxovkadan olib qarasaki, kuyib, qop-qora ko'mirga aylanib bo'lganmish.

U darhol boshqa taom pishirishga kirishibdi, masalliqni olovga qo'yishi bilan boyagi ovoz yana o'sha qo'shiqni kuylabdi:

*Oshpaz, oshpaz, hoy oshpaz,
Menga qulog sol birpas:
Ovqat pishir kuydirib,
Jodugar ketsin turib!*

Oshpaz derazaga burilib qarasa, u yerda tag'in qaldirg'och o'tirganmish va unga tikilib qarab turganmish. Yana ovqat qop-qora kuyindiga aylanibdi.

Oshpaz qo'rqib ketibdi, hamma idish-tovoq, qozon-cho'michlarni uloqtiribdi, shahzodaning oldiga yugurib boribdi-da, oshxonadagi hangomalarini so'zlab beribdi.

— Tush-mush ko'rmayotibsang mabodo? — hayron bo'libdi shahzoda.

— Tush qayoqda, shahzodam, o'ngimda bo'layotibdi bari!

— Qani yur-chi, borib ko'raylik.

Jodugar xotinning qizi ish chatoqlashayot-ganini sezibdi-da, shahzodaga pichirlab debdi:

— Qayoqqa ketayapsan? Qaylig'ingni to'yda tashlab qochmoqchimisan? Yonimdan jilmaysan!

Biroq shahzoda uning gapiga qulq solmabdi — to'g'ri oshxonaga boribdi.

Oshpaz uchinchi marta qovurish uchun bir parcha go'shtni qozonga tashlabdi. Taom endi tayyor bo'lay deganda haligi musiqiy ovoz yana qo'shiq ayta boshtagdi. Yana go'sht qop-qorayib kuyib ketibdi. Derazada esa yana o'sha qaldirg'och o'tirganmish...

— Men uni tutib olaman, — debdi shahzoda.

— Qaldirg'ochga tegma, axir u jodugar-kul — qichqirib yuboribdi qayliq, u shahzodaning izidan chopacha oshxonaga kirib kelgan ekan.

Yigit derazaga yaqin kelgan ekan, qaldirg'ochning o'zi uning qo'liga kelib qo'nibdi. U qushchani silab erkalagan ekan, qo'li uning boshchasidagi qattiq bir nimaga tegibdi. Sug'u-rib olsa, qistirg'ich ekan — bitta qiz bolaning qo'li paydo bo'libdi, ikkinchi qisirg'ichni sug'urgan ekan, ikkinchi qo'l paydo bo'libdi, uchinchi qistirg'ichni sug'urishi bilan ro'parasi-

da Po'rathol malika namoyon bo'libdi. Qiz o'zini yigitning bag'riga otibdi va boshidan o'tganlari ni oqizmay-tomizmay hikoya qilib beribdi.

— Ming la'nat senday makkorgal — deb qichqiribdi shahzoda jodugar xotinning qiziga qarab.

Jodugar xotinni tutishibdi-da, oyoq-qo'llariga yo'g'on-yo'g'on zanjirlar urib, zindonga tashlashibdi. Shahzoda bilan malika esa nikohdan o'tishib shunaqangi katta to'y qilib berishibdiki, uni so'z bilan ta'riflab bo'lmas ekan.

*Men ham bo'ldim shu to'yda,
Suyakmi mujish o'yda.
Tepki yedim burundan,
O't chaqnadi ko'zimdan.
Hech narsa yemasam-da,
Ertak opkeldim sizga!*



ISPAN XALQ ERTAGI



QO'SHIQCHI TO'RVA

Bir qizcha bo'lgan ekan, u shunchalik erkatoj ekanki, tug'ilgan kuniga onasi unga oltin uzukcha sovg'a qilibdi. Uzuk katta ekan, lekin qizaloq azbaroyi suyunganidan har doim yonida olib yurarkan. Kunlarning birida onasi uni chashmadan borib bir ko'za suv olib kelgani yuboribdi. Qizaloq ketibdi, chashma bo'yiga kelgach, suvga tushib ketmasin deb uzukni bar-mog'idan olibdi va tosh ustiga qo'yib qo'yibdi. Ko'zani chayib, suvga to'ldiribdi-da, iziga qaytibdi. Tosh ustida unutib qoldirgan uzugi uyiga kelgandagina esiga tushibdi.

Qaytib orqaga chopibdi, biroq uzuk joyida yo'q emish. U yoqni qarabdi, bu yoqni qarabdi — uzuk hech qayerda yo'qmish. Chashma bo'yida bir tilanchi chol o'tirgan ekan, qizaloqning tashvishini ko'rib so'rabdi:

— Ha, oppoq qizim, nimani qidirayapsan?

Qizcha yig'lab yuboribdi va:

— Mana bu tosh ustida oltin uzugimni qoldirgan edi, topolmayapman. Topmasam, onam xuddi kunimni ko'rsatadilar, — debdi..

— Tashvish qilma, oppoq qizim, — deb javob qilibdi chol. — Beri kel, to'rvaga qo'lingni suqib, uzugingni ol, men uni shunga solib qo'yuvdim.

Qizcha qo'lini to'rvaga suqishi bilan chol uni to'rva ichiga itarib yuboribdi va to'rvaning og'zini bog'ich bilan bog'lab, yelkasiga ilibdi.

Qizcha yig'labdi, yalinib-yolvoribdi, chol esa unga shunday debdi:

— Agar aytganimday qilib qo'shiq kuylasang qo'yib yuboraman.

*Kuyla, to'rva, men aytganday.
Yo'qsa qayta-qayta chayqay.*

Shundan so'ng u qishloqma-qishloq yurib, tirikchilik uchun rizzq-nasiba qidirib ketibdi. Qayerga bormasin, to'rvani yo'lning o'rtasiga qo'yarkanda, derkan:

*Kuyla, to'rva, men aytganday.
Yo'qsa qayta-qayta chayqay.*

Qizcha qo'shiq qilib kuylarkan:

*To'rva menga lahad bo'ldi,
G'am-hasratlar qildi ado.
Qaydan chashma bo'yida men
Uzugimni qoldirdim-ov!*

Odamlar, bu tilsim to'rva ekan, deb cholga tangalar sadaqa qilishar ekan. Chol bo'lsa tangalarni yig'ib, to'rvani yelkasiga ilarkan-da, narigi qishloqqa yo'l olarkan. Shu tariqa kezib yurib-yurib u talay pul to'plabdi. «Endi, — deb o'ylabdi chol, — yeganim oldimda, yemaganim ketimda bo'ladi». U karvonsaroyga kirib, ovqat so'rabdi. Yebdi, ichibidi, haq to'lash kerak bo'libdi. U to'rvani yerga qo'yib debdi:

*Kuyla, to'rva, men aytganday.
Yo'qsa qayta-qayta chayqay.*

Qizcha kuylabdi:

*To'rva menga lahad bo'ldi.
G'am-hasratlar qildi ado.
Qaydan chashma bo'yida men
Uzugimni qoldirdim-ov!*

Qiz qo'shiq aytarkan-u yig'larkan, karvonsaroy bekasi bu yerda bir gap borligini payqabdi. Bir

vaqt chol to'rvani oshxonada qoldirib, tashqarini aylanib kelmoqchi bo'libdi. U chiqib ketgandan keyin beka to'rvani ochib qarabdi, qarasa ichida bir qizcha o'tiribdi. Qizcha bo'lganda ham shunday yoqimtoy, jajji ekanki, ko'rganning suqi kirguday. Faqat ochlik bilan sovuqdan rosa sillasi qurigan emish. Qizchani ovqatlantirishibdi, qalin kiyimlar kiydirishib, keyin yashirib qo'yishibdi. To'rvaga bo'lsa turli xil jondorlarni: qurbaqa, kalamush, ilon va kaltakesaklarni solib qo'yishibdi.

Ertalab chol tunash haqi to'lashi kerak bo'libdi, biroq puli qolmagan ekan, shuning uchun yangit-dan pul ishslashga ahd qilibdi. To'rvaga yerga qo'yibdi-da:

*Kuyla, to'rva, men aytganday.
Yo'qsa qayta-qayta chayqay. —*

deb takrorlay boshlabdi. Biroq qancha takrorlasin, to'rva ichidan sas-sado chiqmabdi. Nochor yonidagi qolgan-qutgan pullarni jonini chiqarib berganday qilib tunash haqini to'labdi-da, g'azab-dan qizarib-bo'zargancha toqqa yo'l olbdi. Tayoq bilan to'rvani harchand chayqatmasin, harchand so'kib-so'zlamasin, hech bir ish chiqarolmabdi, faqat to'rva ichidagi jodorlarning jig'iga tegib, jinini qo'zitgani qolibdi, xolos. To'rvaning og'zini ochgan ham ekanki, ichidagi zaharli-yu zaharsiz jondorlar yoppasiga unga tashlanib, ayamay chaqa ketishibdi, tishlab uzib-uzib olishibdi, ko'p o'tmay chol ne azobda jon beribdi. Qizaloq esa omon-eson ota-onasining oldiga yetib kelibdi va hammadan ko'p umr ko'ribdi. O'raga sichqon tushdi guldur-gup, ertagimiz tamom bo'ldi, ur dup-dup.

FARANG XALQ ERTAKLARI



SUTLI QON

Yer yuzida shunday bir sohibjamol qiz yashagan ekanki, husni-tarovatiga qiyos qilib uni hamma Sutli qon deb atar ekan. Ota-onasi uni odamlar ko'zidan yashirin saqlar, olib qochib ketishmasin deb har doim uyning ustidan qulflab qo'yishar ekan. Onasi biron yoqqa ketib, qaytib kelganida albatta deraza tagiga kelib shunday qo'shiq aytar ekan:

*Sutli qonim, hoy Sutli qonim,
Eshikni ochgil, jonim,
Sovuqdan qotdi, jonim!*

Qiz deraza oldiga kelarkan, o'rim sochini to yerga tekkuncha tushirarkan, ona sochga osilib derazaga chiqib olarkan. Har doim u shunday qizining sochiga osilib uyga kirarkan.

Kunlarning birida shu yurtning shahzodasi ovga chiqib, Sutli qonlarning uyi oldidan o'tib qolibdi. Bir vaqt uning qulog'iga kimningdir:

*Sutli qonim, hoy Sutli qonim,
Eshikni ochgil, jonim,
Sovuqdan qotdim, jonim, —*

deb qo'shiq aytayotgani chalinibdi. Deraza ochilib, bir qiz qarabdi, sochini yergacha tushiribdi. O'zi shunaqangi go'zal, sohibjamol ekanki, uni yaqinroq-dan borib ko'rgisi kelibdi. Lekin uyga qanday kira olardi? Eshik-teshik hammasi taqa-taqa berk, qulflog' bo'lsa. He, bu anoyi shahzodalardan ekanmi, darrov miyani ishga solibdi. Ajoyib kunlarning

birida u deraza tagiga kelibdi-da, qizning onasiga o'xshatib kuylay boshlabdi:

*Sutli qonim, hoy Sutli qonim,
Eshikni ochgil, jonim.
Sovuqda qotdim, jonim.*

Qiz ham onam keldi deb sochini tushiribdi, yigit sochga osilib tepaga ko'tarilibdi. Chaqirilmagan mehmonni ko'rib qiz hang-mang bo'lib qolibdi.

— Oh badbaxt odam, nima ish qilib qo'yganningni hilasanmi? Boshingga ne savdolar tushishi-dan xabaring yo'qmi?

— Sen uchun o'limga ham roziman! — dangal javob qaytaribdi shahzoda.

Baxtga qarshi shuning ustiga onaizor ham kelib qolibdi. Har doim bo'lganiday, qizini qo'shiq aytib chaqiribdi. Sutli qon esa bir dona po'rtahol olib, shahzodani shunga yashiribdi-da, shundan keyin derazadan sochini tushiribdi. Onam shahzodani o'ldirib qo'ymasa bo'lgani deb bechora qizning yuragi rosayam takapuka bo'libdi. Axir onaizor deganimiz g'irt jodugar ekan-da. Ona xonaga kirib kelib, so'rabdi:

— Nega uydan odam isi kelayapti?

— Uyda mendan boshqa hech kim yo'q, — javob beribdi qiz. — Uyga qanday ham kira olardi?

— Yo'q. Yo'q, kimdir yashiringan, — tinib-tinchimabdi jodugar va burchak-burchaklarni timirskilab, hidlay boshlabdi. — Ha, xuddi odam isi kelayaptil Ho'p, mayli, qani, ovqatingni keltirchi, ona qizim!

Jodugar endi po'rtaholga qo'l uzatganda qiz darhol boshqa po'rtaholni keltirib beribdi. Kampir po'rtaholni yebdi-da, shahzoda jon saqlab qolibdi.

Jodugar ketibdi. Sutli qon shahzodani po'rtahol ichidan chiqarib qo'yibdi.

Shahzoda jon saqlab qolishga qolibdi-yu, lekin qizning oldidan sira ketgisi kelmabdi, bir daqiqa ko'rmasa turolmaydigan bo'lib qolibdi. Ko'p o'tmay u yana deraza tagiga kelibdi-da, qizning onasiga o'xshatib kuylay boshlabdi:

*Sutli qonim, hoy Sutli qonim,
Eshikni ochgil, jonim,
Sovuqda qotdim, jonim!*

Qiz derazani ochib, sochini tashlabdi, yigit sochga osilib yuqoriga ko'tarilibdi. To onaizor qaytib kelguncha ikkalovi o'tirib, xo'p ko'ngil ochishibdi. Qiz bu gal shahzodani yong'oqning ichiga yashiribdi va onasini tortib olibdi.

Jodugar ichkariga qadam qo'yar-qo'ymas atrofni iskalab, dag'-dag'a uribdi:

— Bu safar aniq sezdim. Kimdir uyda berkinib olgan!

— Kim ham kira olardi bu uyg'a, onajon?

— Odam isi qayoqdan kelayapti bo'lmasa?

Ona yong'oq yemoqchi bo'libdi. Sutli qon chaqqonlik bilan unga boshqa yong'oqni beribdi.

Jodugar ketibdi, qiz shahzodani yong'oqdan chiqaribdi va yana kelishi haqida va'dasini olibdi.

Uchinchi gal shahzoda hech qanday hadik-qo'rquvsiz kelibdi. Qizning sochiga tarmashib derazaga ko'tarilishi bilan qiz unga debdi:

— Qachongacha onam bilan sichqon-mushuk o'ynaymiz? Ko'za kunda emas, kunida sinadi dey-dilar. Kel yaxshisi ikkovimiz qochib ketamiz.

Ular pastga tushishibdi-da otxonaga yugurishibdi.

— Bu yerda ikkita ot bor. Ozg'inrog'ini ol, — debdi qiz..

Shahzoda qarasaki, ikkita ot turibdi: biri ozg'in, ikkinchisi yiltiragan. U yiltiraganini tashlabdi.

Qiz yozg'irib debdi:

— Uh, nima qilib qo'yding-a? Ozg'ini tashvish-day uchar edi. Yiltiragani esa shamolday yeladi. Tashvish shamoldan tezroq yuguradi-kul!

Lekin kutib o'tirishga fursat bor ekanmi. Qiz

bir yumaloqsovun, bitta taroq va bir g'altak ip olibdi. Shahzoda otning sag'risiga, qiz esa egarga joylashib o'tirishibdi-yu, shamoldek yelib ketishibdi.

— Qulog'ing orqasida shamol esishi hamon menga aytgin, — debdi Sutli qon.

— Qulog'im orqasida shamol esdi, — qichqiribdi bir vaqt shahzoda.

— Xuddi shuni ko'nglim sezib turuvdi! Onam otamni orqamizdan quvib yetishni buyurdi.

Shunday deya qiz qo'lidagi sovunni yerga tashlabdi. Sovun tushgan joyda sovunday silliq va toyg'oq tog' qad ko'taribdi.

Jodugar ota esa boyagi tashvishday uchqur otni mina jo'nagan ekan. U qochqinlarni ko'z ochib-yumguncha quvib yetibdi-yu, sovuntog'dan oshib o'tishning iloji bo'lmaabdi. Ot tiyg'anib, sirg'alib ketaveribdi. Oxiri hafsalasi pir bo'lib, qup-quruq uyga qaytib ketibdi.

Uyoqda esa Sutli qon shahzodaga debdi:

— Onam otamni urishadi, otam orqamizdan quvib keladi.

Rostdan ham jodugar xotin erining quruq qaytib kelganini ko'rib so'rabdi:

— Qochqinlarni topoldingmi?

— Qayoqda. Yo'limda sovuntog' paydo bo'lib, undan oshib o'tolmadim, sirg'alib ketaverdim.

— Eh kallavaram, miyasi suyulgan choll Ayni o'zlarini ko'rgan ekansan-ul Qani, darrov yo'lga tush, ularni quvib yet!

Ota noiloj yana yo'lga tushibdi, tagidagi ot tashvishday uchib ketibdi.

Shunda shahzoda yana qizga qichqiribdi:

— Qulog'im ortidan shamol esdi!

— Bu otam! Qani, taroqni tashlay-chi!

Qiz taroqni tashlabdi, taroq tushgan joyda tikonlari nayzaday o'tkir changalzor o'sib chiqibdi. Changalzorni kesib o'tolmay ota uyiga qaytib ketibdi.

— Quvib yetdingmi? — deb so‘rabdi jodugar eridan.

— Yo‘q, yo‘limda sertikon changalzor paydo bo‘lib, ichiga kirdim-u, adashib qoldim. Zo‘rg‘a yo‘l topib, izimga qaytib keldim.

— Eh laqma chol! Xuddi shu ikkalovi bo‘lar edi! Bo‘pti, bu gal o‘zim quvib boraman.

Shunday deb jodugar erining otiga minibdi-da, chovutiga qamchi bosibdi.

Uzoqdan onasi kelayotganini ko‘ribdi-yu, Sutli qon debdi:

— Onam kelayapti, endi undan qochib qutulishimiz amri mahol, zora daryo jonimizga oro kirsa.

Shunday deb u g‘altak ipni tashlabdi — o‘sha zahoti jodugarning yo‘lida ilang-bilang bo‘lib oqib yotgan daryo bino bo‘libdi. Onaizor quloch otib suzaveribdi, suzaveribdi, lekin sira narigi qirg‘oqqa yetolmasmish.

— Hah, shoshmay tur hali, megajin qiz! — deb qichqiribdi ona. — Kuyoving boshqa birov bilan quchoqlashgani hamon bir-biringdan judo bo‘lmasang, otimni boshqa qo‘yaman! U seni tashlab ketadi!

Shunday deb kampir iziga qaytib ketibdi.

— Eshitdingmi, — debdi qiz shahzodaga, — boshqa birov bilan quchoqlashishing mumkin emas ekan, bo‘lmasa meni unutar ekansan.

— Bo‘pti, quchoqlamayman.

Kunlarning birida shahzoda qarindosh-urug‘-larini ko‘rgani uyiga bormoqchi bo‘libdi. Ota-onalari u bilan quchoqlab ko‘rishmoqchi bo‘lishgan ekan, shahzoda o‘zini orqaga olib:

— Meni quchoqlamanglar! — dermish.

Yo‘l azobidan horib charchagan shahzoda yotib-di-yu qotibdi. Shu paytda ularnikiga xolasi mehmon bo‘lib kelib qolibdi. Jiyanini ko‘rib, bechora xola o‘zida yo‘q suyunib ketibdi-da.

— Qani, jiyanimni bir bag'rimga bosib, yuzlari dan o'pay, aylanay, — deb shahzodaning ustiga bostirib kela boshlabdi.

— Qo'ying, kerak emas, u uxlayapti-ku, — deyishibdi shu yerda hozir bo'lganlar.

— Yo'q, bag'rimga bosmasam, yuzlaridan o'pmasam, diydoriga to'ymayman.

Shunday deb xola shahzodani quchoqlabdi. Shahzoda uyg'onib ketibdi-da, hamma narsani unutibdi. Go'zal yori yoniga qaytib borishni xayoliga ham keltirmasmish, boyoqish Sutli qon bir o'zi bag'ri qon, ko'zlarini giryon yolg'iz qolaveribdi.

Qanday qismati sho'r qiz ekanki, gulday yoshida bichiqchilik kasbi bilan shug'ullanib, karvonsaroyda it yotish, mirza turish bilan kun kechirsa. Bir kuni uning qarshisiga uch yigit kelib to'xtabdi. Sohibjamol qizga qarab uchalovlari ham undan ko'zlarini uzolmasmish. Ulardan biri dermish:

— Mana ko'rarsizlar, men shu qizning visoliga yetmay qo'ymayman!

Sutli qon uning gapini eshitib qolibdi.

— Nima ham derdim, — debdi qiz. — Soat kechki o'nga zang urganda kela qol, yo'lingga qarab turaman.

Soat o'n karra zang urganda yigit kelibdi. Qiz uy ichidan turib qichqiribdi:

— Pastdag'i eshikni yopib qo'y!

Yigit eshikni yopgani ketibdi, biroq u harchand eshikni yopmasin, yana ochilib ketaveribdi. Tun bo'yi eshik oldidan ketmay, sovuqda lablari gezarib, eshikni yopib-ochib, yopib-ochib turaveribdi.

Saharda soat beshga zang urganda karvonsaroy bekasi chiqib, yigitga ko'zi tushibdi va hayron bo'lib:

— Senga nima bo'ldi? Hali ham eshikni yopmadingmi? — deb so'rabdi.

Shunday deb eshikni dastasidan ushlab tortgan ekan, eshik qars etib yopilibdi.

Uch oyayni tag‘in bir joyga to‘planishib, ikkin-chisi dermish:

- Bugun men shu qizning vasliga yetishaman!
- Nima ham derdim, kela qol, — debdi sohib-jamol qiz. — Soat kechki o‘nga zang urganda seni kutaman.

Soat o‘nga zang uribdi, yigit kelibdi, qiz uy ichidan turib ovoz beribdi:

- Pechkaning olovini o‘chirib kel, esimdan chiqibди!

Yigit borib xokandoz bilan cho‘g‘ va qo‘rni pay-darpay chiqarib tashlayveribdi, yo alhazar, qancha ko‘p chiqarib tashlagani sayin olov kuchliroq yona boshlar emish. Butan tun yigit pechka oldida ivirsib, og‘zi-burni kulga to‘lib, o‘tni o‘chirish bilan ovora bo‘libdi.

Ertalab soat beshda Sutli qon uyqudan uyg‘onib, uning oldiga chiqibdi. Pastda pechka oldida sarsoni chiqib yotgan yigitga ko‘zi tushib so‘rabdi:

- Senga nima boo‘ldi? Haligacha o‘tni o‘chir-madingmi?

Shunday deb xokandozni qo‘liga olibdi-da, qo‘rdan olib olov ustiga sepib chiqqan ekan, olov o‘chibdi-qolibdi.

Yigitlarning uchinchisi sohibjamol qizga chin dildan mehr qo‘ygan o‘sha shahzodaning o‘zi ekan. U ham debd:

- Bugun men shu qizning vasliga vosil bo‘lamан!

Xuddi kelishilganidek, shahzoda soat o‘nga zang urganda kirib kelibdi. Sutli qon iltimos qilibdi:

- O‘sha yerdagi yuvundini to‘kib kel, esimdan chiqib qolibdi.

Shahzoda yuvundini olibdi-da, to‘kkani chiqib-di. Biroq chakki ishga qo‘l urganini sezibdi, gap shundaki, yuvundini to‘kkan zahoti idish yana yuvundiga to‘lib qolaverarmish. Tun bo‘yi yuvundi idish qo‘lidan tushmay, sho‘rlik, shahzoda hovli-dan beri kelmabdi.

Ertalab beka hovliga chiqib:

— Bu qanaqasi? Hali ham yuvundini to'kma-dingmi? — deb so'rabdi.

Shuday deb idishni shahzodaning qo'lidan olib bir ag'dargan ekan, yuvundi bitta qolmay yerga to'kilibdi.

Uchala o'rtoq yana bir joyga to'planishib, har biri nima bo'lganini so'zlab bera boshlabdi. Birinchisi debdi:

— Men tun bo'yi eshikni yopib chiqdim.

Ikkinchisi debdi:

— Men tun bo'yi pechkadagi olovni o'chirib chiqdim.

Uchinchisi debdi:

— Ikkalangizning omadingiz bor ekan. Me tun bo'yi yuvundi ag'darib chiqdim.

— Obbo ayyor qiz-ey! Uchovimizning ham oldimizga boplاب poxol to'shabdi-ku, a?

Karvonsaroy bekasi aslida sevgan yori ekanini bilolmay shahzoda uyiga qaytibdi. Vaqt-sovati kelib u uylanishga jazm qilibdi. Unga qayliq bo'lmish qiz nikoh liboslari tikdirgani karvonsaroy bekasining oldiga boribdi. Sutli qon unga juda chirroyli libos tikib beribdi. Kelin bilan kuyov nikoh o'qitgani borishsa, yo tovba, kelinning egnidagi libos boshdan oyoq latta-puta-yu janda-jundaga aylanib qolganmish.

— Bu qanaqa kiyinish bo'ldi? — deb so'rabdi shahzoda. — Men senga uylanmayman..

Kelin oyog'ini qo'liga olgancha yana beka-ning huzuriga chopibdi. Sutli qon yana ajoyib libos tekib beribdi, nikohga borsa, libos tag'in o'sha-o'sha janda-yu latta-puttaga aylanib qolganmish.

Uchinchchi kuni shahzodaning o'zi qaylig'ini bichiqchingning oldiga yetaklab boribdi. Sutli qon shahzodaga uni otasining uyida qanday libosda ko'rgan bo'lsa, xuddi o'shanday libos tikib beribdi.

Shahzoda libosga qarab o'zining sevikli yorini darhol tanibdi va ko'zлari muhabbatdan yulduzday chaqnab, Sutli qonni ko'rsatib debdi:

— Mana mening qaylig'im, boshqasining menga keragi yo'q.

BURUNDOR AMAKI

Yorug' olam bag'rida, osmon ostida, yerning ustida bir-biriga qo'shni ikki qirol yashagan ekan. Ular bir-biriga shunchalik o'chakishib, hasad qilar ekanki, oxiri o'rtada urush chiqibди. Qirollardan birining shunaqangi abjag'i chiqibdi-ki, qo'shinini sira o'nglayolmabdi, daryo sohili- ga tiqilib qolib, o'tish uchun na bir ko'prik, na bir xoda bormish.

Qirol o'z zabitini dushman nimalar qilayot-ganini bilib kelishga yuboribdi. Zabit o'rmonda- gi eng baland daraxtning eng uchiga chiqib, atrofga razm sola boshlabdi: shundoq burunla-rining tagidagi yaylovda bolalar qiy-chuv qilib o'ynab, gulxan yoqishmoqda ekan. Bir vaqt bolalarning oldiga burni juda ham uzun, shun- chalik uzunki, uchi ko'rinmaydigan bir odam kelibdi.

Bolalar o'yinlarini tashlab o'sha odamga qarab yugurishibdi:

- Burundor amaki! Burundor amaki!!
- Salom, bolalar, — debdi Burundor odam.
- Salom, Burundor amaki! Nima yaxshi xabar- lar keltirdingiz?
- Ha, uncha-muncha yangi gaplar topib keldim sizlarga.
- Tezroq ayta qoling, Burundor amaki!
- Ha, albatta, aytaman, faqat sizlar jim qulog solinglar. Ikki qirol bir-birining go'shtini yeb urishayapti. Ulardan birining shunaqangi abjag'i

chiqqanki, qo'shinini daryoning narigi qirg'og'iga olib o'tolmay ovora-yu sarson bo'lib yotibdi. U sho'rlik bizdan sal narida, o'rmon ichkarisida qizil eman o'sib yotganini bilsaydi! Undan bir shoxni kesib, daryoga shundoq ko'ndalang tashlasa bo'lidiydi — o'sha zahoti ko'prik o'sib chiqardi-qo'yardi. Lekin bu haqda hech kimga gullab qo'y manglar!

Krik-kak, brik-bryak!

Bir so'z aytsang — tosh qotasan!

Krik-kak, brik — bryak!

Zobitga xuddi shunisi kerak ekan. U daraxtdan tushibdi-da, qizil emanni izlab ketibdi. O'sha daraxtni topibdi, bir shoxidan kesib olibdi va qirolg'a olib boribdi.

— Oliy hazratlari, — debdi u, — men bir kechada daryoga ko'prik qurib berishga azm-u qaror qildim. Qo'shinlar shay tursin. Boshqa bir og'iz ham gap so'ramang.

— Agar va'dangning ustidan chiqsang, — debdi javoban qirol, — mukofotning zo'rini olasan.

Zobit shoxni daryoga shundoq qo'yganini biladi-ki, xoh ishoning, xoh ishonmang, chinakamiga mo'jiza ro'y beribdi: shox o'sib ketaveribdi, o'sib ketaveribdi, birpasda ko'prikka aylanib, daryoning ikkala qirg'og'iga bosh qo'yibdi.

Qo'shin ko'prikdan o'tibdi va g'aflatda qolgan dushman qo'shinini yer bilan yakson qilibdi.

Oradan birmuncha vaqt o'tib, dushmanlar yana kuchlarini jamlabdi-da, qirolg'a qattiq pand beribdi.

Zobit yana daraxtga borishga jazm qilibdi. Daraxtning qoq tepasiga chiqib qarasaki, yana o'sha yaylov, yaylovda bolalar ko'rinishdi. Ajablanarli joyi shundaki, olov atrofida o'ynab tur-gan o'sha bolalar oldiga (yerdan chiqdimi, osmon-dan tushdimi) tag'in haligi burni nihoyatda uzun odam yaqin kelibdi.

— Burundor amaki keldil! Salom, Burundor amaki!

— Salom, bolalar!

— Bugun nimalar haqida so'zlab berasiz?

— Nimalar haqida deysizmi? Ha, uncha-muncha so'zlaydigan narsalarim yo'q emas.

— So'zlay qoling tezroq Burundor amaki!

— Xo'p, men so'zlayman-u, ammo siz jim qulog bering. Qirol daryoga ko'prik solibdi-yu, biribir keyin dushman uning boplab ta'zirini beribdi. Sho'rlik qirol bilsaydiki, shundoq o'rmon ichida, biz turgan mana shu joy yaqinida kavak eman o'sadi. Kavak ichi to'la qipiqli. Shu qipiqli yig'ib olib, dushmanning basharasiga shundoq otsa, bas, dushmanning nafasi qaytib, ko'zi hech narsani ko'rmay qo'yadi. Lekin bu haqda bitta-yarimtaga gullab o'tirmanglar!

Krik-krok, brik-bryak!

Bir so'z aytsang, tosh qotasan!

Krik-krok, brik-bryak!

Zobitga aynan shunisi kerak ekan. Daraxtdan tushibdi-da, kavak emanni qidirib ketibdi-ku! Uni topib hamma cho'ntagiga qipiqlan to'ldiribdi-da, qirolning qoshiga chopibdi.

— Oliy hazratlari, — debdi nafasi og'ziga tiqilib, — qo'shinni jangga soling, men oldinda boraman, o'shanda hammasini ko'rasiz. Faqat shamol bizdan dushman tarafga esib tursin.

— Xuddi sen aytganday bo'ladi, — javoban debdi qirol. — Dushmanni yer tishlatsak, senga oliy mukofotlar beraman.

Ertasiga jang boshlanibdi. Zobit kissasidan qipiqli olib shamoldasovurgan ekan, qipiqli bulutga aylanib, dushman askarlarining nafasini bo'g'a boshlabdi. Til tortmay o'lgani qancha, orqasiga qaramay qochgani qancha, mingtadan bittasi jon saqlab qolgan bo'lsa ham katta gap. Dushman taslim bo'lib, sulhga qo'l qo'yibdi.

Qirol g‘alaba uchun zubitni rosa maqtabdi.

— Men senga zo‘r mukofot va‘da qilgan edim. Qizimni senga xotinlikka beraman, bundan katta mukofot o‘ylab topolmadim.

Qirolning qizi kun desa ko‘zi, oy desa yuzi bor sohibjamol ekan. Bu yog‘ini so‘rasangiz, zubitning o‘zi unga anchadan beri oshig‘-u shaydo bo‘lib yurgen ekan. To‘y kunini kutib, u bo‘lajak qaylig‘i bilan hovlida sayr qilar, ko‘ngil ochishar ekan. Qiz unga qarab shunday dermish:

— Shundoq katta daryoga qanday ko‘prik qurdingiz-u, dushman ustiga qanaqa amal urug‘i sepdingiz?

— Eh qirolicha, men sizga hammasini aytib beraman. Men o‘rmondag‘i eng baland daraxtga chiqdim, qarasam, yaylovida gulxan yonayapti, gulxan atrofida bolalar o‘ynashayapti. Shunda ularning oldiga burni judayam uzun bir odam keldi. Men ularning suhbatiga quloq solib turdim.

— Ular nima haqida suhbatlashishdi?

— Ularning suhbatini mana bunday bo‘ldi...

Zobit haligi sirlar haqida so‘zlab ketibdi-yu, bir vaqt kutilmaganda u toshga aylanib qolibdi. Qirolicha qo‘rqib ketib, odamlarni yordamga chaqira boshlabdi. Butun saroy a‘yonlari to‘planibdi, oralarida zubitning tog‘asi ham bor ekan.

— Hoy, — deb qichqiribdi u, — nima bo‘ldi mening jiyanimga?

Qirolicha nima bo‘lganini gapirib berayotgan ekan, bir vaqt u ham tosga aylanib qolibdi.

Butun saroy motamga cho‘mibdi. Qirol toshga aylangan kelin bilan kuyovni ibodatxonaga olib borib qo‘yishni va hammaga motam libosi kiyishni amr-farmon qilibdi.

Zubitning tog‘asi g‘alati hodisa haqidagi hikoya qattiq qiziqib qolibdi, o‘sha Burundor amakin o‘z ko‘zi bilan ko‘rishni diliga mahkam tugib qo‘yibdi. Oxiri sabri chidamay o‘rmon sari yo‘l olibdi. Eng baland daraxt tepasiga chiqibdi-da,

atrofga qarabdi; qirolichaning so'zлari to'g'ri ekan. Yaylovda gulxan yonib turganmish, gulxan atrofida bolalar o'ynashayotganmish, shunda bolalarning oldiga burni beo'xshov darajada uzun bir odam yaqin kelibdi.

- Salom, Burundor amaki!
- Salom, bolalar.
- Bugun qanaqa yangiliklar olib keldingiz, Burundor amaki?
- Ha, ancha-muncha aytishga arzirlik yangiliklarim bor.
- Ayta qoling, amakijon, ayta qoling, amakijon!
- Men-ku aytarman, ammo siz jim quloq bering. Men sizga daryoni kechib o'tolmay, dushmaniga zarba berolmagan qirol haqida so'zlayot-ganimda uning bir zobiti bizdan uncha uzoq bo'lmanan bir daraxt tepasiga chiqib olib, gaplarimga o'g'rinchha quloq solib turgan edi. U daryoga ko'prik soldi, sehrli qipi bilan dushmanini yengdi. Qirol mukofot o'rnida o'z qizini unga xotinlikka berdi. Biroq zabit mening sirimni qirolichaga sotib qo'ydi qirolicha ham og'zidan gullab qo'ydi. Ikkovi ham toshga aylanib qoldi, butun qirollik hozir motamda. Lekin odamlar o'rmonning qoq o'rtasida ustiga ko'zgu yopig'liq bir chashma borligini bilsalar ekan! Ko'zguni ko'tarasan-da, chashma suvidan ozgina olib, kuyov bilan kelinga sepasan — ular yana boz-boyagidek tirik insonga aylanadi-qo'yadi. Lekin bu haqda hech kimga og'iz ocha ko'rmanqlar!

Krik-krok, brik-bryak!

Bir so'z aytsang, tosh qotasan!

Krik-krok, brik-bryak!

Zobitning tog'asi imillib o'tirmasdan tezroq chashmani qidirib topishga kirishib ketibdi. Chashma tezroq topila qolmabdi, bir emas, bir necha soat qidirishga to'g'ri kelibdi. Sehrli suvdan

olib, kechqurun ibodatxonaga qarab yo'l olibdi, chashma suvining sehrini tezroq ko'rishga shunchalik oshiqibdi zabit. Jiyaniga suvni sepishi hamon zabitga birdan jon kiribdi-yu, o'zini tog'asining bo'yniga tashlabdi. Qirolicha ham xuddi shunday bo'libdi.

Hammaning xursandchiliga chek yo'q emish, hamma qaytadan to'y taraddudiga tushib ketibdi.

Qirol bo'lsa zabitning tog'asidan, qizimni qanday tiriltirding, deb hadeb so'rayveribdi, so'rayveribdi. Lekin u sirni aytib qo'ysam, mening ham boshimga anovilarning kuni tushar, tosh qotib qolarman, deb qo'rqib aytmay turib olibdi. Qirol bo'lsa aytasan deb sira uni hol-joniga qo'ymabdi, zabitning tog'asi qarasa, ortiq sukut saqlashga toqati yetmaydigan. «O'sha baland daraxtga boraychi, — deb ko'nglidan o'tkazibdi u, — balki tag'in biror foydali gap eshitib qolarman».

U hayal o'tmay o'rmonga yetib kelibdi va baland daraxtga chiqib yaylovg'a ko'z yogurtiribdi. Yana o'sha ahvol emish: gulxan atrofida bolalar, bolalarning oldiga kelayotgan burni uzun odam.

— Salom, Burundor amaki!

— Salom, bolajonlar!

— Nima yangiliklar bor, Burundor amaki?

— Ha, sizlarbop uncha-muncha yangi gaplarim topiladi. Men sizga so'zlab beraman-u, ammo sizlar jim qulq'oz beringlar. Zobit bilan qirolicha toshga aylanib qolganidan xabaringiz bor-a? Zobitning tog'asi esa mendan sal naridagi baland daraxtga chiqib olib, so'zlarimga o'g'rincha qulq'oz soldi, chashmaga borib, kelin bilan kuyovni suv sepib tiriltirdi. Ular yana hech narsa ko'rmagandek to'rt muchalari sog', o'ynab-kulib yurishibdi, biroq tog'asi sirni ortiq saqlashga toqati yetmayapti. Agar sirni oshkor qilgudek bo'lsa, toshga aylanishi muqarrar. Lekin u daryo bo'yida po'rtahol daraxti o'sishi-

ni bilsaydil Agar po'rtaholdan bir dona uzib yesang, keyin esa daraxt tepasidan kichikkina o'yiq qilib, shunga bor sirni shivirlab aytsang, senga hech qanday balo-qazo yaqin kelmaydi. Sir daraxt tanasidan ildizga tushadi-da, shunaqasi daryoga o'tib g'oyib bo'ladi. Shundan so'ng sirni xoh baqirib ayt, xoh qichqirib ayt, toshga aylanmaysan. Lekin bu haqda hech kimga og'iz ocha ko'rmanglar!

Krik-krok, brik-bryak!

Bir so'z aytsang, tosh qotasan!

Krik-krok, brik bryak!

Zobitning tog'asi Burudor amakining so'zlarini vujudi qulorra aylanib tinglabdi. Daraxtdan shosha-pisha tushibdi-da daryo tomon yuguribdi. Po'rtahol daraxti Burundor amaki qanday aytgan bo'lsa, barchasini bekam-u ko'st ado etibdi. Shundan keyin zubitning tog'asi hech bir ikkilamasdan qirolning qoshiga boribdi-da, bo'lgan gaplarni oqizmay-tomizmay hikoya qilib beribdi.

Ertasiga to'yni boshlab yuborishibdi. Agar to'yda bo'lgan o'yin-kulgi-yu xushchaqchaqlikni, askiya-bozlig-u qo'shiqchilikni bir boshdan gapiradigan bo'lsak, ertagacha ham ado qilolmasdik. Faqat bir sirni aytaman: yoshlar uzoq va barakali umr ko'rishibdi, ularning mamlakatida faqat tinchlik hukm surib, hamma boy-badavlat bo'lib ketibdi.

UCH QILVIR

Amet, Berar va Traver degan uch qilvir aka-uka bo'lgan ekan. Abjirlik va quvlikda ularning oldiga tushadigani yo'q ekan. Bir kuni ular o'rmondan ketayotib, kimning qo'lidan qanday abjirlik keladi deb bir-biriga maqtanmoqchi bo'lishibdi. Eng kattasi Amet bundoq qarasa,

baland eman daraxtida mayna ini bor ekan-u,
mayna ham o'sha yerda ekan.

— Ukaxon, — debdi u Berarga, — agar senga
birov maynani cho'chitmasdan tagiga bosib yotgan
tuxumini olib ber, desa, nima qilarding?

— Men unga g'irt ahmoqqina shu gapni aytardi
derdim. Bu ish hech kimning qo'lidan kelmaydi.

— Be! — e'tiroz bildiribdi Amet. — Abjir
odamga mayna tagidagi tuxumni olish nima degan
gap ekan.

Shunday deb u daraxtga tarmashib, shitob bilan
ko'tarila ketibdi. U in tagiga yetib borib, joy-
lashibroq o'tirib olibdi-da, juda ham ustalik bilan
asta-asta inning ostidan teshikcha ochibdi, kaftini
qo'ygan ekan, tuxumlar bitta-bitta kaftiga kelib
tushibdi, Amet tuxumlarni to'plab, daraxtdan
tushibdi-da, ukalariga ko'rsatibdi:

— Mana, ukaxonlar, ko'rib qo'yinglar! Bittasi
ham pachoq bo'lgani yo'q!

— Ha, sen rostdanam abjir ekansan, qoyil
qoldik! — debdi Berar. — Endi maynani cho'chit-
masdan tuxumlarni joyiga qo'yib kel. Agar shu
ishni ham uddalasang, sen bizga bosh bo'lasan.

Amet yana daraxtga chiqibdi. Aslida ukasi uni
laqillatib, bir mazax qilmoqchi bo'lgan ekan. Asta-
asta u ham daraxtga chiqqa boshlabdi. Amet ko'ta-
rilib borar ekan, ikki ko'zini indan olmasmish,
ishqilib maynani cho'chitib yubormay deb tevarak-
ka qarashni xayoliga ham keltirmasmish. Berar
bo'lsa uning orqasidan bildirmaygina yetib kelibdi-
da, chaqqonlik bilan akasining boshidan qalpog'ini
olib qo'yibdi: to'g'risi akasi sezmay qolibdi.

Amet tuxumlarni inga qaytarib qo'yibdi-da,
pastga tushib, o'zining abjirligidan maqtanishga
tushibdi. Shunda Traver turib shunday debdi:

— Hoy, sen bizning ko'zimizni bo'yamoqchi
bo'ldingmi? Xudo haqqi, sen tuxumni qalpog'ing
ichiga yashirib qo'ygansan. Qani, ko'rsat qalpo-
g'ingni!

To'ng'ich qo'lini ko'taribdi, iya, qalpoqning o'zi yo'q-ku! Obbo azamatlar-ey, hazilni ham boplashadi-da ukalari!

— Ha-a, abjir ekansizlar, gap yo'q, — deb kulib qo'yibdi Amet.

Traver bir zum o'yga tolib, keyin debdi:

— Menga qaranglar, akaxonlarim. Sizlarning mendan ancha-muncha abjir ekanliklaringga shubha yo'q. Shu sabab meni ma'zur tuting. Men bir no'noqvachcha, sizlarning koringizga yaramasligim aniq. Yaxshisi men uyg'a ketay, xotinim bilan topgan-tutganimizni baham ko'rib, emin-tinch bir kunimizni ko'rib yuraveraylik.

Berar bilan Amet Traver bilan xayr-ma'zur qilishibdi-yu, ammo ukalarining gapiga unchalik ishonqirashmabdi. Uning o'zlaridan kam ayyor emasligini bilisharkan-da. Ular kenjani sinashga qaror qilishibdi.

Oradan birmuncha vaqt o'tib, akalar Traver-nikiga mehmonga borishibdi, u esa uyda yo'q ekan, faqat xotini to'r to'qib o'tirgan ekan. Qarashsa, burchakda cho'chqa go'shti yotganimish, yaxshilab berkitib qo'yilgan mish, biroq cho'chqani yaqinginada so'yishgani shundoq bilinib turganimish.

— Obbo ayyor-ey, — deb kulishibdi ikkala aka, — bu qilvirdina ukamiz cho'chqa go'shtini xotini bilan maza qilib tushirmoqchi bo'lgan ekan-da! Bizni taklif etish xayoliga ham kelmabdi! Hali shumi jigarchilik oqibatil! Hozir boplab ta'zirini beramiz, cho'chqa go'shtini ola ketamiz. Cho'chqa go'shti yeishni u tushida ko'rsin!

Ikkala aka u yog'ini o'ylashibdi, bu yog'ini o'ylashibdi-da qanday o'ylagan bo'lishsa, shunday qilishibdi ham. Ular kech kirib, qorong'i tushishi ni poylashibdi, sal naridagi karvonsaroyga borib joylashishibdi.

Traver uyg'a qaytib kelibdi, xotini unga bor gapni gapirib beribdi: ikkita akangiz keldi, ham-

mayoqni timirskilab chiqdi, cho'chqa go'shti yashirilgan joyni bilib qolishdi, ammo o'zlariga yetgancha ayyor, quv odamlar ekan, debdi.

— Oh, cho'chqaginam, cho'chqajonginam! — hasrat bilan debdi Traver. — Akalarim ko'rgan bo'lishsa, tamom, endi o'g'irlamay qo'yishmaydi. Oh, qanday kunlarga qoldim! Nimaga bozorga olib borib, pullab kela qolmadim!

— Nega elburutdan dod solib, yuragingiz yori-ladi? — debdi xotini unga. — Go'shtni u joydan olib boshqa joyga qo'yamiz, tamom, ikki qo'lini burniga tiqib qaytib ketishadi.

Traverga xotinining maslahati moyday yoqibdi. Go'shtni boshqa burchakka olib borib qo'yibdi-da, ustiga narsa tashlab, o'zi uxlagani yotibdi.

Uxlabdi-yu, ammo aloq-chaloq tushlar ko'rib, uyqusi uyquday bo'lmabdi.

Tunda Amet bilan Berar azroilday kirib kelishibdi. Amet atrofga olazarak qarab, qo'riqchilik qiladigan bo'libdi, Berar esa devorni xuddi kunduzi go'sht yotgan joydan asta-asta o'yishga kirishibdi.

— He, padariga ming la'nat! — g'azablanib debdi Berar. — Omad qushimiz qo'lidan chiqibdi. Kechikibmiz.

Traver uxlab yotgan bo'lsa ham, boyta aytganimizday, ko'ngli notinch bo'lganidan, shovqin darrov qulog'iga chalinib uyg'onib ketibdi. Qo'rqib, o'rnidan turibdi-da, go'sht joyidami, yo'qmi, tekshirib ko'rgani uni yashirib qo'ygan joyga kelibdi. Narsani ko'tarib qarasaki, xudoga shukur, go'sht joyida ekan! U go'shtni silab-siypabdi, to'la ishonish uchun turtib-turtib qo'yibdi — yo'q, o'sha go'sht, jin ham urmagan, qanday qo'ygan bo'lsa, shunday turibdi.

Biryo'la Traver otxonaga kirib, otlarni ham ko'rib chiqishga qaror qilibdi. Boltani qo'lga olib, hovliga chiqibdi, qorong'ida paypaslanib otxonada otlarini bitta-bitta sanab chiqibdi.

Berar qarasa, ukasi hovliga chiqib kelayapti, xudo berdi-ku, deb o'zini Traverning xotini uxlab yotgan xonaga uribdi va ovozini ukasining ovoziga o'xshatib debdi:

— Janna, hov Janna! Go'shtimizni qayerga qo'yuvdik? Izlab topolmayapman!

— Xudo ko'tarsin bunaqa esni! Shundoq burchakni qara, ustiga narsa tashlab qo'yibsan.

— E-ha! Miyam qursin, kalla emas bu, oshqovoqning o'zi! Ishonchli bo'lsin uchun go'shtni boshqa joyga yashirib qo'yay. Topqirlarning topqiri ham topolmasin.

Shunday deb Berar to'g'ri haligi burchakka boribdi-da, go'shtni yelkasiga olib, gumdon bo'libdi.

Traver qaytib kelib, yotmoqchi bo'lган ekan, xotini javrabdi:

— Qanaqa aqlingni yegan ersan? Kecha ikkalamiz go'shtni burchakka yashirib, ustiga narsa tashlab qo'yuvdik, bugun «qayerga qo'yuvdik» deb so'rab yuribsan. Ey xudoyim-ey!..

Traver ishning pachavasi chiqqanini fahmlabdi.

— Tamom! — debdi u. — Tamom bo'ldik! Uyim kuydil Ayyor akalarim meni boplab tushirishdi!

Biroq buncha yuk bilan hali uzoqlab ketmagani ni bilib, Traver quvib yetish uchun akalarining izidan chopib ketibdi. Amet bilan Berar bo'lsa hozircha o'ljani bir joyga berkitib qo'ygani yaqindagi changalzorga burilishibdi. Amet yo'l ochib oldinda boribdi, Berar cho'chqa go'shtini ko'targanicha, xirillab, ixrab-sixrab orqada ketib borarkan.

Traver yugurib kelib, bildirmaygina oldinga o'tib olibdi-da, go'yo Amet qaytib kelgandek, ovozini uning ovoziga o'xshatib Berarga debdi:

— Charchamadingmi, uka? Kel, go'shtni men ko'taray, qarasam, nuqul sen ko'tarayapsan, insofdan emas axir bu, birovlarning joni jon-u, seniki

jon emasmi. Bera qol, endi yo'lga sen qara. — Berar go'shtni unga beribdi, o'zicha Ametga berdim deb o'ylabdi, aslida Traverga berdi-ku. Berar qushday yengillashib oldinda boribdi. Iye, bu qanaqasi? Ametga yetib, bundoq qarasa, Amet go'shtsiz.

— Obbo zang'ar-ey! Bu kazzob Traver meni ahmoq qilibdi-ku! O'z akasini ham shunaqa yerga uradimi? Hay mayli, qarz to'lovi bilan deganlar, o'zinini qarzdor qilib qo'yayman.

Berar ko'ylagini yechibdi-da, ayollarga o'xshab boshiga ro'mol qilib o'rab olibdi. Keyin Traverdan oldinga o'tib olish uchun jonining boricha orqaga qarab chopibdi. Borib Traverning eshigi oldida turib, o'zini ukasining xotini kutib turganga solibdi. Birpasdan keyin go'shtni ko'tarib, terlab-pishib Traverning o'zi ham yetib kelibdi.

— Ha, nima bo'ldi? Cho'chqa go'shtini qaytarib olib keldingizmi? — deb so'rabdi Berar ayol ovozi-da.

— He, bo'lmasam-chil

— Xudoga ming qatla shukur-ey! Qani, menga bering go'shtni, siz borib og'ildan xabar oling. Shunday shovqin bo'ldiki, qulog'im teshilayozdi: xudo ko'rsatmasin, tag'in akalaringiz qaytib kelgan bo'lishmasin.

Traver yelkasidan go'shtni tushiribdi-yu, og'ilga qarab chopibdi. Hech kimni topolmay, uyga kiribdi, xotini to'shakda yotgancha qo'rqib ko'z-yoshi qilibdi:

— Buncha qayoqlarda qolib ketding?

Traver akalari uni tag'in boplashganini anglabdi, lekin o'yinda yengilib, hammaga kulgi bo'lib qolishni u xayoliga ham keltirmas ekan. «O'zingni er bilsang, o'zgani sher bil, — deb o'ylabdi Traver akalari haqida. — Men ham o'zimga yetgancha abjirman, ayyorman, osongina boy berib qo'yadi-ganlardan emasman. Yo ostidan, yo ustidan — qas-dimni olaman!»

Traver birpas bosh qotirib turibdi-da, akalarini o'rmondan qidirishga qaror qilibdi: hoynahoy tinchroq, xilvatroq deb o'sha yoqqa borishadi. Xuddi o'ylaganiday bo'lib chiqibdi: akalari o'rmonga borishgan ekan. Cho'chqa go'shtini qayta qo'lga kiritganlaridan ikkalalarining sevinchi ichiga sig'-may turganmish. Shoxlari qalin eman tagida to'xtashib, gulxan yoqishibdi, kabob qilib yemoq-chi bo'lishibdi, og'izlaridan so'laklari oqibdi.

Gulxan yoqilibdi, biroq shox-shabbalar ho'l bo'lganidan tutab, buruqsab yonibdi. Akalar quruq shox-shabba terib kelgani ketishibdi. Traver esa olov shu'lasini ko'rib ularni uzoqdan bilibdi. Biqinib borib qarasa, gulxan atrofida akalari yo'qmish, go'sht esa joyida turganmish.

Traver go'shtni shartta yelkasiga tashlabdi-yu, tezroq xotiniga maqtanish uchun uyiga shoshilibdi. Xotiniga maqtanib shunday dermish:

— Hali xotirjam bo'lishga erta, sababi akalarim pix yorgan tullaklardan! Agar ehtiyyot bo'lmasak, cho'chqa go'shtidan benasib qolishimiz turgan gap. Kel, vaqt ni boy bermaylik-da, go'shtni nimtalab, qozonga osaylik. Akalarim kelishsa, ko'ramiz, qani, ular bu gal yana qanaqa nayrang ko'rsatisharkin.

Er-xotin ishga tushib ketishibdi.

Traver xotini bilan pechkaga o't yoqibdi, tutun mo'ridan buralib chiga boshlabdi. Cho'chqa go'shtini nimtalashib, qozonga tashlashibdi, o'zлari bo'lsa qozon boshida o'tirib olishibdi. Lekin Traver tun bo'yi hali u yoqqa, hali bu yoqqa kuydi-pishdi bo'lib chopaverganidan sillasi qurib, butunlay holdan toygan ekan, boshi yelkasidan tushib-tushib ketaveribdi, uyqu uni tamom elitib tashlabdi.

— Yotib u xlabel qol, — debdi xotini eriga rahmi kelib, — qozonga o'zim qarab turaman. Nimadan qo'rqaman, eshik-derazalar taqa-taq berk bo'lsa. Tiq etgan tovush eshitsam, darrov uyg'otaman seni.

Traver xo'p deb uqlashga yotibdi. Biroq u uyquga ketar-ketmas xotinini ham uyqu bosib kela boshlabdi. U ham qozon boshida o'tirgancha boshi yelkasidan tushib-tushib ketaveribdi.

Endi gapni Amet bilan Berardan eshititing. Ular gulxan oldiga qaytib kelishsa, cho'chqa go'shti allaqachon gumdon bo'libdi. Akalar gap nimadali-gini darrov anglashibdi. Ular o'zlaricha yerga kirib ketguday bo'lishibdi: nahotki kenja ukalari ular ichida eng ayyori va abjiri bo'lsa? Yo'q, bunga toqat qilib bo'lmaydi, Traverga cho'chqa go'shti nasib etmaydi — akalar ana shunday qarorga kelishibdi. Jonlaridan kechishsa kechishadiki, ammo oriyatni qo'ldan berishmaydi.

Ular tag'in ukalarining uyiga kelishibdi. Berar boyda devordan o'zi o'tgan tuynukdan mo'ralab qarasaki, Traver to'shakda yotib uyquni urayapti, xotini esa o'choq boshida o'tiribdi-yu, uyquning zo'ridan boshi yelkasidan tushib-tushib ketayapti, qozonda esa cho'chqa go'shti varaqlab qaynab yotibdi.

— Ana-buni qarang, — debdi Berar og'zi qulog'iga yetib, — ularning o'zi bizga go'shtni pishirib berishayapti. To'g'ri qilishadi ham: axir biz ozmuncha jon chekdikmi. Hay mayli, jondan suyukli jigarlarim, sizni ham nasibangizga yarasha siylarmiz!

Hovliga borib uzun tayoq topibdi-da, tomga chiqib, tayoqni mo'ridan tushiribdi, tayoq to'g'ri qozonga kelib tushibdi. Turtib-turtib axiyri bir parcha go'shtni ilintiribdi-da, asta tortib olibdi.

Shu payt Traver uyg'onib qolibdi. Qarasa, o'choq boshida ajoyib hangomalar bo'layotibdi. Ha, — deb o'yabdi u, — bunaqa ayyorlarga bas kelib bo'lmadi-bo'lmadi.

— Akalar, — deb qichqiribdi Traver, — tominning dabdalasini chiqarib tashlaysizlar-ku! Xo'p mayli, sizlarni mehmonga taklif qilmaganim uchun uzr so'rayman. O'tgan ishga salavot.

Kelinglar, bir-birimizga o'chakishishni bas qilaylik, axir, ming qilsa ham bitta qorindan talashib tushgan jigarlarmiz. Kelinglar eshikdan, mazalik qaynatmani birgalikda terlab-terlab ichaylik.

Uch og'a-ini stolga o'tirishib, qo'llarini urishtirishibdi-yu, o'zлari yarashishibdi. Et bilan tirnoqni ajratib bo'lmaydi, degan xalqning dono naqli shundan qolgan ekan.



OLMON XALQ ERTAKLARI



OQ ILON

Bundan ko'p zamonlar muqaddam dunyoda bir podsho yashagan ekan. U oqil-u donoligi bilan butun yer yuzida shuhrat qozongan ekan. Go'yo kimdir yetti qavat osmondan podshoga vahiy yetkazib, uni hamma narsadan voqif qilayotganday bo'larkan. Lekin podshoning g'alati odati ham bor ekan: u har kuni tushlik dasturxoni yig'ishtirib olinib, hamma har qayoqqa tarqab ketgandan keyin uni sodiq xizmatkori podshoga yana bitta taqsimchada taom olib kelarkan. Ammo taomning usti yopiq bo'lib, uning qanday taom ekanligini hatto sodiq xizmatkori ham bilmas ekan, ustiga-ustak, podsho bu taomni xonada faqat tanho o'zi tanovul etar ekan. Shuning uchun ham o'sha taomning nimaligini hech bilmas ekan-da. Bu sir anchagacha davom etishi mumkin ekan-u, ammo kunlardan bir kun sodiq xizmatkorning qiziquvchanligi zo'rayib, o'zini tiya olmay taomni o'z uyiga olib kiribdi. Eshikni ichkaridan qulflab, taomni ohibdi, qarasa, taqsimchada pishirilgan oq ilon yotgan mish. Xizmatkor taomdan tatib ko'rishga oshiqibdi, u ilondan kichik bir bo'lakni qirqib olib og'ziga solibdi. Taomning mazasi tiliga tegishi bilanoq u deraza yonida mayin ovozda sirli pichirlayotganlar ovozini eshitibdi. U ovoz kelayotgan tomonga yaqinroq borgan ekan, bir-biriga qir-adirlar va o'rmonlarda ko'rgan-kechirganlaridan suhbatlashayotgan chumchuqni ko'ribdi: ilon go'shtining mazasi unga qush tilini tushunishga imkon beribdi.

Xuddi o'sha kuni podsho xotinining eng qimmatbaho uzugi yo'qolib qolib, bunda hamma joyga kirishga ruxsat berilgan sodiq xizmatkordan shub-

halana boshlabdi. Shunda podsho xizmatkorini huzuriga chaqirib, uni qattiq koyibdi, lekin xizmatkor uzukni olmaganini shuncha zorlanib aytса ham podsho baribir unga ishonmabdi, agar xizmatkor ertalabgacha o'g'rini uning huzuriga topib kelmasa, ayb unga tushib, sudga topshirajagini aytibdi. Xizmatkor dahshat va qattiq hayajonda hovliga chiqib, bu tuhmatdan qanday qutulish yo'lini o'ylab turgan ekan, tuyqus hovli o'rtasidan oqib o'tadigan ariq labida yonma-yon turgan ikki o'rdakka ko'zi tushibdi: ular tumshuqlari bilan patlarini tozalay turib, o'zaro suhbatlashayotgan ekan. Xizmatkor yaqinroq borib, parrandalarning suhbatiga qulq solibdi. O'rdaklar bir-birlariga ertalab qayerda bo'lganlari, suzgan joylari, qanday taomlar topib yeganlari haqida gapirib turib:

— Men malikaning derazasi tagida yotgan uzukni shoshilinch yutib yuborganimdan beri oshqozonimda og'riq sezayapman, — debdi ulardan biri afsuslanib.

Xizmatkor o'sha o'rdakni darhol tutib olib, oshxonaga, oshpaz qo'liga tutqazarkan:

— Menga mana bu o'rdakni so'yib ber, judayam semiz o'rdak ekan, — debdi.

— Ha, — debdi o'rdakni qo'lida chamlab ko'rib, — gap yo'q, yetilibdi ko'rinishicha, u o'zini qovurib yeyishlarini anchadan beri kutayotganga o'xshaydi.

Oshpaz o'rdakni so'yib, ichak-chavoqlarini tozalagan ekan, uning ichidan malika yo'qotgan uzuk chiqibdi. Shunday qilib xizmatkor o'zini aybsiz ekanligini isbotlabdi. Shunda podsho xizmatkorga nisbatan noto'g'ri ish tutganidan uyalib, unga saroyda istagan lavozimga ishga qo'yishi, tilagan tilagini bajarishini aytibdi.

Lekin xizmatkor hamma narsadan voz kechib, unga faqat ot bilan yo'l puli berishlarini iltimos qilib, dunyo kezish xohishi borligini bildiribdi. Podsho xizmatkorining iltimosini qondiribdi, xizmatkor yo'lga chiqibdi.

Xizmatkor yo'l-yo'lakay ko'l bo'yidan o'tib horayotgan ekan, qamishlar orasida tipirchilab yotgan uchta baliqni ko'rib qolibdi, baliqlar mungli ovozda endi bekorga o'lib ketamiz, deyotganlarini eshitibdi, xizmatkorning jonivorlarga rahmi kelib ketibdi, u darhol otdan tushib, baliqlarni qamishlar orasidan olib, ko'lga tashlabdi. Baliqlar xursand bo'lib, suvda o'ynoqlashibdi, so'ngra tumshuqlarini suvdan chiqarib:

— Bu yaxshililingni unutmaymiz, — deyishibdi.

Xizmatkor yana yo'lini davom ettiribdi, ozmi ko'pmi yurgandan so'ng ot tuyog'i ostidagi qumdan kimningdir ovozi chiqayotganday tuyulibdi. Xizmatkor to'xtab diqqat bilan qulq solibdi, qarasa, chumolilarning podshosi:

— Bu chavandoz qo'pol oti bilan bizni xoli qo'ysa nima qiladi! — deb noliyotganini eshitibdi.

Xizmatkor yigit ot boshini yo'l chetiga burib, chumolilarni chetlab o'tibdi. Shunda chumolilar ning podshosi:

— Bu yaxshililingizni unutmaymiz, — debdi. Yo'l xizmatkorni o'rnonga boshlabdi, u bir payt bunday qarasa, daraxt tepasida ikki qarg'a o'zinidan polaponlarini yerga uloqtirayotib:

— Dangasalar, tekinxo'rlar, bu yerdan qoranglarni o'chiringlar! Endi sizlarni qanday to'ydiramiz, keragicha ulg'aydilaring, o'zlarining tomoq topib yesalaring bo'ladi endi, — deb baqirib qag'illarmish.

Yerda oyoqqa turishga qiynalayotgan bechora polaponlar nozik qanotlarini qoqib:

— Axir biz hali nimjonmiz, ucha oladigan ahvolda emasmiz, siz bizlarni boqishingiz kerak! Endi biz ochlikdan o'lib ketamiz, — deb chiyillay boshlabdi.

Shunda xizmatkor yigit qarg'alarga rahmi kelib otidan tushibdi, tulporni so'yib polaponlarga yemish o'rnida tashlab, o'zi yo'lida piyoda davom etibdi. Qarg'alar ot go'shtiga to'yib bo'lib:

— Biz bu yaxshililingni hech qachon unutmaymiz, mabodo zarur boo'lib qolsak, albatta yordam beramiz, — deyishibdi.

Xizmatkor yigit yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi bir shaharga yetib boribdi. Shu mahal bir otliq jarchi odamlar g'uj to'planib turgan joyga borib:

— Odamlar, odamlar, eshitmadim demanglar, kimda-kim malikaning uch shartini bajargudek bo'lsa, malika o'shangga turmushga chiqarmish, bordi-yu bajara olmasa, boshi tanasidan judo eti-larmish, — deb ovozining boricha jar solibdi.

Qancha-qancha bahodirlar malikaning shartini bajaraman deb bekorga qurbon bo'libdi. Xizmatkor yigit ham malikani bir ko'rishida unga oshig'u beqaror bo'lib qolib, hamma narsani unutibdi-da, podshoning huzuriga borib, malikaning shartini bajarishga tayyor ekanligini aytibdi.

Xizmatkor yigitni shu zahotiyog dengiz bo'yiga olib kelishibdi, uning ko'z o'ngida dengizga uzukni uloqtirib, uni dengiz tubidan olib chiqishni buyurishibdi va:

— Bordi-yu, topib chiqsa olmasang, unda seni dengiz to'lqinlarida cho'kib ketmaguningcha suvga uloqtiraverishadi, — deb qo'shib qo'yishibdi.

Xushqomat xizmatkor yigitga hammaning rahmi kelib, uni dengiz bo'yida tanho qoldirishibdi. Yigit endi nima qildim, deb suvga qarab xayol surib turgan ekan, tuyqus suv sathida unga tomon suzib kelayotgan haligi qamishzordagi uch baliqqa ko'zi tushibdi. Baliqlarning o'rtasidagi og'zida chig'anoq tishlab olgan bo'lib, baliq uni yigitning oyog'iga keltirib tashlabdi-da, ko'zdan g'oyib bo'libdi. Yigit chig'anoqni qo'liga olib ochgan ekan, uning ichidan haligi dengizga uloqtirilgan oltin uzuk chiqibdi.

Yigit xursand bo'lib, uzukni podshoga topshiribdi. Malika yigitni oddiy xizmatkorligidan

xabar topib, unga ikkinchi shartini topshirish niyatida boqqa chiqib, maysalar ustiga o'n qanor qopda don to'ktiribdi-da:

— Tong otishga qadar bitta dona don qoldirmay qayta o'n qanor qopga terib solasan, — debdi.

Yigit bog'da o'tirib, bu qiyin shartni qanday bajarsam ekan, deb xayolga tolibdi, ammo biror qarorga kela olmay, tashvishga tushibdi. Tong otishi bilan uni qatl etishga olib ketishlarini poylab, taqdirga tan berib o'tiribdi. Lekin tong otib, ilk quyosh nurlari boqqa tushishi bilanoq bunday qarasa bir donasiyam kam bo'limgan don to'la o'n qanor qop qator turganmish. Buni xizmatkor yigitga minnatdorchilik yuzasidan minglab chumolilar bajo keltirib qo'ygan ekan.

Malika boqqa qarasa, yigitga qo'ygan sharti bajarilibdi, u bunga juda hayron qolibdi. Lekin malika o'z takabburligini yenga olmay:

— U men qo'ygan ikki shartni bajargan bo'lsa ham, ammo menga mangu hayot daraxtidan olma olib kelmaguncha baribir erim bo'la olmaydi, — debdi.

Yigit mangu hayot daraxti qayerda o'sishini ham bilmas ekan, biroq uni topishga hech qanday ishonch bo'lmasa ham baribir yo'lga chiqibdi va oyog'i yetguncha yurishga qaror qilibdi. U uch mamlakatni bosib o'tib, qosh qorayganda o'rmonga kirib boribdi. Yigit nafas rostlash niyatida endi daraxt tagiga o'tirgan ekan, birdan shoxlar shitirlabdi va uning qo'liga oltin olma tushibdi. Zum o'tmay tizzasiga uch qarg'a qo'nibdi-da:

— Biz o'sha, sen ochlikdan qutqargan uch qarg'amiz. Endi biz ulg'ayib, kuchga to'lganmiz, sening oltin olma izlayotganiningni eshitib, dengiz orti yerining narigi chetiga, mangu hayot daraxti o'sadigan joyga borib senga mana shu olmani olib keldik, — debdi.

Yigit juda quvonib ketib, iziga, go'zal malika huzuriga oshiqibdi, unga olmani yetkazibdi, shunda malikaning yigitga sodiq yor bo'lishdan bo'lak

chorasi qolmabdi, ular mangu hayot daraxtida bitilgan olmani ikki bo'lib yeishibdi, go'zal mali-ka xizmatkor yigitga chindan ko'ngil qo'yib, umrining oxirigacha davri davron surishibdi.

NA'MATAK QIZ

Ko'p yillar ilgari bir qiroli bilan qirolicha yashagan ekan va ular xudoning bermish kuni bir-biriga shunday der ekan:

— Oh! Xudo bizga ham farzand ato qilarman!

Biroq farzanddan darak bo'lmabdi-bo'lmabdi.

Bir kuni g'alati ish bo'libdi, qirolicha cho'milib turgan ekan, bir payt suvdan bir qurbaqa chiqib kelibdi-da, unga qarab shunday debdi:

— Niyating ijobat bo'lgay: bir yil o'tar-o'tmay sendan qiz bola dunyoga keladi.

Xuddi qurbaqa aytganday bo'libdi, qirolicha qiz tug'ibdi, u shunaqangi go'zal ekanki, hatto otasi qiroli bu shodiyonani qanday nishonlashga ham aqli yetmay qolibdi, oxiri juda katta ziyofat beribdi. Ziyofatga faqat o'zining qavm-u qarindoshlarini, do'stlari va yaqinlarini emas, balki uning chaqalog'iga xayrixoh bo'lgan folbin xotinlarni ham chaqirtiribdi. Bunday folbin xotinlardan uning qirolligida hammasi bo'lib o'n uch nafar ekan, hamma balo shundaki, ularga tortiladigan taom asli o'n ikki tilla patnischada bo'lib, shu sababdan bitta tilla patnisning egasi taklifsiz qolib ketibdi. Ziyofat nihoyat darajada quyuq va tantanavor o'tibdi, eng oxiri folbin xotinlar bolaga bir-biridan hayratomuz sifatlarni taqib, uning istiqbolidan karomatlar qila boshlabdilar: biri — saxovatpeshalikni, ikkinchisi go'zallikni, uchinchisi — sarvatni va yorug' olamda nimaiki ulug' fazilat va barkamolliklar haqidagi ezgu tilaklar bo'lsa, hammasini bashorat qilibdilar.

O'n birinchi folbin xotin o'z bashoratini aytib bo'lganda to'satdan ziyofatga o'n uchinchi folbin xotin tashrif buyurib qolibdi. U o'zining taklif etilmagani uchun qasos olgani ataylab kelgan ekan. Shu bois hech kim bilan salom-alik qilmay va hech kimga nazar ko'zini solmay he yo'q-be yo'q baland ovozda debdi:

— Qirol qizi o'n besh yoshga to'lganda urchuqqa yiqilib, shundan bandalikni bajo keltiradi!

Shunday debdi-yu, boshqa bir og'iz ham so'z aytmay orqasiga burilibdi-da, ziyofatni tashlab chiqib ketibdi. Hammaning yuragi uvushib ketibdi, biroq hali o'n ikkinchi folbin xotin o'z so'zini aymagan ekan, to'g'ri, mudhish bashoratni inkor etishga-ku inkor etolmabdi, biroq biroz bo'lsa-da, yumshatishga harakat qilib debdi:

— Bandalikni bajo keltiradi deyish unchalik to'g'ri bo'lmas, ammo qirol qizi bir umrlik uyquga mubtalo bo'lishi aniq.

Sevimli qizini bu balodan xalos qilish niyatida qirol butun saltanatidagi hamma urchuqni yoqishga amri farmon chiqaribdi.

Yildan yil, oydan oy o'tib qirol qizi folbin xotinlar aytganidek aql-u zakovatda barkamol va husn-u tarovatda bekam-u ko'st bo'lib voyaga yetibdi. U shu qadar odobli, shu qadar shirinso'z va shu qadar eslik-hushlik ekanki, uni ko'rgan har qanday odam beixtiyor shaydo bo'lib qolar ekan.

Buni qarangki, qirol qizi roppa-rosa o'n besh yoshga to'ldi degan kuni qirol bilan qirolicha uyda yo'q ekan va qirol qizi yolg'iz qolgan ekan. U qasrni bir boshdan aylanib, tomosha qila boshlabdi, yotoqxona bo'lmalari-yu qaznoq-omborlar bormi, hammasiga bir-bir bosh suqib, timirskilanib chiqibdi. Nihoyat, navbat eski minoraga kelibdi. U ensizgina aylanma yo'lakdan yuqoriga ko'tarila boshlabdi va uncha katta bo'limgan bir eshikka duch kelibdi. Eshikka eski zanglagan kalit suqig'liq bo'lib, qirol qizi uni buragan ekan, eshik

lang ochilib ketibdi. Qarasa, u yerda bir mo'jazgina xonachada bir kampir bemalol urchuq yigirib o'tirgan emish.

— Salom, buvijon! — debdi qiroq qizi. — Nima qilib o'tiribsiz bu yerda?

— Urchuq yigirayapman, — javob qaytaribdi kampir va unga bosh irg'ab imo qilibdi.

— Mana bu chirillab aylanayotgan narsa nimaydi? — so'rabdi qiz va urchuqni olib, u ham ip yigirishga tutinibdi.

Biroq taqdirning yozmishini qarangki, qiroq qizi urchuqqa teginishi bilan qo'lini shildirib olibdi. Qo'li urchuqqa shilinishini sezgan zahoti qiroq qizi shu yerda turgan to'shakka cho'zilibdi-yu, qattiq uyquga ketibdi.

Bu uyqu butun qasrga yoyilibdi, endigina uyiga qaytib, saroyga kirgan qiroq bilan qirolicha ham, ularga qo'shilib butun saroy a'yonlari-yu mulozimlari ham hammalarini uyquga ketishibdi. Otxonadagi otlar, hovlidagi itlar, tomdagi kabutarlar, devordagi pashshalargacha uyqu dardiga giriftor bo'libdi. Hattoki o'choqda gurillab yonib turgan olov ham o'z-o'zidan so'nib, qozondagi qovurdoqlar jaz-biz qilishdan to'xtabdi. Nimagadir alahsib, qozonga yaxshi qaramagani uchun oshpaz xotinning sochidan ushlab savalamoqchi bo'lib turgan bakovul ham oshpaz xotinni asta qo'yib yuboribdi-da, uxbab qolibdi. Esib turgan shamol ham yotibdi, qasr atrofidagi hayqirgan daraxtlarning aqalli bir yaprog'i qilt etmay qo'yanmish.

Qasr atrofida endi tikanli butalar gurkirab o'sa boshlabdi, yildan yilga bo'y cho'zib, tarvaqaylab, oxiri butun qasrni qoplab olibdi. Butalar shunchalik balandlashib ketibdiki, hatto minoradagi bayroqni ham ko'rib bo'lmay qolibdi.

Shunday qilib, ismi Na'matakqiz bo'lgan uyqudagi go'zal haqida ko'tarilgan shov-shuv butun mamlakatga yoyilibdi. Vaqt-i-vaqt bilan turli shahzodalar bu mamlakat sari ot surib kelib, qalin changalzorni yorib o'tib, qasr ichiga kirishga urina

boshlashibdi. Lekin ulardan hech biri buning uddasidan chiqolmabdi, chunki changalzor tikanlari shu qadar o'tkir va zich ekanki, bu yerga qadam qo'yan botirlar butalar orasida adashib qolishar, tikonlarga ilashib qolib ketishar, juda qattiq azoblar cheka-cheka jonlarini qurbon berishar ekan.

Ko'p yillardan so'ng bu yershorda yana bir shahzoda kelibdi, u ham allaqanday choldan tikonli changalzor va qasr haqidagi rivoyatni eshitib qolibdi, go'yo qasrda Na'matakqiz degan sohibjamol yuz yildan beri uqlab yotarmish, unga qo'shilib qiroq bilan qirolichayu barcha saroy a'yonlari ham dong qotib yotisharmish.. Chol yana aytibdiki, bobosi unga juda ko'p shahzodalar kelganini, tikonli changalzordan o'tishga urinishganini, biroq hammalari tikonga ilashib, itday o'lib ketishganini ham hikoya qilib bergen ekan. Shunda haligi shahzoda debdi:

— Menga bu narsalar pisand emas, men o'sha qasrga kiraman-da, go'zal Na'matakqizni o'z ko'zim bilan ko'raman.

Oqko'ngil chol uni qaytarmoqchi bo'lgan ekan, biroq u quloq solmabdi.

Bu vaqtga kelib ayni yuz yillik muddat o'tib bo'lgan ekan. Qirol qizi go'zal Na'matakqizning uyg'onadigan kuni boshlagan ekan. Shahzoda tikonli changalzorga yaqinlashibdi, uyoq-bu yoqqa ko'z solibdi, qarasa tikonli butalar o'rniqa qasrning girdo-girdida bir-biridan chirolyi va xushbo'y gullar qiyg'os ochilib yotgan mish. Gullar o'zi unga yo'l bo'shatib berishar, yigit o'tib ketgach, tag'in bir joyga jam bo'lishar va yo'lni to'sib olishar ekan. Shahzoda hovlida otlarni va mallarang tozilarni ko'ribdi, ular hammasi yotib uyquni urishar ekan. Tomlarda boshini qanotlari ostiga olib kabutarlar uqlab yotisharkan. Yigit qasr ichiga kirib kelibdi, qarasa devorlarda pashshalar ham uqlashmoqda ekan, oshxonada esa bakovul oshpaz xotinni sochidan tutamlab tortmoqchiday qo'lini hamon

ko'tarib turarkan, oqsoch esa patini tozalamoqchi bo'lган qora tovuq oldida miq etmay o'tirarkan.

Yana nariroqqa yurib borib ne ko'z bilan ko'rsinki, saroy ichida barcha saroy a'yonlari yotgani yotgan joyida, o'tirgani o'tirgan joyida uyquga mubtalo ekan. Huv yuqorida taxt oldida qirol bilan qiroliche yotgan emish. Yigit odim tashlab ketaveribdi, chor-atrof shunaqangi jimjit ekan ki, hatto o'zining nafas olayotgani baralla eshitilib turarkan.

Nihoyat shahzoda Na'matakqiz yotgan mo'jazgina hujra eshigini asta itaribdi. Qiz yotgan emish, u shu qadar go'zal ekanki, yigit undan ko'zini uzolmay qolibdi, asta engashibdi-da, qizning yuzidan bo'sa olibdi. Shunda kutilmagan mo'jiza sodir bo'libdi: u qizga teginishi bilan Na'matakqiz ko'zini ochibdi, uyqusi qochib, yigitga karashma bilan tikilib qolibdi. Ular ikkovlon bo'lib minoradan tushishibdi.

Shundan keyin qirol bilan qiroliche ham, barcha saroy a'yonlari ham uyg'onishibdi va bir-birlariga ag'rayib qarab qolishibdi. Hovlidagi otlar oyoqqa turib, pishqirib silkina boshlashibdi, tozi itlar o'rinalidan sapchib turib, dumlarini u yoq-bu yoqqa chayqashibdi. Tomdag'i kabutarlar boshlarini ko'tarib atrofga alang-jalang qarashibdi-da, dala tomon uchib ketishibdi. Pashshalar devorda o'rmalay boshlashibdi. O'choqdagi olov yana gurilab yonib, tushlik ovqat qaynay boshlabdi, qozondagi qovurdoq jaz-biz ovoz chiqarib, qovurila ketibdi. Bakovul oshpaz xotinga shunaqangi tarsaki tushiribdiki, o'zi ham qichqirib yuboribdi, oqsoch esa qo'lidagi qora tovuq patini shosha-pisha yulishga tushibdi.

Shu bilan shahzoda va malika Na'matakqizning to'yini juda tantana va xursandchilik bilan o'tkazishibdi, ikki yosh umrlarining oxirigacha g'am ko'rmay yashashibdi.

QIROL QORAYALOQ

Bir qirolning qizi bor ekan. Qiz haddan tashqari go'zal ekan-u, lekin shu bilan birga o'ziga yetgancha mag'rur va kekkaygan ham ekan, kuyov bo'laman deganlardan birontasi ham uning dili-yu didiga mos kelmabdi. U og'iz solgan, qo'lini so'ragan har bir yigitga rad javobini berar, bu ham yetmaganday, har birini masxaralab, kalaka qilarkan.

Kunlarning birida qirol bazmi jamshid qilishni buyuribdi va qiziga uylanish niyatida bo'lgan uzoq-yaqindagi barcha yigitlarni ziyoftga taklif etibdi. Qirol ularni tartib bo'yicha, unvon va mansabiga qarab bir safga tizibdi, eng oldinda qirollar joy olibdi, so'ng gersoglar, knyazlar, graflar va baronlar va nihoyat dvoryanlar tik turishibdi.

Keyin malikani saf oldidan olib o'tishibdi, biroq kuyovlarning har biridan qandaydir nuqson topaveribdi. Biri haddan tashqari semiz ekan: «Mana buni qaranglar, vino bochkasi-ku!» — debdi malika. Ikkinchisi juda uzun bo'yli odam ekan: «Darozligini ko'ring, o'lguday qiltiriq ekan, yurishi bo'lsa qo'poldan qo'pol», — debdi qiz. Uchinchisi past bo'yli janob ekan: «Huh, bo'yi bir qarich, buning ustiga baq-baqaloq bo'lib, nimaga ham yarardil!» — dermish malika. To'rtinchisining rangi gezargan-roq ekan: «Basharasi xuddi ajalning o'zi-ya!» Beshinchisining turqi o'ta qizil ekan: «Manovining g'ul-g'uli tovuqdan qilcha farqi yo'q-ku!» Oltinchisi haddan tashqari yosh ekan: «Bunisi ona suti og'zidan ketmagan go'dak ekan, ho'l yog'ochdan farqi yo'q, buruqsaydi-yu, issiq bermaydi».

Xullas, birini o'poq debdi, birini so'poq debdi, har biridan qandaydir nuqson topib, yerga urib tashlayveribdi, ayniqsa ajabtovur bir qirolni shunaqayam bitmaganday qilib tashlabdiki, qo'yavera-siz. Sababi o'sha qirolning bo'yi biroz baland va baqbaqasi biroz bir yonga oqqan ekan.

— O'ha, — debdi malika va sharaqlab kulib

yuboribdi. — Mana bu qirolning baqbaqasini ko'rib qo'yinglar, xuddi qorayaloqning tumshug'iga o'xshaydi-yal

Shundan o'sha qirol Qorayaloq deb nom olgan ekan.

Keksa qirol qizining nuqul odamlar ustidan kulib masxaralashdan boshqani bilmasligini, qo'lini so'rab kelgan kuyovlarga faqat rad javobi berayotganini ko'rib, g'azabga minibdi va qizimni eshigimni chertib kelgan dastlabki tilanchiga erga beraman deb qasam ichibdi.

Oradan bir necha kun o'tib, qandaydir mashshoq paydo bo'libdi va sadaqa toplash maqsadida deraza tagida turib, kuy chala boshlabdi. Kuy ovozini eshitib qirol debdi:

— Uni yuqoriga qo'yib yuboringlar.

Mashshoq o'zining juldur va isqirt kiyimi bilan saroyga kirib kelibdi va qirol va uning qizi oldida qo'shiq ayta boshlabdi. Qo'shig'ini aytib bo'lidan keyin u sadaqa berishlarini so'rabdi.

Qirol debdi:

— Qo'shig'ing menga shunchalik xush yoqdiki, men qizimni senga xotinlikka beraman.

Malika qo'rqib ketibdi, lekin qirol debdi:

— Men seni eshigimni chertib kelgan dastlabki tilanchiga erga beraman deb qasam ichgan edim, endi o'z qasamimda turishim kerak.

Qiz yalinibdi, yolvoribdi, bo'lmabdi, qirol so'zidan qaytmabdi. Shunda rohibni chaqirishibdi, qizni tilanchi mashoqqa nikohlab qo'yibdi. Barcha rasm-rusumlar ado etib bo'lingandan keyin qirol qiziga qarab bunday debdi:

— Endi sen tilanchining xotini bo'lding, tilanchining xotini esa mening saroyimda turishga munosib emas. Ering bilan istagan yog'ingga ketaverishing mumkin.

Tilanchi malikaning qo'lidan tutib qayerdan yetaklab chiqibdi, malika erining izidan borishga majbur bo'libdi. Ular qalin o'rmonga kelishibdi va malika so'rabdi:

- *Kimniki bu o'rmon bilan yaylovlar?*
- *Bular bari qiroq Qorayaloqnikidir.*
O'shanda quvib solmaganingda ey nodon qiz,
Bo'lar edi shular bari seniki.
- *Oh, afsuslar bo'lsin, ming bor afsuskim,*
Qaytarib ololmam Qorayaloqni!

Ular dalalardan o'tib borishayotganda malika tag'in so'rabdi:

- *Kimnikidir bu daryo-yu dalalar?*
- *Bular bari qiroq Qorayaloqnikidir!*
O'shanda quvib solmaganingda, ey nodon qiz,
Bo'lar edi shular bari seniki.
- *Oh, afsuslar bo'lsin, ming bor afsuskim,*
Qaytarib ololmam Qorayaloqni!

Ular bir shahri azimdan o'tib borayotganda malika yana so'rabdi:

- *Bu barno shaharning kimdir sohibi?*
- *Qadim-qadimdan buyon u qiroq Qorayaloqnikidir.*
O'shanda quvib solmaganingda, ey nodon qiz,
Bo'lar edi shular bari seniki.
- *Oh, afsuslar bo'lsin, ming bor afsuskim.*
Qaytarib ololmam Qorayaloqni!

— Gaplaring menga yoqmay ketayotibdi, — debdi mashshoq, — nega endi hadeb qandaydir begona odamni o'zingga er qilishni istaysan? Yo men senga biron yomonlik qildimmi?

Ular qandaydir kichikkina kulbaga duch kelistibdi va malika yana so'rabdi:

- *Voy xudoyim, qaranglar bu uychaning holiga!*
Kimniki u?
- Ayting, xo'sh, bunchalik yomon nega?*

Shunda mashshoq javoban debdi:

— Bu uycha men bilan sen ikkovimizniki, ikkalamiz endi shu yerda umr suramiz.

Ichkariga kirish uchun malika past eshikdan boshini ancha egishiga to'g'ri kelibdi.

— Xizmatkorlaring qani? — deb so‘rabdi mali-ka.

— Qanaqa xizmatkorlar? — hayron bo‘libdi tilanchi. — Bu yerda har bir ishni sen o‘z qo‘ling bilan bajarishingga to‘g‘ri keladi. Xohlasang-xohlamasang shunday qilishga majbursan. Qani, bo‘l, pechkaga o‘t qalab, suv qo‘y, menga tushlik ovqat qilib berishing lozim, itday charchadim.

Lekin o‘t yoqish va ovqat pishirish malikaning qo‘lidan kelmas ekan, shuning uchun tilanchi o‘zi ishga kirishib ketibdi. Bir amallab ikki qoshiq yovg‘onni pishirib olibdi. Ular apil-tapil tamaddi qilib olishibdi-da, ochin-to‘qin uxlagani yotishibdi.

Ertalab tong bo‘zarishi bilan tilanchi malikani issiq o‘rnidan turg‘azib yuboribdi, malika ro‘zg‘or yumushlariga unnab ketibdi. Shu tariqa ular bir necha kun birga yashashibdi, yaxshi yashashdi deb ham bo‘lmas ekan, yomon yashashdi deb ham. Har holda g‘amlab olgan oziqlarini oxirigacha ye-yishibdi. Shunda eri debdi:

— Xotin, bu ahvolda ishimiz o‘nglanmaydi, biz yeuishga yeb tashlayapmiz-u, lekin hech narsa ishlab topmayapmiz. Sen savat to‘qishga bir unnab ko‘r-chi.

U borib tol chiviqlaridan kesib, uyiga olib kelibdi, malika to‘qiy boshlabdi, biroq irg‘ay chiviqlaridan nozik barmoqlari birpasda qavarib, mo‘mataloq bo‘lib ketibdi.

— Qarab tursam, ishing baroridan kelmayapti, — debdi eri, — yaxshisi urchuq yigirishga o‘ta qol, harholda shuni eplarsan.

Malika o‘tirib urchuq yigirmoqchi bo‘lgan ekan, biroq yo‘g‘on iplar uning momiqday qo‘llariga chunon qattiq botibdiki, qonab ketibdi hatto.

— Ko‘rdingmi, — debdi eri, — hech bir ishga qo‘ling kelmaydi, sen bilan yashash menga do‘zax azobi bo‘ldiganga o‘xshaydi. Endi tuvak va sopol idishlar sotib tirikchilik qilish yo‘liga o‘tmasam bo‘lmaydi. Sen bozorga borib mollarni sotasan.

«Uh, — deb o'ylabdi malika, — hali bu ham kamlik qilganday bizning qirollik odamlari bozorga kelishib, menga ko'zlarini tushsa nima deb o'ylashmaydi. O'tirib olib tuvak sotganimni ko'rishsa, og'izlari qolib boshqa yerlari bilan kulishsa kerak.» Lekin boshqa nima ham qila olardi? Uning mayli deyishdan o'zga chorasi ham yo'q ekan, aks holda ochdan o'lishlari tayin ekan.

Dastlabiga ish xamirdan qil sug'urgandek oson bitibdi — odamlar uning molidan yaxshi xarid qilishibdi, chunki uning o'zi go'zal juvon bo'lib, qancha desa shuncha berib ketaverishibdi, hatto ba'zilar pulni to'lashga to'lab, tuvakni ham qoldirib ketishibdi. Ular shu tariqa kun kechira boshlashibdi.

Eri yana talay tuvak olib kelibdi. Malika bozorning bir burchagida tuvaklarni qator qilib terib qo'yib, xaridor kuta boshlabdi. Bir vaqt bir shirakayf otliq sarboz to'g'ri uning ustiga bostirib kelibdi-da, tuvaklarni majaqlab tashlabdi — shuncha moldan parcha-parcha sopol siniqlari qolibdi, xolos. Malika yig'lay boshlabdi va qo'rqqanidan nima deyishini ham, nima qilishini ham bilmabdi.

— Oh, endi ko'radiganimni ko'raman! — debdi u. — Erim boshimga it kunini soladi.

U uyga yugurib boribdi-da, eriga bo'lgan gaplarni aytib beribdi.

— Kim bozorning bir burchagida sopol idishlarni yoyib o'tiradi? — debdi eri. — Yig'ini bas qil. Ko'rinish turibdiki, bu ish ham qo'lingdan kelmas ekan. Bugun men qirol qasrida bo'lgan edim, saroya idish-tovoq yuvuvchi kerakmasmi deb so'radim, menga seni ishga olamiz deb va'da qilishdi, buning uchun senga tekin ovqat berisharkan.

Shunday qilib malika idish-tovoq yuvish bilan mashg'ul bo'libdi, u oshpazga yordamchilik qilar va eng qora ishlarni bajararkan, u xaltasi yoniga ikkita kosacha osib olibdi, sarqitlardan o'z ulushi ni shularga solib uyga olib kelarkan-da, er-xotin shundan ovqatlanarkan.

Nima bo'libdi-yu, to'ng'ich shahzoda uylanib, to'y tantanalariga tayyorgarlik ko'rilmoxda ekan, bechora malika qasr yuqorisiga chiqib, tomosha qilgani eshik oldiga borib turibdi. Mana, shamlar yoqilibdi, saroyga mehmonlar tashrif buyurishibdi, mehmonlar bir-biridan bashang, xushbichim emish, bu yerdag'i hamma narsa chinakamiga shohona bezatilgan bo'lib, odamning aqlini shoshirarkan. Shunda malika o'zining shum taqdiri to'g'risida yuragida alam va o'kinch bilan o'ylab ketibdi, oxirida uni bunchalik tubanlikka olib kelgan va qutulmas g'ariblikka giriftor qilgan o'zining mag'rurligi va takabburligini qarg'ay boshlabdi. U saroydan xizmatkor-mulozimlar tashiyotgan sarxil taomlarning xushbo'y hididan boshi aylanibdi. Unga esa sarqitlardan ozgina ajratib qoldirishar, malika uni kosachalariga solib, ish kunining oxirida uyiga olib ketgani bir chetga qo'yib qo'yar ekan.

Bir vaqt shahzoda kirib qolibdi, u egniga shoyi va barqut liboslari kiyib olgan, bo'ynida oltin zanjir tovlanib turar ekan. Eshik oldida husndor ayol turganini ko'ribdi-da, uning qo'lidan tutib, u bilan o'yin tushmoqchi bo'libdi. Biroq malika qo'rqib ketibdi, o'yin tushishga rozilik bildirmabdi — axir bu unga og'iz solgan va u kalaka qilib rad etgan o'sha qiroq Qorayaloq ekanini tanib qolgan ekan-da! Biroq harchand qarshilik ko'rsatsa ham qiroq uni saroy sahniga sudrab chiqibdi; bir vaqt bog'ich uzilib ketibdi-yu, unga osig'liq xalta yerga tushib, ichidagi kosachalar ham ag'darilibdi, sarqit sho'rva yerga to'kilibdi.

Mehmonlar buni ko'rib malikani masxaralab kula boshlashibdi, malika yer yorilmabdi-yu, yerga kirib ketmabdi. U o'zini eshikka urib qochib qolmoqchi bo'lgan ekan, biroq zinada uni qandaydir odam quvib yetibdi va ichkariga qayta yetaklab kiribdi. Malika bundoq qarasa, qarshisida tag'in o'sha qiroq Qorayaloq turganmish. U malikaga qarab debdi:

— Qo'rqma, men o'sha sen bilan g'aribona kul-

bada istiqomat qiladigan tilanchi mashshoqning o'ziman. Azbaroyi senga muhabbatim zo'ridan o'zimni tilanchi mashshoq qiyofasiga solgan edim. Bozorda sopol tuvaklarni otning tuyoqlari ostida chil-parchin qilib ketgan ham men edim. Sening takabburliging va mag'rurligingni bukish, mening ustimdan kulib, haqoratlaganining evaziga senga munosib jazo berish uchun men ataylab shunday qildim.

Malika alam bilan yig'lab yuboribdi va debdi:

— Men shunchalik nohaqliklar qildimki, sizga xotin bo'lishga loyiq emasman.

Biroq qirol unga qarab debdi:

— Tinchlan, og'ir kunlar ortda qoldi, endi biz to'yimiz tantanalarini boshlaymiz.

Zumda qirol xizmatkorlari hozir bo'libdi, mali-kaga shohona liboslar kiydirishibdi. Ko'p o'tmay malikaning otasi ham kelibdi, u bilan izma-iz butun saroy ahli yig'ilibdi. Barchalari malikani qirol Qorayaloq bilan turmush qurgani bilan tabriklab, bir umrlik baxt-saodat tilashibdi. Chinakam shodiyona, chinakam baxtiyor soatlar endi boshlanibdi.

Siz ham, men ham o'sha to'yda yeng shimarib xizmat qilganimizda, shirin taomlardan to'yib-to'yib yeganimizda qanday yaxshi bo'lar edi! Yuringlar, kech qolmasdan bora qolaylik bo'lmasa!

GENZEL VA GRETEL

Qalin o'rmondagi yalanglikda ikki bolasi va ikkinchi xotini bilan bir o'rmon kesuvchi yashar ekan. Bolalarining biri qiz bo'lib, ismi Gretel, ikkinchisi o'g'il bo'lib, ismi Genzel ekan. O'rmon kesuvchi qo'l uchida kun ko'rар ekan, ittifoqo o'sha kezlarda shunday qimmatchilik bo'libdiki, hatto qorin to'ydirgani bir burda non topish ham amri mahol bo'lib qolibdi.

Kunlarning birida kechki payt u to'shakda yotgancha xayol surib ketibdi, miyasida alg'ov-dalg'ov, ayqash-uyqash fikrlar charx uringdi, chuqur uh tortibdi-da, xotiniga qarab debdi:

— Endi nima qildik? Sen bilan ikkalamiz-ku, qanchadan beri tishimizning kirini so'rib yuribmiz, ammo anavi norasidalar juda uvol bo'ldi-ku.

— Bilasanmi nima, — debdi xotini, — ertaga tong bo'zarishi bilan bolalarni o'rmonga olib kiramiz, eng qalin joyga olib boramizda, gulxan yoqib, qo'llariga bir to'g'ramdan non tutqazamiz, keyin o'zimiz ishga ketgan bo'lib, ularni o'sha joyda yolg'iz qoldirib ketamiz. Uyga qanday kelish yo'lini bilmay, bizni topisholmaydi, shu bilan ular-dan qutulamiz-qo'yamiz.

— Yo'q, xotin, — debdi o'rmon kesuvchi, — men bunday qilolmayman, axir yuragim toshdan emas-ku. Men bolalarni o'rmonda yolg'iz qoldirib ketolmayman, u yerda yirtqich hayvonlar hujum qilib, parcha burish qilib tashlashlari mumkin.

— Eh, sodda-go'l er! — debdi xotini. — Aks holda to'rttalovimiz ham ochimizdan o'lib ketamiz-ku, tobut yasab qo'yishdan boshqa tashvishimiz qolmaydi. — Keyin u eri seniki ma'qul demaguncha miyasini qoqib qo'liga berib-di.

— Baribir ikki norasidaga juda ham uvolim kelayapti, — debdi o'rmon kesuvchi.

Ochlikdan bolalarning uyqusи kelmay, otalari bilan o'gay onalari o'rtasida bo'lib o'tgan suhabatni baralla eshitib yotishar ekan. Gretel achchiq-achchiq ko'z yoshi to'kib Genzelga debdi:

— Bu yerdan qancha tez gumdon bo'lsak, shun-chacha yaxshi.

— Jim, Gretel, — debdi Genzel, — ko'p kuyinaverma, men biror-bir yo'lini o'ylab toparman.

Ota-onalari uyquga ketganda u o'rnidan turibdi-da, kurtkasini kiyibdi, asta eshikni ochib, ko'chaga chiqibdi. Bu paytda oy sutday yorug' bo'lib, uy

oldida yotgan oq toshlar bamisoli kumush tan-galarday tovlanarkan.

Genzel engashib, oq toshchalarga cho'ntagini to'ldirib olibdi. Keyin qaytib uyg kiribdi-da, Gretelga debdi:

— Tinchlan, singiljonim, endi bemalol uxlay-ver. — Shu so'zlarni aytib o'zi ham to'shakka cho'zilibdi.

Tong endi bo'zara boshlaganda o'gay ona bolalarining tepasiga kelib uyg'ota boshlabdi:

— Hoy uyquchilar, turinglar, vaqt bo'ldi, o'tin olib kelgani biz bilan o'rmonga borasizlar!

Keyin bolalarga bir to'g'ramdan non berib debdi:

— Bu sizga tushlik hisobida. Tag'in oldinroq yeb qo'y manglar, boshqa hech narsa bermayman.

Gretel nonni peshbandiga yashiribdi, chunki Genzelning cho'ntaklari toshga to'la emasmidi. Keyin hammalari birgalikda o'rmonga yo'l olishibdi. Biroz yurar-yurmas birdan Genzel to'xtabdi, orqasiga burilib qarabdi, kulbalariga razm solibdi — bu hol bir necha marta takrorlanibdi, dambadam to'xtab orqasiga qarayveribdi. Otasi unga debdi:

— Genzel, nimaga hadeb to'xtab orqaga qarayverasan? Qani, tezroq yursang-chi, yo'qsa orqada qolib ketasan.

— Oh otajon, — debdi Genzel, — men suyukli oq mushukchamizga qarayapman, qarang, tomda o'tiribdi, go'yo menga qarab «alvido» deyot-ganday.

O'gay ona debdi:

— Voy qoqvosh-ey, bu mushuk emas, tong quyoshi mo'ri ustida charaqlab turibdi.

Aslida Genzel hech qanaqa mushuk-pushuk ko'rmayotgan ekan, balki cho'ntagidan oppoq toshchalarni olib yo'lga tashlayotgan ekan.

Mana, ular o'rmonning eng qalin joyiga yetib kelibdilar, shunda otasi debdi:

— Qani, bolalar, shox-shabba to'planglar-chi, men gulxan yoqaman, tag'insovqotib qolmanglar.

Genzel bilan Gretel bir quchoq shox-shabba to'plashibdi, gulxan yoqilibdi. Alanga avjiga olganda o'gay ona debdi:

— Qani, bolalar, gulxan oldida yotib, yaxshilab dam olib olinglar, biz esa o'rmonga borib, yog'och kesamiz. Ishimizni tugatishimiz bilan qaytib kelamiz-da, sizlarni olib ketamiz.

Genzel bilan Gretel gulxan oldida o'tirib olishibdi, kun tikkaga kelganda ikkalasi bir to'g'ramdan nonni tamaddi qilishibdi. Qulqlariga boltaning taq-tuq ovozi tinmay chalinib turgani uchun otamiz shu yaqin atrofda o'rmon kesayotibdi, deb o'ylashibdi. Aslida bu bolta bo'lmay, o'rmon kesuvchi daraxtga osib qo'ygan g'o'la bo'lib, shamoldan chayqalib, daraxt tanasiga urilganda chiqqan ovoz ekan.

Bolalar gulxan oldida uzoq o'tirishibdi, char-chaganlaridan ko'zları yumilib-yumilib ketaveribdi, ko'p o'tmay ikkalovi ham dong qotib uxbol qolibdi. Uyg'onib qarashsa, yarim tun emish. Gretel yig'lab yuboribdi va:

— Endi o'rmondan qanday chiqib olamiz? — debdi.

Genzel uni yupatib debdi:

— Yig'lama, birpas sabr qil, ko'p o'tmay oy chiqadi, shunda yo'lni topib olamiz.

Oy chiqibdi, Genzel singlisining qo'lidan tutib toshdan toshga o'tib yurib ketaveribdi, toshlar oy nurida kumush tangalarday charaqlab, bolalarga yo'lni ko'rsatib turar emish. Ular tun bo'yi to'xtovsiz yo'l yurib, tong bo'zarganda otalarining kulbasi oldida paydo bo'lishibdi.

Bolalar eshikni taqillatishibdi, eshikni o'gay ona ochibdi, qarasa ro'parasida Genzel bilan Gretel turgan mish. Ularni ko'rib debdi:

— Qanday bema'ni, yaramas bolalarsiz-a?! O'rmonda ham shunaqa ko'p uxbaydimi?! Biz

bo'lsak qaytib kelishlaringdan umidimizni uzib o'tirgandik.

Bolalarni ko'rib otaning chehrasi yorishib ketibdi, chunki norasidalarni nega yolg'iz o'rmonga tashlab keldim deb yurak-bag'ri qon bo'lib o'tirgan ekan-da.

Oradan birmuncha vaqt o'tar-o'tmas yana muhtojlik va ochlik boshlanibdi, bolalar tag'in o'gay onaning tunda to'shakda yotgancha otalariga gap uqtirayotganini eshitib qolishibdi:

— Uyda yegulik hech vaqo qolmadi, faqat yarimtagina qoq non bor, shuncha jonga urvoq ham bo'lmaydi. Nima bo'lsa ham shu bolalarni bir yoqlik qilmasak bo'lmaydi. Keling, shularni o'rmonning eng uzoq joyiga oborib tashlaylik, qaytib orqaga yo'l topisholmasin, shundan boshqa ilojimiz yo'q.

O'rmon kesuvchining yuragini tig' kesib o'tgandek birdan ma'yus tortib qolibdi va o'zicha o'ylay boshlabdi: «Oxirgi tishlam nonimni ham shu norasidalar bilan birga baham ko'raman!» Biroq xotini uning gapini eshitishni ham istamabdi, qaytanga shama qilib, erini qarg'ab-qarg'ab tashlabdi. Mana, ko'rdingizmi, yomonlikka jinday yon bersangiz, tamom, u sizni butunlay o'ziga egdirib oladi, o'rmon kesuvchi ham birinchisida bekorga xo'p degan ekanman deb, bu gal ham xotinining qabih niyatiga deyarli qarshilik ko'rsatolmabdi.

Bolalar hali uyquga ketishmagan, hamma gap ularning qulog'iga baralla chalinib turgan ekan. Ota-onalari esa darrovgina uxbab qolishibdi. Shunda Genzel tag'in hovliga chiqib oq toshchalaridan terib kelmoqchi bo'lgan ekan, ammo quv o'gay ona bu safar eshikni mahkam tanbalab qo'ygan ekan, shuning uchun hovliga chiqishning iloji bo'lmasdi. U singlisini yupatib debdi:

— Yig'lama, Gretel, bemalol uxbayver, tepada xudo turibdi, yordamini bizdan ayamas.

Kallayi saharlab o'gay ona balo-qazoday bolalarning tepasiga kelib, o'rnilaridan turg'azib

yuboribdi. Ularga bir burdadan non tutqazibdi, bu galgi non burdalari kechagidan ancha kichik ekan. Yo'l-yo'lakay Genzel nonni cho'ntagida uqalab, uvoqqa aylantiribdi. Dam-badam to'xtab, uvoqlarni yo'lga sochib boraveribdi.

— Nima bo'ldi senga, Genzel, dam-badam to'xtab, nuqul orqaga qarayverasan? — so'rabi otasi. — Qani, yo'lingdan qolmay tezroq yur.

— Men kabutarimga qarayotgan edim, hov ana, tomda o'tiribdi, xuddi men bilan vidolashayotganday bo'layapti-da, — javob beribdi Genzel.

— G'irt tentaksan, — debdi o'gay ona, — bu sirayam sening kabutaring emas, tong quyoshi mo'ri ustida charaqlab turibdi.

Genzel bo'lsa yo'l bo'yи non uvoqlarini sochib kelaveribdi. O'gay ona bolalarni tobora o'rmon ichkarisiga boshlab, hali na ularning, na bosh-qalarning oyog'i yetgan joyga olib kelibdi. Yana gulxan yoqishibdi, shunda o'gay ona bolalarga debdi:

— Bolajonlarim, sizlar mana bu yerga o'tirib olinglar, ikkovingizni ham yo'l urib tashladi, bir-pas u xlabel olmasangiz bo'lmaydi. Biz borib o'rmon kesamiz, kechqurun ishimizni bo'lib, qaytib kelamiz-da, sizlarni uyga olib ketamiz.

Kun tikkaga kelganda Genzel bilan Gretel qol-gan bir burda qoq nonni birga baham ko'rishibdi, chunki ikkinchi burdani Genzel yo'l bo'yи maydalab, to'kib kelgan edi-da. Keyin bolalar uyquga ketishibdi. Kech tushibdi, lekin bolalarni olib ketgani na otalari, na o'gay onalari kelibdi, tun yarimlaganda ular uyg'onib ketishibdi va Genzel singlisini yupata boshlabdi:

— Yig'lama, jonim, hali zamon oy chiqadi, non uvoqlari ko'zga tashlana boshlaydi, shunda uvoqlarga qarab uyga yo'l olamiz.

Hademay oy ham chiqibdi, bolalar uylari tomon yo'lga tushishibdi. Lekin non uvoqlarini topisholmabdi, chunki o'rmonda uchib yurgan ming-minglab qushlar non uvoqlarini terib yeb qo'yish-

gan ekan. Shunday bo'lsa ham Genzel Gretelga dalda berib debdi:

— Qanday qilib bo'lsa-da, yo'limizni topib olamiz.

Biroq ish u o'ylaganchalik bo'lmabdi, yo'lni topishholmabdi. Ular tun bo'yi ham, ertasiga kuni bilan ham yo'l yurishibdi, biroq o'rmondan chiqib ketishholmabdi. Bolalarning qorni qattiq ochqabdi, chunki unda-bunda uchragan mevalardan boshqa ular og'izlariga hech narsa olishmagan ekan-da. Ular shunaqangi charchashib, holdan toyishibdiki, oyoqlarini bazo'r sudrab bosisharmish bir vaqt, bir daraxt tagida boshlarini yerga qo'yishibdi-yu, dong qotib uxlab qolishibdi.

Ota uyidan chiqqanlariga bugun uch kun bo'libdi. Ular ketaverishibdi, ketaverishibdi, o'rmon esa tobora quyuqlashib, qorong'ilashib boraveribdi. Agar xudo yordam qo'lini cho'zma-ganida ularning holi ne kechishi noma'lum ekan.

Kun tushga yaqinlashib qolgan ekan, bolalar shoxda bir chiroyli oq qushchani ko'rib qolishibdi. Qushcha shunaqangi yoqimli kuylar ekanki, ular beixtiyor to'xtab, qulq sola boshlabdilar. Lekin nimagadir qushcha birdan jimb qolibdi, qanotlari-ni qoqib, bolalarning oldiga tushib ucha boshlabdi. Bolalar uning ketidan ergashib ketaveribdilar. Qushcha uchib borib-borib yo'lدا duch kelgan bir kulba tomiga qo'nibdi. Bolalar kulbaga yaqin borishibdi. Mo'jizani qarang-ki, kulba nondan qurilgan ekan, ustidagi tomi esa butunlay qandolatdan ekan, darchalari esa tip-tiniq dirillamadan yasalgan emish.

— Ana endi bir chekkadan ishni boshlayveramiz, — debdi Genzel, — umrimizda bunaqa mehmondorchilikni ko'rмаган edik! Men tomdan bir bo'lagini uzib yey, sen esa, Gretel, darichani eplayver, hoynahoy u juda mazali bo'lsa kerak.

Genzel mazasi qandayligini sinab ko'rish maqsadida kulba ustiga sakrab chiqibdi-da, tomdan bir

bo‘lagini uzib olibdi, Gretel esa darichaga mahkam yopishib, sichqonday kemirishga tushib ketibdi.

Bir vaqt ichkaridan kimningdir ingichka ovozi eshitilibdi:

*Derazamning ostida kumir-kumir, kusir-kusir
Kim u mening uyimni yeyotgan padarqusur?*

Bolalar javob qilishibdi:

*Biz mehmonmiz g‘aroyib,
Shamolmiz ko‘p ajoyib.*

Bir-birlariga qarab «qo‘yaver» deganday imo qilishibdi-da, bolalar uyni bir boshdan yemira ketishibdi.

Tomning mazasiga juda mazaxo‘rak bo‘lib qolgan Genzel undan bir bo‘lak uzib olibdi-da, pastga uloqtiribdi, Gretel esa dirillamadan butun bir aylana shishani sindirib olibdi-da, kulba yonida o‘tirib olib, hech qayoqqa qaramay tushira ketibdi.

Birdan eshik ochilibdi, ichkaridan qo‘ltiqta-yoqqa suyanganicha yoshini yashagan, oshini oshagan, sharti ketib, parti qolgan juda ham qari kampir chiqib kelibdi. Genzel bilan Gretel uni ko‘rib shunaqangi o‘takalari yorilibdiki, qo‘llaridagi shirinlik yerga tushib ketibdi. Kampir boshini chayqab shunday dermish:

— Hoy shirin-shakar bolalar, sizlarni bu yoqlarga kim olib keldi? Hay mayli, xudo mehribon, qani, kulbaga kiraqolinglar, sizlarga hech kim hech narsa qilmaydi.

Kampir ikkalasini qo‘lidan ushlab, kulbaga olib kiribdi. Ularga atab juda mazalik ovqat: shakar, olma, yong‘oq va yong‘oqli lochira solingan sut keltirib beribdi. Keyin ikkita juda ham shinam o‘rin solib beribdi-da, ustiga oq choyshab yopibdi. Genzel bilan Gretel momiqday o‘rinlarga kirib yotishibdi-yu, ayni jannatning o‘ziga kelib tushdik deb o‘ylashibdi.

Biroq kampirning bu barcha yaxshiliklari shunchaki xo‘jako‘rsinga bo‘layotgan ekan, aslida u o‘taketgan makkor va yovuz jodugar bo‘lib, nuqul bolalarning qironini keltirib yurar ekan, qurib qo‘ygan non uychasi esa aldab tuzoqqa tushirish uchun qo‘yib qo‘ygan yolg‘on yemi ekan. Uning qo‘liga kelib tushganni u o‘ldirar, so‘ng qaynatib, pishirib yer ekan, shu kuni uning uchun zo‘r bayram bo‘lar ekan. Jodugarlarning ko‘zi doim qizil bo‘larkan, shuning uchun uzoqdan yaxshi ilg‘amas ekan, ammo dimog‘i hayvonlarday hidni tez olib, odamning kelayotganini darrov sezар ekan.

Genzel bilan Gretel uning kulbasiga yaqin kelishganda kampir vahshiyona qah-qah үrib kulib yuboribdi va masxaraomuz debdi:

— Mana, bu jinqarchalar ham qo‘lga tushdi! Endi mendan qochib qutulib bo‘pti!

Tong chog‘i u bolalar miriqib uqlab yotishganda o‘rnidan turibdi-da, ikkala norasidaning xotirjam uqlab yotishganini, lo‘ppi-lo‘ppi va qip-qizil yuzchalarini suq bilan tomosha qilibdi, keyin o‘zicha ich-ichidan suyunib: «U yo‘q-bu yo‘q, bugun o‘zimga dunyodagi eng mazali ovqatdan pishiraman!» deb ming‘irlab qo‘yibdi.

U Genzelni tarashaday qo‘liga ko‘tarib og‘ilxonaga olib kiribdi va ustidan panjarali eshikni qulflab qo‘yibdi — endi dunyoni boshiga ko‘tarib qichqirsa ham hech kim yordam berolmaydi. Keyin Gretelning boshiga kelibdi-da, uni turtib-turtib uyg‘otarkan, shunday debdi:

— Tur, hoy dangasa, menga suv keltir, akanga biron mazali ovqat pishirmaysanmi, qara, hov og‘ilxonada o‘tiribdi, to‘yib-to‘yib yaxshi ovqatlar dan yesin. Sal etga kirgandan keyin, men uni yeyman.

Gretel achchiq-achchiq ko‘z yoshi to‘kibdi — biroq bundan na foyda. U itoatkorlik bilan jodugarning buyruqlarini bajara boshlabdi.

Mana, Genzelga atab biri-biridan xushta’m

taomlar tayyor bo'libdi, Gretelga esa faqat nishxo'rdlargina nasib qilibdi.

Har kuni ertalab kampir og'ilxona oldiga borib, shunday der ekan:

— Genzel, barmoqlaringni menga uzat-chi, bir ko'rib qo'yay, tuzukkina semirdingmi, yo'qmi.

Biroq Genzel unga ingichka so'ngakni uza-tarkan, kampirning ko'zлari xira bo'lganidan uning nima ekanini ham yaxshi payqayolmay, nimaga shuncha ovqat yesa ham bu bolaning badaniga sira jir bitmayotibdi, deb o'ylab, hayron bo'larkan.

Shu tariqa to'rt hafta o'tibdi, biroq Genzel sira o'zgarmabdi. Oxiri kampirning sabr kosasi to'lib, ortiq kutishga toqati qolmabdi.

— Hoy Gretel, — deb qichqiribdi u qizaloqqa, — qani, jonliroq qimirla, borib suv keltir, bo'ldi, Genzel ozg'inmi, semizmi, ertaga ertalab uni so'yaman-da, qozonga tashlayman!

Oh, suv keltirayotganda mungluqqina singil-ning ko'zlaridan yosh daryo bo'lib oqqanini bir ko'rsangiz edi!

— Ey xudoym, nega bizdan yordamingni ayaysan! — debdi u osmonga nola qilib. — Shunday kunlarga qolar ekanmiz, undan ko'ra o'rmonda yovvoyi hayvonlarga yem bo'lganimiz yaxshi emas-midi! Unda akam ikkalamiz birga o'larmidik hech bo'lmaganda!

— Bas qil yig'i-sig'ini! — debdi jodugar kampir qichqirib, — endi hech narsa yordam bermaydi.

Ertalab Gretel o'rnidan turib suv keltirishi, qozon osishi va olovni yoqishi kerak edi.

— Avval non pishirib olamiz, — debdi kampir — men pechkaga olov qalab, xamirni qorib qo'ydim. — Shunday deb u Gretelni olov gurillab yonib turgan pechkaga oldiga turtib yuboribdi. — Qani, pechkaga tush-chi, qara, yaxshi qizibdimi, yo'qmi, non yopsa bo'larmikan?

Gretel pechkaga kirishi bilan kampir qopqoqni yopib, uni qovurmoqchi, keyin maza qilib tushir-

moqchi bo'lgan ekan. Biroq Gretel jodugarning shum niyatini payqab qolibdi-yu, shunday debdi:

— Men pechkaga qanday tushishni bilmayman, avval o'zingiz qilib ko'rsating.

— Voy aqlini mog'or bosgan ovsar qiz-ey, — debdi kampir, — ko'rmayapsanmi, qirg'og'i qanchalik keng, pechkaning og'zi esa go'rday ochilib yotibdi, sen emas, men ham bemalol sig'aman unga. — Shunday deb jodugar g'o'лага oyog'ini qo'yib, boshini pechkaga suqibdi.

Shunda Gretel jodugarni itarib yuborgan ekan, kampir to'g'ri pechkaning tubiga borib tushibdi. Keyin Gretel pechkaning og'zini sharaqlatib berkitibdi-da, lo'kidonini surib qo'yibdi. Voy-bo'y, jodugarning qanaqangi qulqoni teshguday bo'lib qichqirishini ko'rsangiz edil! Gretel esa fursat g'animatda qochib qolibdi, qora niyatli jodugar bo'lsa do'zax azobi torta-torta jon beribdi.

Gretel o'qday uchib akasining oldiga boribdi, og'ilxonani ochibdi-da, qichqirib debdi:

— Genzel, akajon, omon qoldik: qari jodugar kuyib kul bo'ldil!

Eshik ochilishi bilan Genzel qafasdan chiqqan qushdek otilib chiqibdi. Aka-singilning qanchalik quvonishganini, bir-birining bo'yniga chirmashganini, sevinchdan dikir-dikir sakrashganini, bir-birining yuzidan cho'lp-cho'lp o'pishganini bir ko'rganingizda edi! Ha, endi ular qo'rqa digan jodugar yo'q, shuning uchun aka-singil bemalol kampirning kulbasiga kirishibdi, kulbaning burchak-burchaklarida dur-gavhar va qimmatbaho toshlar to'la qutichalar betartib sochilib yotarkan.

— Bular harholda bizning oq toshchalarimizdan ko'ra durustroq ish beradi, — debdi Genzel va ulardan cho'ntaklarini to'ldirib-to'ldirib olibdi.

Gretel debdi:

— Men ham uyga quruq kirib bormasam degandim. — Shunday deb u ham peshbandi etagi-ga javohirotlardan to'ldirib olibdi.

— Endi bu yerdan tezroq juftakni urib qolish

kerak, — debdi Genzel, — axir biz hali jodugar yashaydigan o'rmondan chiqib olishimiz kerak.

Ular ikki soatcha yo'l yurishib, bir ko'lga duch kelishibdi.

— Bu ko'ldan suzib o'tolmaymiz, — debdi Genzel — na bir yo'l, na bir ko'prik ko'rindi bunda.

— Bitta-yarimta qayiq ham yo'qki, — debdi Gretel, — iye, ana, bir oq o'rdakcha suzib kelayapti, agar men iltimos qilsam, u bizni narigi qirg'oqqa o'tkazib qo'yadi.

Shunday deb Gretel qichqiribdi:

*O'rdakcham, hoy o'rdakcham,
Bizga yaqin kel bir dam,
Na ko'prik bor, na yo'l bor,
O'tkazib qo'y, qilma zor!*

O'rdakcha ularning oldiga suzib kelibdi va Genzel uning yelkasiga minib olibdi, keyin mingashtirib olish uchun singlisini ham chaqiribdi.

— Yo'q, — deb javob beribdi Gretel, — o'rdakchaga juda og'irlik qilib ketadi, avval seni olib borib qo'ysin, keyin meni.

O'rdakcha chindan ham insofli, oljanob ekan, Gretel qanday aytgan bo'lsa, bekam-u ko'st ado etibdi. Aka-singil eson-omon narigi qirg'oqqa o'tib olishgandan keyin yo'llarida davom etishibdi, yo'l yurgan sari o'rmon tobora tanishroq bo'lib boraveribdi. Oxiri uzoqdan kindik qonlari to'kilgan ota uyi ko'rindibdi. Ular shodlikdan o'qday uchib, ichkariga otolib kirishibdi va otalarining bo'yniga mahkam osilib olishibdi.

Ularni o'rmonga tashlab kelgan kundan beri otalari g'am-qayg'udan adoyi tamom bo'layozgan ekan, bolalarini ko'rib birdaniga tani yayrab, bardamlashib ketibdi. O'gay ona bo'lsa allaqachon dunyodan o'tgan ekan! Gretel peshbandini yechgan ekan, dur-u javohirlar uy bilan bitta bo'lib sochilib ketibdi, Genzel esa cho'ntaklaridan dur-gavhar-larni hovuchlab-hovuchlab olib qo'yayotganmish.

Shunday qilib ularning ro'zg'oridagi muhtojlik va g'amdan asar ham qolmabdi, hammalari to'q va farovon umr kechirishibdi.

*Ertagimiz bo'ldi tamom,
Sichqon chopar oldga tomon,
Kimki olsa uni tutib
Mo'ynaqalpoq olar tikib
Kattaligi naq savatday...*



DANIYA XALQ ERTAGI



BOLAKAY

Bir odamning uch o'g'li bo'lgan ekan: to'ng'ichini Poul, o'tanchasini Peder va kenjatoyini Bolakay deb atashar ekan. Poul bilan Peder risoladagiday yigitlar ekan. Bolakay bo'lsa g'irt dovdir, nuqul pechka yonida yotib olib kul titgani titgan ekan, u ba'zan kuyaga belangani uchun tanib bo'lmay ham qolar ekan.

Kunlardan bir kun Poul bilan Peder otasi huzuriga kirishibdi-da, biz dunyo kezib, o'zimizga loyiq biror ish topaylik, fotiha bering, deyishibdi. Otasi ularga oq yo'l tilabdi. Bolakay akalarining yo'lga chiqishlaridan xabar topib, u ham og'aliga ergashibdi. Ota kenjatoyini uydan ketishini aslo xohlamabdi. Avvalo, Bolakayning qo'lidan hech qanday ish kelmas, ustiga-ustak, xunuk va isqirt bo'lganligi tufayli uning bilan birga begona odamlar orasida ko'rinish ham uyatli ekan. Bolakay bo'lsa men ham boraman dedimmi, boraman deb turib olibdi.

Poul bilan Peder bashang libosda yo'lga chiqishibdi. Bolakay o'zining nimdosh ust-boshida qolibdi. Akalari Bolakay ularning ortidan ergashib yurishini hecham xohlamabdilar. Ammo Bolakay qaysarlik bilan akalarining ketidan boraveribdi.

Poul bilan Peder qirol saroyiga yetib borib, tezda yaxshi ishga joylashib olishibdi. Bolakayga jo'ngina ish ham topilmabdi: bunday irkitni kim ham ishga olsin? Ko'p mulohazadan keyin Bolakayni otboqarning go'ng tozalovchi malayi qilib ishga olishibdi.

Bolakayning holidan xabar ham olmay qo'yishibdi: o'zi isqirt bo'lganidan keyin kasb-kori

ham isqirt bo'ladi-da. Otxonada go'ng olish saroydagi eng sharmandali yumush hisoblanarkan. Bolakay astoydil tirishib ishlar, tez orada ozodaroq ishga o'tib olibdi. Shunda akalari unga hasad qilihib, Bolakayning martabasi ortishidan xavotirlana boshlashibdi. Ular ikkovlon qirol huzuriga borib, Bolakay tog' alvastining qo'yini ham olib kelishga qodirman deya maqtanganligi, qo'y jo'n emas, har qadam bosganda yarim qadah yung tashlaydigan sehrli qo'y ekanligini, uning yungidan qirol butun lashkariga kiyim tiktira olishi mumkinligini aytishibdi. Shuning uchun qirol Bolakayga, bordi-yu qo'yni olib kelmasang, bo-shingni tanangdan judo qilaman, deb qo'rqiitmasa, uni bu ishga majbur etib bo'lmasligini qo'shib qo'yibdi.

Qirol Bolakayni huzuriga chaqirtirib, sehrli qo'yni olib kelaman deb maqtanganing to'g'rimi, deb so'rabdi. Bolakay qo'y haqida hech nima eshit-maganligini va bunday ishni uddalay olmasligini aytibdi. Shunda qirol:

— Qo'yni olib kelmas ekansan, kallang ketadi, olib kelsang yaxshiroq xizmatga qo'yaman, — debди.

Bolakay yig'lab yuboribdi. Vaholanki, ko'z yoshi to'kish bilan qirolning ko'nglini yumshatib bo'lmas ekan.

Bolakay qiroldan yog'ochdan yasalgan katta xamir tog'ora, bir yarim quloch tayoq bilan yana shuncha uzunlikdagi mato berishlarini aytibdi. Keyin tog'oraning o'rtasiga tayoqni tik o'rnatib, unga matoni bog'labdi-da, kema yasab, to'ppa-to'g'ri tog' alvastisining makoni sari dengizdan suzib ketibdi.

Sehrli qo'y dengiz sohilida o't chimdib yurgan ekan. Bolakay qo'yni tutib olib kemasiga bosibdiyu orqasiga qaytibdi. Alvasti tog' tepasidan uni ko'rib, yugurib sohilga tushguncha Bolakay ancha dengiz ichkarisiga borib qolibdi. Shunda alvasti qirg'oqdan turib:

— Hoy, mening qo'yimni olib qochgan, kimsan o'zil — deb qichqiribdi.

Bolakay javoban:

— Olib qochgan bu men, Bolakayman! — deb javob qaytaribdi.

— Seni qarab tur, hali mendan ko'radiganingni ko'rasan, hozir senga yetib olaman! — o'shqiribdi alvasti.

— Mayli, qani yetib ol menga!

Tog' alvastisi g'azablanib qirg'oq bo'ylab chop-sa ham, ammo suvga tushishga qo'rqrar emish. Bolakay undan osongina qochib qutilibdi.

Bolakay saroyga qo'y bilan kirib borgan ekan, xursand bo'lgan qirol uning xizmatini ko'taribdi.

Akalarining Bolakayga nisbatan hasadi yanada oshibdi: bu ketishda yaqin kunlarda biz bilan tenglashib qolishi hech gap emas-ku! Akalar tag'in bir yangi makr o'ylab topishibdi.

Ular qirol huzuriga borib Bolakay tog' alvastisining sehrli chirog'ini olib kelaman deb maqtanayotganini, chiroqning nuri uch qirollikni yorita olishini, qirol o'z lashkari bilan safarga otlangudek bo'lsa, o'shanda chiroq juda asqotishi-ni aytishibdi. Qirol Bolakayga qattiq do'q urib, bordi-yu, sehrli chiroqni olib kelmasa, og'ir jazo olajagini, yo'qsa u bu yumushga ko'nmasligi mumkin, deyishibdi.

Qirol Bolakayni tag'in huzuriga chaqirtirib tog' alvastisining sehrli chirog'ini olib kelaman deb maqtanganing to'g'rimi, deb so'rabdi. Bolakay chiroq haqida yetti uqlab tushiga kirmaganligini aytib, tag'in yig'lay boshlabdi. Shunda qirol unga:

— Menga chiroqni topib kelasan! Olib kelmasang, boshing ketadi, agar farmonimni bajar-sang yanada yaxshiroq xizmatga qo'yaman, — debdi.

Bolakay nimayam qila olsin, u bir qop tuz berishlarini iltimos qilibdi, kechga tomon o'zi yasagan kemada tog' alvastisining makoniga qarab suzibdi.

U quyosh botganda toqqa yetib alvastining oshxonasiga kirib olibdi, qarasa qozonda bo'tqa pishayotgan ekan. Bolakay qopdag'i tuzni bo'tqaga ag'daribdi-yu, o'zini chetga olib turibdi. Bir mahal bo'tqanining tuzini tatib ko'rish uchun alvastining xotini oshxona-ga kirib kelibdi. Ayol bo'tqanining haddan tashqari sho'r bo'lib ketganini payqab unga suv qo'shamoqchi bo'libdi. Tashqari qorong'i bo'lidan alvastining xotini sehrli chiroqni qo'liga olib, dengiz tomon tushibdi. Uni o'sha yerda poylab turgan Bolakay chiroqni xotinning qo'lidan yulqib olibdi-yu, kemasiga o'tirib qochib qolib-dil!

Bolakay sohildan uzoqlashishi hamon dengiz bo'yiga alvasti yetib kelib:

— Hoy Bolakay, bu senmisan? — deb baqiribdi.

— Ha, menman! — deb javob qaytaribdi Bolakay.

— Qo'yimni o'g'irlab ketgan ham senmiding?

— Ha, men edim!

— Sehrli chiroqni ham sen olib ketyapsanmi?

— Ha-da!

— Ha, o'rgildim, o'sha sendan, hozir yetib olay, ko'radiganingni ko'rasan mendan!

— Qo'lingdan kelsa yetib olaqol!

Tog' alvastisi qirg'oq bo'ylab yuguribdi, sakrab-di, o'zini suvg'a sho'ng'iyotgandek qilib ko'rsatib-di. Bolakay bo'lsa xotirjam suzib ketaveribdi.

Bolakay saroyga dimog'i choq kirib kelibdi, qiroq uni yanayam e'tiborli mansabga tayinlabdi. Bolakay yuqori lavozim egasi bo'lidan ko'rgan og'alari baxillik o'tida qovrilib, endi kenja ukani yo'q qilish payiga tushib qolishibdi.

Poul bilan Peder yana qiroq huzuriga borib, Bolakayga tog' alvastisining ovozi uch qirolikka eshitiladigan qo'ng'iroq'ini olib kelishini amr eting deyishibdi. Qo'ng'iroq dushmaniga qarshi hujum paytlari qiroqga juda ish berishini uqtiribdi. Bu ham yetmaganday agar Bolakay o'lim jazosi bilan do'q qilinmasa u bu yumushdan bosh tortishi mumkin deyishibdi.

Qirol tag'in Bolakayni chaqirtirib, tog' alvastisining ovozi uch qirollikka eshitiladigan qo'ng'irog'ini qo'lga krita olaman deb maqtangan-maqtanmaganini so'rabdi.

Bolakay qo'ng'iroq haqida sira eshitmagan va bu ish uning qo'lidan kelmasligini aytibdi.

Qirol esa Bolakayga:

— Sehrli qo'ng'iroqni olib kelmasang, unda yorug' dunyodan umidingni uzaver, bordi-yu, olib kelsang malikaga uylantirib, yarim qirolligimni beraman, o'limimdan so'ng qirolik senga meros qoladi, — debdi.

Xo'sh, nima qilmoq kerak? Bolakay o'zi yasagan kemasini suvg'a tushirib, tag'in tog' alvasti si tomon suzib ketibdi. U tun yarmida alvastining tog' oralig'iga joylashgan makoniga, sehrli qo'ng'iroq yashirib qo'yilgan karavot tagiga kirib olib, paypaslay-paypaslay uni topibdi.

So'ngra qo'ng'iroqni ola qochishga shaylanib turganida qo'ng'iroq daranglab ketibdil Tog' alvasti si uyg'onib ketib, xotinining biqiniga turtidbi:

— Bu nima?

Xotini uyqu aralash:

— Qaydam, men uyqusirab qo'ng'iroqqa tegib ketgandirman, — debdi.

Alvasti xotiniga to'ng'illay-to'ng'illay qayta uyquga ketibdi. Bolakay fursatdan foydalani b yana bir bor qo'lini qo'ng'iroqqa cho'zgan ekan, chuno-nam daranglab ketibdiki, alvasti sakrab o'rnidan turibdi.

— Tag'in nima qilib qo'yding? — deb o'shqiribdi u xotiniga.

— Hayronman. Tag'in u yer-bu yerim noxos qo'ng'iroqqa tegib ketdi, shekilli.

Alvasti yana xotiniga to'ng'illabdi-da, keyin ikkalasi ham uyquga ketibdi.

Bolakay: «Nima bo'lsa bo'ldi, oxirgi marotaba urinib ko'raman», —degan qarorga kelibdi.

Bolakay bir intilishda karavot tagidan chiqib

qochmoqchi bo'lgan ekan, ammo alvasti sezib qolib, uni mahkam changallab olibdi.

Alvasti o'g'rini darhol tanibdi:

— Iye, senmisan, Bolakay?
— Ha, menman! — deb javob qaytaribdi
Bolakay.

— Mening qo'yimni o'g'irlovding-a?
— Ha, o'g'irlovdim.
— Sehrli chirog'imni o'margan ham senmi-
ding?

— To'g'ri, men edim!
— Endi qo'ng'irog'imni o'g'irlamoqchimisan?
— O'g'irlamoqchiman.
— Qani ayt-chi, mabodo meni mana shunday
o'g'irlik ustida qo'lga tushirsang, nima qilgan
bo'larding?

— Yong'oq, olxo'ri sharbati bilan boqib
semirtirib, qovurib yegan bo'lardim, — deb javob
qaytaribdi Bolakay..

— Bo'pti, unda men ham seni xuddi shunday
qilaman, — debdi alvasti.

Keyin u Bolakayni qafasga qamab qo'yib,
yong'oq va olxo'ri sharbati bilan boqa boshlabdi.
Bolakayni boqish ishini bir qizga topshiribdi. Bu
tutqun qizni alvasti ota-onasining issiq bag'ridan
o'g'irlab kelib, o'ziga cho'ri qilib olgan ekan.
Bolakay qiz bilan til biriktirib, ular bиргаликда
qochishni mo'ljallab qo'yishibdi.

Oradan ikki hafta o'tibdi, alvasti Bolakay
nechog'lik semirganini o'z ko'zi bilan ko'rishni
xohlab qolibdi. Alvastining ko'zlarini yaxshi
ko'rmaydigan bo'lib qolgan ekan, qiz Bolakayga
barmoqlari o'rnida alvastiga ingichka novda
tutqaz, deb o'rgatibdi. Alvasti novdani ushlab
ko'rib, Bolakay hali yaxshi semirmabdi, uni yana
ikki hafta boqish kerak debdi.

Oradan ikki hafta o'tib, alvasti tag'in Bolakayga qanchalik et bitganini bilmoqchi bo'libdi. Bu
safar Bolakay qizning maslahati bilan barmoqlari
o'rniga sigir yelinini ko'rsatibdi.

Alvasti yelinni ushlab ko'rib, undan qovurdoq pishirish vaqtি keldi degan xulosaga kelibdi.

Alvasti yaylovga keta turib, xotiniga Bolakay go'shtidan qovurdoq pishirishni, taom tayyor bo'lishi hamon sehrli qo'ng'iroqni chalib chaqirishni buyuribdi. Qiz bolakayga bundan buyon o'zini qanday tutishni o'rgatibdi.

Alvastining xotini Bolakay go'shtidan qovurdoq pishirish maqsadida uni cho'yan tovaga o'tqazib pechkaga tiqmoqchi bo'lgan ekan, Bolakay tovada go'yo muvozanat saqlay olmayotganday nuqul yiqilaveribdi. Alvastining xotini uni har safar tovaga o'tqazganda u o'zini uddalolmabdi. Shunda Bolakay alvasti xotinga tovada sira o'tirolmayapman, qanday o'tirishni ko'rsatib bersangiz bo'lar-di, debdi.

Shundan keyin alvasti xotin tovaga qanday joylashib o'tirish lozimligini ko'rsatmoqchi bo'lib tovaga tushgan ekan, Bolakay tovani shartta pechka ichiga tiqib yuborib, og'zini mahkam tambalabdi. Keyin alvasti xotinning bosh kiyimini yostig'i ustiga qo'yibdi-da, o'rnini xuddi ayol yotganday holatga keltirib, sehrli qo'ng'iroqni topib, qiz bilan birga dengizga — kema qoldirilgan joyga shoshi-libdi.

Ular tog'dan dengiz bo'yiga tushgunlaricha qo'ng'iroq ovozi tinmabdi, alvasti bo'lsa xotini uni qovurdoqqa chaqiryapti degan o'uda ishini tashlab, uyiga yuguribdi. Alvasti uyiga kirib qarasa, hech kim yo'q emish, o'rin esa xuddi xotini uxbab yotgandaymish: «E, ha, xotin qovurdoq pishirib, ancha toliqqan shekilli, picha nafas rostlagani yotganga o'xshaydi», — degan xayolga boribdi. Ammo u to'shakka yaqinroq borib qarabdi-yu, Bolakay laqillatib ketganini payqabdi.

Alvasti jadal dengiz bo'yiga yuguribdi, Bolakay cho'ri qiz bilan birga kemada ochiq dengizga chiqib ulgurganini ko'ribdi. Alvasti turgan joyida bir-ikki sakrabdi, u yoq-bu yoqqa zir yuguribdi, hozir suvg'a sho'ng'ib qochqinlar ketidan suzib borayot-

ganday harakatlar qilibdi, eng oxiri Bolakay bilan cho'riga qarab:

— Mening qo'yimni sen olganmiding, Bolakay? — deb baqiribdi.

— Ha, men olgandim, — deb javob qaytaribdi Bolakay.

— Sehrli chiroqni o'margan ham senmiding?

— Ha, men edim.

— Sehrli qo'ng'iroqni ham sen olib qochdingmi?

— Ha, men olib qochdim!

— Endi yoningda cho'ri qizni ham yetaklab ketayapsanmi?

— Xuddi shunday.

— Happa sen-ey! Boplab adabingni berib qo'yaman, hozir quvlab yetaman!

— Mayli, qani quvlab yeta qol! — deb javob qaytaribdi Bolakay.

Shu payt alvasti azbaroyi g'azablanganidan «gars» yorilib, bolalar yozda sarpoychang yurganlarida oyoqlarini tiladigan o'tkir qirrali, mayda qizil chaqmoqtoshlarga aylanibdi.

Bolakay bo'lsa omon-eson saroyga qaytib kelidi, qirol bilan malika uni katta quvonch va hurmat-izzatda olqishlab kutib olishibdi. Bolakay bilan malikaning to'yini uzoqqa cho'zmasdan, to'kinsochin dasturxon yozib, shod-u xurramlikda o'tkazishibdi.

OV SAR XIZMATKOR

Bir er-xotin bo'lgan ekan, ularning bir xizmatkori bo'lib, shunchalik ovsar ekanki, endi uni nima qilishlarini bilmay boshlari qotibdi.

— Bu bolani endi boshimizga uramizmi? — debdi bir kuni er. — Undan tariqcha foyda bormi o'zi!

Shunda xotini:

— Uni javdar tortib kelgani tegirmonga jo'nata qolaylik, — debdi. Xizmatkor bo'lsa darrov:

— Nimaga yuborganingiz esimdan chiqib qoladi, — debdi.

— Esingdan chiqmaydi, — debdi xotin, — qani, yo'lga tush, yo'l bo'yi: ikki qop un tortish, ikki qop un tortish, deb takrorlab ketaverasan.

— Bo'pti, — debdi xizmatkor, keyin xayrlashib yo'lga tushibdi.

Ketayapti-yu, ovozining boricha qichqirarmish:

— Ikki qop un tortish! Ikki qop un tortish!

Ketaveribdi, ketaveribdi, bir odam javdar eka-yotgan dalaga yetib kelibdi. Bolaning o'zicha qichqirib kelayotganini eshitib, jahli chiqibdi:

— Men ikki paykalga javdar sepdim, sen bo'lsang bor-yo'g'i ikki qop unlik javdar chiqadi demoqchimisan?

U xizmatkorni tutib olib, bo'rsiqning bolasiday do'pposlabdi.

— Bo'lmasa nima dey? — debdi xizmatkor ingrab.

— Nima dey deysanmi: «Tashib uddalolmaysiz!» de.

Xizmatkor shunday deyishga ont ichibdi-yu, yo'ldida davom etibdi.

Ketayapti-yu, ovozining boricha qichqirarmish:

— Tashib uddalolmaysiz! Tashib uddalolmaysiz!

Uning qarshisidan o'lgan otni aravada olib ketayotgan odamlar duch kelibdi. Bolaning haligiday qichqirayotganini eshitib, ularning chunon g'azabi qo'zibdiki, tutib olib rosa savalashibdi.

— Uyurimizdag'i eng yaxshi biyamiz o'lib qoldiku, sen bo'lsang tashib uddalolmaysiz deb dunyonи buzasan! — deyishibdi o'lgan otning egalari.

Bola ularga tavba-tazarru qilibdi va nima deyishi kerakligini so'rabdi.

— Nima derding, ayt: «Shundoq biyani olib ketishayapti!» de.

Xizmatkor xuddi shu gapni aytishga va'da beribdi-da, yo'liga qarab ketibdi.

Ketayotgan mish-u, ovozining boricha qichqirarmish:

— Shundoq biyani olib ketishayapti! Shundoq biyani olib ketishayapti!

Qarshidan tantanali marosim chiqib qolibdi — burgomistrning qiziga nikoh o'qitdirib qaytishayotgan ekan. Atrof-tevarakdag'i odamlar qalpoqlarini boshdan olib, peshonalari yerga tekkunday ta'zim bajo keltirishar ekan.

Xizmatkor bo'lsa parvosi falak, hamon qichqirib borayotgan mish:

— Shundoq biyani olib ketishayapti!

Buni qiz o'tirgan shoh arava etagida turgan soqchilar eshitib qolishibdi-yu, sakrab-sakrab tushib, bolaning yoqasidan olishibdi. Burgomistrning qizini biyaga o'xshatding deb sho'rlik xizmatkorni hibs qilgani turishibdi. Xizmatkor ulardan qayta-qayta kechirim so'rabdi, shundagina qo'yib yuborishibdi, yana shart qo'yishbdiki, bunday marosimlarda faqat «Hurra!» deb qichqirsin, qo'shimchasiga:

— Eh, qanday xursandchilik! — deb aytsin.

Xizmatkor ketayotgan mish-u, tomog'i yirtilgudek qichqirarmish:

— Eh, qanday xursandchilik! Eh, qanday xursandchilik!

Bir vaqt qarasa, uy yonayotgan mish. Yonsa yonib o'lmaydimi, xizmatkorga nima? Bemalol qichqirib ketaveribdi:

— Eh, qanday xursandchilik!

Odamlar uning qichqirig'ini eshitib, bu bizning ustimidan kulayapti, shekilli, degan gumonda uni tutishibdi-da, surobini to'g'rilib qo'yishibdi. Xizmatkor ulardan kechirim so'rabdi va nima deyin debdi.

— Nima derding: «Suv keltiringlar!» deysan.

— Xo'p bo'ladi, — debdi-da, xizmatkor yo'lida davom etibdi.

Ketayotgan mish-u, dunyoni boshiga ko'tarib arillarmish:

— Suv keltiringlar! Suv keltiringlar!

Yo'lida ikki xotin bir-birini yumma talab yotgan

ekan. Ular bir-birini sochiga tarmashib olib, kuchining boricha tepkilar, hech kim ajratolmayotgan ekan. Xizmatkor naridan o'tib ketayotib boyagidek qichqiraveribdi:

— Suv keltiringlar!

— Bolakay to'g'ri aytadi! — deyishibdi odamlar, darrov bir chelakda suv keltirishib, xotinlarning boshidan quyib yuborishgan ekan, ikkovi ikki tarafga qarab qochib qolibdi.

Nihoyat, bizning ovsar xizmatkorni yaxshi maslahati uchun maqtashibdi. Ammo ikki qop javdarni tegirmonda tortib berdimi, yo'qmi, bu yog'i bizga ham qorong'i.





NIDERLAND XALO ERTAGI

XO'ROZCHA BILAN TOVUQCHA

Bir vaqtlar bir xo'rozcha bilan bir tovuqcha yashagan ekan, ular suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib, sabr-u qanoat bilan tinchgina umr surishar ekan. Ha, bu dunyoda hech kim betashvishbeg'am bo'lmas ekan, nima bo'libdi-yu, kunlarning birida tovuqcha bo'tqali tuvakka yiqilib tushibdi. Xo'rozcha uni tortib chiqaribdi-da, qurisin deb ko'chaga ilib qo'yibdi va o'zi yana bo'tqa pishirgani unnab ketibdi.

Ittifoqo o'sha yerdan bir tulki o'tib qolibdi va tovuqchani ko'tarib qochibdi. Xo'rozcha buni ko'rib qolibdi-yu, oltita oq sichqonni qog'oz aravaga qo'shib, tulkinining orqasidan quvib ketibdi.

Yo'lda unga so'zana va igna duch kelibdi:

— Aravangda o'tirib sayr qilsam maylimi?

— Mayli, bir kishidan ikki kishi yaxshi, — javob beribdi xo'rozcha, — faqat tovuqchani falokatdan qutqarishda yordam bersang bo'lgani.

So'zana, igna aravaga chiqibdi va hammalari jon-jahdlari bilan tulkini quvib ketishibdi.

Ro'paradan o'rgimchak duch kelibdi. U ham aravada maza qilib sayr qilgisi kelibdi.

— Nima ham derdik, ikki kishidan uch kishi yaxshi, — suyunib ketibdi xo'rozcha, — faqat tovuqchani ofatdan saqlab qolishda yordam bersang bo'lgani.

— Bajonidil, — javob beribdi o'rgimchak va aravaga chiqibdi.

Ular yo'lda davom etishibdi, sichqonlarni niqtashibdi, bir vaqt ro'paradan mushuk chiqibdi:

— Miyov, miyov, men ham sizlar bilan aravada aylansam bo'ladimi?

— Bo'ladi, tezroq o'tira qol, uch kishidan to'rt kishi yaxshi, — javob beribdi xo'rozcha. — Faqat tovuqchani ofatdan qutqarishda yordam bersang bo'lgani.

— Bo'lmasa-chi, — debdi mushuk va u ham sakrab aravaga chiqib olibdi.

Ular yo'lida davom etishibdi.

Yo'lida g'isht duch kelibdi. Arava g'ishtga urilib, sal bo'lmasa ag'darilib tushayozibdi.

— Yurakni yording-ku, ro'dapo! — qichqiribdi xo'rozcha. — Yo'lni to'sma, shoshib turibmiz!

— Men ham sizlar bilan sayr qilsam maylimi? — iltimos qilibdi g'isht.

— To'rt kishidan besh kishi yaxshi-yu, ammo aravamiz seni ko'tarolmaydi, bukilib ketadi-da, — javob qilibdi xo'rozcha.

— Ehtiyyot bo'laman, — debdi g'isht, — qirrasiga o'tirib olaman.

Shunday deb g'isht aravaga chiqib olibdi. Nima bo'lganda ham sichqonlarni boplab terlatadigan ish topib beribdi-ku.

Birdan o'rgimchak qichqirib yuboribdi:

— Daraxtlar ortida olov yiltillayapti! Tulki o'sha yerda bo'lmasin tag'in!

Bu chindan ham tulkining kulbasi ekan. Xo'rozcha bundoq qarasa, sho'rlik tovuqcha eshik ortidagi dorda osig'liq turganmish. Xo'rozcha yugurib boribdi-da, dorni qirqib, tovuqchani o'lim-dan qutqaribdi.

Qorong'i cho'kib, do'stlar bugun tunni tulkining kulbasida o'tkazishga qaror qilishibdi. Xo'rozcha bilan tovuqcha javonga chiqib olishibdi. So'zana, igna o'rindiqda joylashibdi, o'rgumchak esa piyola ichiga o'rnashibdi. Mushuk pechkaga kirib ketibdi, sichqonlar ko'rpa ostiga o'rmalab ketishibdi, g'isht esa huv shiftning tagiga borib tarmashib olibdi.

Tulki uyiga qaytib kelayotib, o'zicha o'ylay boshlabdi: «Qanday maza, uyimda butun boshli tovug'im bor. Hozir uni maza qilib tushiraman».

Bundoq kelib ne ko'z bilan ko'rsinki, tovuqchadan nom-nishon yo'qmish! Tulkining dili tunday qorong'i bo'lib ketibdi. «Hay, mayli, — debdi o'zini o'zi yupatib, — kel, birpas o'tirib hordig'imni chiqaray-chi, u yog'i bir gap bo'lar».

U o'rindiqqa o'tirishi hamon tagiga qandaydir o'tkir narsa shunday qattiq sanchilibdiki, bechora tulki sapchib o'rnidan turib ketibdi. «O'rindiq ham sadqayisar, — debdi ichida tulki, — yaxshisi bir piyola choy ichib olaman». U tumshug'ini piyolaga suqar-suqmas undan o'rgimchak o'qdek otilib chiqibdi. Qo'rqqanidan tulki piyolani qo'lidan tushirib yuborib, piyola chil-chil bo'libdi.

Endi tulki pechkadagi olovni avj oldirish uchun puflagani chog'langan ekan, ichkaridan «pop» etib kul va qo'r otilib chiqibdi. «E, undan ko'ra yotib uyquni ursam-chi», — debdi tulki va karavotga cho'zilibdi. Shunda sichqonlar baravariga tulkini shunaqangi qitiqlay ketishibdiki, tulki sapchib shiftga borib urilibdi. U yerda tarmashib turgan g'isht shalop etib tushib, qaroqchi tulkini bosib qolibdi.

Tulkini bir yoqlik qilganlaridan do'stlar quvonchining cheki yo'q emish, ular berkingan joylaridan chiqib kelishibdi-da, katta ziyofat boshlab yuborishibdi. Ertalab esa olti sichqon qo'shilgan qog'oz aravaga o'tirishibdi-da, uylari tomon ravona bo'lishibdi. Xo'rozcha bilan tovuqcha bir-birlariga qarab to'yishmasmish, butun yo'l bo'yi xo'rozcha qichqiribdi, tovuqcha qaqqag'labdi — ularning eng yaxshi qo'shiqlari shu ekan.

Mana, ertagimiz ham tamom bo'ldi, yaxshi qolninglar!

SHVED XALQ ERTAGI



G'IJJAKCHI BOLA

Juda ham qadim zamonlarda bir keksa ayol yashagan bo'lib, uning ko'zining oq-u qorasi bo'lgan yakka-yu yagona o'g'li bor ekan. Ular o'rmondagi chaylada istiqomat qilishar va nihoyatda qashshoq turishar ekan. Ahvol ba'zan shu darajaga borib qolar ekanki, kechlikka loaqlal shimbib o'tirgani bir tishlamgina non ham topilmay qolarkan.

Mana, bolakay o'n ikkiga qadam qo'yibdi, onasi uni qaysi bir boyning uyiga xizmatga beribdi, boyning uyi juda ham uzoqda bo'lib, bola sigir va qo'ylarini boqar ekan.

Oradan bir yil o'tibdi, bola qilgan mehnatining evaziga bir ere haq olibdi, ikkinchi yil ham shuncha haq olibdi va uchinchi yil ham shundan zig'ircha oshiq olmabdi. U uch yillik mehnat haqini qo'yniga solibdi-da, xo'jayini bilan xayr-xo'sh qilib, uyiga yo'l olibdi.

Bola quvnoq holda qadam tashlarkan, yo'l bo'yi qo'shiq aytib kelibdi:

*Qanchalik men baxtiyor, shodman!
Uch yil mehnat qildim, ozodman.
Ishlab topdim uchta mis chaqa.
Ha, men boyman, boyman shunaqa!*

Bir vaqt osmondan tushdimi, yerdan chiqdimi, ro'parasida bir kampir paydo bo'libdi. U uchta mis chaqa daragini eshitib qolibdi-da, darrov shunday debdi:

— Hoy yaxshi bola, bitta chaqangni menga ber!
— Darvoqe, shundaadolatli bo'ladi, — deb javob qilibdi bola va bir eresini kampirga tutqazibdi.

Kampir tashakkur aytibdi-da, ko'zdan g'oyib bo'libdi. Bolaning yonida endi ikki ere qolibdi. Balki siz bundan bola qattiq qayg'urgandir dersiz? Be, parvosiga ham keltirgani yo'q. Yana boyagiday quvnoq-quvnoq odimlar tashlab, ashulasini vang qo'yib ketaveribdi:

*Qanchalik men baxtiyor, shodman!
Uch yil mehnat qilib, ozodman.
Ishlab topdim uchta mis chaqa,
Bittasini qildim sadaqa.*

U ketaveribdi, ketaveribdi, bir vaqt yo'lidan yana bir kampir chiqibdi. U bolaning yonida ikki ere puli borligidan darak topibdi-da, shosha-pisha debdi:

— Hoy yaxshi bola, bitta chaqangni menga ber!
— Darvoqe, shunda adolatli bo'ladi, — deb javob qilibdi bola va bir eresini kampirga tutqazibdi.

Kampir tashakkur aytibdi-da, ko'zdan g'oyib bo'libdi. Endi bolaning yonida birgina chaqasi qolibdi. Lekin u tinib-tinchimagan bola ekanmi, tag'in avvalgidek parvoyi falakda ashulasini vang qo'yib ketaveribdi:

*Qanchalik men baxtiyor, shodman!
Uch yil mehnat qilib, ozodman.
Ishlab topdim uchta mis chaqa,
Ikkitasin qildim sadaqa.*

U ketaveribdi, ketaveribdi, bir vaqt ro'paradan yana bir kampir ko'rinishibdi. U bolaning yonida bir chaqasi borligini eshitibdi-da, tilanib debdi:

— Hoy yaxshi bola, menga chaqangni ber!
— Darvoqe, shunday qilsam adolatdan bo'ladi, — deb javob beribdi bola va so'nggi chaqasini kampirning kaftiga qo'yibdi.

Kampir bolaning duoyi jonini qilibdi-da, ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Bola endi yonida bitta ham chaqasi qolmaganini bilibdi-da, tosh ustiga o'tirib, yig'lab yuboribdi.

Uch yil birovning eshigida qora ter to'kib ishlaganlari, o'rmon-u tog'larda sigir va qo'ylarni boqaman deb engil-boshlari to'ziganlari bir-bir ko'z oldidan o'ta boshlabdi. Endi bo'lsa hatto bir savoq ip sotib olishga yonida hemiri yo'q.

«Uh, onamdan ko'radiganini ko'raman endi, — deb o'yabdi bola. — Yuzimga boplab bittani tushiradi... Mana senga qilgan xizmatingning mukofoti deb».

Shu top kimningdir ovozi undan so'rabdi:

— Nega buncha kuyunib yig'layapsan, bolaginam?

Boshini ko'tarib qarasa, ro'parasida qaddi dol-day bukilgan mittigina kampir turganmish.

— Men yig'lamay kim yig'lasin, — javob qilibdi bola, — uch yil birovning molini boqdim va evaziga uch eregina haq oldim. Qandaydir uch kampir shu uch eremni ham avrab olib qo'ydi, endi uyga borsam kaltakdan boshim chiqmaydi.

— Yig'lama, qo'zichog'im, — deb yupatibdi mitti kampir. — Birinchi galda ham, ikkinchi galda ham, uchinchi galda ham chaqangni sen menga bergen eding.

Bola ishonqiramay debdi:

— Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas.

— Men oldingda turganim qanchalik rost bo'lsa, bu gap ham o'shanday rost, — deb uni ishontiribdi kampir. — Endi bergenning har bir chaqa uchun sening bir istagingni ro'yobga chiqaraman. Xo'sh, ayt-chi, nima istar eding?

— Sizga kattadan katta rahmat, — deb kulibdi bola. — Agar gapingiz rost bo'lsa, men boshqa yig'lamayman. Xo'sh, istakka kelsak, nimani ham istardim? Masalan, birinchidan, men shunday bir hamyonim bo'lishini istardimki, ichidagi pul hech qayoqqa ketmasa. Keyin men shunday bir g'ijjak istardimki, uning torlariga teginish bilan atrofdagi odamlar kuyga monand raqs tushib ketishsa. Xo'sh, endi oxirgi istakka kelsak, har doim mo'ljalga uradigan miltig'im bo'lsa.

— Mana, ko'rdingmi, istaklarling chakki emas, — debdi kampir. — Modomikim sen uch yil badaliga ishlab topgan bor pulingni mendan aymagan edingmi, men ham istaklarlingni ro'yobga chiqarganim bo'lzin.

Shu zahotiyog bolaning cho'ntagida hamyon do'ppayib turganmish, yelkasida miltiq paydo bo'lib qolibdi, qo'lida esa g'ijjak ushlab olganmish.

— Katta rahmat, — debdi bola. — Endi onam meni urishmaydigan bo'ldi!

Bola kampir bilan xayr-xo'sh qilibdi-da, uyi tomon jadal yurib ketibdi. Kampir birpas uning izidan qarab turibdi-da, keyin o'rmon kezib ketibdi.

Bola uyga kelibdi, yo'lda ko'rgan-kechirganlari ni bitta qo'y may onasiga so'zlab beribdi va kampir sovg'a qilgan narsalarni ko'rsatibdi.

— Miltiq bilan g'ijjakdan nima foyda, — debdi onasi. — Ammo mana bu hamyon, ehtimol, biron vaqt asqotib qolsa. Qani, ber-chi, ko'ray, ichida tanga-pangasi yo'qmikan? Bozor tushib, ko'pgan non bilan kechlikka bir xurmacha sut olib kelardim.

— Bitta ko'pgan non bilan bir xurmacha sut deysizmi? — deb kulibdi bola. — Atigi shuginami! Undan ko'ra bir qop un bilan ikki pud yog' sotib oling, ana unda sal odamga o'xshab ovqatlanmidik!

— Obbo sen nodonginam-ey! — bosh chayqabdi onasi. — Hali bir ko'pgan non bilan bir xurmacha sutga loyiq puli bormikan o'zi? Qani, hamyonni menga ber-chi!

— Hozir, — debdi bola. — Peshbandingizni tutting, onajon!

Bola hamyonni ochgan ekan, peshbandga kumush tangalar jangirlab to'kilibdi.

— Bas qill! — deb qichqiribdi onasi peshbandi limmo-lim to'lib bo'lgandan keyin. — Boshqa paytga ham ozroq qoldir!

— Endi bozor tushib, boy a men aytgan narsalarni olib keling, onajon, — debdi bola. — Uyga aravada qayting. Kelguningizcha yana pul qilib qo'yaman.

Ona peshbandini tugibdi-da, yo'lga tushibdi. U bir qop un bilan ikki pud yog' sotib olibdi, shunda ham puli sira kamaymabdi. Keyin u savdo rastalariga oralab ketibdi, o'ziga yoqqan mollarni tomosha qilgisi kelibdi, qo'lini shundoq peshbandiga solarkan-da, bir hovuch kumush tanga olib, istagan narsasini sotib olaverarkan.

Ammo bo'ri qulog'i ovda deganlariday, onaning bu harakati odamlar ko'zidan yashirin qolmabdi, hamma ko'zini olaytib qarab-qarab, bir-biriga allanimalar deb pichirlar emish.

— Mana bu kampirga nima bo'lgan o'zi? Nahotki shuncha pulni halol ter to'kib topgan bo'lsa?

Ular gapni bir joyga qo'yishib, burgomistriga arz qilgani borishibdi. Burgomistr ham o'z o'rnida kampirni darhol o'g'ri-qaroqchiga chiqaribdi. U shartta burgomistrlik libosini egniga ilibdi, patli shlyapasini boshiga qo'ndiribdi, yiltiragan etigi qo'njini tortibdi, soqchilarни chaqiribdi-da, bozor maydoniga yo'l olibdi. Ona esa hamon rasta oralab, mollar ko'rib yurar ekan.

— Qirol nomidan sen qamoqqa olinding! — deb qichqiribdi burgomistr.

Onaizor hech qanday yomonlik qilmaganini, bu pullarni unga o'g'li berganini tushuntirmoqchi bo'libdi-yu, lekin qayoqda, toshga suv sepganchalik ta'sir qilmabdi burgomistriga.

— Cho'pchagingni otangga borib aytasan! — debdi u. — Yaxshisi aybingni bo'yningga ol! Bo'lmasa zindonga tiqaman-da, kuning bir qultum suv bilan bir burda nonga qoladi!

Ona yig'labdi, siqtabdi, o'zining hech qanday gunohi yo'qligini isbotlamoqchi bo'libdi, biroq foydasi bo'lmasi. Soqchilar uni tutishibdi-da, to'g'ri burgomistrning uyiga olib borishibdi. Uni katalak-

daygina hujraga qamab qo'yishibdi va burgomistr o'z qo'li bilan eshik lo'kidonini surib, tambalab qo'yibdi. Keyin butun shahar aholisini guvohlikka chaqiribdi.

Ko'p o'tmay burgomistrning uyi nina tashlasa yerga tushmaydigan bo'lib ketibdi. Uyda joy yetmaganlar zinaga va boqqa chiqib olishgan mish. Hamma to'planib bo'lgandan keyin burgomistr shunday debdi:

— Bugun kim hamyonini qoqishtirgan bo'lsa, oldinga chiqsin. Biz unga pulini qaytarib, o'g'rini jazolaymiz.

Hamma og'zini lang ochib, endi nima bo'larkin deb qarab turgan mish. Biron zot oldinga chiqmabdi. Burgomistrning yuzi tobora cho'g'day qizarib boraveribdi, odamlar nuqlu bir-biriga qararmish. Ha, hech kim hech narsasidan judo bo'limgani, bir chaqasini ham oldirmagani ma'lum bo'libdi-da, kampirni o'g'rilikda, talonchilikda ayplashga ham hech kimning haddi sig'mabdi. Ammo uning shuncha pulni qayoqdan olganiga birovning aqli yetmabdi.

U yoqda bola onasining yo'liga ko'zi to'rt bo'lib o'tirgan ekan. Uning qorni ocha boshlabdi, biroq onasidan dom-darak yo'qmish. Oxiri miltig'i bilan g'ijjagini olibdi-da, o'zi ham shaharga otlanibdi. Kelib qarasaki, yo tovba, o'zi nima gap — shahar ko'chalari huvillab turgan mish, faqat burgomistrning uyi tomonidan olomon g'ala-g'ovuri eshitila-yotgan mish. Bola o'sha tomonga qarab ketibdi, darvozadan o'tibdi-da, asta uy ichkarisiga qadam qo'yibdi.

Qarasa, onaizor yog'och skameykada o'tiribdi, oldida esa burgomistr gerdayib turgancha hadeb boshining orqasini qashirmish.

— Mening onamdan nima gunoh o'tdi? — deb so'rabdi bola. — Nega uni hibsga olding?

— Uning yonida bir dunyo yap-yangi kumush tangalar bor, — javob qaytaribdi burgomistr. — Lekin men hech narsaga tushunolmay qoldim,

ma'lum bo'lishicha, hech kimning hech narsasi yo'qolmagan!

— Hali sen bu tangalarni onam o'g'irlab olgan deb o'yladingmi? Qanchalik chakki o'ylaganningni hozir men senga ko'rsatib qo'yaman. Qani, shlyapangni to'ntarib qo'y-chi!

Burgomistr shlyapasini tutibdi, bola hamyonni ochgan ekan, undan kumush tangalar shuvillab to'kilibdi.

— Ana shunaqa, — debdi bola, — endi bu pullarni hammaga bab-baravar taqsimlab ber, kattaga ham, kichikka ham. Onajonimni esa yaxshilikcha qo'yib yubor. Aytmoqchi, shuncha odam bahona bilan bir yig'ilishib qolishgan ekan, balki raqs tushishni xohlashar?

— Musiqa chalishni bilasanmi? — deb qichiqirishibdi qizlar bilan yigitlar.

— Bilaman, bilaman, — deb javob qaytaribdi bola.

U kamonchanini bir sermagan ekan, g'ijjakdan shunaqangi sho'x va yoqimli kuy tarqalibdiki, beixtiyor stollar, stullar, qo'yingki, xonada nimai-ki narsa bo'lsa hammasi baravar o'yinga tushib ketibdi. Burgomistrning chaqaloq qizi uxlab yotgan belanchakli aravacha ham chayqalib ketibdi va burgomistrning qo'lidagi shlyapani yulqib olibdi. Kumush tangalar yer bilan bitta bo'lib sochilib ketibdi, odamlar chuvvos solib bir-birini itargancha, tortqilagancha, yumdalagancha tangalarga o'zini tashlabdi, har kim ko'proq terib olish uchun joni ham ko'ziga ko'rinxay o'zini to'daga urarmish. G'irt tomoshaning o'zi bo'libdi — bir yoqda bir-birining burni, og'zini qonatib mushtlashib yotsa, bir yoqda qiyqirib, jinnisi chiqib raqs tushisharmish.

Burgomistr kuyingni to'xtat deb bolaga qichqira boshlabdi. U hamma tangalarni qaytarib berishi ni aytibdi, ishqilib mana bu kamonchangni tezroq g'ijjak toridan olsang bo'lgani, — debdi nafasi butunlay bo'g'ziga tiqilib.

— Tangalarni boshimga uramanmi? — debdi bola. — Busiz ham menda xudo urib yotibdi, joylashimni bilmayman.

Oxiri odamlarning butunlay holdan toyganini ko'rib insofga kelibdi, kamonchasini g'ijjakdan olgan ekan, kuy to'xtab, bo'ron yotganday bo'libdi.

— Endi onam nimaiki sotib olgan bo'lsa, hammasini bitta qo'y may qaytaring, — debdi bola. — Buguncha insof qilaman.

Burgomistr ham, o'z-o'zidan ma'lumki, boshqalar ham tezroq bu bola bilan kampirdan qutulish payiga tushib qolishibdi va yordamga shoshilishibdi. Birov kampirning xaridlarini qidirib ketsa, birovi otga chopibdi. Ona-bola uyiga chinakam janoblarday gerdayib qaytib kelishibdi, to'g'ri-da, bir qop un bilan ikki pud yog'ning nimasi yomon?

Kunlarning birida ertalab bola o'rmonga yo'l olibdi. O'zicha o'rmon aylanib yursa, birdan ko'zi huv qarag'ay uchida o'tirgan qurga tushibdi.

«Qani, miltig'imni bir sinab ko'ray-chi, — deb o'ylabdi bola. — Tag'in quv kampir meni aldag'an bo'lmasin».

U miltiqni qo'liga olib, boshqa tomonga qaratib-di-da, tepkini bosibdi. Gumburlab o'q uzilibdi-yu, qur toshday do'p etib qarag'ay tepasidan to'g'ri butalar orasiga tushibdi. Xuddi shu paytda o'rmongan bir monax o'tib borayotgan ekan. U otda bo'lib, monastirga yo'l olgan ekan.

— Hoy yaramas, la'nati o'g'ri! Nega ruxsatsiz ov ovlayapsan? — deb qichqiribdi monax. — Qanday qushga qarab otding?

— Qurga, — deb javob qaytaribdi bola. — U qarag'ayning uchida o'tirib olib, hadeb meni kala-ka qilaverdi. Endi u hov anavi yerda, butalar orasida yotibdi. Istan sang, ola qol. Menga qurning keragi yo'q. Faqat muomalada sal odob saqlasang bo'larmidi.

— Hali do'q urishni ham bilaman de, — jahli chiqib debdi monax. — Boshing sirtmoqqa tushgan-

da mahmadanachilik qilarsan hali. Shoshma, shoshma, avval qurni olib olay, tag'in uchib ketmasin.

Monax qur qovurdog'i desa o'zini tomdan tashlar ekan, ko'z oldiga bunday totli taomni keltirib, og'zidan so'lagi oqibdi. Monax otdan tushib, uni bir qayinga bog'lab qo'yibdi-da, o'zi butalar oralab ketibdi. Qo'lini uzatib, qurni yerdan ko'taribdi.

Biroq shu asnoda bola kamonchani g'ijjakka urib, kuy chala ketibdi. Monax dikirlab sakray ketibdi, butadan butaga o'tib dikonglabdi, ammo qurni qo'yib yubormabdi. Patlar to'zibdi, monaxning qo'lidagi qur go'shti laxtak-laxtak bo'lib ketibdi, o'zi esa telbalarcha qichqirarmish. Daraxtda bog'log'liq turgan ot ham sakrab-sakrab raqs tushib yotganmish. Oxiri no'xtasini uzib, duch kelgan tomonga yelib ketibdi.

— Begunoh odamni o'g'riga chiqarganning holi shunaqa bo'ladi, — debdi bola va unga sayin ishtiy-oq bilan kuy chala ketibdi.

— To'xtat, to'xtat! Boshqa indamayman! — deb qichqiribdi monax. — Umrinda og'iz ochib churq etsam xudo ursin!

— Mana, nihoyat o'zing o'zingga o'xshab gap qilding, avliyo ota, — deb javob beribdi bola. — Endi menga so'z ber: o'yinga tushganing uchun mendan qasd olishga urinmaysanmi?

— Urinmayman! Urinmayman! — xirillab debdi monax. — Men seni qadrdon o'g'limdan yaxshi ko'raman, faqat kuyingni bas qil!

Bola kamonchani tushiribdi, monax bo'lsa orqasiga qaramay qochibdi, orqasidan chang ko'riniq qolibdi, xolos. Biroq jon holatda qochib qolgan bo'lsa ham qurni esidan chiqarmabdi.

Monastirga kelibdi-da, karavotga cho'zilibdi, yara-chaqalarini sanar ekan, dilida nuqul boladan qanday o'ch olsam ekan, degan o'y kechmoqda ekan.

— To'g'ri, men unga hech qanday yomonlik qilmayman deb so'z berdim, — xayol sura boshlabdi monax, — ha, boshingga musibat tushganda va'da

berish bir gap, senga hech qanday tahdid-tazyiq bo‘lma ganda ijro etish — boshqa gap!

Monax biroz o‘ziga kelgandan so‘ng arz qilgani hokimning oldiga boribdi. Hokim ruhoniya, ruhoniy undan kattasiga va undan kattasi qirolga arz qilibdi. Axir qur masalasini hal qilish diniy peshvolarning emas, mamlakat boshlig‘ining vazifasiga kiradi-da.

Qirol yomon darg‘azab bo‘libdi va darhol bolani tutib keltirishlarini, dorga tortishni buyuribdi. Uni qirol saroyi hovlisiga keltirishibdi, olomon allaqachon hech yerga sig‘may ketgan ekan. Qirol bilan qiroliche taxtda o‘tirishar, ikkalasining o‘rtasidan qizlari malika joy olgan ekan. Malika qattiq qayg‘uda ekan — bolaga rahmi kelgan yolg‘iz shu qizgina ekan.

Monax ham shu yerda turgan bo‘lib, mammunligidan hadeb qo‘lini bir-biriga ishqar emish. Axiyri o‘ch olishga muvaffaq bo‘ldi-da!

Qirol «boshlanglar» deganday ishora qilibdi va bolani dor tagiga keltirishibdi. Birdan u qirol va aqoriblar tomon burilibdi-da, egilib ta’zim qilibdi.

— Qudratli qirol! — debdi u. — Birozdan keyin bo‘yniga sirtmoq tushadigan mahkumning so‘nggi istagini bajo keltirish odati borligini bilaman. Mening ham bir arzimagan istagim bor. Bordi-yu, a’lo hazratlari shu istagimni bajo keltirsalar, tinch va xursandlik bilan o‘lar edim.

— Sen aytgancha bo‘la qolsin, — javoban debdi qirol. — O‘zimning qirollik tojim bilan qasam ichamanki, istaging ado etilishiga izn berurman!

— Sirtmoqda osilishdan avval ko‘pgina odamlar xalq oldida va’dasining ustidan chiqadilar, — debdi bola. — Men chiroqli qilib gapirolmayman, chunki men bor-yo‘g‘i bir oddiy mashshoqman. Men so‘nggi marta g‘ijjagimda kuy chalishni istar edim. U mening qadrdon do‘stim edi, menga ozmuncha quvonchli damlar in’om qilmagan edi. G‘ijjagim bilan vidolashishimga ruxsat bersang.

— Ruxsat bermang! — deb qichqiribdi

monax. — Kuy chalishga ruxsat bermang unga!
A'lo hazratlari, uning istagini bajo keltirmang!

Shunday deb monax o'zini qirolding oyog'iga tashlabdi-da, yengidan ushlab olibdi. Biroq qiroq qoshini chimirib, monaxga xo'mrayib qarab qo'yibdi.

— Sen bolani jazolayotganingda men janjal qilmagandim, chog'i? — debdi u. — Bu gal ham shunday bo'ladi. Biroq har narsa ham me'yorida bo'lgani yaxshi. Endi bolaning shugina istagini ham ado etishga yo'l qo'ymasak insofdan bo'lmas. Yo'q, bunday adolatsizlik va noinsoflikka men yo'l qo'yolmayman!

Dahshat va qo'rquvdan monax dag'-dag' titray boshlabdi:

— Unda meni hov anavi qarag'ayga bog'lab qo'yishlarini buyuring. Men uning g'ijjagi ovozini eshitaverib bo'lganimcha bo'lganman!

— Marhamat, — bosh irg'abdi qiroq va a'yonlariga bog'lab qo'yinglar ishorasini qilibdi.

Monaxni qarag'ayga yo'g'on va pishiq arqon bilan mahkam bog'lab qo'yishibdi-yu, bola kamon-chani olib, zavq-shavq bilan g'ijjakni chala ketibdi.

Hamma o'yinga tushib ketibdi. Qirol bilan qirolichcha bir-biriga ayqashib qolibdi, go'zal malika chir aylanibdi, saroy a'yonlari dikir-dikir sakrabdi, butun xalq o'yinga tushibdi.

Ayniqsa, monaxga juda qiyin bo'libdi. Xuddi qaqroq ho'kiz terisiday qarag'ayga yopishib, baland-pastga sirg'alib tushib-chiqa boshlabdi.

O'zining mana bunaqa dikonglab sakrashiga majbur bo'lganidan qirolding nechog'li darg'azab bo'lganiga ajablanish na hojatl!

— Agar kuyingni hoziroq to'xtatmas ekansan, — deb qichqiribdi u, — men seni shuzahoti osishga hukm etaman!

— Busiz ham meni osishadi, — deb javob qilibdi bola, — lekin men avval g'ijjagim bilan vidolashib olay-da!

— Xudo xayringni bersin, agar kuyingni

to'xtatsang, men seni avf etaman, — deb qisqirib-di qирол, o'zi esa to'xtovsiz o'yingga tusharmish.

— Mana bu boshqa gap, — debdi bola. — Lekin bu hali men uchun kamlik qiladi! Yana biroz chalib olmasam bo'lmaydi. Keyin esa agar qo'lingizdan kelsa osishingiz mumkin.

— Gapir, tag'in nima istaysan? — xirillab-hansirab so'rabdi qирол va oyoq uchidan tovonga sakrab-sakrab. — Nima istasang, barchasiga ega bo'lishing mumkin.

— Katta rahmat, — debdi bola va ta'zim qilibdi. — Unda eshit: malikani xotinlikka berishingni va ustiga yarim qirolligingni in'om etishingni so'rayman!

— Men qizimni Portugal shahzodasiga va'da qilib qo'yuvdim-ku, — deb qichqiribdi qирол va eng zamonaviy usuldag'i sakrama o'yiniga tushib qo'yibdi. — Agar men va'damga xilof ish tutsam, u menga urush ochishi tayin. Unda nima qilaman?

— Bu yog'idan xotirjam bo'l, — javob qilibdi bola. — Biz uni bir amallab surobini joyiga keltirib qo'yamiz, mana shu g'ijjagim bilan qasam ichaman!

— Bilganingni qil! — debdi qирол, — men hammasiga roziman, faqat mana bu kuyingni to'xtatsang bo'lgani.

Shundan so'ng u bir oyoqda urchuqday shunaqangi chirillab aylanibdiki, egnidagi shohona choponi badaniga ipday tarang tortilib o'ralib qolibdi.

— Mana, endi birpas dam olib, ish haqida gaplashsak ham bo'ladi, — debdi bola va kamon-chani g'ijjakdan olibdi.

Atrofdagi hamma odamlar oyoqda bazo'r turisharkan, monax bo'lsa daraxtda shu qadar jonjahdi bilan sirg'alib sakrabdiki, oxiri arqonlar ham chidash bermay pirt-pirt uzilib ketibdi. U to'g'ri monastirga qarab chopibdi, orqasidan faqat chang ko'riniq qolibdi, xolos.

Bola esa saroyga boribdi-da, u yerda malika

bilan nikohdan o'tibdi. Shuni ham qistirib o'tgan joizki, uning g'am-qayg'usidan aqalli nishona ham qolmabdi.

Bundan Portugal shahzodasi voqif bo'lgach, katta qo'shin to'plabdi va buyoqqa qarab yurish boshlab yuboribdi. Bola miltiq va g'ijjagini olgancha ularga peshvoz chiqibdi va o't ochishga-yu kuy chalishga tushib ketibdi. Nimalar bo'lmaabdi deysiz! O'q ovozini eshitiboq til tortmay o'lgani qaysi, o'yin tushaverib nafasi tiqilib o'lgani qaysi! Birpasda shunday katta qo'shinda tirik jondan asar qolmasa-yal!

Urush tugashi bilan to'y boshlanibdi. Qirol dono kuyovga, malika uddaburon erga ega bo'libdi, butun qirollikni shodlig-u quvonch chulg'ab olgani boisi shunda ekan.

Bolaning keksa onasi ham to'yda rosa yayrabdi va o'g'lidan boshi osmonlarga yetibdi. Bola esa onaizoridan so'rarmish:

— Mushtipar onajonim, siz endi biz bilan turasizmi?

— Zinhor sizlar bilan turmayman! — javob qilibdi kampir. — Qadrdon pechkam bilan ko'hna karavotimni jahondagi hech narsaga alishmayman!

Bola onasini ortiq qiyin-qistovga solmabdi — u shunaqa esi ko'p o'g'il ekan-da. Lekin ertasiga ertalab u chaylaning u yoq-bu yog'ini tuzatib, yamabyasqab kelish uchun ustalarni yuboribdi. Pechka bilan karavotni oldingi joyida qoldirishibdi, faqat tevaragidan yangi devor ko'tarishib, yangi pol qilishibdi, ha, darvoqe, tomni ham unutishmabdi.

Oddiy bir chayla rosmana saroya o'xshab qolibdi, odamlar esa uni Somon Qasr deb atay boshlashibdi.

Shunday qilib, kampir hayot zavoli ajal kelguncha shu maskanda farovon va dorilomon umr kechiribdi. U bultur dunyodan o'tdi, unga sakson yetti yil-u uch oy-u yana to'qqiz kun hisob berib, tobutini ko'tarishibdi.

NORVEG XALQ ERTAKLARI



HALOL TANGA

Shu yorug' olamda qachonlardir bir qashshoq ayol yashagan ekan. U qishloq chekkasidagi musht-dekkina, g'aribona kulbada istiqomat qilarkan. Uyida yeishga na noni, pechkada yoqishga na o'tini bor ekan. Bir kuni o'zining kichik o'g'lini shox-shabba olib kelgani o'rmonga yuboribdi. Tashqarida izg'irinli kuz havosi hukm surar, shu bois bolakay ozgina isirmikinman deb butun yo'l bo'yi o'rmongacha dikirlab chopib boribdi. Har gal savatga yerdan bir cho'pmi yo ildizmi olib solganda boyoqish bola qo'llarini bir-biriga ishqalab urar ekan, chunki sovuqdan qo'llari qip-qizarib jishga o'xshab qolar, oyog'i ostida o'sib yotgan qizil brusnikdan sira farq qilmas ekan.

Bola savatni to'ldirib shox-shaba terib bo'lib endi uyga qaytmoqchi bo'lган ekan, o'rmonning ihota qilib aylantirilgan joyiga borib qolibdi. U yerda birdan uning ko'zi oq silliq toshga tushibdi.

— Bechora keksa tosh! Rangingni qara, bo'zday oqarib qoni qochib ketibdi! O'ziyam rosa sovqotgan bo'lsang kerak! — debdi bola va ustidan kamzulini yechib, toshga yopibdi.

Uyga kelgach, onasi shunday sovuqda qanday qilib ko'ylakning o'zida o'rmonga bording, deb so'rabdi. Bola o'rmonda siyqalanib ketgan toshni ko'rganini, sovuqdan oqarib, bo'zarib qolganini, keyin rahmi kelib kamzulini toshga yopib qo'yganini so'zlab beribdi.

— Voy ovsar, laqma bola-yel! — debdi unga onasi. — Nahotki toshlarning sovqotmasligiga

aqling yetmasa? Xo'p, toshing sovqotib qolgan ekan ham deylik, ammo kamzuling o'zingga ortiqcha edimi? Kiyim-kechak hozir qanaqa qimmat, sen bo'lsang uni duch kelgan toshga tashlab kelyapsan! — Shunday deya u o'g'lini kamzulni olib kelgani yana o'rmonga haydabdi.

Bola haligi joyga kelibdi, qarasa toshning bir chekkasi sal burilib, yerdan xiyol ko'tarilib qolganmish.

— Bechora! Kamzulim tufayli ozgina isingandingdan shunday bo'lgandirsan-da? — debdi bola.

Biroq razm solib qaragan ekan, toshning tagida ichi oppoq kumush tangachalarga to'la bir qutichaga ko'zi tushibdi.

«Hoynahoy o'g'irlangan tangalar bo'lsa kerak, — deb o'yabdi bola. — rostda, halol mehnat bilan topilgan pullarni kim o'rmonga olib kelib yashiradi?»

U qutichani olibdi-da, ihotadan sal naridagi ko'lga boribdi va pullarni shu ko'lga irg'itibdi. Lekin bir tanga qutichadan tushib qolib, suv yuzida suza ketibdi.

— Mana bunisi halol mehnat qilib topilgan pul, u zinhor cho'kmaydi, — debdi bola. Tangani tutib olibdi, kamzulini egniga ilibdi va uyga yo'l olibdi.

Uyga kelgach, oyisiga toshning yerdan biroz ko'tarilib qolgani, pul to'la quticha topib olgani, uni ko'lga otib yuborgani, bu albatta o'g'irlik pul ekanligi haqida hikoya qilib beribdi.

— Lekin bu tanga cho'kmadi. Halol mehnat bilan topilgan bo'lgani uchun men uni oldim, — deb hikoyasini tugatibdi bola.

— Odam degan ham shunchalik nodon bo'ladi-mi! — tutaqib debdi onasi. — Shuncha pul ichidan bor-yo'g'i bitta tangagina halol mehnat bilan topilgan bo'lsa, dunyoda halollik yo'q hisobi ekan-da? Bordi-yu, uni o'n karra ketma-ket o'g'irlashganda ham senga baribir emasmi, sen uni topib

olgansan-ku, o'zingni bil, o'zgani qo'y deganlar. Qutidagi pullarni olib kelganingda, umrimizning oxirigacha yeganimiz oldimizda, yemaganimiz ketimizda bo'lardi. Lekin sen avvalboshdan ahmoq eding, ahmoqligingcha qolding. Endi seni deb o'zimni o'tga-cho'qqa urganim yetar! Yo'qol, to'rt tomoning qibla, o'z aravangni o'zing tortib, noningni o'zing topib ye!

Shunday qilib bola uydan bosh olib chiqib ketibdi. U ketaveribdi, ketaveribdi, qayerga bormasin, meni ishga oling, deb yalinar ekan. Odamlar unga qarab turisharkan-da: «Judayam kichkina va mo'rt», — degan xayolga borib, ishga olishmaskan.

Shu tariqa u oz yuribdimi, ko'p yuribdimi, bir kuni bir savdogarning hovlisiga kirib qolibdi. Savdogar uni oshxonadagi yumushlarga qarab turasan deb ishga olibdi va bola oshpaz xotinga o'tin va suv eltib berib yuraveribdi.

Kunlarning birida savdogar savdo ishlari bilan o'zga yurtlarga, dengizlar ortiga safarga ketibdi. U xizmatkorlaridan o'zga yurtlardan sizlarga nimalar olib kelay, deb so'rabdi. Hamma o'z ko'nglidagini aytibdi, navbat bolaga kelgan ekan, u savdogarga bitta tanga uzatibdi.

— Senga nima olib kelay, tortinmay aytaver, — debdi savdogar. — Bu tangangga hech qancha narsa kelmaydi baribir.

— Shunga nima bersa, o'shani oling. Bu halol mehnat bilan topilgan pul, — javob qilibdi bola.

Savdogar uning iltimosini bajo keltirishga so'z beribdi-da, safarga jo'nab ketibdi.

Musofir yurtiga borib savdogar yuklarini tushiribdi, yangi yuklarni ortibdi, xizmatkorlari aytib yuborgan narsalarning hammasini olibdi, keyin kemaga qaytib kelibdi. Bandargohdan endi qo'zg'almoqchi bo'lib turishganida birdan bolaning bitta tanga bergani, unga nima to'g'ri kelsa, shuni olib kelishga va'da bergani esiga tushibdi.

«Nahotki arzimagan chaqa deb yana shaharga qaytib borsam? — deb o'ylabdi savdogar. — Bema'nilik! Bunaqa bo'limg'ur narsalar ortiqcha tashvish keltiradi, xolos!»

Bir vaqt osmondan tushdimi, yerdan chiqdimi, qarshida bir qopchiq ko'targan kampir paydo bo'libdi.

— Qopchig'ingizdag'i nima, ona? — deb so'rabdi savdogar undan.

— Bor-yo'g'i bir mushuk. Uni boqqani qurbim yetmay qoldi, kel, dengizga uloqtirib yuboray-da, undan bir yo'la qutulay, dedim, — javob qilibdi kampir.

«Bola menga tangaga nimani berishsa, shuni olib keling degandi, — deb o'ylabdi savdogar, — shu tangaga mushugini so'rasam berarmikan?»

Kampir ortiqcha savdolashib o'tirmay, ish xamirdan qil sug'urgandek oson bita qolibdi.

Savdogar bandargohdan chiqish hamon dengizda kuchli bo'ron turibdi. Dahshatli to'lqinlar kemani pista po'chog'iday u tomongan bu tomonga uloqtirar, savdogar bo'lsa quturgan shamol ularni qayoqqa boshlab ketayotganini ham bilmas ekan.

Nihoyat ular bir qirg'oqqa yetib kelishibdi, bu yer savdogarning sira oyog'i yetmagan notanish mamlakat bo'lib chiqibdi. U darhol shaharga yo'l olibdi. Yemakxonaga kirib qarasa, har bir stolda bittadan darra bor emish, har bir asbob uskunada ham bittadan darra bor emish. Savdogar hayron bo'libdi: «Shuncha darra ularga nega kerak bo'lsa? — deb o'ylabdi u, — Qaray-chi, boshqalar uni nima qilisharkin», — degan xayolda u bir stolga borib o'tiribdi. Ovqat olib kelishgandan keyin savdogar darralarning nimaga kerakligini darhol anglabdi: hamma teshik-inlar ichidan minglab sichqon chiqib kelibdi-da, ovqatga o'zini uribdi, stolda o'tirgan har bir xo'randa ulardan qutulish uchun darralarni u yoqdan-bu yoqqa silkita bosh-

labdi. Atrofda darralarning bir-biridan qattiq urilgan va havoda vizillagan tovushidan boshqa hech narsa qulqoqqa chalinmas ekan. Goho odamlar bir-birining yuziga solib qolisharkan-da, o'shanda bir og'iz «Kechirasiz» deyishlariga to'g'ri kelar ekan.

— Bu mamlakat fuqarolariga qiyin ekan, — debdi savdogar. — Aytmoqchi, nega mushuk boqa qolmaysizlar?

— Mushuk? U nima deganingiz? — hayron bo'libdi mahalliy odamlar.

Buni qarangki, ular hatto mushuk nimaligini bilishmas ham ekan.

Shunda savdogar kemadan bolaning bitta tangasiga sotib olgan mushukni olib kelgan ekan, sichqonlar bir zumda tum-turaqay qochib, ko'zdan g'oyib bo'libdi va odamlar umrlarida birinchi marta tinchgina ovqatlanishga muyassar bo'lishibdi. Ularning savdogardan minnatdor bo'lishilarini bir ko'rganingizda edi! Hammalari mushuqingizni soting deb turib olishibdi. Savdogar avvaliga unamabdi, biroq keyiniga mushukni berishga rozi bo'libdi, faqat uning uchun yuz taler berasiz deb shart qo'yibdi. Mahalliy odamlar jondillari bilan yuz talerni to'plab berishibdi va ketidan ming karra minnatdorchilik izhor qilishibdi.

Savdogar yana yo'lga tushibdi. Biroq ochiq dengizga chiqar-chiqmas, qarasaki, kemaning bosh machtasi uchida... haligi mushuk o'tiribdi-da! Ko'p o'tmay yana dovul ko'tarilibdi, bunisi unisidan ham kuchliroq bo'libdi, kemani u yoqdan-bu yoqqa sudrab o'ynay boshlabdi, oxiri o'ynoqi va dahshatli to'lqinlar savdogarning kemasini ilgari sira qadami yetmagan bir noma'lum mamlakatga keltirib tashlabdi.

Savdogar yana yemakxonaga kiribdi va yana stollarda darralar borligini ko'ribdi. Lekin bular haligilarga qaraganda ancha-muncha yo'g'on va uzun ekan. Buning o'ziga yarasha sababi ham yo'q

emas ekan: bu yerdagi sichqonlar dastlab ko'rgan sichqonlardan xiyla ko'p va xiyla yirikroq ekan.

Savdogar yana mushukni sotibdi va buning uchun yana yuz talerdan olibdi. Bu safar ham uzoq savdolashishga hojat bo'l mabdi.

Savdogar suzishda davom etibdi. Ochiq dengizga chiqar-chiqmas qarasaki, mushuk tag'in o'z joyida hozir-u nozir emish — bosh machta uchida jim o'tirganmish. Yana bo'ron turib, quturgan to'lqinlar kemani to savdogar ilgari qadam bosmag'an noma'lum mamlakatga keltirib tashlamaguncha tinmabdi.

U yana yemakxonaga yo'l olibdi. Bu yerda ham stollarda darralar yotganmish, lekin bu darralar ning har birining uzunligi bir arshin, yo'g'onligi supurgiday kelarmish. Savdogarga aytishlaricha, bu mamlakat fuqarosi uchun ovqatlanish do'zax azobi ekan: minglab yirik-yirik jirkanch kalamush ovqatga tashlanib ulardan bir luqma ovqatni yulib olib, og'izga solish nihoyatda qimmatga tushib ketar ekan.

Savdogar kemadan mushukni olib kelgach, mamlakat fuqarolari yengil nafas olishibdi. Ular savdogarga mushukni bizga soting deyishibdi. Savdogar anchagacha unamabdi, oxiri uch yuz talerdan bersangiz sotaman degan ekan, ular boshlari osmonga yetib rozi bo'lishibdi, savdogarni alqab, tinmay minnatdorchilik bildirisharmish.

Savdogar yana safarini davom etdiribdi. «Bolapaqir mendan berib yuborgan bitta tangasiga necha pul ishlab oldi ekan? — deb xayol sura boshlabdi u. — Nima ham derdik, o'zining ulushini qaytarishga to'g'ri keladi, ammo barini berib bo'l maydi, chunki pul uniki bo'lgani bilan mushukni men sotib oldim-da. Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga».

Shu o'ylarni o'ylab turganida birdan dengizda dovul ko'tarilibdi, bu galgisi shunaqangi kuchli

ekanki, to'lqinlar kemani naq chappa ag'darib tashlayman dermish. Savdogar bolaga pulning hammasini qaytaraman deyishdan o'zga chorasi qolmaganini anglabdi. Rostdan ham dilidan shu o'ylarni kechirgan zahoti dovul yotib, kema barcha yelkanlarini shamolga keng ochgancha jadal suzib ketibdi.

Savdogar uyiga qaytib kelgach, bolaga besh yuz taler pulni va ustiga ustak o'z qizini ham qo'sh qo'llab topshiribdi. Sababi sizga ayon: bir vaqtlar oshxonada o'tin va suv tashib yurgan xizmatkor bola endi savdogarning o'ziday kattakon boyga aylangan ekan.

Shunday qilib bola ham qandini urib yashay boshlabdi, ham bir jahon boylik to'plabdi. Onasini esa o'zinikiga keltirib olibdi va doim ko'klarga ko'taribdi.

— «O'zing uchun o'l yetim», «O'zingni bil, o'zgani qo'y», «Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga» degan qutquli gaplarga unchalik ishonmayman, — der ekan bola.

SHIMOL SHAMOLIDAN UN TALAB QILGAN BOLA

Bor ekan-da, yo'q ekan, bir kampir bilan uning yagona o'g'li bo'lgan ekan. Kampir judayam munkillab qolgan, majolsiz, buning ustiga kasalmandligi uchun hamma yumushlarni uning o'g'li bajarar ekan.

Kunlardan bir kun bola omborxonadan un olib chiqayotsa, qo'qqisdan paydo bo'lgan Shimol shamoli bolakayning qo'lidagi unni yulqib olib, ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Bola yana qayta omborxonaga tushib, un olib chiqqan ekan, haligi Shimol shamoli kelib, ikkinchi

marta unni yulqib olibdi, uchinchi gal ham xuddi shu takrorlanibdi. Shimol shamoli nojo'ya ish tutayotganidan bolaning jahli chiqibdi. U Shimol shamolini qidirib topib, undan unini qaytarib olishga qaror qilibdi.

Shunday qilib bola olis yo'lga otlanibdi. U yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yurib, nihoyat Shimol shamolining huzuriga yetib boribdi.

— Assalomu alaykum, — debdi bola Shimol shamoliga.

— Vaalaykum assalom, — noxush alik olibdi Shimol shamoli. — Xo'sh, xizmat, bolakay?

— Ochig'ini aytsam, mendan omborxonada yulqib olgan unimni qaytarib berishingni so'ragani kelgandim, — debdi bola. — Biz kambag'almiz, agar arzimas unimizdan ham mahrum etsang, unda ochlikdan o'lamiz.

— Menda hech qanday un yo'q, — javob qaytaribdi Shimol shamoli. Lekin sen hamonki nochor ahvolda ekansan, senga shunday ajoyib dasturxon berayin, sen bir og'iz unga: «Ochil dasturxon, meni eng mazali taomlar bilan siyla», — desang kifoya, shundan keyin ko'ngling istagan hamma ovqatlar oldingda muhayyo bo'ladi, — deb bolaga dasturxon tutqazibdi.

Bola dasturxonni ko'tarib, xursand qiyofada uyi tomon yo'l olibdi. U uyi olis bo'lgani uchun yo'l-yo'lakay musofirxonada qo'nib o'tishga qaror qilibdi. Musofirxonada kechlik yeyishga hozirlik ko'rishayotgan ekan, bola qo'lidagi dasturxonni stol ustiga qo'yib: «Ochil dasturxon, meni eng mazali taomlar bilan siyla», — debdi.

Bola bu so'zlarni aytib ulgurmasdanoq dasturxonda anvoyi taomlar muhayyo bo'libdi, yon atrofdagilar bu mo'jizadan hayratda qolishibdi. Ammo hammadan ham dasturxon musofirxona bekasiga yoqib qolibdi: qovurish, qaynatish, stolni bezatish, ovqatdan so'ng stolni yig'ishtirib olish-

ning zarurati yo'q, degan fikr o'tibdi uning xayolidan. Yarim kechasi hamma uyquga ketganda musofirxona bekasi bolaning sehrli dasturxonini unga o'xshagan boshqa dasturxon bilan almash-tirib qo'yibdi.

Bola uyqudan uyg'ongach, dasturxonni qo'lting-lab yo'lga chiqibdi, uyiga onasi huzuriga qosh qorayganda kirib boribdi.

— Men Shimol shamolining makonida bo'ldim, u men bilan adolatli hisob-kitob qildi, dasturxon sovg'a etdi, u oddiy dasturxon emas, sehrli. «Ochil dasturxon, meni eng mazali taomlar bilan siyla», — deyilsa kifoya, dasturxon darhol anvoyi taomlarni muhayyo qiladi.

— Bo'limgan gap, o'z ko'zim bilan ko'rma-gumimcha ishonmayman, — debdi ona.

Bola dasturxonni stol ustiga qo'yib:

— Ochil dasturxon, meni eng mazali taomlar bilan siyla, — debdi. Dasturxon stol ustiga qanday qo'yilgan bo'lsa, shundayligicha turaveribdi, hatto qora non burdasi ham in'om etmabdi.

— Iloj qancha. Shimol shamoli huzuriga yana borishga to'g'ri keladi, — debdi bola yo'lga otlanib.

U olis yo'l bosa-bosa Shimol shamoli huzuriga yetib boribdi.

— Assalomu alaykum, — debdi bola.

— Vaalaykum assalom, — deb javob qaytaribdi Shamol.

— Sen mendan tortib olgan unni qaytarib ber, bergen dasturxoning hech narsaga yaramaydi..

— Menda un yo'q, — debdi javoban Shimol shamoli. — Yaxshisi, mana bu echkini ola qol, u senga oltin tangalar tug'ib beradi, sen unga faqat: «Echkivoy, tangalar tug'ib ber», — desang bas.

Bola sehrli echkini olishga rozi bo'libdi va shu zahotiyog yo'lga chiqibdi. U yo'lda yana o'sha musofirxonada to'xtabdi.

Bola taom buyurishdan oldin Shimol shamolining aytgani bo'yicha echkini sinovdan o'tkazgan ekan, hammasi to'g'ri chiqibdi. Buni musofirxonanegasi ko'rib qolib, bunday echkining bahosi yo'q degan qarorga kelibdi, bola uyquga ketishi hamono u sehrli echkini boshqa jo'n echki bilan almashtirib qo'yibdi.

Bola saharlab yo'lga chiqibdi, u onasi huzuriga kelib, unga bunday debdi:

— Shimol shamoli har holda mard ekan. Mana, menga g'aroyib echki berdi, unga: «Echkivoy, tangalar tug'ib ber», — deyilsa bas, ichidan qumaloqlar emas, tilla tangalar to'kiladi.

— Ko'p lof urma, — debdi onasi, — men buni o'z ko'zim bilan ko'rmagunimcha hech ham ishonmayman.

— Echkivoy, tangalar tug'ib ber, — debdi bola. Ammo echki bezrayib turaveribdi.

Bola yana Shimol shamoli huzuriga borib, echking sariq chaqaga arzimaydi, unimni ber, debdi.

— Qo'y-e, men senga huv anovi, kiraverishda yotgan tayoqdan boshqa hech narsa bera olmayman, — debdi Shamol. — Balkim, o'sha kuningga yarab qolar. Unga: «Ur, tayoqcham», — desang bas, tayoq qattiq savalashga tushadi. «To'xta, tayoqcham» — demaguningcha savalashini qo'ymaydi.

Bola tag'in yo'l-yo'lakay musofirxonada qo'nib o'tishiga to'g'ri kelibdi. U Shimol shamoli hadya etgan dasturxon bilan echkini musofirxona egalari o'g'irlashgan bo'lishsa kerak, degan shubhaga boribdi, shuning uchun bola musofirxonaga kirishi hamono o'rniga yotarkan, o'zini qattiq uxlab qolganga solibdi.

Musofirxona egasi, tayoq ham biror narsaga yarab qolar, deb o'ylab xuddi shunday tayoqni olib bola yonida yotgan tayoqchaga endi almashtirmoqchi bo'lgan ekan, bola:

— Ur, tayoqcham! — deb qichqiribdi.

Tayoq musofirxona egasini chunonam savalab ketibdiki, musofirxona egasi ovozining boricha:

— Ayt, tayoq savalashini to'xtatsin, yo'qsa u meni o'ldirib qo'yadi. Voy dod, men senga dasturxoning bilan echkingni ham qaytarib bera-man, — deb baqiribdi.

Bola o'g'ri-xo'jayin qilmishiga yarasha jazosini oldi degan qarorga kelib:

— To'xta, tayoqcham! — debdi.

Keyin u dasturxonni xaltasiga solibdi-da, tayoqni qo'liga olib echkini yetaklab uyiga ravona bo'libdi.

Shunday qilib Shimol shamoli uning haqiniadolatli to'labdi.



FIN XALQ ERTAKLARI



ENAGA-TULKI

Kunlarning

Kunlarning birida ayiq o‘z bolalariga enaga qidirib chiqibdi. O‘rmonda kezib yurib-yurib bo‘riga duch kelibdi.

- Yo‘l bo‘lsin, boboy? — debdi bo‘ri.
- Bolalarimga enaga qidirib yuribman, — javob qilibdi ayiq.
- Meni ola qoling enagalikka, — debdi bo‘ri.
- Qo‘sinq aytishni bilasanmi? — qiziqsinib so‘rabdi ayiq.
- Bo‘lmasa-chi, qo‘sinq aytishni bizga chiqargan-da, — debdi bo‘ri va cho‘zib-cho‘zib uvlabdi:
- Uv-v-v, uv-v-v!
- Sendan enaga chiqmaydi, juda yomon kuylar ekansan, — debdi ayiq va yo‘lida davom etibdi.
- Yo‘lda quyon duch kelibdi.
- Yo‘l bo‘lsin, boboy?
- Bolalarimga enaga qidirayapman.
- Meni ola qoling enagalikka.
- Qo‘sinq aytgan bo‘lib.
- Ps-ps, pu-pu, ps-ps, pu-pu, — debdi quyon o‘zicha qo‘sinq aytgan bo‘lib.
- Sendan enaga chiqmaydi, juda yomon kuylar ekansan, — debdi ayiq va yana maymoqlanib yo‘lda davom etibdi.
- Qarshidan tulki kelayotgan ekan.
- Yo‘l bo‘lsin, boboy?
- Bolalarimga enaga izlab yuribman.
- Meni ola qoling enagalikka.
- Qo‘sinq aytgan bo‘lib.
- Qo‘sinq aytishni bir menga chiqargan, — maqtanibdi tulki va sho‘x-sho‘x kuylay ketibdi:

*Uxla, uxla, jajji bola, men senga
Sayroq qushlar qo'shig'ini kuylayman,
Chuchchuri-la, chuchchuri-la,
Chuchchuri-la, lalala-la-la-a!*

— Seni olaman enagalikka, juda chiroyli qo'shiq aytar ekansan, — debdi ayiq ta'sirlanib va talkini uyiga olib ketibdi.

Ertasiga ayiq ovga yo'l olibdi, talki esa qo'lini sovuq suvgaga urgisi kelmabdi, ayiq bolalarini ovqatlantirmabdi ham, yuvintirib-tarantirmabdi ham.

Kechqurun ayiq qaytib kelibdi-da, so'rabdi:

— Bolalarimga yaxshi qaradingmi, hoy enaga?

— Kun bo'yi qo'shiq aytib berdim ularga, — deb javob qaytaribdi talki.

Ayiq azbaroyi charchaganidan boshqa savol berib ham o'tirmabdi.

Ertalab ayiq yana ovga yo'l olibdi. Tulki bo'lsa ayiq bolalari bilan zarra ish tutmabdi, bechora norasida go'daklar ochdan och qarovsiz yotaverishibdi.

Kechqurun ayiq qaytib kelsaki, bolalari ko'z yoshi to'kib, izillab turishibdi, qorinlari yopishib, nuqlu ovqat so'rashayapti. Ayiqning chapparasta jahli chiqibdi, dangasa enagani boplاب jazolamoq-chi bo'lган ekan, ayyor talki fursat g'animatda lip etib ko'chaga chiqibdi-yu, dumini bir o'ynatib, o'rmonga g'oyib bo'libdi.

OMADIM BOR

Bir zamonlarda bir kampir yashagan ekan, uning bir qizi bo'lib, qo'li gul yigiruvchi ekan. Mohira qiz haqidagi shov-shuv qirolning qulog'iga yetib boribdi-yu, u qizni o'z ko'zi bilan ko'rishni xohlabdi. Otiga minibdi-da, kampirning uyiga kelibdi va qo'li gul mohira qizi haqida surishtira

ketibdi. Kampir ham jag‘i-jag‘iga tegmay qizini shu maqtab ketibdi, qo‘yaverasiz. Hatto qizida yo‘q xislatlarni ham borday qilib ta‘riflabdi, ya‘ni u somon va loydan tilla ip yigira olarmish.

— Somon va loydan tilla ip yigiradi? — og‘zi ochilib qolibdi qiro. — Bunday chevar qizni darhol saroyga olish kerak.

Bechora qizchani saroydagi xonalardan biriga joylashtirishibdi, oldiga bir arava somon bilan zambillarda loy keltirib tashlashibdi-da, o‘zini xoli qoldirib chiqib ketishibdi — tilla ipini bemalol yigiraversin. Biroq sho‘rlik qiz tilla ip yigiraman deb shuncha urinsa ham hech ish chiqmabdi.

Qiz nima qilayapti ekan deb shahzoda qiziqsinib uning oldiga kelibdi va:

— Tilla ip yigirolsang, men seni xotinlikka ola-man, — deb va‘da qilibdi.

Biroq somon bilan loydan zar chiqqanini kim va qachon ko‘ribdi? Bechora qiz achchiq-achchiq yosha-
lar to‘kar, nima qilishini bilmay, alamini yig‘idan
olar ekan. Birdan yerdan chiqdimi, osmondan
tushdimi, bir pakana paydo bo‘libdi. U qizga kul-
rang qo‘lqoplarini uzatib debdi:

— Mana bu qo‘lqoplarni kiy, zar ip yigirishing-
da u senga yordam beradi. Oramizdag shart bun-
day bo‘ladi: senga uch kun muhlat beraman. Agar
shu muddat ichida mening ismimni topolmasang,
sen menga xotin bo‘lasan.

Qiz qiro g‘azabidan shunchalik qo‘rqar ekanki,
beixtiyor pakananing shartiga rozi bo‘libdi va
qo‘lqoplarni olibdi.

Pakana aftini g‘alati tirjaytiribdi-da, ko‘zdan
g‘oyib bo‘libdi.

Qiz qo‘lqoplarni kiyib, ishga qo‘l urishi hamon
urchuqdan zar ip shunday yigirilib chiqqa boshlab-
diki, tekisligiga har qanday chevar ham hayron
qolarkan, qiz shoshganidan arang yumaloqlab
ulgurarkan.

Vaqt esa oqar suv, uch kun ko‘z ochib-yumgun-

cha o'tib ketibdi, kech tushibdi. Qiz dam-badam eshikka qararkan — halizamon pakana kirib kela-di-da. Lekin uning ismi nima ekanini qiz boyaqish qayoqdan ham bilsin? Uning pakanaga xotin bo'lishdan boshqa chorasi yo'q.

Quyosh o'rmon ortiga berkinib, atrofni shom qorong'iligi chulg'aganda qizning ko'z yoshlari jilg'aday oqa boshlabdi. Qizning bunchalik g'am-qayg'uga cho'kkanini ko'rib, shahzoda uning dilini xushlashga harakat qilib debdi:

— Yig'lama, hozir men senga qiziq bir narsa aytib beraman! Bugun o'rmonda aylanib yurgan edim, bir vaqt qarasam yalanglikda bir pakana odam beo'xshov o'yin tushib, o'zicha qo'shiq ham aytayotibdi:

*Meni derlar «Omadimbor»
Qayliqqinam bilmas zinhor.
Kun botgan chog' ul ikkimiz
Birga jo'naymiz baxtiyor.*

Qiz sapchib o'rnidan turib ketibdi — tamom, endi u pakananing ismini biladi, endi u tasqaraga xotin bo'lmaydi!

Shu payt eshik ochilib, ostonada pakananing o'zi paydo bo'libdi.

— Sening isming Omadimbor! — qichqirib debdi yigiruvchi qiz qo'lidan qo'lqoplarni yecha turib. — Men ozodman!

Pakana ko'chaga qochib chiqibdi, shundan beri uni hech kim ko'rmasmish, hatto qo'lqoplarini olishni ham unutibdi.

Shahzoda esa qizga uylanibdi.

YAXSHI MASLAHATLAR

Bir vaqtlar bir yosh yetim bola bo'lgan ekan. U haddan tashqari qashshoq bo'lib, xudoning bermish kuni ochlik bilan olishgani-olishgan ekan. Oxiri u yorug' dunyoni kezib, omadini sinab ko'rishga qaror qilibdi — zora allaqayerlardan rizq-ro'zini topib yeya olsa. Bola ketaveribdi, ketaveribdi, kechqurun ochlikdan sillasi qurib, holdan toyib bir qalin o'rmonga kirib kelibdi. Bundoq qarasa, tuzoqda bir o'rmon qushi patirlab yotgan mish. Bola o'zida yo'q suyunib ketibdi:

— Mazali kabob qilib yeyman.

Qush esa o'sha zahoti odamlarday tilga kirib debdi:

— Meni o'ldirma, aziz yo'lovchi, meni qo'yib yubor.

Bolaning yuragi nihoyatda sof va rahmdil ekan, qushni erkinlikka qo'yib yuboribdi. Qush qanotlarini yoyib, bir ikki qoqib qo'yibdi-da, shunday debdi:

— Yaxshilik qilganing evaziga men senga bir maslahat beraman. Mana shu so'qmoqdan katta eman daraxti chiqmaguncha ketaverasan, unga chiqqin-da, bir kecha shoxida o'tir. Keyin nima bo'lishini o'shanda ko'raverasan.

Bola so'qmoqdan ketaveribdi, bir eman daraxtini ko'ribdi, unga chiqibdi, baquvvat shoxiga joylashib o'tirib olibdi-da, kuta boshlabdi. Shunda bolaga daraxt tagida kimdir gapiroayotganday bo'libdi. Quloiq solib ko'rsa, rostdan ham eman tagida uchta mitti odam suhbat qurib o'tirishgan ekan.

— Eshitdilaringmi? — debdi ulardan biri. — Qirol bog'idagi anhor qurib qolibdi, ilgarilari undan shunaqangi tiniq, zilolday suv sharqirab oqib yotardiki, qo'yaverasiz! Anhor yonidagi

qarag‘ayni ag‘darib, ildizini kavlab olsa, suv yana to‘lib oqishi kimning xayoliga kelardi deysiz.

— Men ham bir sirni bilaman, — debdi ikkinchi mitti odam. — Qirol o‘rmonida ilgarilari juda ko‘p bug‘ular quvalashib yurardi, endi-chi, bitta ham qolmagan. Lekin qirol hayvonlarning bog‘ darvozasidagi bug‘u shoxidan qo‘rqishini qayoqdan bilsin. Agar shu shox olib tashlansa, hamma bug‘ular qaytib keladi.

— Men ham ba’zi narsalardan xabardorman, — debdi uchinchisi. — Qirolning yakka-yu yagona qizi nechchi yillardan beri kasal. Malikani biron ta ham tabib davolay olmadi va davolay olmaydi ham. Agar malikani kun chiqish oldidan boqqa olib kirib, unga shudringdan sepishsa, malika o’sha zahoti otday bo‘lib ketadi.

Mitti odamlar suhbatlarini tugatishibdi va ketishibdi. Bola hamma gapni eslab qolibdi, ertalab daraxtdan tushibdi-da, ish qidirib qirol saroyiga boribdi.

— Suv tashuvchi bo‘lib ishlaysanmi? — deb taklif qilishibdi bolaga. — Hozir biz suvni saroyga uzoqdan tashib keltirayapmiz. Ilgari bog‘dan anhor oqib o‘tar edi, qurib qolgan.

Bola anhor joylashgan yerlarni yaxshilab ko‘zdan kechiribdi va o’sha yerda bir qarag‘ay o‘sib turganini ko‘ribdi.

— Agar mana bu qarag‘ayni yiqtib, ildizini kavlab tashlasangiz, yana suv to‘lib oqadi, — debdi u.

Daraxtni yiqtishibdi, ildizini kavlab tashlashibdi — anhordan to‘lib yana zilolday tiniq suv sharqirab oqa boshlabdi.

Qirol bolani oldiga chaqirib, surishtiribdi:

— Bug‘ularni qanday qaytarish yo‘lini aytolmaysanmi? Ilgarilari bu yerda bug‘ular poda-poda bo‘lib yurishardi, endi hammasi g‘oyib bo‘lgan.

— Ularni qaytarish juda oson, a’lo hazratlari, — kulib debdi bola. — Bog‘ darvozasidagi

bug‘u shoxini olib tashlash kerak, xolos. Bo‘ldi, boshqa davosi yo‘q.

Qirol shoxni olib tashlashga buyruq beribdi, ana, allaqachon bug‘ular qatorlashib kela boshlashdi. Yana bog‘ni to‘ldirib quvnab yurishibdi.

— Ajoyib maslahatchi ekansan, — ehtirom bilan debdi qirol. — Menga qara, mabodo kasal qizimning dardiga davo topib berolmaysanmi? Nechchi yildirki to‘sakdan bag‘rini uzolmayapti.

— Malikani kun chiqish oldidan boqqa olib kiring-da, shudringdan seping, — maslahat beribdi bola. — U otday bo‘lib ketadi.

Ota qizini boqqa olib kiribdi, o‘z qo‘li bilan shudringdan sepibdi — qiz o’sha zahoti o‘ynabkulib ketibdi.

Qirol bolaga minnatdorchilik izhor qilmoqchi bo‘libdi.

— Saroyimda qol, — debdi u. — Mening bosh maslahatchim bo‘lasan.

O‘shandan buyon bola saroyda yashab kelar ekan va umrining oxirigacha zarracha kamlik ko‘rmabdi.



ISLAND XALQ ERTAKLARI



KIDXYUS

Bir zamonlarda bir chol-kampir o‘z uylarida istiqomat qilishar ekan. Ular shunchalik qashshoq ekanki, kampirining urchug‘idagi urchuqboshdan boshqa ularning bisotida hech vaqo yo‘q ekan. Urchuqboshi esa sof oltindan ekan. Chol kunda-kunda ovga yo baliq ovlashga borar, kunlik tirikchiliklari shunday o‘tar ekan. Ularning uyidan sal narida bir do‘nglik bor ekan. Odamlar o‘scha do‘nglik ostida Kidxyus degan ajdar yashaydi, undan ehtiyoj bo‘lish kerak, deyishar ekan.

Bir kuni chol ovga ketibdi, kampiri odatdagidek uyda qolibdi. Havo ochiq ekan, u urchug‘ini hovliga olib chiqibdi-da, urchuq yigira boshlabdi. Birdan urchuqboshi o‘z-o‘zidan urchuqdan tushib ketibdi. U dumalab ketaveribdi, ketaveribdi va allaqayoqlarga gumdon bo‘libdi. Kampir sarosimaga tushib urchuqboshini qidira ketibdi, biroq urchuqboshi yerda ham, ko‘kda ham yo‘q emish. Chol qaytib kelgandan keyin kampir bo‘lgan voqeani aytib beribdi.

— Sening urchuqboshingni Kidxyusdan boshqa jin ham o‘g‘irlamaydi, — debdi chol. — Bunaqasini ilgari ham payqashgan.

Shunday qilib, u urchuqboshini undirib olish, juda bo‘lma ganda kun bahosini talab qilish niyatida Kidxyusning oldiga borishga qaror qilibdi. Kampirning ko‘ngli sal joyiga tushibdi. Chol do‘nglik oldiga kelibdi-da, uni kaltak bilan ura boshlabdi.

Kidxyus so‘rabdi:

— Kim u uyimni dupillatayotgan?

Chol javob qaytaribdi:

— *Yon qo'shning keldi, Kidxyus,
Aqling yig', qilma sarson,
Kampir urchuqboshisi
Uchun ber biror narsa.*

Kidxyus kampir nima xohlashini so'rabdi.

— O'nta sigir ber, — debdi chol. —
Shunaqasidan berki, bir sog'ishda besh litrdan kam
sut bermasin.

Kidxyus unga sigir berib yuboribdi.

Ertasiga kampir shunchalik ko'p sut sog'ib olib-
diki, hamma idishlari to'libdi, endi bir kuv pish-
sam ham bo'ladi, deb dilidan o'tkazibdi. Biroq sut-
dan u-bu ovqat qilay desa, uyida bir chimdim ham
uni yo'q ekan. Shunda kampir Kidxyusdan borib
un so'rang deb cholni tag'in o'sha yoqqa jo'natib-
di. Chol do'nglik oldiga kelibdi-da, yana kaltak
bilan dupillatib uribdi. Kidxyus tovush beribdi:

— Kim u uyimni dupillatayotgan?

Chol javob qaytaribdi:

— *Yon qo'shning keldi, Kidxyus,
Aqling yig', qilma sarson,
Kampir urchuqboshisi
Uchun ber biror narsa.*

Kidxyus yana kampir nima xohlashini so'rabdi.
Chol, un ber, kampirim quymoq-suymoq qilib
yegisi bor, debdi. Kidxyus unga bir qop un beribdi,
chol unni uyiga olib boribdi, kampir quymoq qilib
yebdi. Chol ham, kampir ham quymoqdan to'ygun-
laricha yeyishibdi, qozonda esa hali quymoq xudo
urib yotgan ekan. Endi qolgan quymoqni nima qil-
sak ekan deb boshlari qotib turganda uni Bibi
Mariyaga in'om qilishga qaror qilishibdi. Faqat
unga qanday yetib borishni bilisholmabdi — axir
Bibi Mariya juda yuksakda turadida. Shunda ular

Kidxyusdan osmonga olib chiqadigan narvon so'rashga ahd qilishibdi. Ularga urchuqboshi evaziga hali juda oz narsa olishgandek tuyulibdi. Chol do'nglik oldiga borib kaltak bilan dupillatibdi. Kidxyus oldingiday:

— Kim u uyimni dupillatayotgan? — deb tovush beribdi.

Chol javob qaytaribdi:

— *Yon qo'shning keldi, Kidxyus,
Aqling yig', qilma sarson.
Kampir urchuqboshisi
Uchun ber biror narsa.*

Endi Kidxyusning chaparasta jahli chiqibdi.

— Hoy, bu la'nati urchuqboshi uchun qachongacha tovon to'layman? — deb qichqirib beribdi.

Biroq chol bor-yo'g'i osmonga yetadigan narvon berishini, narvonda ko'tarilib Bibi Mariyamga qolgan quymoqlarni olib borib berishlarini Kidxyusga yotig'i bilan tushuntiribdi. Hay mayli, debdi-da, Kidxyus narvon keltiribdi va osmonga ham o'zi qo'yib beribdi. Chol o'zida yo'q suyunib, to'g'ri kampirining oldiga yuguribdi. Biroq shoshganlardan boshlari aylanibdi, ikkalovi ham yerga qulab tushib, til tortmay o'libdi. Ular yiqilib tushgan joydag'i toshlarda oq dog'lar qolganmish, quymoq tushgan joylar sariq tusda emish. Aytishlaricha, bu dog'lar hozirgacha ham ketmay, shunday turganmish.

GILITRUTT

Qadim zamonlardan birida mehnatkash bir dehqon yigit yashar ekan. Uning o'ziga yarasha uyi, keng yaylovi va yetarlicha chorvasi bo'lgan ekan. Yigit uylanibdi, ammo xotini o'ta yalqov chiqibdi. Xotinining kun bo'yи bekorchilikdan qo'li bo'shamas ekan, u hatto eriga ovqat pishirib berishga ham erinar ekan. Eri unga hech qachon og'ir gap qilmas ekan.

Kuz kunlarining birida eri xotiniga qanor qopda jun keltiribdi-da, undan qish ichi jundan chakmon to'qib berishni iltimos qilibdi. Xotini hatto yungga qiyo boqib qo'ymabdi ham. Kunlar o'taveribdi, ayol chakmon to'qishni xayoliga ham keltirmabdi. Eri ahyon-ahyonda yung haqida eslatib qo'ysa ham u parvo qilmabdi.

Kunlardan bir kun uy bekasingin huzuriga bad-bashara kampir kelib, undan bir ishga ko'maklashib yuborishini iltimos qilibdi.

— Men senga yordamlashib yuboraman-u, ammo sen ham menga bir ishda qarashishing kerak bo'ladi, — debdi ayol.

— Talabing o'rini, — deb tasdiqlabdi kampir. — Xo'sh, men senga nimada yordam berishim kerak?

— Yung yigirib, chakmon to'qib berishingga to'g'ri keladi. — debdi uy bekasi.

— Yungni olib chiq bu yoqqa, — debdi kampir. Kelin qanor qopdag'i yungni olib chiqqan ekan, kampir uni yelkasiga pat tashlagandek yengil ko'tarib:

— Bahor kelganda men senga chakmonni olib kelaman! — debdi.

— Siz bilan hisob-kitobimiz qanday bo'ldi? — deb so'rabdi uy bekasi kampirdan.

— E, bu arzimagan ish! — javob qilibdi kampir. — Sen uch marta mening ismimni topishing

zarur bo'ladi. Ismimni topa olsang, yaxshi, menga bundan ortiq hech narsa kerak emas.

Uy bekasi bu shartga rozi bo'lgandan so'ng, kampir ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Qish oxirlarida eri yana yung haqida so'z ochgan ekan, xotini:

— Xavotirlanmang, chakmon vaqtida tayyor bo'ladi, — deb javob qaytaribdi.

Eri indamabdi, ammo bunda bir sir bo'lsa kerak, degan xayolga boribdi.

Er qish oxirlagan sayin bekaning chehrasi g'amginlanib borayotganini sezibdi. Chamasi, xotini biror narsadan qattiq qo'rqayotganga o'xshabdi. U xotinidan buning sababini so'ragan ekan, ayol badbashara kampir bilan bo'lgan gapni miridan sirigacha eriga so'zlab beribdi. Eri dong qotib:

— Voy tentak-ey, nima qilib qo'yding! — debdi. — Axir u oddiy kampir emas, shu yerdag'i tog'da yashovchi yalmog'iz-ku. Bundan keyin seni u tinch qo'yib bo'libdi, sen uning izmidan chiqib bo'psan, endi.

Kunlardan bir kun dehqon yigit toqqa chiqib, u yerda bir tosh uyumiga duch kelibdi. Dehqon dastlab tosh uyumiga e'tibor bermabdi, ammo to'satdan tosh uyumi tagidan nimaningdir taqillagan ovozi eshitilibdi. Yigit unga asta yaqinlashib, sinchiklab nazar solgan ekan, uyum orasidagi tuynukka ko'zi tushibdi. Tuynukdan ichkariga qaragan ekan, to'quv dastgohida ishlab o'tirgan yalmog'iz kampirni ko'ribdi. Kampir mokining borib kelishiga monand ohangda o'zicha:

*Vah-hah-ha-ha! Hech kim bilmas,
Ismim neligin.*

*Voh-hoh-ho-ho! Hech kim bilmas
Gilitrutt — bu menligim! —*

deb xirgoyi qilayotgan ekan.

Yigit bekaning oldiga mana shu yalmog'iz kelganini darhol fahmlabdi. U uyiga kelishi bilanoq yalmog'izning ismini bir qog'ozga yozib qo'yibdi, ammo bu haqda xotiniga churq etmabdi.

Bu orada uning xotini yalmog'izning ismini topa olmasligini o'ylayverib, dahshatdan hatto to'shadidan tura olmaydigan bo'lib qolibdi. Erining xotiniga rahmi kelib, yalmog'izning ismi bitilgan qog'ozni unga beribdi. Xotini suyunib ketibdi, ammo baribir uni kampirning ismi boshqa bo'lib chiqsa-ya, degan vahima iztirobga solaveribdi.

Bahor fasli ham kelibdi. Xotin eridan uni uyda yolg'iz qoldirmasligini iltimos qilibdi, ammo erunga:

— Yo'q, sen bemaslahat ish tutib, yalmog'iz bilan shartlashding, endi u bilan mensiz hisoblashaver, — debdi.

Xotin uyda yolg'iz o'zi qolibdi. Bir payt banogoh yer kimningdir zalvorli qadam tashlashidan silkina boshlabdi. Bu yalmog'izning yaqinlashayotganidan darak ekan. Yalmog'iz uy bekasiga yanayam qo'rqinchli va dahshatliroq ko'rinib ketibdi. Yalmog'iz yerga chakmonni uloqtirib, qaldiroq ovozda:

— Qani, uy bekasi, ayt-chi, mening ismim nima? — debdi.

— Signi, — deb javob qaytaribdi uy bekasi titroq ovozda.

— Balkim Signi, ehtimol, yo'q, yana bir bor topishga harakat qilib ko'rl!

— Osa, — debdi uy bekasi.

— Balkim, Osa ehtimol yo'qdir, uchinchi bor topishga harakat qilib ko'ra qol!

— Unda Gilitrutt bo'lsa kerak! — debdi uy bekasi.

Yalmog'iz o'z ismini eshitishi hamon, hushidan ketib yerga shunday qattiq qulabdkisi, uy titrab ketibdi. To'g'ri, u darhol o'ziga kelib o'rnidan turibdi-yu, ko'zdan g'oyib bo'libdi. O'sha daqi-

qadan boshlab yalmog'izni hech kim o'sha tomonlarda boshqa ko'rmabdi.

Dehqonning xotini esa yalmog'izdan qutulganidan behad xursand bo'libdi. U o'sha kundan boshlab butunlay o'zgarib qolibdi, ayol juda mehribon, mehnatkash va suyumli uy bekasiga aylanibdi. U har doim eri kuzda olib keladigan yungdan chakmonni o'zi to'qiydigan bo'libdi.



INGLIZ XALQ ERTAKLARI



VIDELSTOUN DARASIDAGI AJDARHO

Bir zamonlari Bamburg qal'asida qudratli qirol bilan sohibjamol qirolichcha yashagan ekan, ularning ikkita farzandi — Chayld Wind degan o'g'illari va Margrit degan qizlari bo'lgan ekan.

Chayld Wind voyaga yetgach, olam ko'rganni va o'zini olamga ko'rsatgani o'zga yurtlarga safarga chiqib ketibdi. U jo'nab ketgandan keyin ko'p o'tmay qirolichcha onasi og'rib qolibdi-da, dunyodan o'tibdi. Qirol qattiq kuyunibdi, biroq kunlarning birida ov qilib yurganida go'zal bir ajnabiy ayolga ko'zi tushib, uni sevib qolibdi va shunga uylanishga qaror qolibdi. Yangi qirolichcha — Bamburg qal'asining yangi sohibasi kelishi sharafiga tayyor-garlik ko'riliishi haqida buyruq bilan chopar yo'lga tushibdi.

Malika Margrit bu xabardan unchalik suyun-masa-da, ortiqcha qayg'urmabdi ham. U otasining buyrug'ini to'kis ado etibdi va tayinlangan kuni yangi qirolichani qarshi olish va qal'a kalitini unga topshirish uchun darvoza tagiga kelib turibdi.

Biroq Margrit otasi va o'gay onasini qarshi olayotganda a'yonlar ichidan bir ritsar shunday xitob qilibdi:

— Qasam ichib aytamanki, mana bu shimol malikasidan a'losi yer yuzida yo'q!

Qirolichcha o'gay onaning dili qattiq lat yebdi, lekin sir boy bermay, faqat zaharxandalik bilan ming'irlab qo'yibdi: «Hechqisi yo'q! Hali u a'lo malika bilan gaplashib qo'yaman!»

O'sha kechasi qirolichcha (aslida u jodugar ekan!)

qal'aning eng baland minoralaridan biri ustiga chiqibdi-da, u yerda tilsim buyumlari — ajdar tishi, boyo'g'li tirnog'i va ilon po'sti yordamida o'gay qiziga turli-tuman issiq-sovuqlar-u sehr-jodular qilib, ko'z ko'rib qulqoq eshitmagan balo-ofatlarni tilab, kuf-suflar bilan sannabdi.

Ertalab kanizaklar bilan oqsochlar malika xob-gohiga kirib qarashsa, o'rnida yo'q emish, qal'adagi biron zot uning qayoqqa g'oyib bo'lganini ay-tolmabdi.

Xuddi o'sha kuni Bamburgdan sal naridagi Vindelstoun darasida dahshatli va badbashara maxluq — po'sti temirdan va og'zidan olov purkovchi bahaybat bo'g'im-bo'g'im ajdarho paydo bo'libdi. Ajdarho o'tlab yurgan qo'y bormi, sigir bormi, domiga tortib ketaverarmish, kechalari esa o'zining uzun-uzun, qo'rqinchli o'kirigi bilan tevarak-atrofda yashovchi odamlarni dahshatga solar ekan.

Qizining yo'qolib qolgani va dahshatli ajdarho paydo bo'lganidan qirol chuqur iztirobga tushibdi. U choparni musofir yurtlarida yurgan o'g'li Chayld Vind ortidan yuborib, undan tezroq qaytib kelishni tayinlabdi. «Mening bir oyog'im to'rda bo'lsa, bir oyog'im go'rda, bu balo-ofatlarga bas kelishga qurb-u quvvatim yetmay qoldi», — deb yozibdi u shahzodaga bitgan maktubida.

Chayld Vindga bu xabar yetishi bilan iziga qaytishga hozirlilik ko'ra boshlabdi, kemani jihoz-lashni, qo'shini ichidan eng sara va azamat o'ttiz jangchini olishni buyuribdi. U oppoq soqoli ko'ksini yopgan, dunyoda u bilmagan sehr-afsun qolmagan dono cholning ham oldidan birrov o'tishni unutmabdi va dono chol unga shunday debdi:

— Agar safarim baxayr bo'lsin desang, chetan butasining butun tanasidan kemangga bushprit (kema tumshug'ida yelkanlarni ochishga yordam beruvchi turtib chiqqan xoda) yasab ol, chunki chetan butasi yovuz ruhlarni daf qiladi, lekin

chetan butasini tashlab yuborma, yoningda bo'lsin. Uni o'gay onangga tekkizib qo'y, bundan hech qanday yomonlik sodir bo'lmaydi, ammo haqiqat ayon bo'ladi.

Chayld Vind dono cholga minnatdorlik bildirib-di-da, novdani olib, kema burnidagi bushpritni mahkamlabdi va tong otishi bilan qadrdon yurti sari yo'l olibdi.

Biroq qirolicha (xabaringiz bor, u jodugar edi!) minora ustiga chiqib tumorlarni terib, ustidan elakda oy nuridan sepib qarab bilibdiki, Chayld Vind o'ttiz navqiron jangchisi bilan Bamburg qal'asiga qaytib kelayotibdi.

Shunda u hukmi ostidagi ruhlarni chaqirib, shunday amr etibdi:

*Qora-qora qullarim,
Suyangan norg'ullarim!
Bo'ron bo'lib uchingiz.
Ko'rsatingiz kuchingiz,
Kemani cho'ktiringiz,
Sohibin o'ldiringiz!*

Qora ruhlar uchib ketishibdi, kemaga qarshi puflay boshlashibdi, baland-baland to'lqinlar ko'tarishibdi, biroq chetan butali bushprit bo'rlonga pisand qilmay, barcha yovuz jodularni daf qilibdi, Chayld Vindning kemasi hech nima bo'lma-gandek bemalol qirg'oqqa yaqinlashib kelaveribdi.

Ruhlar qirolichaning huzuriga qaytib kelib, shahzodaga zarracha ziyan yetkazolmaganlarini ochiq-oydin tan olishibdi. Qirolicha g'azabdan tishlarini g'ijirlatibdi-yu, lekin tinchib qo'ya qolmabdi. Qo'shinga bandargohga chiqishni, kemani qarshi olishni, unga hujum qilishni, qirg'oqqa suzib kelgan odamlarni bitta qo'y may qirib tashlashni buyuribdi.

Chayld Vind qirg'oqqa yaqinlashib kelibdi va birdan unga tomon og'zidan o't sachratib bahaybat

ajdarho suzib kelayotganini ko'ribdi. Ajdarho bostirib kelibdi-da, kemani orqaga surib, bandargohga kirgani qo'ymasmish. Shahzodaning kemasi qayta-qayta aylanib kelibdi, biroq har gal dahshatli ajdarho uni surib tashlayveribdi. Eshkak va nayzalarning kuchli zarbalar uning temir po'stiga pashsha qo'nganchalik ta'sir qilmasmish.

Tajribali darg'a Chayld Vindga qarab debdi:

— Dengizga qaytaylik, keyin burilib hov anovi burun ortida sezdirmasdan langar tashlaymiz.

Shunday qilishibdi ham. Biroq Chayld Vind qirg'oqqa tushib, bir necha odim tashlashi hamon o'rmon ichidan tag'in boyagi dahshatli ajdarho chiqib kelibdi.

Chayld Vind qilichini qo'lga olib, hamlaga shaylanibdi... Birdan dahshatli o'kirik o'rniga ajdarhoning og'zi ichidan ayol kishining yoqimli va nozik ovozi eshitilibdi:

*O, bahodir, tashla qilich-qalqoning.
Zarracha ham qo'rqma, mard bo'l ushbu on!
Gar uch hora bo'sa olsang sen mendan
Sehr-jodu yo'q bo'lgusi begumon.*

Chayld Vindga ovoz tanishday tuyulibdi... Bu qanday vasvasa bo'ldi? Yoki shaytoniy kuchlar uni holdan toydirdimikin? Shahzoda dahshatdan qalqib ketibdi, ajdarho esa so'zida davom etibdi:

*Qo'rqma, qo'rqma, ro'parangda dahshatli
Ajdar emas seni qilgan ovora.
U sehrgar, u jodugar, yo'q bo'lgay
Gar sen bo'sa olsang mendan uch bora!*

Yo alhazar, axir bu singlisi Margritning ovozi-ku! Shahzoda bir nafas ikkilanibdi, so'ng shiddat bilan olg'a qadam qo'yibdi, lekin yovuz va makkor sehr kuchlari qo'lidan har qanday tubanlik kelishi-ni u yaxshi bilarkan. Chayld Vind qilichini azod

ko'taribdi, ajdarho bo'lsa boshini chayqab, shunday debdi:

*Qo'rqma botir, qo'rqma, kelgil yaqinroq.
Uch karra ol mendan ba'sa tap tortmay:
Shundagina xalos topgum balodan,
Akajonim, jigarbandim, bo'l tezroq!*

Shahzoda shartta qilich va qalqonini bir chetga tashlabdi-da, ajdarho tomon odimlab ketibdi, uning olov purkab turgan dahshatli og'zidan uch bora bo'sa olibdi.

O'sha zahoti ajdarho qulqoni teshib yuborgudek chiyillagan va vishillagan ovoz chiqarib ortga chekinibdi-yu, yo tovba, bu ne mo'jiza bo'ldil — Chayld Vindning ko'z o'ngida mehribon va munis singlisi Margrit turganmish!

— Minnatdorman sizdan, mehribon akajonim! — debdi malika. — Bilasizmi, o'gay onamiz meni ajdarhoga aylantirib qo'ydi va to jigarbandim mana shu dahshatli qiyofamda uch karra og'zimdan bo'sa olmaguncha xalos topmagay, deb sehr lab qo'yan edi. Lekin endi sehr-jodudan nom-nishon qolmadi, u qilgan ilm-u amallar, irim-sirimlar, tumor-tutatqilarning esa go'dak uhichalik ham kuchi qolmadi.

Chayld Vind singlisining qo'lidan tutibdi, o'zing jangovar jangchilar hamrohligida otasi qal'asiga kirib boribdi, g'addor va makkor qirolicha esa o'zi yaxshi ko'rghan minora ustida o'tirib olib, to'xtovsiz bidirlab duo-afsun o'qish bilan ovora emish: aka-singil shahzoda bilan mali-kaga biron-bir ziyon-zahmat yetkazish uchun hali ham jon-jahdi bilan urinib yotganmish.

Chayld Vindning qadam tovushlarini eshitib u ura qochib qolmoqchi bo'libdi-yu, biroq shahzoda unga chetan butasini tekkizib olibdi, shunda nima bo'lganini o'z ko'zingiz bilan ko'rGANINGIZDA bormi: jodugar hammaning nigohida kichiklashib,

g'ujanaklashib-g'ujanaklashib, kichiklashib bo-raveribdi, boraveribdi va oxiri baqaga aylanibdi, shalop-shulp, shalop-shulp qilib sakragancha qal'adan chiqib, o'rmonga kirib ketibdi.

YOSH ROLAND

Bir kuni ertalab uch aka-uka
O'ynar edi koptok qal'a yonida.
Tomosha qilardi ular o'yinin
Ledi Ellen, ya'ni singil edi-da.

Bir mahal Rolandi tizzasi bilan
Tutdi-yu, koptokni tepdi chunonam
Koptok havolaniб cherkov ortiga
Tushganin ba'zilar sezmay qoldi ham.

Qiyqirib, zavqlanib singiljonlari,
Ya'ni Ellen koptok ortidan chopdi.
Ha, Ellen koptokning ortidan chopdi,
Shu-shu boyoqish qiz yo'qolib qopti.

Qidirdilar rosa uch aka-uka,
Kunduz va tunda ham singiljonlarin.
Yerda ham, ko'kda ham topolmay oxir
Achchiq-achchiq ko'z yosh to'kishdi bari.

Shunda to'ng'ich aka sehrgar Merlinning oldiga
boribdi va singiljoni Ellennenning qayerdaligini
so'rabdi.

— Go'zal qiz Ellenni, — deb javob qaytaribdi
Merlin, — elflar o'g'irlashgan, chunki qiz boyoqish
cherkovni xato tarzda, ya'ni quyosh yurishiga
teskari holda aylanib o'tgan. Hozir u elflar qiroli-
ning Zulmat minorasadir, uni xalos qilish uchun
ko'p jasoratlar ko'rsatishga to'g'ri keladi.

— Qo‘limdan kelgancha urinib ko‘raman, — debdi to‘ng‘ich aka, — yo singlimni qutqaraman, yo o‘zim halok bo‘lamан!

— Ho borakallo! — debdi sehrgar Merlin. — Biroq onadan kim qanday bo‘lib tug‘ilmasin — xoh u jangchi bo‘lsin, xoh ritsar — bunday qaltis ishga qo‘l urar ekan, nima qilish va nimadan ehtiyot bo‘lish kerakligini oldindan bilmasa, holiga voy bo‘lg‘usvi!

Ledi Ellinning to‘ng‘ich akasi jasur ritsar bo‘lib, unaqa-munaqa xatar unga pisand emas ekan.

Singlisini qutqarish uchun nima qilishi va nimadan ehtiyot bo‘lishi kerakligini u sehrgardan batafsil bilib olibdi. Sehrgarning har so‘zi, har bir kalimasini takrorlab diliga jo qilibdi-da, Elflar mamlakati sari yo‘l olibdi.

*Kun bo‘yi qal’ada yo‘l qaradilar,
Kelib qolarmi deb mehribon og‘a.
Afsus-nadomatlar bo‘lsinki hanuz,
Qaytmadi, yurakni aylab yuz pora.*

Nihoyat, kutaverib o‘rtancha akaning toqati toq bo‘libdi. To‘ng‘ich akasiday u ham sehrgar Merlinning oldiga boribdi, undan hamma narsani so‘rab-surishtiribdi-da, Elflar mamlakatini qidirib yo‘lga tushibdi.

*Kun bo‘yi qal’ada yo‘l qaradilar,
Kelib qolarmi deb o‘rtancha og‘a!
Afsus-nadomatlar bo‘lsinki, hanuz
Qaytmadi yurakni aylab yuz pora.*

Endi yo‘lga tushish navbati ledi Ellinning kichik akasi yosh Rolandga yetib kelibdi. U onasi, ya‘ni oqko‘ngil qirolicha huzuriga oq fotiha olgani kiribdi. Avvaliga ona uning ketishiga unamabdi, axir u uch o‘g‘li ichida eng kichigi va buning ustisi

ga eng suyuklisi ekan-da. Biroq Roland to onasi dildan rozi bo'lib, oq fotiha bermaguncha yalinib-yolvorib turaveribdi. Ona unga hamlada mo'ljalga doim bexato uruvchi ota qilichini tutqazibdi va faqat nusrat-u g'alaba keltiruvchi ko'hna tilsim duoni ham qulog'iga quyib qo'yibdi.

Yosh Roland mushtipar onaizori bilan xayrlashibdi-da, sehrgar Melin oldiga, g'orga boribdi.

— O dono Merlin, — debdi yigit, — onadan kim bo'lib tug'ilmasin — xoh jangchi yo xoh ritsar, singiljonimiz Ellen va ikki og'amni Elflar qiroli qo'l ostidan qanday qilib qutqarish yo'llarini yana bir bor tushuntirg'il!

— Bale, o'g'lim, — deb javob beribdi sehrgar. — Nima qilish va nimadan ehtiyot bo'lish kerakligini senga tushuntiraman. Avval nima qilish kerakligini aytaman: Elflar mamlakatida senga kimda-kim bir og'iz so'z bilan murojaat qilsa, darhol qilichingni yalang'ochlab, boshini sapchaday uzasan. Endi nimadan ehtiyot bo'lish kerakligini aytaman: Elflar mamlakatida bir luqma taom yemaysan, bir qultum SUV ichmaysan, qorning ming ochqab, tomoqlaring qaqrab ketsa ham! Kimki bir luqma taomni yeb yoki bir qultum SUVNI ichib qo'ysa, u xudoning qarg'ishi tekkan bu mamlakatda abadiy qolib ketadi va umrbod yorug' olamni ko'rishdan mahrum bo'ladi.

Yosh Roland bu so'z va kalimalarni yod olib, Merlinga tashakkurlar izhor qilibdi-da, yo'lga tushibdi. U yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, oxiri yaylovda o'tlab yurgan yilqilar uyuriga duch kelibdi. Otlarning quturgan, chaqnagan ko'zlaridan darrov anglabdiki, uyur Elflar qiroliga qarashli va manzil yaqin qolgan.

— Menga qara, — debdi u yilqibonga, — Elflar qirolining Zulmat minorasini qanday topsa bo'ladi?

— Buni men senga aytmayman. Boraverasan,

poda boqib yurgan podachini ko'rasan, o'shandan so'rachi, zora u aytsa, — deb javob qilibdi yilqibon.

Shunda bir og'iz ortiqcha so'z aytmay Roland qilichini yalang'ochiabdi-da, yilqibonning boshini cho'rt uzib yuboribdi. Yo'lida davom etib, poda boqib yurgan podachini ko'ribdi va unga ham boyagi savollarni beribdi.

— Boraverasan, — deb javob beribdi podachi. — Parrandaboqar xotin keladi, balki u aytar.

Shunda Roland yana qilichini sug'urib, podachining boshini uzibdi. Yo'lida davom etibdi, qarasa bir kampir g'oz boqib yurgan ekan, shundan so'rabi:

— Elflar qirolining Zulmat minorasiga qanday borsam bo'ladi?

— Boraverasan, — javob beribdi parrandaboqar kampir, — etakdan chocho'qqiga tomon kamarlar bilan ko'tarilib boruvchi ko'm-ko'k doira tepalikni ko'rasan, uni quyosh harakatiga teskari yo'naliishda uch marta aylanib chiqasan-da, uch karra:

*Ochil, ochil, darvoza!
Qo'ygil meni ichkari!*

deb takrorlaysan. Uchinchi marta takrorlaganningda darvoza ochilib, ichkariga kirasan.

Roland kampirga minnatdorchilik bildirib, ketishga shoshilibdi-yu, biroq sehrgarning gapi esiga tushib qilichini sug'uribdi-da, uning boshini tanasidan judo qilibdi.

U to'g'ri ham qilgan ekan, chunki ular bari alvasti va arvohlar bo'lib, uni tuzoqqa tushirish uchun Elflar qiroli ataylab yuborgan ekan.

Roland yo'lida davom etibdi va ko'p o'tmay etagidan cho'qqisi tomon kamarlar bilan ko'tarilib boruvchi ko'm-ko'k doira tepalikka duch kelibdi. Uni quyosh harakatiga teskari yo'naliishda uch marta aylanib chiqibdi-da, uch marta:

*Ochil, ochil, darvoza!
Qo'ygil meni ichkari!*

deb takrorlabdi.

Uchinchi bor takrorlaganda darvoza ochilibdi, u ichkariga kirishi bilan yana g'iytillab yopilibdi-yu, bola qorong'ilik ichida qolibdi. To'g'ri, bu zim-ziyozulmat bo'lmay, bor-yo'g'i g'ira-shira qorong'ilik ekan. Allaqayerdandir yiltillagan yog'du tushib turarkan, holbuki Zulmat minora ichida na bir tuyruk, na bir mash'al va na bir sham ko'zga tashlanarkan. Uzun yo'lakning oxiri juda uzoq bo'lib, uning dag'al shifti yarim shaffof toshlardan iborat ekan, unda shishasimon qotishma bilan zarrin cho'yan qoplamlar yiltillab turarkan. Chor atrof toshmetin bo'lishiga qaramay tepalikning ichi issiq bo'lib, Elflar mamlakatida bu odatdag'i hol sana-larkan.

Roland yo'lakning oxirigacha yurib boribdi va temir halqali ikki tavaqali eshikka ko'zi tushibdi. U teginishi bilan eshik lang ochilib ketibdi va bolaning ko'z oldida ko'z ko'rib, qulqoq eshitmagan manzara namoyon bo'libdi: bu haddan tashqari ulkan saroy bo'lib, ulug'verligi va kengligi shunchalik ekanki, ko'm-ko'k tepalikning u chekkasidan bu chekkasini bema'lol bo'ylay olar ekan.

Saroy gunbazini oltin va kumush naqshli qudratli ustunlar ko'tarib turarkan, ustunlar oralig'ida (xoh ishoning, xoh ishonmang!) olmos, yoqut, zumrad, zabarjad, dur, gavhar... singari bir-biridan yorqin tovlanuvchi qimmatbaho toshlardan yasalgan gulchambarlar osig'liq ekan. Baland peshtog'-u ravoqlar, kungura-yu karnizlardagi g'uj-g'uj javohirlar ko'zni qamashtirgudek charaqlarkan. Barcha ravoqlar kelib tutashuvchi qoq o'rtalikda esa ichi g'ovak va sirti shaffof ulkan dur qandil oltin zanjirda zalvor bilan osilib turarkan. Dur qandilning qoq o'rtasi-

da esa ulkan yoqut nur sochib turar, uning nuri tevarak-atrof va devorlarni kechki yal-yal shafaq singari jilolantirib turarkan.

Saroy ichi ayniqsa hayratomuz bezatilgan ekan, huv to'rdagi qirmiziy atlas va shohi matolar bilan cho'g'day qilib yasatilgan taxtiravonda ledi Ellen o'tirarkan va tillarang sochlarini kumush taroq bilan tararkan. Biroq uning chehrasi hamisoli marmar niqobday loqayd va sovuq boqarkan. Roland paydo bo'lganda u loaqal joyida qimirlab ham qo'yamabdi, faqat bo'g'iq, yurakni uvushtiruvchi ovozda quyidagi she'rni o'qibdi:

*Ey soddadil nodon aka, sho'ring qurmasa
Taqdir seni kelarmidi olib bu yoqqa!*

Roland avvaliga yugurib borib singiljonini mahkam bag'riga bosish uchun oldinga talpinibdi, biroq dahshatli so'zlardan so'ng joyida taqqa to'xtab qolibdi. Shunda birdan sehrgar Merlin saboqlarini eslabdi. Uzoq o'ylab o'tirmay ota qili-chini yalang'ochlabdi, ko'zlarini chirt yumibdi-da, qulochlashlab turib ledi Ellen qiyofasidagi bu vasvasning qoq miyasidan solibdi.

U titrab-qaqshagan ko'yi qayta ko'zini ochsa, — o bu qanday baxtl! — ro'parasida singiljoni to'rt muchali sog' holda shirin jilmayib turganmish. Ellening ko'zlaridan quvonch yoshlari mildiray ketibdi, u kenja akasini mahkam bo'ynidan quchoqlab, chuqur hasrat ila ushbu she'rni o'qibdi:

*Oh mehribon, dilkash akajon,
Nechuk tashlab kelding vatanni?
Yuz bor kelmas dunyoga odam,
Uvol etding guldayin tanni!
Singiljoning kuyar sen uchun,
Onajoning faryodi ko'kda.
Kelgan zahot qirol-jodugar
Joning olgay huda-behuda!*

Aka-singil yonma-yon o'tirishib, Roland boshidan o'tganlarini hikoya qilib beribdi, ledi Ellen esa ikkala katta akalarining ham Zulmat minorasiga kelishganini, biroq makkor qirol ularni avrab, tiriklayin tobutga tiqqanini so'zlab beribdi. Hayhot, ko'rgulik ekan, ular sehrgar Merlinning o'gitlarini oxirigacha aniq ado etisholmabdi, singillari qiyofasidagi vasvasa ko'z oldilarida namoyon bo'lgan paytda unga qilich solishga botina olishmabdi.

Ular shu alfovza gaplashib o'tirishibdi, bir vaqt Roland yo'l yurib toliqqanini, qorni qattiq ochiqqanini sezibdi va singlisidan ovqat olib keliшини со'рабди:

Ledi Ellen akasiga ma'yus tikilib qarabdi-yu, biroq lom-mim demabdi, chunki sehr kuchi hali uni butunlay tark etmagan ekan, u o'rnidan turib, oltin laganda non va sut keltiribdi.

Roland non bilan sutga qo'lini uzatibdi, biroq so'nggi daqiqalarda nigohini ko'tarib singlisiga qarabdi va uning ko'zlarida chuqur mulohaza aralash mungli ko'ribdi-yu, sapchib oyoqqa turibdi, non bilan sutli laganni bir urib yerga uchirib yuboribdi va:

— Singiljonim Ellen bilan jigargo'shalarimni ozod qilmagunimcha og'zimga bir tishlam non, bir qultum suv olmayman! — debdi.

Bamissoli momaqaldiroq gumburlagandek, dovul ko'tarilgandek bo'libdi — eshik lang ochilib saroga Elflar qiroli kirib kelibdi.

*Vah-huv! Oh-huv! Uh-huv! Huh-huv!
Odam isi kelmoqda-yu!
Qon-joniga tashnamanu!
Boshin yanchib tashlaymanu!*

debdi qirol qip-qizil ko'zlarini chaqchaytirib, baroq qoshlarini chimirib, aftini qing'ir-qiyshiq bujmaytirib.

— Xo'sh, men tayyorman, kel, olishamiz, shaytondan tarqagan! — deb qichqiribdi Roland. U mo'ljalga bexato uradigan qilichini sug'uribdi-da, oldinga tashlanibdi.

Ular qattiq va uzoq olishibdi, oxiri Roland elflar qirolini tiz cho'kdirib, shafqat so'rashga majbur etibdi.

— Singiljonimni sehr-jodudan xalos qilsang, og'alarimni ozod etsang va barchamizni sog'-salomat bu yerdan chiqarib yuborsanggina shafqat qilaman, — debdi Roland.

— Roziman, — deb javob qaytaribdi elflar qiroli.

U o'rnidan turib sandig'ini ochibdi-da, ichidan qonday qip-qizil suyuqlik solingen billur shishachani olibdi. Bu suyuqlik bilan u oltin tobutlarda o'likday qimir etmay yotgan og'alarning qulog'i, qovog'i, burun kataklari, lablari va hamoq uchlarini ho'llab chiqibdi. Og'alar ko'zlarini ochib, hech narsa bo'limgandek o'rinalidan turishibdi.

Jodugar qirol duo-afsun o'qib, ledi Ellenni jodudan xalos qilibdi. Uch aka-uka suyuqli singiljonlari bilan ol shafaq nuriga chulg'angan ulkan saroy ichidan chiqishibdi-da, tillarang cho'yan va shishasimon qotishma qoplamlari jimirlab turgan yo'lakdan chiqishibdi, Zulmat minorasining zalvorli darvozalari g'iytillab ochilibdi-da, ular erkinlikka chiqishibdi.

Uch aka va singil mehribon qirolicha onalari bag'riga qaytib kelishibdi, shundan buyon ledi Ellen cherkovni teskari aylanib o'tmaydigan bo'libdi.

SHOTLAND XALQ ERTAGI



SULI NONI

Daryo bo'yidagi mo'jazgina uyda bir chol bilan kampir yashar ekan. Ularning bisotida ajabtovur mol-mulk bor ekan: ikkita sigir, to'rtta tovuq, bitta xo'roz, bitta mushuk va ikkita mushukvachcha.

Chol sigirlarga qararkan, xo'roz tovuqlarga, mushuk esa oshxonaga kirib ketmasin deb sichqon poylarkan, kampir bo'lsa olov yonida o'tirib, urchuqda yung ip yigirarkan, ko'pincha mushukvachchalar sho'xlik qilib noxosdan kampirning urchug'iga ilashib qolishar, kampir bo'lsa jahl bilan ularni: «Pisht-e, harom qotgurlar!» deb haydar, mushukvachchalar nariga qochib borib, tag'in bir-biri bilan o'ynab ketishar ekan.

Nima bo'libdi-yu, kampir qari cholini bir suli noni bilan siylashga qaror qilibdi. U ikkita nonni pishirib, sovisin deb stolga qo'yib qo'yibdi. Chol kiribdi, stolga o'tiribdi, nonlardan birini olibdi, sindirib, og'ziga solibdi. Buni birinchi non ko'rib, tiraqaylab qochib qolibdi! Kampir urchuq kalavasini qo'lida tutgancha nonning ortidan quvibdi — qayoqda, non allaqachon qorasini o'chirib bo'lgan ekan!

Non qochib ketaveribdi, ketaveribdi, oxiri tominga poxol bosib yopilgan chiroyli uyg'a duch kelibdi. Eshikdan otilib kiribdi va ko'zi taxtada kiyim bichib o'tirgan uch nafar bichiqchiga tushibdi. Nonni ko'rib bichiqchilar ning jon-ponlari chiqib ketibdi va bekaning ortiga bekinib olishibdi. Beka o'choqboshida tovani qirib o'tirgan ekan.

— Nimadan buncha yuragingiz yorilmasa? — debdi u. — Bu suli noni-ku. Darrov ushlanglar uni, har biringizga sut bilan bir burdadan beraman.

Beka qo'lida tova bilan, bichiqchi dazmol bilan, ikkala dastyorining biri qaychi, biri igna bilan nonni tutib olgani tashlanishibdi. Non ularga chap berib, o'choq ortiga sakrabdi. Dastyorlardan biri qaychi bilan qisib olaman deb o'choqdagi qo'rga ag'darilibdi. Bichiqchi dazmol bilan hamla qilibdi, beka tovasi bilan to'sibdi, biroq birortasi ham nonni tutolmabdi.

Non lip etib eshikdan chiqibdi-yu, orqasiga qaramay qochib qolibdi. Qochib ketaveribdi, ketaveribdi, yo'l bo'yidagi bir kapaga duch kelibdi. Asta eshikdan mo'ralab qarasa, bir to'quvchi dast-gohi oldida turibdi, xotini esa ipni o'rayapti.

— Tibbi! — deb chaqiribdi to'quvchi xotini-ni. — Qara, anovi nima?

— Suli noni, — javob qaytaribdi xotini.

— Juda paytida kepqoldi-da, bugun bo'tqang suyuqroq bo'lib qolgandi. Qani, ushla uni, xotin-jon!

— Uni ushslash koshki oson bo'lsa! — javob beribdi xotini. — O'lguday chars! O'zing tuta qol, Villi!

Biroq non eshik ortiga lip etib o'tibdi-yu, oyog'ini qo'liga olib qochib qolibdi. Shu qochgandan bir shinamgina uyga duch kelibdi, unda bir sarishtalikkina beka o'tirgan bo'lib, kuv pishayotgan ekan.

— Kel, kelaver, jonginam! — debdi orasta beka suli noniga ko'zi tushib. — Nonga yog' surib yemoqchiyidik, xudo o'zi yetkazdi.

Non tutqich bermay o'zini goh u yoqqa, goh bu yoqqa tashlabdi, sarishta beka ham uni tutaman deb, o'zini har yoqqa urgan ekan, sal bo'lmasa kuvni ag'darib yubora yozibdi. Non esa lip etib eshikdan chiqibdi-yu, qiyalikdan to'g'ri

daryo tomonga o'mbaloq oshib dumalay ketibdi. Shu dumalaganicha tegirmonga boribdi, u yerda tegirmonchi g'alvirda bug'doy tozalayotgan ekan.

— Nasibani qaranglar! — debdi u. — Nonlar o'zi oyog'i bilan yurib kelayapti. Bu yaxshilik alovmati. Suli nonini ayniqsa pishloq bilan tushirishni xush ko'raman. Qani, beri kel-chi, jonivor, juda yaxshi qilibsan, menikida tunab qolasan.

Biroq non quvnoq tegirmonchinikida zinhor tunamoqchi emas ekan. U shart orqasiga burilibdi, qochib qolibdi. Tegirmonchi faqat qo'lini silkitibdi, xolos: oq yo'l, suli nonil!

Non termirchi ustaxonasiga borib qolibdi. U yerda temirchi bosqon oldida turib, taqaga mix urayotgan ekan.

— Juda zo'r bo'ldil — debdi temirchi. — Shunaqa kusirlagan suli nonini ko'nglim tusab turgan edi-yal

Uning gapini eshitib suli nonining yuragi shuv etib ketibdi va g'irra iziga qaytib jonining boricha qochishga tushibdi. Temirchi esa chaparasta so'kingancha orqasidan bolg'asini g'irillatibdi, yaxshiyamki bolg'a mo'ljalga borib yetmabdi.

Chopib ketaveribdi, ketaveribdi, bir vaqt non yonida bir uyum torf yotgan pastak uyga duch kelibdi. Eshikdan bosh suqib qarasa, ichkarida dehqon boltasini qayrayotibdi, beka esa kanob chiyratayotibdi.

— Qara, Jenni, non! — debdi er. — Shartlashdik, yarmi menga.

— Bo'pti, shartlashdik, menga ham yarmi. Boltangni irg'it unga, Jon!

Biroq non boltaga chap berib qolibdi.

— Hali shunaqami! — chiyillabdi beka va savag'ichni unga qarab uloqtiribdi.

Biroq non abjirroq chiqibdi. Lip etib ostonadan hatlab o'tibdi-yu, qo'shni uyga qochib o'tibdi. U

yerda uy egasi o'tirib olib kanopdan sigirlarga no'xta qilayotgan ekan, uning xotini esa o'choq oldida tert qorayotgan ekan.

— Hoy Jok! — debdi xotini. — Nuqlul non pishir deganining-degan. O'sha nondan bittasi orqangda turibdi. Ag'rayma, tez tut!

— Qani u, onasi?

— Hov anal Chop, ushla tezroq!

Jok nonga tashlangan ekan, non o'zini peshtaxta tagiga uringdi. Uy egasi qoqilib, cho'zilib qolibdi, non bo'lsa eshikka yuguribdi. Beka kapgirni vizilatibdi, biroq kech bo'lgan ekan. Non ostonadan, so'ng butalar orasidan o'tib xandaq orqali narigi xonadonga kirib boribdi. U yerda butun oila kechki ovqatga o'tirgan bo'lib, beka likopchalarga bo'tqa tortayotgan ekan.

— Qaranglar, non isingani kiribdi!

— Eshikni yopinglar, — buyuribdi xonadon sohibi. — Hozir uni tutib olamiz.

Bu gap qulog'iga chalinishi hamon non juftakni rostlab qolibdi. Faqat orqasidan qoshiqlar va yana erkak kishining shlyapasi uchib kelibdi. Non keyingi uyga qochib kirgan ekan, u yerda uxlagani yotishayotgan ekan.

— Bu nima bo'ldi? — hayron bo'libdi uy egasi.

— Non, — deb javob beribdi xotini.

— Yarmini yeb tashlardim..

— Menga ham bir tishlamgina bo'lsaydi!

— Ushla, uni ushla!

Uy egasi mo'ljalga ola boshlabdi va sal bo'lmasa kurtkasi bilan bosib qolayozibdi.

Biroq non baribir sitilib chiqibdi-yu, ura qochib qolibdi, orqasidan ishtonsiz holicha uy egasi yuguribdi. Ammo lekin buta va o'nqir-cho'nqirlardan shunaqangi qoyilmaqom qilib chopibdiki, qo'yaverasiz! Oxiri uy egasi qolib ketibdi — uyiga ikki qo'lini burniga tiqib qaytib ketishga majbur bo'libdi. Bungacha hammayoqni zim-ziyo

qorong'ilik chulg'ab olibdi. Hech narsa ko'rinxmay,
non qayoqqa borishini bilmabdi. U yoq-bu yoqqa
paypaslanib borib-kelib tulki iniga duch kelibdi.

— Xush kelibdilar, — debdi tulki va «Hap» etib
nonni yutib yuboribdi.

Tinmasang tinarsan deb shuni aytsalar kerak-
da? Tag'in ham bo'lsa, bilmadik...



IRLAND XALQ ERTAGI



SHOIR SHONAXAN VA MUSHUKLAR SHOHI

Qadim zamonlarda Irlandiyada shoirlarni (ularni bardlar deb atashardi) g'oyatda sharaflar va hurmat qilarkanlar. Chunki xoh shoh bo'lsin, xoh gado, shoirlar o'z she'rлarida har qanday kishini yo ta'rif-u tavsif qilar yoki hajv qilar ekanlar-da. Nomus va yaxshi nom o'sha zamonlarda ayniqsa hamma narsadan yuksak qadrlanar ekan.

Kunlarning birida qirol Konnaxta Guairi uyida katta ziyofat beribdi. Bu ziyofatga u son-sanoqsiz olim odamlarni, donishmand va kitobsevarlarni, xonanda va sozandalarni, yana uch karomatgo'y kampir — Grux, Grax va Grangaytni, dohiylar-u zodagonlarni, Irlandiyaning nom qozongan barcha shoir-u shoiralarini taklif qilibdi. Qirol Guairining yozgan dasturxoni shu qadar mo'l-ko'l va to'kin bo'libdiki, hali bu damgacha uning saroyiga olib boruvchi qadimgi yo'lni «To'qchilik yo'li» deb atashadi.

Ziyofat uch kecha-yu uch kunduz davom etibdi. Qirolning mehmonlari yeb-ichishibdi, xushchaq-chaqlik qilishibdi, ajoyib surudli navolardan tinglashib, huzur qilishibdi. Faqat taniqli bard Shonahangina na ovqatga, na ichkiliklarga qo'l urgancha qovog'ini solib jim o'tiraveribdi. Qirol Guairining bundan g'oyat taajjubi ortibdi va o'z xizmatkorlaridan berib yuborgan sarxil-sarxil taomlar va shirinliklarni shoir har safar zarda bilan qaytarib yuboraveribdi. «Bu menga yoqmaydi», — der ekan u qirolning odamlariga va Guairi bundan unga sayin diqqat bo'lib, tashvish-lanaveribdi. Qirol Shonaxan uning ziyoftatini

biron ta she'rida hajv qilishidan va bu bilan uning sha'nini yerga urib, umrbod odamlar yuziga qarolmaydigan qilib qo'yishidan qo'rqrar ekan.

Nihoyat ziyofatning uchinchi kuni qiroq Guairi o'z qizidan Shonaxanga oltin laganda ajoyib taom — bug'doy pirogi bilan qaynatilgan losos balig'ini berib yuboribdi. Biroq bard bu gal ham taomni qaytarib yuboribdi.

— Bu menga yoqmaydi, — debdi u.

— Sizga qanday taom xush yoqadi, o olajanob bard? — deb so'rabdi qiroq qizi.

— Menga qo'ndoqdagi tovvuqning hozir tuqqan tuxumi yoqadi, — javob beribdi bard.

Qiz chiqib, tezda qaytib kelibdi.

— U yerda tuxum yo'q ekan, janoblari.

— Demak, uni sen yeb qo'ygansan, — g'azab bilan debdi Shonaxan.

— O yo'q, janoblari, tuxumni sichqonlar o'marib ketishgan va yeb qo'yishgan, — deb javob beribdi qiroq qizi.

— Shunaqa del — debdi bard. — Unda men sichqonlar haqida achchiq qo'shiq to'qiyan.

Shunday deb u sichqonlar haqida shunaqangi zaharxanda va kulgili qo'shiq kuylabdiki, o'sha zahotiyoy qigirmatacha sichqon uyatdan til tortmay o'libdi.

— Bu yaxshi, — debdi Shonaxan, — ammo bunda mushukning ham aybi oz emas. Axir sichqonlardan qo'riqlash uning burchi va vazifasi ga kiradi-ku. Men barcha mushuklar avlodiga va eng avvalo Aruzaning o'g'li, mushuklar shohi Geruzan sha'niga sharmandali she'r to'qiyan, zero barcha qo'l ostidagilarning qilmishlari uchun aynan u javob beradi.

Shundan so'ng Shonaxan quyidagi she'rni o'qibdi:

Iruzan, Iruzan, ko'zing qayoqda?

Sichqonni gochirib yubording, ovsar!

Ko'rdingmi, ustingdan kulishin uning!

Dumingni changalla uyatdan, e g'ar!

*Qani, ayt, qayoqda qulog'ing uchi?
Sassiqkuzan uzib oldi desang-chi,
Chinoqquloq oting mushuklar shohi,
Kalamush joniningni olgandir, yohu!*

O'z g'orida bu ta'nalarni eshitib Iruzan xotini Tezdandonaga, ukalari Xurraq va Miyovakka hamda qizi Uchqunko'zga shunday debdi:

— Shonaxan men haqimda masxarali qo'shiq aytdi, men undan qasos olaman!

— Uni tiriklayin olib kel bu yerga! — g'azab bilan tishlarini g'ichirlatib debdi Tezdandona. — U o'z qilmishi uchun javob beradi.

Shunday qilib, qirol Guairinikida ziyofat ayni qizg'in pallaga yetganda xuddi pechkadagi olovning gurillashiga o'xshab birdan vahimali vi-shillash va yaqinlashib kelayotgan guvillash ovozi eshitilibdi-da, ichkariga bahaybat mushuk bostirib kiribdi. Uning kattaligi naq buqachaday kelarkan, vahshiyona yuz-ko'zi g'azabnok, o'zi chinoqquloq, burni tanqaygan, tishlari so'yloq, quturgan va qasoskor, tirnoqlari changakday o'tkir va ko'zlarichaqnoq. Uning aft-andomi va turq-tarovati ana shunday ekan.

U dabdurustdan bardga tashlanib, qo'lidan tutibdi-da, shartta orqasiga opichib, bir sakrashda ko'zdan g'oyib bo'libdi. Hech kim uning yo'lini to'sishga ulgurmabdi ham.

Shonaxan uni darg'azab Iruzan qiyonoqqa sol-gani o'z g'origa olib ketayotganini anglabdi-da, mushuklar shohini shaxtidan tushirib, insofga kel-tirish uchun nayrang ishlatishga qaror qilibdi. Shuzahoti yangi she'r o'ylab topibdi va madh etuvchi qo'shiq kuylay boshlabdi:

*Iruzan, nechun bu g'azab, o'ch, qasos?
Sher kabi tutibsan mendayin mo'rni,
Naqadar kuchlisani, buyuksak, ulug'.
Dunyo ko'rmagandir sendayin zo'rni.*

*Chaqmoqday chaqqonsan, jasursan, gap yo'q,
Senga bas kelolmas hech kim dunyoda.*

*Aruzan avlodi, ortsin shavkating,
Kalamushkush, umring bo'lsin ziyoda!*

Bunday ajoyib maqtovlardan mushuklar shohining ko'ngli sariyog'day erib ketibdi, qo'shiqchining qo'shig'ini yaxshiroq eshitib olish uchun avval to'xtabdi, oxirigacha eshitib bo'lgandan keyin dumini bir siltab Shonaxanni yerga itqitibdi-da, g'ururdan xur-xur qilgancha iniga qaytib kelibdi.

— Bugungi mo'jizakor xaloskorlik bilan muborakbod etishga ruxsat bering! — debdi shu yerda paydo bo'lib qolgan avliyo Kiaran.

— Ming la'nat bunday kunga! — debdi xunob bo'lib Shonaxan.

— Nega unday deysiz? — so'rabdi avliyo.

— Undan ko'ra bu mushuk meni burda-burda qilib yeb qo'ygani ming marta yaxshi edil! O'shanda hamma gunoh qiroq Guairiga yozilar edi — axir uning la'nati ziyofti deb shunday nayrang ishlatishga majbur bo'ldim-dal!

Bu voqeani eshitib Irlandiyaning barcha zodagonlari va butun xalqi Shonaxanni tag'in ham ko'proq hurmat qiladigan bo'libdi. Qirollar ustistiga uni saroyga taklif qilisharkan, biroq barcha takliflarga Shonaxan rad javobini beribdi va o'zining Bardlar Maskani sari uzlatga chekinibdi.

Vaqtlar o'tib qiroq Guairi bilan yarashibdi va roppa-rosa o'ttiz kun-u o'ttiz kechalik ziyoftat berilibdi. Barcha bard va mashshoqlar to'planishibdi, Shonaxan qudratli dohiylar-u mashhur zodagonlardan ham yuqorida, eng to'rdagi joyda qo'r to'kib o'tiribdi. Dasturxonadagi noz-ne'mat-u taomlarni jannatdan ham qidirib topish amri mahol ekan.

O'sha ziyoftadan qaytishda ko'rsatgan zo'r izzat-ikromi va mehmondo'stligi sharafiga bardlar qirolni o'zlarining ko'plab she'r va qo'shiqlarida ta'rif-u tavsif qilishibdi, bu qo'shiqlar umumiy nom bilan «Olihimmat Guairi» deb atalib, halihamon sevib o'qilar ekan, zero shoirlarning har bir so'zi umrboqiydir.

Mundarija

Rumin xalq ertaklari

Savodxon hayvonlar. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	4
Qizilishton hangomasi. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	5
Ilyana Kosinzyana. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	7
O'n ikki vazir. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	22
Kulbanda Petru. <i>Aziz Boboxon tarjimasi</i>	27
Maymunlar saroyi. <i>Aziz Boboxon tarjimasi</i>	37

Alban xalq ertaklari

Eshak mingan bo'ri. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	44
Ikki qo'chqor bilan bo'ri. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i> ..	47
Farosatli qiz. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	49
Botir Muso. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	55

Yunon xalq ertaklari

Oltin xivich. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	60
Gulqiz. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	66

Italiya xalq ertagi

Po'rtahol malika. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	72
--	----

Ispan xalq ertagi

Qo'shiqchi to'rva. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	82
---	----

Farang xalq ertaklari

Sutli qon. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	86
Burundor amaki. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	94
Uch qilvir. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	100

Olmon xalq ertaklari

Oq ilon. <i>Aziz Boboxon tarjimasi</i>	110
Na'matak qiz. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	115

Qirol Qorayaloq. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	120
Genzel va Gretel. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	126
 Daniya xalq ertaklari	
Bolakay. <i>Aziz Boboxon tarjimasi</i>	140
Ovsar xizmatkor. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	147
 Nederland xalq ertagi	
Xo'rozcha bilan tovuqcha. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	152
 Shved xalq ertagi	
G'ijjakchi bola. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	156
 Norveg xalq ertaklari	
Halol tanga. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	170
Shimol shamolidan un talab qilgan bola.	
<i>Aziz Boboxon tarjimasi</i>	176
 Fin xalq ertaklari	
Enaga tulki. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	182
Omadim bor. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	183
Yaxshi maslahatlar. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	186
 Island xalq ertaklari	
Kidxyus. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	190
Gilittrut. <i>Aziz Boboxon tarjimasi</i>	193
 Ingliz xalq ertaklari	
Vindelstoun darasidagi ajdarho. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	198
Yosh Roland. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	203
 Shotland xalq ertagi	
Suli noni. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	212
 Irland xalq ertagi	
Shoir Shonaxan va mushuklar shohi. <i>Amir Fayzulla tarjimasi</i>	218

Jahon xalqlari ertaklari

GULQIZ

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent — 2006

Muharrir *Erkin Malik*
Rassom *Layla Basharova*
Badiiy muharrir *Bahrom Bobojonov*
Texnik muharrir *Ra'no Boboxonova*
Musahhihlar: *M.Ziyamuhamedova, N. O'rolova*

Terishga berildi 14.05.2005. Bosishga ruxsat etildi 29.12.2005.
Bichimi 84x108'/m. Maktab garniturası. Ofset bosma. Sharlı bosma
tabog'i 11,76. Nashriyot-hisob tabog'i 11,52. Adadi 5.000 nusxa.
Buyurtma № 1736. Bahosi kelishilgan narxda.

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,
700083, Toshkent shahri, Buyuk Turon, 41